PS Public Safety
Salvation is in education

Issue 1 06.2025

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy-amaliy elektron jurnali



№1, 2025

“JAMOAT XAVFSIZLIGI”
ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

BOSH MUHARRIR

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich

TAHRIR HAY’ATI

SAIDOV Akmal Xolmatovich,
yu.f.d., professor, akademik;

DJURAYEV Rustam Mirzayevich,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yu.f.f.d., dotsent, general-mayor;

RUSTAMBAYEV Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yu.f.d., professor polkovnik (bosh muharrir);

TURG‘UNOV Oybek Karimovich,
yu.f.d., professor, podpolkovnik (mas‘ul muharrir);

XO‘JAMBERDIYEV Farrux Komilovich,
yu.f.f.d (PhD), kapitan

MAS’UL MUHARRIR

TURG‘UNOV Oybek Karimovich

MAS’UL KOTIB

XO‘JAMBERDIYEV Farrux Komilovich

“JAMOAT XAVFSIZLIGI”
ilmiy-amaliy elektron jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2022-yil 25-yanvar kunidagi №1507-sonli guvohnomasi bilan ro‘yxatga olingan.

100211, Toshkent viloyati, Chorsu qo‘rg‘oni.
Tel: (71) 230-32-71 Faks: (71) 230-32-50
E-mail: mg_hti@umail.uz

MUNDARIJA
CONTENTS

Адилов С.А. Сравнительно-правовой анализ структурного построения уголовного процесса Республики Казахстан и Республики Узбекистан 5

Ismailov I. O‘zbekistonda ichki ishlar organlar ruxsat berish tizimining zarurati: muammolar va islohatlar tahlili 11

Кайбар М.С. Социально-правовая потребность развития методик расследования транспортных преступлений 17

Axmedov A.A. Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi (masofadan turib nazorat qilish misolida) 22

Ikanov A.A., Xoliqov Sh.A., Alijonov I.R. O‘zbekistonda kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish ... 29

Xo‘jamberdiyev F.K. O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining roli: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar 33

Олейник В.В. Фиксация доказательственной информации по наркопреступлениям, совершенным в сети интернет 41

Mamajonov Sh.T. The social necessity of prosecutorial oversight over the investigation of transport crimes by the ministry of internal affairs 47

Turg‘unov A.A. Sud tergovida prokurorning ishtiroki bilan bog‘liq protsessual muammolar 52

Olimjonov X.M. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarining harbiy xizmatchilarini huquqiy himoyasi bo‘yicha tajribasi..... 58

Boliyev U. Jamoat tartibini saqlashni takomillashtirish orqali mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish 64

Бутунбаев Т.Н. Зарубежный опыт борьбы с незаконным (несанкционированным) доступом к компьютерной информации 67

Kamilxanov J.K. Jazo emas, nazorat: elektron brasletlar orqali ehtiyot chorasini ijro etishning yangi modeli 71

Fozilov I.Y., Jo‘rayev M.U. Yangi O‘zbekiston tamoyillari asosida O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasining takomillashtirish masalalari 75

Alijonov I.R. Aholi yashash joylarida xavfsiz muhitni yaratish bo‘yicha mdh davlatlari tajribasining ilmiy tahlili 79

Axmedov A.A. Ozodlikni cheklash jazosining tarixiy, huquqiy va insonparvarlik asoslari 83

Mamadaliev A.Z. Tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazishda ularga doir huquqni suiiste’mol qilish muammolari 87

Jo‘rayev M.U. Mustaqillik davrida o‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashning ilmiy va huquqiy asoslari 93

Murodov O‘.S. Virtual ekstremizmga qarshi kurashish yo‘llari: huquqiy va amaliy jihatlar tahlili 98

Radjabov U.A. Pora olish jinoyatlariga qarshi kurashish holati va xususiyatlari 102

Саитбеков А.М. Особенности разграничения деятельного раскаяния от других видов освобождения от уголовной ответственности 106

Султанов М.М. Опыт зарубежных стран по регулированию

оперативно-розыскной деятельности правоохранительных органов 111
Raximov B. Tergov hibsxonasida tartibbuzarliklar profilaktikasi 116
Naimov R.X. Xorij mamlakatlarining profilaktik hisobga olish mexanizmini qo'llash bo'yicha tajribasi 121
Умматов М.Т. Правовое регулирование системы общественной безопасности в республике узбекистан 129
Шамсиев А.А. Повышение эффективности прокурорского надзора за производством предварительного расследования 134
Шарипов Ж.С. Социальная необходимость профилактики правонарушений в махаллях на основе классификации по криминогенной ситуации 139
Shermuxamedov A. Maktab o'quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi 144
Xudoyqulov Y.A. Sun'iy intellekt texnologiyasini harbiy sohada qo'llashning ustuvor yo'nalishlari 149
Ibragimov N.M. Xizmat bo'yicha cheklash va intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jinoiy jazolarning boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralari bilan nisbati 154
Aliboyev S.Sh. Temir yo'l transporti ob'ektlarida sodir etiladigan o'g'rilik jinoyatida dalillarni maqbulligini ta'mishda konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati 160
Alimov M.I. Harbiy jinoyat protsessida dalillarni qayd etishning konstitutsiyaviy-huquqiy tahlili 167
Ergasheva Sh.E. Ingliz tilini o'rganishda ko'p yo'nalishli yondashuvni rivojlantirishning nazariy metodologiyasi 174
Абдуллаева А.О. Методологический аспект Simulation-based competency model (SBCM) в инженерном образовании 179
Maxmudov K.R. Risklar va barqarorlik: rezervlash, ALM, likvidlik va qayta sug'urta arxitekturasi 184
Inagamdjanovna Z.F. Protsessual majburlov choralarini qo'llashda sud nazoratining samaradorligini oshirish masalalari 193
Хужамбердиева Л.Х. Механизмы правовой защиты несовершеннолетних 197

I

I. IJTIMOIY SIYOSAT, MA’NAVIY TARAQQIYOT VA MADANIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH

1.1. TOLIPOV Abdug‘affor Abdunabi o‘g‘li, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi boshlig‘i, dotsent, polkovnik;
1.2. MAXMUDOV Rozmet Muratovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori, professor;
1.3. YARASHEV Bobomurod Chalgashevich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik;
1.4. RASULOVA Nodira Sardorovna, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlar nomzodi, dotsent;
1.5. MIRZAYEV Gulom Rizoqulovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kapitan;
1.6. XURSANDOV Alisher Suyunovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Tillarni o‘rgatish kafedrasi boshlig‘i, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik.

II

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH

2.1. URMONOV Jahongir Jaloldinovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi boshlig‘i, iqtisod fanlar doktori, professor, podpolkovnik;
2.2. BOZOROV Akmal Amonovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi professori, iqtisod fanlar doktori, dotsent, mayor;
2.3. SHADMANOV Erkin Sherkulovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi professori, iqtisod fanlar doktori, professor;
2.4. VALIYEV Bobur Batirovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi professori, iqtisod fanlar doktori, dotsent;
2.5. MATYAKUBOV Bekzod Matnazarovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti O‘quv jarayonini nazorat qilish bo‘limi o‘qituvchi-uslubchisi, fizika fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), leytenant.

III

SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH

3.1. TAXIROV Farxod, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor;
3.2. NURMATOV Mirgolib Mirzayevich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, mayor;
3.3. USMANOVA Muborak Akmaldjanovna, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor;
3.4. GAZIYEV Shaxrux Murodaliyevich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, dotsent, kapitan;
3.5. MAXSADOV Maxsatullo Ismatovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik.
3.6. BABAYEV Akmal Abdukarimovich, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik.

IV

QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH

4.1. ZULFIQOROV Sherzod Xurramovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, mayor;
4.2. CHORIYEV Murod Shokirjonovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, mayor;
4.3. AXMEDOVA Muqaddasxon Tursunovna, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, dotsent;
4.4. YULDASHEV Sodiq Oqboyevich, Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi professori,

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
4.5. NIZOMIDDINXODJAYEV Ulug‘bek Ruslanovich, Universitet kotibiyat boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik;
4.6. G‘IYOSOV Bahriddin Hasan o‘g‘li, Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kapitan.

V XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSAT YURITISH

5.1. ISMOILOV Isomiddin, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta‘minlash kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor;
5.2. TASHMANOV Yerjan Baymatovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi boshlig‘i, texnika fanlari doktori, professor, podpolkovnik;
5.3. AZIZOV Sanjar Xanjarovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti boshlig‘i, harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik;
5.4. RAXMONOV Farruh Erkinovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Maxsus taktik tayyorgarlik va jangovar qo‘llash” kafedrasi dotsenti, harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik;
5.5. MAMARASULOV Davronbek Xasanovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xorijiy harbiy kadrlar bilan ishlash fakulteti boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), mayor;
5.6. TURSUNOVA Sabina Ravshanovna, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta‘minlash kafedrasi katta o‘qituvchisi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kapitan.



Адилов Санжар Аскенович
заместитель министра внутренних дел МВД РК,
к.ю.н. генерал-майор полиции

СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ СТРУКТУРНОГО ПОСТРОЕНИЯ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН И РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

В статье представлен сравнительно-правовой анализ структурного построения уголовного процесса Республики Казахстан и Республики Узбекистан. Рассматриваются стадии судопроизводства, включая особенности возбуждения уголовного дела, досудебного производства, судебного разбирательства и процедур обжалования. Особое внимание уделено различиям в подходах к инициации уголовного преследования, роли процессуальных гарантий и механизмам фиксации отказа в возбуждении дела. Установлено, что несмотря на схожесть моделей, правоприменительная практика формирует различный уровень правовой определённости в обеих юрисдикциях. Делается вывод о целесообразности имплементации отдельных институтов с учётом национальных реалий и принципа публичности уголовного процесса.

Ключевые слова: уголовный процесс, сравнительный анализ, досудебное расследование, стадийность, правовая определённость, Казахстан, Узбекистан

С момента распада СССР и обретения независимости бывшими союзными республиками, судопроизводство Республики Казахстан и Республики Узбекистан в основу построения уголовного процесса взяли основные институты ранее действующего законодательства, адаптировав его применительно к потребностям вновь образованных независимых и суверенных государств. В этой связи структура уголовно-процессуальной деятельности не претерпела существенных изменений, основываясь на стадийности построения всего процесса судопроизводства. Однако, несмотря на общие корни, со временем многие положения, составляющие содержание уголовного процесса, также как и его стадий, в обоих государствах стали приобретать индивидуальные признаки, позволяющие рассматривать их как присущие только конкретно взятому государству. Между тем общие исторические границы и сложившиеся миграционные процессы, глобализация цифрового пространства, все более укрепляющееся экономическое и иное сотрудничество между Республикой Казахстан и Республикой Узбекистан, породили ряд негативных факторов, к числу которых можно отнести и неизбежный рост преступных проявлений, связанных как с пребыванием граждан обоих государств на сопредельных территориях, так и с правонарушениями, совершаемыми одновременно в государствах, чья юрисдикция[1] в настоящее время не всегда совпадает. Подобное положение вызывает необходимость сравнительно-правового исследования структуры судопроизводства Республики Казахстан и Республики Узбекистан в целях уяснения пригодности (допустимости), собранных на различных стадиях уголовного процесса материалов проводимого расследования, имеющих значение для правильного и справедливого судебного разрешения возникшего в результате совершенного правонарушения правового спора между публичными интересами суверенных государств и частными интересами населяющих их гражданами.

Как уже отмечалось, стадийное построение уголовного судопроизводства присуще обоим государствам[2]. В Республике Казахстан законом предусмотрено 8 стадий (5 основных, 2 дополнительных и 1 исключительная).

В отличие от Республики Казахстан в Республике Узбекистан судопроизводство состоит из 10 стадий (5 основных, 4 дополнительных и 1 исключительная):

РЕСПУБЛИКА КАЗАХСТАН	РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
1. Стадия начала досудебного расследования. Глава 23 УПК 2. Досудебное производство и предание обвиняемого суду прокурором. Глава 24 УПК 3. Подготовка и назначение главного судебного разбирательства. Предварительное слушание. Глава 41 УПК 4. Главное судебное разбирательство и постановка приговора. Глава 42 УПК 5. Апелляционное производство - глава 48 УПК 6. Исполнение приговора - Глава 51 УПК 7. Производство по пересмотру решений суда, вступивших в законную силу (Кассационное производство) - раздел 10 УПК 8. Возобновление дел по вновь открывшимся обстоятельствам - Глава 53 УПК	1. Стадия возбуждения уголовного дела - глава 41 УПК 2. Досудебное производство - раздел девятый УПК 3. Подготовка уголовного дела к судебному разбирательству - глава 49 УПК 4. Предварительное слушание по уголовному делу- глава 49.1 УПК 5. Главное судебное разбирательство и постановка приговора - глава 50 УПК. 6. Апелляционное производство - глава 55.1 УПК. 7. Исполнение приговора - раздел двенадцатый УПК 8. Кассационное производство- глава 56 УПК 9. Обжалование приговора в ревизионном порядке - глава 56.2 УПК 10. Надзорное производство - глава 57 УПК

К дополнительным (факультативным) стадиям в Республике Казахстан закон относит апелляционное и кассационное производство, поскольку необходимость в них возникает только в случаях несогласия сторон с вынесенным решением суда первой инстанции. Апелляционное производство распространяется на приговоры, не вступившие в законную силу, а кассационное – на приговоры, вступившие в законную силу. К исключительной стадии относится стадия возобновление дел по вновь открывшимся обстоятельствам, влекущим несостоятельность вступившего в законную силу приговора. Например, установление незаконного осуждения вследствие самооговора или незаконных методов ведения следствия.

В Республике Узбекистан к факультативным стадиям относятся стадии предварительного слушания, апелляционного и кассационного производств, обжалование приговора в ревизионном порядке. К исключительной стадии относится надзорное производство.

При этом следует отметить, что и в Республике Казахстан, так и в Республике Узбекистан в отношении органов и должностных лиц уголовного судопроизводства действует ограничительное правило, согласно которому они могут осуществлять лишь те действия и принимать лишь те решения, которые прямо установлены в УПК. Указанные правила в рамках конкретных стадий уголовного процесса содержатся в функциях (основных направлениях деятельности), которыми наделяется суд и органы уголовного преследования (прокурор, следователь, дознаватель, орган дознания).

Для каждой стадии характерен особый круг участников, одну часть которых представляют государственные властные органы и их должностные лица, а вторую часть- физические и юридические лица, вовлеченные в уголовный процесс посредством совершенного правонарушения. Поэтому каждая стадия содержит только присущие ей задачи, а деятельность органов судопроизводства проводится только в рамках предписаний закона, отступление от которого может повлечь либо их недопустимость, либо стать основанием для обжалования и пересмотра принятых решений.

Основным критерием, позволяющим



определить границы каждой стадии в обоих государствах, выступает то, что каждая стадия выступает подготовительной по отношению к последующей, а та, в свою очередь, является проверочной к предыдущей. Переход из одной стадии в другую возможен лишь при полном выполнении поставленных перед стадией задач и вынесении об этом итогового процессуального решения.

Как видно из приведенной выше таблицы, стадийное построение уголовного процесса в обоих государствах существенно не отличается, поскольку их содержание практически отображает одни и те же этапы прохождения уголовного дела. Несмотря на различия в количестве и наименованиях, можно констатировать, что все они в обоих государствах имеют общую цель: установление истины, для достижения которой весь процесс судопроизводства направлен:

- на исключение необоснованного (незаконного) начала уголовного преследования;
- объективного и полного расследования в досудебных и судебных стадиях в условиях процессуального равенства и состязательности сторон;
- возможность обжалования решений, с которыми не согласны стороны и их судебное разрешение.

Существенное различие относится лишь к началу досудебного расследования. В отличие от Республики Узбекистан, в Казахстане начало расследования связано не с вынесением официального решения органа уголовного преследования, а с обязательной регистрацией выявлен-

ного правонарушения в Едином Реестре уголовных дел. В этой связи в Казахстане доследственная проверка не носит обязательного официального характера (как это предусмотрено в Узбекистане) и поэтому возникают трудности правоприменения, особенно в ситуациях, когда без ее проведения сложно определить преступность рассматриваемого деяния, т.е. его правовую квалификацию. Подобное положение, в свою очередь, влечет излишнюю бюрократизацию процесса расследования, особенно, если его результат ведет к прекращению производства за отсутствием события или состава правонарушения. В Республике Казахстан материал, не подлежащий регистрации просто списывается в наряд без процессуального оформления принятого решения. Согласно п. 5 и п. 14 пп. 1), 3), 6) части 2 приказа Генерального прокурора РК от 19 сентября 2014 года за №89 в ситуациях, предусмотренных ч.4 ст.179 УПК РК, не требуется регистрации в книге учета информации с последующим переносом в ЕРДР, а о принятом решении автору письменного обращения дается письменный ответ[3]. Тем самым заявитель лишь уведомляется о непринятии его просьбы о начале досудебного расследования без соблюдения процессуальных гарантий со стороны государства, т.е. возникает правовая неопределенность в предоставлении возможности полной реализации принадлежащих ему и гарантированных Конституцией РК прав. Между тем отказ к началу досудебного расследования должен носить не формальный, а материальный характер - в виде отдельного постановления (как это предусмотрено в Республике Узбекистан), т.к. в этой ситуации государство, в лице соответствующих должностных лиц, отказывается от взятых на себя обязательств, вытекающих из принципа публичности уголовного процесса и приоритет должен отдаваться гарантиям прав личности, а не гарантиям правосудия, обеспечивающим контроль над преступностью. Поэтому при отказе к началу досудебного расследования необходимо на уровне закона закрепить положение об обязательности вынесения правового акта (постановления), исключающего начало производства и, соответственно, появления уголовного дела. Только в этом случае постановление об отказе к началу досудебного расследования будет рассматриваться как безусловное процессуальное основание для возникновения административных, гражданско-правовых или иных отношений, сопряженных с судопроизводственными гарантиями обжалования принятого решения. Полагаем, что именно эти проблемы обусловили то, что судопроизводство Узбекистана первой стадией уголовного процесса оставило стадию возбуждения уголовного дела (гл.41 УПК), обязательный характер которой позволяет прокурору, следователю, органу дознания, судье или суду обоснованно разрешить вопрос о наличии повода и основания для начала производства по делу, которое возбуждается при обнаружении признаков преступления. На наш взгляд, существующий в Узбекистане механизм начала досудебного расследования более отвечает законности его запуска, поскольку не только препятствует порой необоснованному возбуждению уголовного дела, но и содержит официальное основание к его отказу в выносимом об этом постановлении.

Для более полного понимания структуры судопроизводства, следует также отметить, что стадийное построение уголовного процесса предусматривает и ряд уголовно-процессуальных производств, которые могут содержаться как в рамках одной стадии, так и в пределах нескольких. Необходимость деления на производства обусловлена особенностями предмета и способов доказывания, особенностями процессуального статуса отдельных участников, а также особенностями принятия некоторых итоговых процессуальных решений. В УПК РК предусмотрена следующая система производств.

В отличие от Казахстана, в Узбекистане ускоренные производства по существу являются одним из видов прекращения уголовного дела либо за отсутствием жалобы потерпевшего, либо в силу заключения соглашения с прокурором, либо в силу акта амнистии со стороны государства[4]. Тем самым можно констатировать, что в Казахстане предусмотрен более гибкий механизм ускорения судопроизводства, гарантией законности

Виды производств в РК

Ускоренное производство	Обычное производство	Усложненное производство
1. Производство по делам частного обвинения – гл.47 УПК РК; 2. Производство по делам об уголовных проступках - глава 55 УПК РК; 3. Протокольное производство – гл.55 УПК РК; 4. Ускоренное досудебное расследование – ст.190 УПК РК; 5 Приказное производство – раздел 13-1 УПК РК; 6 Производство по делам, по которым заключено процессуальное соглашение – раздел 13 УПК РК; 7. Согласительное производство в суде – гл.64 УПК РК.	1. Досудебное производство по уголовному делу – раздел 6 УПК РК; 2. Производство в суде первой инстанции – гл.41-46 УПК РК.	1. Производство по делам с участием присяжных заседателей – раздел 14 УПК РК; 2. Особые производства (по делам о применении принудительных мер медицинского характера к невменяемым – гл. 54 УПК РК; по делам об уголовных правонарушениях несовершеннолетних гл. 56.; по делам лиц, обладающих привилегиями и иммунитетом от уголовного преследования- гл. 57 УПК РК; производство о конфискации до вынесения приговора - раздел 15 УПК РК).

Виды производств в Республике Узбекистан

Ускоренное производство	Обычное производство	Усложненное производство
1. Производство по делам о примирении- глава 62 УПК. 2. Соглашение о признании вины глава 62.1 УПК. 3. Применение акта амнистии на стадии досудебного производства- глава 63 УПК.	1. Досудебное производство - раздел девятый УПК; 2. Производство в суде первой инстанции – глава 49-55.1 УПК.	1. Особые производства (производство по делам о преступлениях несовершеннолетних - глава 60 УПК; производство по делам о применении принудительных мер медицинского характера глава 61 УПК).

которого выступает суд, разрешающий дело по существу.

Изложенное позволяет прийти к выводу о том, что имеющиеся различия в структурном построении уголовного процесса не влияют на общие подходы к построению процесса расследования и разрешения уголовных дел и не являются препятствием как для применения в обоих государствах полученных на территории разных суверенных государств материалов расследования, так и для имплементации некоторых процессуальных институтов с последующей их адаптацией в отечественное законодательство.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Юрисдикция (лат. Jurisdictio - судопроизводство, от jus - право и dico - говорю):
1) установленная законом совокупность правомочий соответствующих государственных органов разрешать правовые споры и дела о правонарушениях, оценивать действия лица или иного субъекта права с точки зрения их правомерности либо неправомерности, применять юридические санкции к правонарушителям. Ю. определяется по различным признакам: вид и характер разрешаемых дел (преступления, проступки; имущественные споры и т.д.); территориальная их принадлежность (рассмотрение уголовного дела судом по месту совершения преступления, гражданского дела – по месту жительства ответчика); участвующие в деле лица (подсудность военнослужащих военным судам);
2) территория в подведомственности определенного органа власти;
3) отправление правосудия, а также иная деятельность государственных органов по рассмотрению споров, дел о правонарушениях и применению санкций.
Большой юридический словарь. Академик.ру. 2010.
2. Стадия уголовного процесса - это совокупность процессуальных действий и решений, объединенных общей задачей, и завершаемых выводами по делу, принимаемыми компетентными органами. Каждая стадия создает предпосылки для успешной деятельности на последующих стадиях: Уголовный процесс Республики Узбекистан //Учебник - Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 2001.-С.10
3. Приказ Генерального Прокурора Республики Казахстан от 19 сентября 2014 года № 89 // Об утверждении «Правил приема и регистрации заявлений и сообщений об уголовных правонарушениях, а также ведения Единого реестра досудебных расследований» // Режим доступа:: http://adilet.zan.kz/rus/docs/V14W0009744
4. Уголовный процесс Республики Узбекистан. Учебник - Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 2001. -С.10

Isamiddin Ismailov
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universtiteti professori
yuridik fanlar doktori, professor
isomiddinosmoilov@gmail.com

Davron Kasimov
O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi Departamenti Jamoat tartibini saqlash xizmati bo‘lim boshlig‘i
kasimovdavron80@gmail.com

O‘ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANLAR RUXSAT BERISH TIZIMINING ZARURATI: MUAMMOLAR VA ISLOHATLAR TAHLILI

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziyalash tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, huquqiy asoslari hamda sohadagi islohotlar tahlil qilinib, uning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlari tadqiq etilmoqda.

Kalit so‘zlar: Ichki ishlar organlari, nazorat-litsenziyalash faoliyati, jamoat xavfsizligi, davlat nazorati, huquqiy islohotlar, qurol muomalasi, ruxsat berish tizimi, litsenziyalash, ma’muriy huquq, xavfli faoliyat turlari, ichki ishlar tizimi.

В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития системы контроля и лицензирования органов внутренних дел Республики Узбекистан, её правовые основы, а также проводимые реформы в данной сфере. Проанализирована роль этой системы в обеспечении общественной безопасности и определены перспективные направления её дальнейшего развития.
Ключевые слова: органы внутренних дел, контрольная и лицензирующая деятельность, общественная безопасность, государственный контроль, правовые реформы, оборот оружия, разрешительная система, лицензирование, административное право, виды опасной деятельности, система внутренних дел.

This article examines the stages of formation and development of the control and licensing system of the internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan, its legal foundations, as well as the reforms carried out in this area. The role of this system in ensuring public safety is analyzed, and future directions for its development are identified.
Keywords: internal affairs bodies, control and licensing activities, public safety, state supervision, legal reforms, arms circulation, permit system, licensing, administrative law, hazardous activities, internal affairs system.



Ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziyalash tizimi davlat boshqaruvining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, xavfli faoliyat turlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda tashkiliy-huquqiy mexanizm sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur institutning shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanishini huquqiy hamda tarixiy nuqtai nazardan uning tashkiliy-huquqiy bazasini har tomonlama o‘rganish, shuningdek, amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg‘un holda chuqur tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining barcha tarixiy rivojlanish bosqichlarida qurol va portlovchi moddalar muomalasini tartibga solish hamda ushbu faoliyatni nazorat qilishda ruxsat berish choralarini qo‘llash huquqni muhofaza qilish sohasidagi samarali davlat ta’sir choralaridan biri sifatida xizmat qilgan va jamoat tartibi hamda xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Bu jarayonda ruxsat berish chora-tadbirlarining amaliyotga joriy etilishi davlat tomonidan litsenziyalash va ruxsat berish tizimining shakllanishiga huquqiy asos va amaliy zarurat sifatida xizmat qilgan.

Litsenziyalash va ruxsat berish tizimi — belgilangan qonunchilik asosida tartibga solinadigan, faqat tegishli litsenziyalar va ruxsatnomalar orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlarini davlat nazorati ostida yuritishga qaratilgan kompleks tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni o‘zi ichiga olakdi. Ushbu tizim foydalanish, saqlash yoki muomalasiga maxsus tartib belgilangan predmet va moddalar bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ talablar, huquqiy standartlar va ma’muriy shartlar, shuningdek ularga rioya etilishini ta’minlovchi institutsional tuzilmalar majmuidan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi 1991 yilda mustaqillikka erishgach, davlat suverenitetining mustahkamlanishi, iqtisodiy va ma’naviy tiklanish hamda rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘yildi. Mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilgan tizimli islohotlar ichki ishlar organlari faoliyatida ham o‘z aksini topdi. Jumladan, iqtisodiy munosabatlardagi tub o‘zgarishlar, xilma-xil mulkchilik shakllarining yuzaga kelishi va texnik taraqqiyot yangi turdagi jinoyatlar sodir etilishini taqozo etuvchi omillarning ko‘payshiga olib keldi. Bu esa, o‘z navbatida, huquqbuzarliklar va jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirish, ichki ishlar organlarining tashkiliy-huquqiy tuzilishi va faoliyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish, ularning vazifalarini zamonaviy talablar asosida aniq belgilash va faoliyatini yagona vertikal boshqaruv tizimi asosida muvofiqlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Bu sohada islohotlarni amalga oshirish maqsadida 1991 yil 25 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 270-sonli qaroriga [10] muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risidagi Nizom hamda uning markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi. Shuningdek, jamoat tartibini ta’minlash bo‘yicha maxsus vakolatli tuzilma — Jamoat tartibini saqlash xizmati tashkil etildi va uning tarkibida Ruxsat berish tizimi bo‘limi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu qaror bilan, ichki ishlar organlari ruxsat berish tizimiga: birinchidan, qonunchilikka muvofiq o‘t ochish va sovuq qurollar, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar, kuchli ta’sir etuvchi zaharli, narkotik va radiaktiv moddalarni sotib olish, saqlash va tashishni, o‘q otish tirlari va otishma joylarini, qurol-yarog‘larini tuzatish va pirotexnika korxonalari, ov va sport qurollari bilan savdo qiluvchi do‘konlarni ochishni va ularning ishlarini nazorat qilib borish; ikkinchidan, belgilangan tartibda poligrafiya hamda shtempel-gravyura korxonalarini ochish va ularning ishini, shuningdek, poligrafiya asbob-uskunalarini sotib olish hamda muhr va shtamplarni tayyorlashni nazorat qilib borish vazifalari yuklatildi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘sha vaqtda matbaa uskunalarini hisobga olish va ulardan foydalanishni nazorat qilish, xavfsizlik talablariga rioya qilish va matbaa korxonalari xodimlarini tekshirish tartibi sobiq Ittifoq davlati 1978 yil 13 fevraldagi 34-son buyrug‘i [11] asosida amalga oshirilgan.

Shuni alohida qayd etish joizki, iqtisodiyotni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan sobiq ittifoqdan saqlanib kelayotgan bir qator ruxsat berish tartiblari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 25 avgustdagi PQ-1604-son qaroriga [7] muvofiq bekor qilingan. Mazkur qarorga asosan 2011 yil 1 sentyabrdan boshlab Ichki ishlar vazirligi tomonidan quyidagi amalga oshiriladigan ruxsat berish tartibotlari bekor qilindi:

poligrafiya korxonasi ochish va faoliyat

yuritishga ruxsatnoma [qarorga 1-ilovaning 41-bandi];

tamg‘a-o‘ymakorlik ustaxonalari ochish va faoliyat yuritishga ruxsatnoma [qarorga 1-ilovaning 42-bandi];

poligrafiya asbob-uskunalari xarid qilishga ruxsatnoma [qarorga 1-ilovaning 43-bandi].

Respublikamiz o‘z mustaqilligiga erishganidan so‘ng mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida amalga oshirilgan islohotlar, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish, dunyo hamjamiyati bilan uyg‘un rivojlanish tamoyillari asosida ichki ishlar organlari tizimida ham tub islohotlar o‘tkazilib kelinmoqda. Ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziya tizimi sohasida amalga oshirilgan islohatlarni bir necha bosqichga ajratgan holda tadqiq etishga harakat qilamiz.

Islohotlarning birinchi bosqichi 1999–2001 yillarni o‘z ichiga olib, bu bosqichdagi islohotlarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash konsepsiyasi to‘g‘risida”gi qarori boshlab berdi va 2001 yilning 27 martida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [13; 81, 87-b.] bilan Poytaxtda o‘tkazilgan islohatlarning ijobiy tajribalari respublikaning barcha hududlaridagi ichki ishlar organlari faoliyatiga ham tadbiq etilgan.

Mazkur farmon doirasida islohotlarning ikkinchi bosqichi boshlanib, uning talablarini amaliyotga joriy etish borasida ichki ishlar organlarining yetakchi sohaviy xizmatlaridan biri bo‘lgan Jamoat tartibini saqlash xizmatini qayta tashkil etish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Mahkamasining 2001 yildagi qarori [13; 84-87-b.] qabul qilinishining huquqiy asoslarini yaratib bergan.

Ushbu qarorga muvofiq ichki ishlar organlarining Patrul-post va jamoat tartibini saqlash xizmatlari fuqarolar xavfsizligini, jamoat tartibini saqlash, jinoyatni va huquqbuzarlikni oldini olish tizimida yetakchi o‘rin tutishi belgilanib, Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi - Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi etib qayta tashkil etildi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Jamoat tartibini saqlash boshqarmasining ruxsat berish tizimi bo‘limiga – Saf bo‘linmalarini hududiy muvofiqlashtirish, jamoat tartibini ta’minlash va nazorat-litsenziyalash tizimi faoliyatini tashkil etish boshqarmasining nazorat – litsenziyalash faoliyatini tashkil etish bo‘limi maqomi berildi.

Nazorat-litsenziyalash faoliyatini muvofiqlashtirish yuzasidan sobiq Ittifoq Ichki ishlar vazirligining 1987 yildagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan yo‘riqnoma bekor qilinib, bu sohadagi faoliyatni tartibga soluvchi O‘zbeksiton Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2001 yildagi buyrug‘i qabul qilindi.

Bundan tashqari, o‘qotar qurol va o‘q-dorilar muomlasini nazorat qilish sohasini tartibga solib kelgan sobiq Ittifoq davlati Ichki ishlar vazirligining buyrug‘i o‘rniga, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining buyrug‘i [12] qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning tashabbusi bilan ichki ishlar organlari tizimini tubdan takomillashtirish, aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatish, har bir xodim tomonidan “Xalq manfaatlariga xizmat qilish”ni o‘z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirilishi islohotlar uchinchi bosqichini boshlab berdi.

2016 yilda mustaqil O‘zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor qonun [1] qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo‘nalishlari va tamoyillari belgilab berildi. Xususan, qonunning 4-moddasiga muvofiq nazorat-litsenziyalash faoliyati bilan bog‘liq quyidagi asosiy yo‘nalishlar belgilandi:

fuqaroviy va xizmat qurolining hamda uning o‘q-dorilarining, sanoat uchun mo‘ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarning, ular analoglarining, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lish sohasini nazorat qilish;

litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarini berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilishi.

Shuni alohida qayd etish joizki, tahlil qilinayotgan davrda keng ko‘lamli islohotlarning huquqiy asosi sifatida tizim samaradorligini oshirish bo‘yicha 6 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30

dan ziyod farmon, qaror va farmoyishlari hamda 150 dan ortiq Hukumat va idoraviy huquqiy hujjatlari qabul qilindi [14]. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi PF-5005-sonli farmonida [3] keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida to‘planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar tahlil qilinishi barobarida, ularni bartaraf etish, ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning eng muhim yo‘nalishlari belgilab berildi. Farmon bilan “Ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish kompleks chora-tadbirlar dasturi” ham tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi qarori [9] bilan Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi hamda unda nazorat-litsenziyalash faoliyati bilan bog‘liq asosiy vazifalar va funksiyalar belgilandi.

Shuni alohida e’tirof etish joizki, ichki ishlar organlari nazorat-litsenziyalash faoliyati bo‘linmalarning tashkiliy-huquqiy ta’minlashni ham nazarda tutgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi PQ-2940-son qarori [8] qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasining tarkibiy tuzilishi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligi belgilangan Nizom tasdiqlangan(hozirgi kunda o‘z kuchini yo‘qotgan).

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash, ortiqcha byurokratik jarayonlarni tubdan qisqartirish, xususiy mulkning daxlsizligini himoya qilish va kafolatlashning bozor hamda huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash maqsadida islohatlarning mazkur bosqichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 11 apreldagi PF-5409-son Farmoni [4] qabul qilinib, unga asosan 2018 yil 1 iyundan boshlab Ichki ishlar vazirligi Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi Nazorat-litsenziyalash faoliyati bo‘linmalari tomonidan beriladigan litsenziya va ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarning quyidagi turlari bekor qilindi:

- narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni tashishga ruxsatnoma; [qarorga 1-ilova, 17-band]

- fuqarolarni narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlar aylanishi bilan bog‘liq ishlar bilan shug‘ullanishga ruxsatnoma; [qarorga 1-ilova, 19-band]

- O‘zbekiston Respublikasi hududiga alyuminiy kukunlari va tangachasimon plastinalar (TIF TN kodlari 76 0310 0007 6032 0000)ni olib kirishga ruxsatnoma; [qarorga 1-ilova, 20-band]

- muhr va shtamplarni tayyorlashga ruxsatnoma va yo‘q qilish to‘g‘risidagi kvitansiya (O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan muhrlar bundan mustasno) [1-ilova, 34, 35-band].

Bundan tashqari, ushbu Farmon bilan 2018 yil 1 iyundan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Pirotexnika buyumlari (harbiy ahamiyatdagi mahsulotlardan tashqari) ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, realizatsiya qilish, foydalanish, yo‘q qilish va utilizatsiya qilish” faoliyatini litsenziyalash bo‘yicha funksiyalarni Ichki ishlar vazirligiga o‘tkazildi [qarorga 4-ilova, 2-band].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, tahlil qilinayotgan davrda, qurol muomalasini tartibga solgan normativ-huquqiy hujjatlarda sohaga oid ko‘pgina huquqiy qoidalar tarqoq holda belgilanganligi, huquqiy bo‘shliqlarning mavjudligi, ularni tatbiq etish borasida jiddiy to‘sqinliklarga sabab bo‘lib, ularni yagona tamoyil asosida birlashtirish zaruratini vujudga keltirdi.

Bundan tashqari “qurol”, “qurol turlari”, “qurolning tarkibiy qismlari” kabi muhim tushunchalar qonunchilikda aks ettirilmaganligi o‘z navbatida ma’lum qurol turlarini saqlash va olib yurish holatlariga to‘g‘ri huquqiy baho berish va huquqni qo‘llash amaliyotida qiyinchiliklarni tug‘dirib kelganligi sababli, 2019 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida”gi qonuni [2] qabul qilindi.

Ushbu qonunga asosan, fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini ishlab chiqarish, ta’mirlash, realizatsiya qilish, olish, hisobga olish, saqlash, olib yurish, tashish, kolleksiyalash, ko‘rgazmaga qo‘yish, ulardan foydalanish, ularni olib qo‘yish, yo‘q qilish, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish, shuningdek ularni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilishga doir ruxsatnoma olish tartib-taomillari belgilandi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, islohatlarning mazkur bosqichida

sanoat uchun mo‘ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarning, ular analoglarining, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi bilan bog‘liq davlat nazorati qonunchilik hujjatlari bilan ichki ishlar organlari nazorat-litsenziyalash faoliyati tizimida saqlanib qolingan holda, qonunchilik hujjatlariga muvofiq 2019 yil 1 martdan boshlab shaxsiy va idoraviy o‘qotar qurol va uning o‘q-dorilari muomalasi sohasida litsenziyalash va ruxsat berish talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish bo‘yicha vazifalar ichki ishlar organlaridan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya tizimiga o‘tkazish, amaliyotda bir qator tizimli muammolarni keltirib chiqardi.

Birinchidan, qurol muomalasini nazorat qilish, profilaktika tadbirlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish, shuningdek ushbu yo‘nalishdagi noqonuniy harakatlarning oldini olishga qaratilgan yagona boshqaruv tizimi yo‘qoldi.

Ikkinchidan, olib qo‘yilgan, ixtiyoriy ravishda topshirilgan yoki topilgan qurollar va ularning o‘q-dorilarini qabul qilish, saqlash, hisobga olish, yo‘q qilish hamda realizatsiya qilish jarayonlarini huquqiy tartibga soluvchi amaldagi mexanizmning samarali faoliyati izdan chiqqanligi kuzatildi.

Sohada vujudga kelgan mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida, 2020 yil 8 apreldagi alohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o‘q-dorilari muomalasi sohasini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish Ichki ishlar vazirligining vakolatlari doirasiga qaytadan o‘tkazildi.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Farmoni [5] qabul qilindi. Farmonga muvofiq, Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o‘z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni [6] bilan Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi – Jamoat tartibini saqlash xizmati sifatida qayta tashkil etildi.

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining barcha tarixiy bosqichlarida ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziyalash faoliyati huquqni muhofaza qilish sohasidagi ta’sirchan va samarali mexanizmlardan iborat institut sifatida shakllangan bo‘lib, u jamoat tartibi hamda xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, hozirgi vaqtda qonunchilik hujjatlariga kiritilayotgan tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar mamlakatda litsenziyalash va ruxsat berish tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek mazkur sohadagi davlat nazoratini kuchaytirishga qaratilgan.

Ikkinchidan, amaldagi qonunchilikka muvofiq, litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlarini samarali tashkil etish hamda ichki idoraviy nazoratni amalga oshirishga oid huquqiy mexanizmlar shakllantirilgan.

Uchinchidan, ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziyalash faoliyati tizimi Ichki ishlar vazirligi tuzilmasining ajralmas va funksional jihatdan mustaqil bo‘g‘ini sifatida jamoat tartibini ta’minlash, xavfli faoliyat turlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi vazifalarni samarali bajarib kelmoqda.

Mamlakatimizda maxsus ma’muriy-huquqiy tartib o‘rnatilgan predmetlar va moddalar muomalasi sohalariga oid ruxsat berish tizimining tarixiy tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur yo‘nalishlar jamoat tartibi hamda xavfsizligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani sababli, doimo davlatning alohida va qat’iy nazoratida bo‘lishini talab etgan. Mazkur sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar esa mazkur tizimning tashkilish-huquqiy asoslarini jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tezkor, xolis va zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish imkoniyatini yaratib berayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, nazorat-litsenziyalash tizimi davlat nazoratining ajralmas tarkibiy qismi sifatida, jinoyatchilikning oldini olish, xavfli faoliyat turlari ustidan tizimli monitoring o‘rnatish va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashning eng samarali vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, kelgusida nazorat-litsenziyalash tizimining tashkiliy

va huquqiy asoslarni takomillashtirish, xususan, amaldagi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish hamda ichki ishlar organlari vakolatlarini aniqlashtirish bo‘yicha islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги ЎРҚ-407-сон Қонуни https://lex.uz/docs/3027843;
2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 июлдаги “Қурол тўғрисида”ги ЎРҚ-550-сон Қонуни https://lex.uz/docs/4445288;
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5005-сон Фармони, https://lex.uz/docs/3159827;
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 11 апрелдаги “Тадбиркорлик фаолияти соҳасидаги лицензиялаш ва рухсат бериш тартиб-таомилларини янада қисқартириш ва соддалаштириш, шунингдек, бизнес юритиш шарт-шароитларини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5409-сон Фармони, 1-илова, 17, 19, 20, 34 ва 35-позициялари, 4-илова, 2-позицияси, https://lex.uz/docs/3676955;
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6196-сон Фармони, https://lex.uz/docs/5344118;
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-27-сон Фармони, https://lex.uz/docs/5749291;
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 25 августдаги “Бюрократик тўсиқларни бартараф этиш ва тадбиркорлик фаолияти эркинлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-1604-сон Қарори, 1-илованинг 41, 42 ва 43-позициялари, https://lex.uz/docs/1861867;
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 майдаги “Ички ишлар органларининг жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-2940-сон Қарори, https://lex.uz/docs/3202965;
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрелдаги “Ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-2883-сон Қарори https://lex.uz/docs/3165013;
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг 1991 йил 25 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳақида” 270-сон қарори, https://lex.uz/docs/1033174;
11. Приказ МВД бывшего СССР от 13 февраля 1978 года № 34 «Об утверждении Инструкции о порядке открытия штемпельно-граверных предприятий (мастерских) изготовления печатей и штампов» [Электрон манба] https://bookchain.ai/read/dokumenty-1976-1980/1978-02-13-ob-utverdenii-instrukcii-o-poryadke-otkrytiya-shtempelno-gravernyh-predpriyatiy-masterskih-izgotovleniya-pechatey-i-shtampov/1 (мурожаат этилган вақт 30.03.2025 й.);
12. Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2001 йил 20 августдаги “Ўқотар қурол ва ўқ-дориларни сотиб олиш, ташиш, сақлаш, ҳисобга олиш ва улардан фойдаланиш, совуқ тиғли қуролни тайёрлаш, ўқотар нишонхона, ўқотар-ов стендлари, қурол таъмирлаш устахоналарини очиш, ўқотар қурол ва ўқ-дорилар билан савдо қилиш тўғрисидаги муваққат йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги 226-сонли буйруғи;
13. И. Исмаилов, Ў.Х. Мухамедов, М.З. Зиёдуллаев, Ж.С. Мухтаров, Б.Э. Закиров, Д.М. Миразов, А.А. Пардиев, А.А. Матчанов, Н.Т. Исмоилов “Ички ишлар идораларидаги ислоҳотлар – тинчлик ва осойишталик гарови: Монография / Масъул муҳаррир Ш.Т. Икрамов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – 81, 84-87 б.;
14. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг тарихи, [Электрон манба] https://www.qriiv.uz/uz/menu/iiv-tarihi (мурожаат этилган вақт 30.03.2025 й.);

Кайбар Малик Сунгатули
Самостоятельный соискатель
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВАЯ ПОТРЕБНОСТЬ РАЗВИТИЯ МЕТОДИК РАССЛЕДОВАНИЯ ТРАНСПОРТНЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Maqola transport jinoyatlarini tergov qilishning zamonaviy metodikalarini rivojlantirishning ijtimoiy-huquqiy zaruriyatini tadqiq qilishga bag'ishlangan. Transport turlarining turli xillarida sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik ta'minotining dolzarb muammolari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot transport tizimi xavfsizligini ta'minlash va fuqarolar huquqlarini himoya qilish uchun transport jinoyatlarini tergov qilish samaradorligini oshirishning ijtimoiy ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: transport jinoyatlari, tergov metodikasi, ijtimoiy-huquqiy zarurat, kriminalistik ta'minot, iz qoldirish, dalillar, texnik-kriminalistik vositalar, temir yo'l transporti, avtomobil transporti, havo transporti, suv transporti, transport xavfsizligi, kriminalistik metodika, hodisalarni tergov qilish

Статья посвящена исследованию социально-правовой потребности в развитии современных методик расследования транспортных преступлений. Рассматриваются актуальные проблемы криминалистического обеспечения расследования преступлений, совершаемых на различных видах транспорта. Исследование обосновывает социальную значимость повышения эффективности расследования транспортных преступлений для обеспечения безопасности транспортной системы и защиты прав граждан.

Ключевые слова: транспортные преступления, методика расследования, социально-правовая потребность, криминалистическое обеспечение, следообразование, доказательства, технико-криминалистические средства, железнодорожный транспорт, автомобильный транспорт, воздушный транспорт, водный транспорт, безопасность транспорта, криминалистическая методика, расследование происшествий

The article examines the socio-legal necessity for developing modern methodologies for investigating transport crimes. It addresses current problems in forensic support for investigating crimes committed on various types of transport. The research substantiates the social significance of enhancing the effectiveness of transport crime investigation to ensure transportation system security and protect citizens' rights.

Key words: transport crimes, investigation methodology, socio-legal necessity, forensic support, trace formation, evidence, technical-forensic tools, railway transport, automobile transport, aviation transport, water transport, transport security, forensic methodology, incident investigation



Железнодорожный транспорт Казахстана находится на стратегическом перекрестке евразийских торговых путей, что обуславливает критическую важность транспортной безопасности для национальной экономики. Отсутствие специализированных методик расследования преступлений на железнодорожном транспорте создает серьезные пробелы в правоохранительной деятельности, снижая эффективность раскрытия транспортных преступлений и обеспечения безопасности грузовых и пассажирских перевозок. Сравнительный анализ опыта стран СНГ демонстрирует наличие развитых систем транспортной криминалистики, которые могут служить основой для модернизации казахстанских подходов к расследованию.

Республика Казахстан занимает ключевое положение в системе евразийских транспортных коридоров, что определяет стратегическое значение железнодорожного транспорта для национальной экономики. АО «НК «Қазақстан темір жолы» управляет сетью протяженностью свыше 16 тысяч километров путей и более 800 станций, обеспечивая критически важные грузовые и пассажирские перевозки. В 2023 году железнодорожным транспортом было перевезено 33,6 млн тонн грузов с грузооборотом 27,1 млрд тонно-километров[1].

Развитие транзитного потенциала и реализация крупных инфраструктурных проектов, включая строительство третьего железнодорожного перехода с Китаем (Бахты-Аягоз), актуализируют проблемы транспортной безопасности и борьбы с преступностью. Специфика железнодорожного транспорта как объекта преступных посягательств требует разработки адаптированных методик расследования, учитывающих технологические особенности отрасли и международный характер многих перевозок.

Актуальность проблемы подтверждается статистикой: только за последние годы на объектах железнодорожного и авиационного транспорта Казахстана регистрировались сотни уголовных преступлений. Например, в 2024 году зарегистрировано 1476 уголовных правонарушений на авиа- и железнодорожном транспорте (раскрыто 70,6%), а в 2023 г. – 1700 преступлений (раскрыто 77%). Среди них преобладают кражи имущества и мошенничества (в 2024 г. кражи снизились на 28,8%, мошенничества – на 39,1% по сравнению с 2023 г.). В 2021 г. на пассажирских поездах совершено 126 уголовных правонарушений, около 70% из них – кражи[2]. Такие данные свидетельствуют о значительном масштабе проблемы и необходимости специально ориентированных подходов к расследованию.

Научная литература по криминалистике транспортных преступлений в Казахстане представлена ограниченным кругом работ[3]. Отсутствие систематических исследований и комплексных методических разработок создает значительные пробелы в научно-практическом обеспечении деятельности правоохранительных органов.

Правовая база Республики Казахстан в сфере транспортных преступлений характеризуется комплексным подходом, объединяющим уголовно-правовые, административно-правовые и специальные транспортные нормы. Глава 14 УК РК «Транспортные уголовные правонарушения» (статьи 344-360) содержит 18 составов преступлений, включая ключевые для железнодорожного транспорта нормы[4].

Статья 344 УК РК устанавливает ответственность за нарушение правил безопасности движения или эксплуатации железнодорожного транспорта с дифференцированными санкциями в зависимости от тяжести последствий: от штрафа до 2000 МРП при причинении вреда здоровью до лишения свободы от 4 до 10 лет при смерти двух и более лиц. Статья 352 УК РК предусматривает специальную ответственность за самовольную остановку поезда без надобности, что отражает специфику железнодорожного транспорта.

Преступления против собственности на железнодорожном транспорте квалифицируются по общим нормам о краже (статья 188), грабеже (статья 191) и разбое (статья 192) с учетом места совершения и способа хищения. Бланкетный характер транспортных норм требует обязательного указания конкретных нарушенных правил безопасности с ссылкой на соответствующий нормативный акт.

УПК РК относит транспортные преступления к подследственности органов внутренних дел, что обуславливает необходимость специальной подготовки следователей по данной категории дел. Территориальная подсудность определяется местом совершения преступления с возможностью изменения для обеспечения полноты расследования.

Критической проблемой исследования стало отсутствие детализированной официальной статистики по преступлениям на железнодорожном транспорте в Казахстане. Данные Комитета по правовой статистике Генеральной прокуратуры РК содержат общие показатели преступности без выделения транспортной составляющей: в 2022 году зарегистрировано 140 592 уголовных правонарушения (+1,8% к 2021 году), из которых 86% составили преступления.

По косвенным оценкам, основанным на российской статистике, регистрируется только около 30% преступлений на железнодорожном транспорте, что указывает на высокий уровень латентности. Сезонная динамика характеризуется пиком активности в летний период, связанным с увеличением грузооборота. Наиболее вероятными «горячими точками» являются крупные транспортные узлы Алматы, Астаны и приграничные районы.

Отсутствие систематизированного статистического учета транспортных преступлений создает серьезные препятствия для научного анализа и планирования профилактических мероприятий, что подтверждает необходимость совершенствования системы статистического наблюдения.

Российская Федерация демонстрирует наиболее развитую систему борьбы с транспортными преступлениями. Главное управление на транспорте МВД России объединяет региональные управления по федеральным округам и линейные отделы полиции на станциях. 30 000 преступлений на железнодорожном транспорте из 38,6 тысяч на всех видах транспорта (2018 год) подтверждают высокую криминогенность железнодорожной отрасли. Российский опыт включает развитую систему специализированных транспортных прокуратур (9 межрегиональных), что обеспечивает профессиональный надзор за расследованием. Методические разработки охватывают все основные категории транспортных преступлений с использованием современных технических средств и криминалистических методов[5].

Узбекистан сфокусирован на превентивных мерах через Государственную инспекцию «УЗГОСЖЕЛДОРНАДЗОР» и систему профессионального отбора персонала. Обязательное медицинское освидетельствование работников и аттестация лиц, связанных с движением поездов, показывают эффективность ведомственного подхода к обеспечению безопасности.

Беларусь представляет модель эффективной административно-правовой ответственности с четкой системой штрафов от 6 до 50 базовых величин за нарушения на железнодорожном транспорте. Отсутствие специализированной транспортной полиции компенсируется развитым взаимодействием с административными структурами.

Кыргызстан имеет ограниченные возможности из-за небольшой сети железных дорог (424,6 км разрозненных участков), что исключает создание специализированных структур, но опыт может быть полезен для отдаленных регионов Казахстана.

Анализ ведомственных документов МВД РК выявил фрагментарность методического обеспечения. Действуют отдельные разработки: «Методика расследования хищений грузов на железнодорожном транспорте», «Использование специальных познаний при расследовании краж грузов из подвижного состава» и «Методика расследования краж при перевозке автосельхозтехники».

Критические пробелы включают:

отсутствие методик по расследованию нарушений безопасности движения

недостаток специализированных рекомендаций по преступлениям против пассажиров

неразработанность ведомственных инструкций для транспортных подразделений

ограниченность технических средств для работы в специфических условиях железнодорожного транспорта

Специфика осмотра места происшествия на протяженных объектах (соста-

вы, пути) требует адаптированных протоколов фотофиксации и измерений. Недостаток специализированных экспертов по железнодорожной трасологии ограничивает качество экспертного сопровождения расследования.

Проведенное исследование подтверждает острую социально-правовую потребность в формировании комплексной системы методик расследования преступлений на железнодорожном транспорте в Казахстане. Развитие транзитного потенциала страны и реализация крупных инфраструктурных проектов актуализируют проблемы транспортной безопасности, требуя адекватного правоохранительного ответа.

Российская модель организации транспортной полиции с линейными отделами на крупных станциях может быть адаптирована для казахстанских условий с учетом географических особенностей и плотности железнодорожной сети. Создание специализированных подразделений позволит концентрировать профессиональный опыт и обеспечить системный подход к расследованию транспортных преступлений.

Узбекский опыт профессионального отбора персонала, связанного с движением поездов, заслуживает внимания в контексте профилактики транспортных происшествий. Обязательное медицинское освидетельствование и система аттестации могут быть интегрированы в казахстанские стандарты подготовки железнодорожных кадров.

Белорусская система административных штрафов демонстрирует эффективность дифференцированного подхода к ответственности за различные категории нарушений на транспорте. Четкая градация санкций способствует формированию культуры безопасности среди участников транспортного процесса.

Отсутствие систематизированной статистики транспортных преступлений в Казахстане требует неотложного совершенствования системы статистического наблюдения. Без конкретных данных о масштабах, структуре и динамике транспортной преступности невозможно эффективное планирование профилактических мероприятий и научно обоснованное совершенствование методик расследования.

Международное сотрудничество в рамках СНГ открывает возможности для обмена опытом и координации действий по обеспечению безопасности трансграничных перевозок. Участие в системе информационного обмена и гармонизация правовых норм с требованиями международных транспортных коридоров должны стать приоритетными направлениями развития.

Создание НИИ транспортной криминалистики или специализированного подразделения в рамках существующих научно-исследовательских структур обеспечит научно-методическую основу для развития системы расследования транспортных преступлений. Подготовка научных кадров и разработка фундаментальных исследований в области транспортной криминалистики критически важны для долгосрочного развития отрасли.

Исследование выявило системные пробелы в методическом обеспечении расследования преступлений на железнодорожном транспорте в Казахстане, несмотря на развитую правовую базу и значительный потенциал транспортной отрасли. Фрагментарность действующих методик, отсутствие специализированных подразделений и ограниченность статистического учета создают серьезные препятствия для эффективной борьбы с транспортной преступностью.

Опыт стран СНГ демонстрирует возможность создания эффективной системы транспортной безопасности через специализацию правоохранительных структур, развитие методического обеспечения и совершенствование межведомственного взаимодействия. Адаптация лучших практик с учетом казахстанской специфики может существенно повысить эффективность расследования транспортных преступлений.

Первоочередными мерами должны стать разработка комплексных методик по основным категориям преступлений на железнодорожном транспорте, создание специализированных следственных подразделений и совершенствование системы статистического учета. Долгосрочная стратегия предполагает формирование научно-исследовательской базы транспортной криминалистики и развитие международного сотрудничества.

Социально-правовая потребность в совершенствовании методик расследования транспортных преступлений обусловлена стратегическим значением железнодорожного транспорта для экономики Казахстана и требует комплексного подхода, объединяющего законодательные, организационные и научно-методические решения. Только системная модернизация правоохранительной деятельности в транспортной сфере обеспечит адекватный ответ на вызовы развивающейся транспортной инфраструктуры и растущих объемов международных перевозок.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. «Железнодорожник Казахстана». Спецвыпуск, №3 (2021) // – https://railways.kz
2. МВД Республики Казахстан, Департамент полиции на транспорте. Статистические сводки за 2023–2024 гг. – https://polisia.kz
3. Ахметов Н.Т. «Правовые основы обеспечения транспортной безопасности в Республике Казахстан». – Алматы: Юридическая литература, 2021; Касымов Д.К., Ташенов Ж.Ж. «Проблемы расследования преступлений на объектах транспорта». – Вестник Академии МВД РК, №1(45), 2022.
4. Уголовный кодекс Республики Казахстан (с изменениями и дополнениями по состоянию на 2024 год) //https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226]
5. Жуков А.А. Методика расследования хищений на железнодорожном транспорте: учебно-методическое пособие. – М.: Академия МВД РФ, 2020.

Axmedov Abrorjon Anvarjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

OZODLIKNI CHEKLASH TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH TARTIBI (MASOFADAN TURIB NAZORAT QILISH MISOLIDA)

Mazkur maqolada ozodlikni cheklash jazosi qo‘llanilgan shaxslarga jazoni o‘tash tartibi va shartlarini belgilab beruvchi masalalar hamda bu boradagi horijiy tajribalar bayon etilgan. Alohida e’tibor ozodlikni cheklash jazosi qo‘llanilgan shaxslarni masofadan turib nazorat qilish amaliyoti bilan bog‘liq huquqiy masalalarni yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazo chorasi, qonun hujjatlari, JK, JIEM, cheklovlar, sud, jinoiy jazo, mahkum, elektron braslet.

В данной статье изложены вопросы, определяющие порядок и условия отбывания наказания лицами, к которым применено наказание в виде ограничения свободы, а также зарубежный опыт в этой области. Особое внимание уделяется освещению правовых вопросов, связанных с практикой дистанционного наблюдения за лицами, к которым применено наказание в виде ограничения свободы.

Ключевые слова: Мера наказания в виде ограничения свободы, законодательство, УК, УИН, ограничения, суд, уголовное наказание, осужденный, электронный браслет.

This article sets out the issues that determine the procedure and conditions for serving a sentence by persons to whom a sentence in the form of restriction of freedom has been applied, as well as foreign experience in this area. Particular attention is paid to covering legal issues related to the practice of remote monitoring of persons to whom a sentence in the form of restriction of freedom has been applied.

Keywords: Punishment in the form of restriction of freedom, legislation, Criminal Code, UIN, restrictions, court, criminal punishment, convicted person, electronic bracelet.



Bugungi kunda, jamoat xavfsizligini ta’minlash borasida javobgarlik muqarrarligini ta’minlash, qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, jazo ijrosi ustidan samarali nazorat mexanizmini o‘rnatish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazo shaxsni jamiyatdan batamom ajratmagan holda ijro etiladigan asosiy jazo turlaridan biri hisoblanadi.

Ozodlikni cheklash jazo tizimida nisbatan yangi chora hisoblanadi. Ushbu jazo chorasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-389-son Qonuni asosida joriy etilgan.

Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazo jinoyatchi shaxslarga nisbatan asosiy jazo turlaridan biri sifatida xalqaro huquqiy normalariga mos kelishi bilan xarakterli bo‘lib, sudlar tomonidan ijtimoiy-foydali ishlanma bajarishda ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasida jazolarga muqobil tarzda tayinlanadi.

Ta’kidlash lozimki, ushbu jazo chorasi bugungi kunda AQSh, Argentina, Armaniston, Belarus, Gruziya, Ispaniya, Litva, Moldova, Niderlandiya, Norvegiya, Ozarbayjon, Polsha, San-Marino, Serbiya, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, Xitoy, Eron, Shveysariya, Shvetsiya kabi davlatlarda keng va muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda [1].

Ayni damda xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, ozodlikni cheklashni qo‘llashning uch modelini ajratishimiz mumkin: shaxs jamiyatdan ajratib qo‘yiladi (Ukraina); shaxs jamiyatda qoladi (Rossiya); aralash (Belarus).

Xususan, Ukraina JK 61-moddasiga muvofiq, ozodlikni cheklash jazosi shaxsni ochiq turdagi JIEMlarida saqlashdan iborat bo‘lib, bunda shaxs mehnatga jalb qilingan holda uning ustidan nazorat o‘rnatiladi.

Shu singari qoidalar Gruziya JK 47-moddasi, Tojikiston JK 54-moddasi hamda Ozarbayjon JK 53-moddasida o‘z aksini topgan. Niderlandiya JK 32-moddasida esa, ozodlikni cheklash qo‘shimcha jazo chorasi sifatida shaxsni davlat axloq tuzatish uylariga joylashtirishni ko‘zda tutadi.

Ikkinchi model xorijiy mamlakatlarda keng yoyilgan bo‘lib, unga muvofiq shaxs jamiyatda saqlab qolinadi. Masalan, Rossiya JK 53-moddasida aynan shunday tartib belgilangan. Polshada esa, muayyan cheklovlar bilan bir qatorda asosiy e’tibor majburiy mehnat – sud tomonidan ko‘rsatilgan ishlarni bajarish majburiyatini yuklashga qaratilgan (Polsha JK 34-36-m.). Ozodlikni cheklash jazosiga nisbatan shu singari yondashuvni Litva JK 48-moddasida ham kuzatishimiz mumkin. Ispaniya JK 48-moddasida esa, ozodlikni cheklashga hukm qilingan shaxsning muayyan joyda bo‘lish yoki tashrif buyurish huquqi cheklanishi belgilangan. Norvegiya JK 33-paragrafida esa, muayyan hududlarda bo‘lish cheklanadi. Eronning “Islom jinoiy jazolari to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasiga muvofiq, ozodlikni cheklash jazosi orqali ijtimoiy huquqlardan to‘liq yoki qisman mahrum etish hamda yashash joyini tanlash huquqini cheklash nazarda tutiladi. Serbiya, Armaniston, Moldova, Gruziya, Turkmanistonda esa, voyaga etmaganlarga nisbatan ozodlikni cheklash jazosini tayinlashda muayyan cheklovlar nazarda tutilgan.

Uchinchi modelga misol sifatida Belarus JK 55-moddasini ko‘rsatish mumkin. Xususan, unga ko‘ra, ozodlikni cheklash jazosi ochiq turdagi JIEMlarida o‘taladi. Shu bilan birga aybdorning shaxsi, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi hamda doimiy yashash joyining mavjudligini hisobga olib, shaxsga nisbatan ozodlikni cheklash jazosini JIEMga jo‘natmasdan o‘tashni ko‘zda tutishi mumkin. Shu singari normalar Turkiya JK 21-22-moddalari hamda Shvetsiya JK 28-bobida ham nazarda tutilgan [2].

O‘zbekiston Respublikasida ham ozodlikni cheklash jazosining ikkinchi modeli joriy etilgan. Xususan, yuqoridagi Qonun asosida JKning 43-moddasida ko‘rsatilgan jazo tizimiga “d1” band bilan ozodlikni cheklash jazosi ham kiritilib, ushbu Kodeksning 481va 841-moddalariga alohida jazo sifatida uning tushunchasi, qo‘llash asoslari kabi masalalar belgilab qo‘yildi [3].

Ozodlikni cheklash – bu sud tomonidan mahkumga nisbatan yashash joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdan yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishini cheklashdan iborat bo‘lgan jazo turidir.

Ozodlikni cheklash asosiy jazo chorasi sifatida quyidagi muddatlarda qo‘llaniladi:

a) katta yoshdagilarga nisbatan – bir oydan besh yilgacha (JK 481m.);

b) voyaga etmaganlarga nisbatan – olti oydan ikki yilgacha (JK 841m.).

Mahkumning yashaydigan joyidagi ichki ishlar organlarining jazolarni ijro etish inspeksiyalari yoki sud belgilaydigan organlar nazorati ostida o‘taladi. Jazo muddati mahkum jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan hisobga olingan kundan boshlab hisoblanadi. Mahkum uzrli sabablarisiz o‘zboshimchalik bilan yashash joyida bo‘lmagan vaqti ozodlikni cheklash vaqtida qo‘shib hisoblanmaydi.

Ozodlikni cheklash, uni mahkumning yashash joyida o‘tash shartlari sodir etilgan qilmishning xususiyati va sud chiqargan qarorni ijro etishdan bo‘yin tovlashning oldini olish hisobga olingan holda sud tomonidan belgilanadi.

Qo‘llanilayotgan taqiqning, ya’ni cheklashning xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagi qo‘shimcha taqiqlami (cheklashlarni) yuklashi mumkin:

muayyan joylarga bormaslik;

ommaviy va boshqa tadbirlarni o‘tkazishda ishtirok etmaslik;

muayyan faoliyat bilan shug‘ullanmaslik;

muayyan buyumlarga ega bo‘lmaslik yoki ularni o‘zida saqlamaslik;

transport vositasini boshqarmaslik;

mahkumlarni nazorat qiluvchi organning roziligisiz yashash joyini, ish va (yoki) o‘qish joyini o‘zgartirmaslik;

tegishli ma’muriy hududdan tashqariga chiqmaslik;

aloqa vositalaridan, shu jumladan internetdan foydalanmaslik;

alkogolli ichimliklar iste’mol qilmaslik.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs jazolarni ijro etish inspeksiyasi ruxsatisiz muayyan vaqtda yashash joyidan ketishi, tegishli ma’muriy hudud doirasida joylashgan ma’lum joylarga borishi yoxud tegishli ma’muriy hudud doirasidan chiqishi, shuningdek yashash joyini o‘zgartirishi taqiqlanadi.

Shaxs ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o‘tashdan qasddan bo‘yin tovlab, o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda sud ozodlikni cheklash jazosining o‘talmay qolgan muddatini boshqa turdagi jazo bilan almashtirishi mumkin.

Ta’kidlab o‘tish joizki, ozodlikni cheklash jazosi harbiy xizmatchilar, chet el fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarga nisbatan tayinlanmaydi.

Ozodlikni cheklash jazosi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu jazoga hukm qilingan mahkumlar O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida va sud hukmida ko‘rsatilgan taqiqlar (cheklashlar) va zimmalariga yuklatilgan majburiyatlardan tashqari O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun qonunda belgilangan barcha huquqlardan foydalanadilar.

Sud qonuniy kuchga kirgan hukmi ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilingan mahkumni hisobga qo‘yish uchun asos bo‘lib hisoblanadi va mahkumlarning hisobini olib borish jumalida qayd etiladi.

Suddan kelib tushgan hukm nusxasi joylardagi tuman-shahar ichki ishlar organi ro‘yxatiga olinib, IIB boshlig‘i tomonidan ko‘rib chiqilib, uning alohida ko‘rsatmasi xizmat (profilaktika) bo‘yicha o‘rinbosari orqali jazolarni ijro etish inspeksiyasiga, nusxasi hududiy profilaktika (katta) inspektoriga tegishli chora- tadbirlarni belgilash maqsadida beriladi.

Shu kunning o‘zida mahkum hisobga olish jurnaliga qayd etilib, unga nisbatan yig‘ma jild ochiladi. Yig‘ma jildning tartib raqami hisobga olish jumalida qayd etilgan tartib raqamiga mos bo‘lishi kerak. Yig‘ma jild ochilgandan keyin mahkumga ma’lumot varaqasi va qo‘riqchi varaqasi to‘ldiriladi. To‘ldirilgan ma’lumot varaqasi va qo‘riqchi varaqalarining nusxasi shaxsiy yig‘ma jildga tikib qo‘yiladi.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazo turi hukm qilingan mahkumga jazoni o‘tash tartibi va shartlari tushuntirilib, yuklatilgan taqiqlar (cheklashlar) va majburiyatlarni bajarmagan taqdirda jazoni o‘talmay qolgan muddati jazoning boshqa turi bilan almashtirilishi haqida sudga taqdimnoma kiritilishi haqida ogohlantirilib, undan tilxat olinadi.

Ozodlikni cheklash jazosining ijro etish tartibi va shartlari JIKga yangidan kiritilgan 81-bobdagi 441, 442-, 443- 444-moddalarda belgilab qo‘yildi va ushbu moddalarda ozodlikni cheklash jazosini o‘tash tartibi, uning muddatini hisoblash, ushbu turdagi jazoni o‘tash tartibi va shartlarini buzganlik uchun javobgarlik holatlari e’tirof etilgan.

Ozodlikni cheklash jazosini ijro etish tartibi. JIKning 441-moddasi hamda “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning 16-moddasiga binoan ozodlikni cheklash jazosini ijro etish mahkum yashaydigan

joydagi tuman va shahar ichki ishlar bo‘limining tarkibiy tizimiga kiruvchi jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan yoki sud belgilaydigan, mahkumlarning sud belgilangan taqiqlarga (cheklashlarga) rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi profilaktika (katta) inspektori, tezkor vakillar, patrul-post naryadlari va ichki ishlarining boshqa sohaviy xizmatlari amalga oshiradilar.

Ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilingan mahkumni muqim yashash joyida bo‘lishi va faqat belgilangan ma’muriy hudud doirasi bo‘ylab harakat qilishi Probatsiya va jazolarni ijro etish bo‘limi hamda sudda belgilangan taqiqlarga (cheklashlarga) rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi boshqa organlar tomonidan qat’iy nazorat qilinadi. Mahkum belgilangan hudud doirasidan faqat istisno holatlarda prokurorning sanksiyasi asosida jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan beriladigan ruxsatnoma bo‘yicha chiqishi mumkin.

Jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan har bir mahkum bilan suhbat o‘tkazilib. ularga jazoni o‘tash tartibi, shart-sharoitlari tushuntiriladi. Mahkum ishlaydigan yoki o‘qiydigan joylardan mahkumga nisbatan tavsifnomalar so‘raladi, lozim bo‘lgan paytda ma’muriyat a’zolari bilan uchrashuv o‘tkaziladi. Mahkum tomonidan jamoat tartibini buzish hollari sodir etilganligini aniqlash maqsadida har oyda joylardagi tuman-shahar ichki ishlar bo‘limining kartotekasi bilan tanishib boriladi.

JIKning 442-moddasiga ko‘ra, ozodlikni cheklash jazosining muddati mahkum yashaydigan joydagi tuman va shahar ichki ishlar bo‘limlaridagi jazoni ijro etish inspeksiyalarida ro‘yxatga qo‘yilgan kundan boshlab hisoblanadi hamda u jazo muddati tugagunga qadar ushbu ro‘yxatda turadi.

Ayni vaqtda, qonun normalarida ozodlikni cheklash jazosini o‘tayotgan mahkumlarning jazo muddati tugamasdan ilgariroq ham ushbu ro‘yxatdan chiqarish holatlari belgilangan, jumladan:

jazoni o‘tash muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilganda;

jazoni yengilrog‘i bilan almashtirilganda;

amnistiya akti qo‘llanib jazodan ozod etilganda;

afv etish akti qo‘llanib jazodan ozod etilganda;

mahkum vafot etganda, ya’ni uning o‘limi haqidagi ma’lumotnoma asosida;

qonunda ko‘rsatilgan boshqa asoslarda.

Mahkum uzrli sabablarsiz o‘zboshimchalik bilan yashash joyida bo‘lmagan vaqti ozodlikni cheklash muddatiga qo‘shib hisoblanmaydi.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan mahkumni hisobdan chiqarish vaqti hamda asosi to‘g‘risida mahkumlarni hisobga olish jurnaliga va yig‘ma jildga tegishli belgi qo‘yiladi.

JIKning 443-moddasida ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o‘tash tartibi bayon etilgan. Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs sud tomonidan belgilangan taqiqlarga (cheklashlarga) rioya etish, shuningdek o‘zining jazoni o‘tashi bilan bog‘liq masalalari bo‘yicha og‘zaki yoki yozma tushuntirishlar berishi uchun chaqiruv bo‘yicha Probatsiya va jazolarni ijro etish bo‘limiga kelishi shart.

Zarurat tug‘ilganda ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan mahkumga nisbatan elektron braslet va boshqa turdagi kuzatuv vositalari qo‘llanishi mumkin. Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan mahkumga nisbatan elektron braslet va boshqa turdagi kuzatuv vositalari faqat sudning ajrimi asosida qo‘llaniladi va maxsus dasturiy majmua tizimiga ulab qo‘yiladi. Ushbu jazo qo‘llanilgan mahkumlarga elektron braslet va boshqa turdagi kuzatuv vositalarini qo‘llash uchun tegishli asbob-uskunalar bilan ta’minlash va ularning foydalanishini nazorat qilib borish joylardagi tuman-shahar ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklarni oldini olish, navbatchilik qismi, moddiy-texnika ta’minoti, axborot markazi, aloqa va boshqa xizmatlari zimmasiga yuklatiladi.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan voyaga etmagan mahkumlar ustidan doimiy nazorat esa profilaktika (katta) inspektorlari hamda voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektorlari bilan hamkorlikda hokimlik, ta’limning boshqaruv organlari, jamoat tashkilotlari hamda mutasaddi organlar ishtirokida amalga oshiriladi [4].

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan mahkumga nisbatan elektron brasletni qo‘llash uchun jazolarni ijro etish inspeksiyasi xodimi elektron brasletni navbatchilik qismidan shaxsan o‘zi qabul



qilib olib, mahkumga asbob- uskunalarga javobgarligini tushuntiradi, uni qo‘llash oldidan xavfsizlik choralari va ekspluatatsiya qoidalari bilan mahkumni yozma ravishda tanishtirib, imzolatgandan keyin qo‘llaydi.

Elektron brasletva boshqa turdagi kuzatuv vositalari kecha-kunduz kuzatib borish uchun barcha texnik vositalari joylardagi tuman-shahar ichki ishlar bo‘limlarining navbatchilik qismiga o‘rnatiladi. Agarda mahkum tomonidan majburiyatlar buzilganligi aniqlansa navbatchi bu haqida zudlik bilan tuman-shahar ichki ishlar bo‘limlarining rahbariga axborot beradi hamda mazkur holatga aniqlik kiritish va uni bartaraf etish choralarini ko‘radi.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan mahkum unga nisbatan qo‘llanilgan asbob-uskunalarni nosoz holatga keltirgan taqdirda, hududiy profilaktika inspektori ushbu mahkumdan etkazilgan moddiy zararni undirish uchun sudga asoslantirilgan da’vo bilan murojaat qiladi.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan mahkumga istisno tariqasida ayrim hollarda yashash joyidan ketishga yoki tegishli ma’muriy hudud doirasidan chetga chiqishga ruxsatnoma asosida ruxsat etilishi mumkin. Mahkumning muayyan vaqtda yashash joyidan ketishga, tegishli ma’muriy hudud doirasida joylashgan ma’lum joylarga borishga yoxud tegishli ma’muriy hudud doirasidan chiqish uchun ruxsatnoma Probatsiya va jazolarni ijro etish bo‘limi tomonidan beriladi. Qaror taqiqlarning (cheklashlarning) xususiyatidan, mahkumning shaxsidan, unning xulq-atvoridan, tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligidan kelib, alohida hollarda qabul qilinadi.

Uy-joydan chiqib ketishiga butunlay taqiq belgilangan mahkumning doimiy yashash joyidan ketishiga ruxsatnomaga, mahkumning tegishli ma’muriy hudud doirasidan chiqishi uchun ruxsatnomaga, shuningdek mahkumning yashash joyini o‘zgartirishi uchun ruxsatnomaga prokuror tomonidan sanksiya beriladi.

Agar ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs jazoni o‘tash davrida o‘zining jinoiy qilmishlarini anglab etgan, tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan, etkazgan moddiy va ma’naviy zarari o‘rnini qoplagan bo‘lsa, jazolarni ijro etish inspeksiyasi ilgari mahkumga belgilangan taqiqlarni (cheklashlarni) to‘liq yoki qisman bekor qilish to‘g‘risida sudga taqdimnoma kiritadi.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o‘tash tartibi va shartlarini buzganlik uchun

javobgarlik. JIKning 444-moddasiga binoan ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o‘tash tartibi va shartlari mahkum tomonidan buzilganligi uchun jazolarni ijro etish inspeksiyasi unga nisbatan ogohlantirish tarzidagi intizomiy jazo chorasini qo‘llaydi.

Mahkum ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o‘tashdan qasddan bo‘yin tovlagan, shuningdek sud tomonidan o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, jazolarni ijro etish inspeksiyasi sudga mahkum uchun ozodlikni cheklashning o‘talmagan muddatini jazoning boshqa turiga almashtirish haqida taqdimnoma kiritadi.

JIKning 444-moddasi 3-qismiga binoan quyidagi holatlar ozodlikni cheklash to‘g‘risidagi jazoni o‘tashdan qasddan bo‘yin tovlovchilar deb e’tirof etiladi:

a) o‘ziga nisbatan sud tomonidan belgilangan taqiqlarni (cheklashlarni) buzishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi to‘g‘risida intizomiy jazo qo‘llanilgandan keyin bir yil ichida jazoni o‘tash tartibi va shartlarini buzishga yo‘l qo‘ygan mahkum;

b) o‘ziga nisbatan texnik nazorat vositalaridan foydalanish qoidalarini buzgan mahkum;

v) yashash joyidan yashiringan, qayerda ekanligi uch sutkadan ortiq vaqt ichida aniqlanmagan mahkum;

g) yashash joyidagi jazolarni ijro etish inspeksiyasiga belgilangan muddatidan uch sutkadan ortiq vaqt mobaynida kelmagan mahkum[5].

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm qilingan mahkumni sud tomonidan yuklatilgan taqiqlar (cheklashlar) va majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlash holati va boshqa davlatlarga chiqib ketishini oldini olish maqsadida hududiy xorijga chiqish, kirish va fuqarolik bo‘limlari, “Aeroport”, “Temir yo‘l”, xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha yuradigan “Avtobus” shohbekatlari, bojxona, chegara xizmati xodimlariga xabarnomalar yuboriladi. Mazkur xabarnomada sud hukmida mahkumga nisbatan belgilangan jazoni o‘tash muddati va uni tugash sanasi ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 542-moddasiga binoan ozodlikni cheklash jazosi qo‘llanilgan shaxsga nisbatan jazoning boshqa turlari bilan almashtirish to‘g‘risida masala ko‘rib chiqishi uchun sudga uzrsiz sabablarga kelmagan taqdirda jazoni ijro etuvchi organning taqdimnomasi mahkum yo‘qligida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Agarda ozodlikni cheklash jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan taqdirda sud mahkumga qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash yoki qidiruv e’lon qilish to‘g‘risidagi masalani hal qilishi kerak [6].

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o‘tashdan ozod qilish tartibi. JIKning 168-moddasiga binoan Probatsiya va jazolarni ijro etish bo‘limi yoki sud tomonidan belgilanib, mahkumlarning sud belgilagan taqiqlarga (cheklashlarga) rioya etish ustidan nazoratni amalga oshiradigan boshqa organ tomonidan mazkur jazo muddatiga qonun hujjatlariga muvofiq kiritilishi mumkin bo‘lgan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda ozodlikni cheklash jazosi belgilangan muddatning oxirgi kuni tugatiladi.

Agar jazo muddati dam olish yoki bayram kuni tugaydigan bo‘lsa, mahkum ushbu dam olish yoki bayram kunidan bir kun oldin ozod qilinadi. Muddat oylar bilan hisoblangan taqdirda bu muddat keyingi oyning tegishli kuni, agar mazkur oyda shunday kun bo‘lmasa shu oyning oxirgi kuni tugaydi.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.Т.:2023 йил. https://constitution.uz/uz
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси. “Ўзбекистон” Т:.2023.
3. Хузорская Н.Б. Опыт применения общественных работ за рубежом // Альтернативы тюремному заключению в Российской Федерации: Материалы международной конференции. - М„ 2001. – С.166.
4. Новыкова Е.А. Сущност ограничения свободы по законодателству зарубежных стран // Вестник Нижегородской академии МВД России. – 2014. –№2(26). –С.246-248.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-son Qonuni «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlar bazasi//www.lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-senlyabrdagi O‘RQ-406-son qonuni «Yoshlarga o id davlat siyosati to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonun huyatlari ma’lumotlar milliy bazasi // www.lex.uz.
7. Rustambayev M.X. va boshqalar. Jinoyat-ijoiya huquqi: darslik. – Complex Print, 2020. B.144.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgust O‘RQ-380-son “O O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va q o‘shinichalar kiritish to‘g‘risida” Qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’luinotlar milliy bazasi // www.lex.uz.

Ikanov Azamat Agzamovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i, yu.f.b.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

Xoliqov Shuhrat Abduhamidovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi, t.f.f.d.(PhD), dotsent

Alijonov Ibroximjon Rustamjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi, y.f.f.d.(PhD)

O‘ZBEKISTONDA KIBERKORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonda kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish masalasi tadqiq qilinadi. Bugungi kunda mamlakatimizda kiberkorrupsiyaning oldini olish va profilaktika qilish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Bu o‘z navbatida, kiberkorrupsiyaga oid tahdidlarning o‘sishi, kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy bazaning mavjud emasligi, shuningdek, sohada dalillar bazasini to‘plashning texnik mexanizmlari va vositalari yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: Kiberkorrupsiya, korrupsiya, raqamli texnologiya, raqamli valyuta, blokcheyn, kriptovalyuta, kiberxavfsizlik, tizim, zaiflik, sun‘iy intellekt.

В данной научной статье исследуется вопрос повышения эффективности борьбы с киберкоррупцией в Узбекистане. На сегодняшний день вопросы предупреждения и профилактики киберкоррупции в нашей стране остаются актуальными. Это, в свою очередь, связано с ростом угроз, связанных с киберкоррупцией, отсутствием правовой базы по противодействию киберкоррупции, а также недостаточным развитием технических механизмов и средств сбора доказательной базы в данной сфере.

Ключевые слова: Киберкоррупция, коррупция, цифровые технологии, цифровая валюта, блокчейн, криптовалюта, кибербезопасность, система, уязвимость, искусственный интеллект.

This scientific article examines the issue of increasing the effectiveness of combating cyber corruption in Uzbekistan. Today, the issues of preventing and preventing cybercorruption in our country remain relevant. This, in turn, is due to the growth of cyber-corruption-related threats, the lack of a legal framework for combating cyber-corruption, and the insufficient development of technical mechanisms and means for gathering evidence in this area.

Keywords: Cybercorruption, corruption, digital technologies, digital currency, blockchain, cryptocurrency, cybersecurity, system, vulnerability, artificial intelligence.



2025 yil 5 mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mustahkam huquqiy asos yaratish va xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, aniq amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifalari belgilab berildi [1].

Raqamli texnologiyalarni faol joriy etilishi va raqamli valyutalar (shu jumladan blokcheyn asosida) aylanish kanallarini kengayishi kiberkorrupsiya jinoyatlarini qonuniy tartibga solishni taqozo etadi.

Biznes tarmog‘i doirasida ochiq axborot almashinuvini tashkil etish imkonini beruvchi takomillashtirilgan ma’lumotlar mexanizmidir. Blokcheyn ma’lumotlar bazasi ma’lumotlarni bir-biriga zanjirsimon bog‘langan bloklarda saqlaydi.

Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, kiberkorrupsiya tushunchasiga huquqiy ta’rif berish qonunchilikda aks ettirish zaruriyati mavjud.

kiberkorrupsiya quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

– maxfiy ma’lumotlarning sizib chiqishi (xodimlar ma’lumotlarni foyda evaziga uchinchi shaxslarga sotishlari mumkin);

– axborotlarni o‘g‘irlash yoki davlat organlariga bosim o‘tkazish maqsadida davlat muassasalariga kiberhujumlar;

– moliyaviy firibgarlik (fishing, kriptovalyuta va boshqa raqamli aktivlar bilan bog‘liq firibgarlik) [2].

Kiberkorrupsiya jinoyatchiligining umumiy tendensiyasi

Ayni paytda O‘zbekistonda bitkoin yoki uning o‘rnini bosuvchi kriptovalyuta (kriptoaktiv)larda pora olish holatlari qayd etilmagan. Biroq, kriptovalyutaning noqonuniy aylanishi holatlari mavjud.

2024 yil Buxoro viloyati Jondor tumanida 17 yoshli talaba M. Zuvurov valyuta ayirboshlash operatsiyalarida vositachilik qilgani uchun komissiya olib, “Binance” platformasi orqali umumiy qiymati qariyb 34 mlrd so‘m (taxminan 2,6 million AQSh dollari) bo‘lgan 5000 dan ortiq operatsiyalarni amalga oshirgan.

Dunyoda:

2017–2019 – (AQSh) “Bit Mining” kompaniyasi kazino loyihasini ilgari surish maqsadida Yaponiya parlamenti a’zolariga ta’sir o‘tkazishga qaratilgan poraxo‘rlik sxemasida ishtirok etgan.

2021 – (Rossiya) Rossiya Tergov qo‘mitasining sobiq tergovchisi Marat Tambiev tergovni to‘xtatish va aktivlarni yashirish uchun xakerlardan 2 718 BTC (o‘sha paytda taxminan 258 million AQSh dollar) pora olgan.

2022 – 2023 – (Rossiya) Mordoviyada Ichki ishlar vazirligining giyohvand moddalar savdosini nazorat qilish boshqarmasining sobiq boshlig‘i maxfiy ma’lumotlarni taqdim etgani uchun bitkoinlarda pora olgan [8].

Raqamli texnologiyalar va global internet tarmog‘i chegara bilmasligi, bu dolzarb muammo tez orada O‘zbekistonda ham paydo bo‘lishi ehtimolini keltirib chiqarishi mumkin.

Kiberkorrupsiyaga oid xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili asosida quyidagilar ma’lum bo‘ldi [2]:

– MDH mamlakatlari o‘z qonunchiligini UNCAC konvensiyasi standartlariga muvofiq bosqichma-bosqich unifikatsiya qilish va takomillashtirishga zaruriyat mavjud;

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC, United Nations Convention Against Corruption) – 2003 yil 31 oktyabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan (58/4-rezolyusiya) va 2005 yil 14 dekabrda kuchga kirgan xalqaro shartnoma.

– Rossiya va Belarusda, pul yuvishga qarshi kurashish uchun raqamli aktivlar to‘g‘risidagi qonunlarda kriptovalyuta muomalasi qisman tartibga solingan;

– ayrim xorijiy mamlakatlarda kiberxavfsizlikni ta’minlash chora-tadbirlari kuchaytirilmoqda;

– MDH mamlakatlari transmilliy kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish uchun xalqaro tashkilotlar doirasida faol hamkorlik qilmoqdalar;

– AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi kabi rivojlangan mamlakatlarning qonunchiligi yangi me’yoriy hujjatlar va amaliy qarorlar qabul qilish orqali takomillashtirilmoqda.

Yuqoridagilarga qaramasdan kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish sohasida quyidagi muammo va tahdidlar mavjud:

– shaffoflikning yetishmasligi;

– qonunchilikda bo‘shliqlarning mavjudligi;

– aniqlashning murakkabligi (raqamli tranzaksiyalarning anonimligi, shifrlash va anonimlashtirish texnologiyalaridan foydalanilishi);

– ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlar

(institutlarga bo‘lgan ishonchni susaytirishi, investitsiyalar darajasi va iqtisodiy o‘sishni pasaytirishi mumkin);

– kiberxavfsizlik tizimlaridagi zaifliklar;

– kiberxavfsizlik sohasida uzluksiz ta’lim tizimining mavjud emasligi;

– blokcheyn va sun’iy intellekt kabi yangi texnologiyalardan foydalanish korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ham imkoniyatlar, ham muammolarni keltirib chiqarmoqda;

– texnik ekspertiza o‘tkazish uchun tashkiliy-texnik imkoniyatlarning yetishmasligi.

Kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ekspertlar fikri:

Jon P. Karlin (John P. Carlin), AQSh Bosh prokurorining milliy xavfsizlik bo‘yicha sobiq yordamchisi: “Kiberkorrupsiya – bu shunchaki jinoyatchilikning yangi shakli emas. Bu davlat barqarorligiga tahdiddir. Ilgari pul solingan chamadonlar ishlatilgan joyda, bugun anonim kriptovalyuta hamyonlari va manipulyatsiya uchun botlar mavjud” .

Sesiliya Malmstrom (Cecilia Malmström), Yevropa Ittifoqining sobiq ichki ishlar bo‘yicha yevrokomissari: “Davlat boshqaruvi raqamli tizimlarining shaffofligisiz hech bir mamlakat kiberkorrupsiyaning o‘sishiga qarshi tura olmaydi. Ochiq ma’lumotlar va raqamli izlar bizning asosiy ittifoqchilarimizdir”.

Maykl Tovisson (Mikael Tofvesson), Shvesiya fuqarolik himoyasi agentligi: “Kiberkorrupsiya institutlarning raqamli zaifligi bilan bog‘liq. Zaif IT tizimlar orqali o‘g‘irlik sxemalari kirib kelayotganini ko‘ryapmiz. Bu raqamli xavfsizlikning yangi etikasini talab qiladi” [4].

O‘zbekistonda kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan takliflar

O‘zbekistonda kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish texnik va tashkiliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etadi:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi (Asosiy tushunchalar) kiberkorrupsiya tushunchasi bilan quyidagi tahrirda to‘ldirish:.

«3-modda. Asosiy tushunchalar

Kiberkorrupsiya – jinoiy daromadlarni yashirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda korrupsiyaviy harakatlar»

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga kiberkorrupsiya uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish:

1) JK 210-moddasi 2-qismini (pora olish) quyidagi tahrirdagi “d” kichik band bilan to‘ldirish:

«d) elektron to‘lov vositalaridan foydalangan holda pora olish»;

2) JK 211-moddasi 2-qismi (pora berish) quyidagi tahrirdagi “v” kichik band bilan to‘ldirish:

«v) elektron to‘lov vositalaridan foydalangan holda pora berish»;

3) JK 212-moddasi (Pora olish-berishda vositachilik qilish)

2-qismini quyidagi tahrirdagi “g” kichik band bilan to‘ldirish:

«g) elektron to‘lov vositalaridan foydalanish yoki ulardan foydalanishda ko‘maklashish»;

4) “moddiy qimmatliklarni” degan so‘zlardan keyin “(shuningdek elektron yoki virtual qimmatliklarni)” degan so‘zlar bilan to‘ldirish»;

Davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanishni tartibga soluvchi qonun ishlab chiqish.

3. Kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bo‘linma (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tergov departamentida kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi) tashkil etish.

3.1. Ichki ishlar vazirligi Tezkor-qidiruv va Tergov departamenti xodimlarini kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish uchun maxsus kurslar tashkil etish.

4. Davlat xaridlari uchun “E-regular” elektron platformalarini joriy etish (masalan E-AUKSION platformasi funksionalini kengaytirish), shuningdek, davlat tenderlarida ma’lumotlarning o‘zgarmasligini va tranzaksiyalarning shaffofligini ta’minlash uchun blokcheyn texnologiyalaridan keng foydalanish.

5. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va “Kiberxavfsizlik markazi” DUK tomonidan hamkorlikda davlat xizmatchilarini kiberxavfsizlik masalalari bo‘yicha o‘qitish va xabardorligini oshirish bo‘yicha treninglar, shuningdek, aholining raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan etika va ta’lim dasturlarini tashkil etish;

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha UNCAC (BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi) kabi xalqaro tashabbuslarda

faol ishtirok etish, Interpol va pul yuvishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralarni ishlab chiqish guruhi (FATF) kabi xalqaro tashkilotlar bilan ma’lumot va tajriba almashishni jadallashtirish.

7. Moliyaviy operatsiyalarni tahlil qilish va anomaliyalarni aniqlash, shuningdek, davlat xaridlarini kuzatish va shubhali tenderlarni aniqlash uchun sun’iy intellektdan foydalanish.

Xulosa

Tahlillar natijasiga ko‘ra, mamlakatimizda kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish uning huquqiy choralarini kuchaytirish, aholini kibervalyuta bilan muomala qilish madaniyatini rivojlantirish, dalil va isbotlar bazasini shakllantirish (sun’iy intellektdan foydalanish) bilan bog‘liq texnik chora-tadbirlarni o‘zida qamrab olgan kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish lozim.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hamda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari oldida turgan vazifalar to‘g‘risida” https://www.lex.uz/uz/docs/-7454538
2. Гончаров А.В. Цифровая коррупция: вызовы и механизмы противодействия. Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2020. – 192 б.
3. Баранов П.П., Иванов М.Н. Информационная безопасность и противодействие киберпреступности. Санкт-Петербург: Питер, 2021. – 288 б.
4. Solove D.J., Schwartz P.M. Information Privacy Law (7th edition). New York: Aspen Publishers, 2021. – 1120 p.
5. Transparency International. Corruption and Cybercrime: Understanding the Nexus. Berlin: Transparency International, 2023. – 64 p.
6. OECD. Digitalisation and Integrity in the Public Sector. Paris: OECD Publishing, 2021. – 148 p.
7. UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime). Combating Cyber-enabled Corruption: Best Practices and Tools. Vienna: United Nations, 2022. – 72 p.
8. Musaeva D. “Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning huquqiy asoslari”. Yuridik fanlar jurnali, 2023, №2, T.: Toshkent yuridik universiteti. – b. 45–52.
9. Karimov F., Tursunova N. “Raqamli texnologiyalar va korrupsiyaning zamonaviy shakllari”. Axborot xavfsizligi jurnali, 2024, №1. – T.: Inha universiteti. – b. 17–23.
10. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). Cybersecurity Threat Landscape – 2023. Athens: ENISA, 2023. – 98 p.
11. World Bank. GovTech: Putting People First.Washington, D.C.: World Bank Group, 2022. – 136 p.

Xo'jamberdiyev Farrux Komilovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti, yu.f.b.f.d. (PhD)

O'ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MEXANIZMLAR

Maqolada fuqarolik jamiyatining jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni hamda davlat institutlari bilan hamkorlik mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Turli nazariy yondashuvlar asosida xavfsizlik siyosatini shakllantirishda demokratik tamoyillar, ommaviy axborot vositalarining roli, raqamli xavfsizlik va global xavfsizlik tahdidlari o'rganilgan. Alexis de Tocqueville, Robert Putnam, Jürgen Habermas, Manuel Castells, Ulrich Beck, Anthony Giddens va Michel Foucault kabi olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanish imkoniyatlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, jamoat xavfsizligi, demokratik boshqaruv, xavfsizlik siyosati, ommaviy axborot vositalari, axborot xavfsizligi, davlat nazorati, global xavfsizlik, mahalla institutlari, huquqiy mexanizmlar, jinoyatchilik profilaktikasi, ijtimoiy kapital, ishonch, xavfsizlik strategiyasi, fuqarolik ishtiroki.

В статье научно анализируется роль гражданского общества в обеспечении общественной безопасности и механизмы его взаимодействия с государственными институтами. На основе различных теоретических подходов изучены демократические принципы формирования политики безопасности, роль СМИ, цифровая безопасность и глобальные угрозы безопасности. Проведен сравнительный анализ взглядов таких ученых, как Алексис де Токвиль, Роберт Патнэм, Юрген Хабермас, Мануэль Кастельс, Ульрих Бек, Энтони Гидденс и Мишель Фуко, а также рассмотрены их возможности применения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: гражданское общество, общественная безопасность, демократическое управление, политика безопасности, средства массовой информации, информационная безопасность, государственный контроль, глобальная безопасность, институты махалли, правовые механизмы, профилактика преступности, социальный капитал, доверие, стратегия безопасности, гражданское участие.

The article provides a scientific analysis of the role of civil society in ensuring public security and its cooperation mechanisms with state institutions. Various theoretical approaches are examined to study democratic principles in security policy formation, the role of mass media, digital security, and global security threats. A comparative analysis of the views of scholars such as Alexis de Tocqueville, Robert Putnam, Jürgen Habermas, Manuel Castells, Ulrich Beck, Anthony Giddens, and Michel Foucault is conducted, discussing their applicability in Uzbekistan.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI



Fuqarolik jamiyati institutlari zamonaviy xavfsizlik tizimida davlat bilan bir qatorda muhim funksional o‘rin egallaydi. Demokratik huquqiy davlat amaliyotida xavfsizlikni ta’minlash vazifasini faqat davlat organlari faoliyati bilan chegaralab bo‘lmaydi. Ushbu jarayon fuqarolarning huquqiy ongini va ijtimoiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarining tashabbuskorligini kengaytirish, shuningdek davlat va jamiyat o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish orqali kompleks tarzda ro‘yobga chiqariladi. Mazkur yondashuv jamoat xavfsizligini ta’minlashning institutsional-huquqiy asoslarini takomillashtirishni, xavfsizlik sohasida barqarorlikni ta’minlaydigan aniq mexanizmlar va kafolatlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Ta’kidlash lozimki, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha samarali siyosat faqat davlat idoralarining faoliyati bilan chegaralanmay, balki fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalarining faol ishtirokini ham talab etadi. Shu munosabat bilan ilmiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyati va xavfsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yoritishga qaratilgan turli nazariy yondashuvlar shakllangan. Xususan, Alexis de Tocqueville, Robert Putnam, Jürgen Habermas, Anthony Giddens, Ulrich Beck, Manuel Castells, Pierre Bourdieu, David Garland, Zygmunt Bauman va Michel Foucault kabi olimlarning qarashlari jamoat xavfsizligi tizimining demokratik tamoyillar asosida shakllanishi, fuqarolik jamiyatining ushbu jarayondagi o‘rni hamda xavfsizlik siyosatini inson huquqlari bilan uyg‘unlashtirish zarurati masalalariga turlicha nazariy talqinlar orqali yondashadi.

Zamonaviy ilmiy pozitsiyalar umumiy jihatdan xavfsizlikni ko‘p subyektli, ijtimoiy-huquqiy hamkorlikka asoslangan kompleks hodisa sifatida talqin qiladi; bunda fuqarolik jamiyatining faolligi demokratik boshqaruvning barqarorligi va jamoat xavfsizligining institutsional kafolatlarini mustahkamlovchi muhim omil sifatida ko‘riladi.

Alexis de Tocqueville fuqarolik jamiyatini jamoat xavfsizligining ajralmas qismi deb biladi[1]. Uning fikricha, jamoat xavfsizligining asosiy omillaridan biri fuqarolarning o‘zaro mas’uliyati va hamkorligi bo‘lib, bu jarayonda jamoatchilik nazorati muhim rol o‘ynaydi. Tocqueville jamoat xavfsizligini saqlash faqat davlat organlariga bog‘liq emasligini, balki jamiyatning o‘zi ham jamoat xavfsizligini ta’minlashda faol ishtirok etishi kerakligini ta’kidlaydi.

Robert Putnam esa jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida fuqarolik jamiyati va davlat idoralari o‘rtasidagi hamkorlikka urg‘u beradi[2]. Uning fikricha, jamoat xavfsizligi tizimi samarali ishlashi uchun davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muhim ahamiyatga ega. Putnam modeli jamoat tartibini saqlashda mahalla institutlari va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi.

Fikrimizcha, O‘zbekiston sharoitida Putnam modeli eng mos keladi, chunki mamlakatda mahalla institutlari va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi hamkorlik tobora kuchayib bormoqda. Shu sababli, jamoat xavfsizligi siyosatida fuqarolik jamiyati va davlat institutlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish va jamoatchilik ishtirokini oshirish zarur.

Jürgen Habermas xavfsizlik masalalarini muhokama qilishda omma ishtirokining oshirilishi va ommaviy axborot vositalari orqali xavfsizlik siyosatining ochiqligi ta’minlanishi kerakligini ta’kidlaydi[3]. Habermas fikricha, davlatning xavfsizlik choralari shaffof bo‘lishi lozim va fuqarolar ushbu siyosat bo‘yicha yetarli ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak. Shu bilan birga, u OAVning noto‘g‘ri ma’lumot tarqatish xavfini ham qayd etadi.

Manuel Castells esa axborot jamiyatida xavfsizlik tizimi davlat nazorati va fuqarolik jamiyatining ishtiroki o‘rtasidagi muvozanat asosida shakllanishi kerakligini ta’kidlaydi[4]. Uning fikriga ko‘ra, jamoat xavfsizligini saqlash jarayonida davlat haddan tashqari nazoratga ega bo‘lsa, bu demokratik tamoyillarni cheklaydi, lekin shuningdek, fuqarolarni axborot xavfsizligi masalalarida hushyor bo‘lishga o‘rgatish ham muhim.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda OAV va fuqarolik jamiyati ishtirokini oshirish muhim, lekin jamoat xavfsizligini saqlash maqsadida ommaviy axborotning ishonchliligini ta’minlash ham zarur. Shu sababli, davlat va jamiyat o‘rtasida jamoat xavfsizligi bo‘yicha muloqotni kuchaytirish, lekin davlatning ortiqcha nazoratidan qochish lozim.

Ulrich Beck zamonaviy xavfsizlik

tahdidlarini global miqyosda baholash zarurligini ta'kidlaydi[5]. Uning fikricha, fuqarolar xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarni oldindan anglash va ularga qarshi kurashish jarayonida ishtirok etishlari lozim. Ayniqsa, terrorizm, ekologik muammolar va kiberjinoyatchilik kabi zamonaviy tahdidlarga qarshi jamoaviy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak.

Anthony Giddens esa jamoat xavfsizligini faqat davlat ishi emas, balki fuqarolar ham unda faol ishtirok etishi lozim deb hisoblaydi[6]. Uning fikricha, jamoat xavfsizligi tizimi markazlashgan holda emas, balki ijtimoiy institutlar va fuqarolik jamiyati orqali kengaytirilgan shaklda ishlashi lozim.

Fikrimizcha, O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuvlardan foydalanish mumkin, chunki mamlakatda jamoat xavfsizligiga qarshi kurash muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, jamoat xavfsizligi siyosatini global tahdidlarga moslashtirish va raqamli xavfsizlik choralari ko'rish zarur.

Michel Foucault esa jamoat xavfsizligi tizimi davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy nazorat vositasiga aylanishi mumkinligini qayd etadi[7]. U jamoat xavfsizligi choralari inson huquqlariga zid bo'lishi mumkinligidan ogohlantiradi.

Fikrimizcha, O'zbekistonda jamoat xavfsizligi tizimi samaradorligini oshirish uchun jamoat ishtirokini kuchaytirish kerak, biroq bu jarayonda davlat nazorati haddan tashqari kuchaytirilmasligi lozim. Shu sababli, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muvozanat saqlanishi kerak.

Jamoat xavfsizligi va fuqarolik jamiyatining o'zaro bog'liqligini tahlil qilishda turli nazariy yondashuvlarni solishtirish muhimdir. Alexis de Tocqueville fuqarolik jamiyatini davlat hokimiyatiga qarshi tura oladigan mustaqil institutlar tizimi deb hisoblaydi va jamoatchilik nazoratining muhimligini ta'kidlaydi. Robert Putnam esa davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi ijtimoiy kapital va ishonchni asosiy omil sifatida ko'radi. Jürgen Habermas xavfsizlik masalalarini muhokama qilishda ommaviy axborot vositalarining rolini muhim deb biladi va jamoatchilikning ochiq muloqot orqali xavfsizlik siyosatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatini ilgari suradi. Michel Foucault nazariyasiga ko'ra, jamoat xavfsizligi davlat nazorati va ijtimoiy boshqaruv vositasiga aylanishi mumkin, shuning uchun bu jarayonda inson huquqlarining himoya qilinishi lozim. Manuel Castells esa raqamli jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muvozanat asosida ta'minlanishi lozimligini ta'kidlaydi. Ushbu nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili O'zbekiston sharoitida qaysi modelning samarali bo'lishini aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi uchun fuqarolik jamiyati va jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va jamoat xavfsizligi siyosatini demokratik tamoyillar asosida takomillashtirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy xavfsizlik tahdidlari tobora murakkablashib borayotgan sharoitda jamoat xavfsizligi masalalarida davlat va jamiyatning birgalikdagi harakat qilishi zaruriyati yanada ortmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun Robert Putnam, Manuel Castells, Anthony Giddens, Michel Foucault va Ulrich Beck tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, ular davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, jamoat xavfsizligi siyosatining ochiqligi va demokratik boshqaruv tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, Robert Putnam tomonidan ilgari surilgan konsepsiya O'zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligi masalalarida fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi. Putnamga ko'ra, davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy ishonch jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimining samarali ishlashiga asos bo'ladi. Agar jamiyat jamoat xavfsizligi masalalarida faollik ko'rsatmasa va davlat bilan hamkorlik qilmasa, jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayoni samarasiz bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda mahalla institutlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari jamoat xavfsizligini ta'minlashda tobora faol ishtirok eta boshladi. Ayniqsa, mahalla tizimi jamoatchilik nazorati va profilaktik xavfsizlik choralarini amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Putnam modeli O'zbekistonning milliy xususiyatlariga mos keladi, chunki mamlakatda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik ishtirokiga asoslangan jamoat xavfsizligini ta'minlash siyosati an'anaviy tarzda rivojlangan. Shu sababli, O'zbekistonda jamoat xavfsizligini

ta’minlash siyosatini takomillashtirish jarayonida fuqarolik jamiyatining ishtirokini kuchaytirish va davlat idoralari bilan hamkorligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalariga yangi o‘zgarishlar olib kirmoqda. Manuel Castells tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko‘ra, axborot jamiyatida xavfsizlik tizimi davlat nazorati va fuqarolik ishtirokini muvozanatli shaklda rivojlantirish orqali amalga oshirilishi kerak. Bunda fuqarolik jamiyati jamoat xavfsizligini ta’minlash siyosatining sub’yekti sifatida faol ishtirok etishi zarur, ayniqsa, axborot xavfsizligi va kiberjinoyatlarga qarshi kurash masalalarida.

O‘zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonida jamoat xavfsizligini ta’minlashga oid yangi muammolar paydo bo‘layotgani sababli Castells yondashuvi dolzarb ahamiyatga ega. O‘zbekistonda davlat organlari jamoat xavfsizligini ta’minlashda yetakchi rol o‘ynaydi, biroq fuqarolik jamiyatining bu jarayondagi ishtiroki hali yetarli darajada emas. Shu sababli, O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash siyosatini takomillashtirishda Castells modeli asosida axborot xavfsizligi bo‘yicha fuqarolik jamiyati ishtirokini kengaytirish muhimdir.

O‘zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha fuqarolik jamiyati institutlarining roli tobora oshib bormoqda. Mahalla institutlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati subyektlari jinoyatchilikni oldini olish, yoshlar tarbiyasi, huquqiy madaniyatni shakllantirish kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritmoqda. Masalan, 2022-yildan boshlab “Xavfsiz mahalla” konsepsiyasi asosida fuqarolar yig‘inlari va ichki ishlar bo‘limlari hamkorligida profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mahalliy nodavlat tashkilotlar orqali oilaviy zo‘ravonlik, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi kabi ijtimoiy muammolar bo‘yicha monitoring tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Bu borada M.M.Mirakulov fuqarolar jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashda bevosita ishtirok etish huquqini quyidagi shakllarda amalga oshirish mumkinligini ta’kidlagan:

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jalb etlganda yakka tartibda ishtirok;

“Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlariga a’zolik;

Jamoat tartibini saqlash bo‘yicha ko‘ngilli tuzilmalar(otryadlar, jamoalar, guruhlar)da ishtirok etish[8].

M.M. Mirakulovning fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashda ishtiroki to‘g‘risidagi fikrlari dolzarb bo‘lsa-da, ularning huquqiy va institutsional jihatlari chuqur tahlilni talab qiladi. Xususan, fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jalb etilishi, “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlariga a’zoligi va ko‘ngilli tuzilmalarda ishtiroki samaradorligi huquqiy asoslarga bog‘liqdir.

Fuqarolarning jamoat xavfsizligida yakka tartibda qatnashishi ularning huquqiy maqomini aniq belgilashni talab qiladi. Agar huquqiy himoya mexanizmlari yetarli bo‘lmasa, fuqarolar ishtirok etishdan voz kechishi mumkin.

“Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlarning huquqiy maqomi va vakolatlari aniq belgilanmasa, ularning faoliyati noqonuniy harakatlarga yoki korrupsiyaviy xavflarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, ularning ishlash mexanizmi rasmiy me’yoriy hujjatlar bilan mustahkamlanishi lozim.

Xalqaro tajribada bunday tizimlar mavjud bo‘lsa-da, ularning samaradorligi huquqiy nazoratga bog‘liq. O‘zbekistonda bunday tuzilmalar shakllantirilishida xorijiy tajribadan oqilona foydalanish zarur.

Mirakulovning fikrlari jamoat xavfsizligini ta’minlashda innovatsion yondashuv bo‘lsa-da, ularning samarali qo‘llanilishi huquqiy va institutsional asoslarni mustahkamlashga bog‘liq. Fuqarolar ishtirokini oshirish uchun ularning huquqlari aniq belgilanishi, faoliyatlari qonunchilik bilan tartibga solinishi lozim. Shu nuqtai nazardan, jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston sharoitida Putnam, Habermas va Castells yondashuvlari uyg‘un holda tatbiq etilishi mumkin, chunki davlat va fuqarolik jamiyati hamkorligini rivojlantirish uchun huquqiy asoslar va amaliy mexanizmlar mavjud.

Bundan tashqari, Anthony Giddens tomonidan ilgari surilgan yondashuv jamoat xavfsizligini faqat davlat ishi emas, balki

fuqarolar ham unda faol ishtirok etishi lozim degan konsepsiyaga asoslanadi. Giddens fikricha, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi markazlashgan holda emas, balki ijtimoiy institutlar va fuqarolik jamiyati orqali kengaytirilgan shaklda ishlashi lozim. O'zbekiston sharoitida fuqarolar huquqiy savodxonligini oshirish va jamoat xavfsizligini ta'minlash siyosati bo'yicha jamoatchilik muhokamalarini rivojlantirish orqali Giddens modelidan foydalanish mumkin.

Michel Foucault jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy nazorat vositasi sifatida ko'rib chiqadi. U jamoat xavfsizligini ta'minlash siyosatini tashkil etishda haddan tashqari davlat nazorati fuqarolarning erkinligini cheklashi mumkinligi haqida ogohlantiradi. Foucault yondashuvi jamoat xavfsizligini ta'minlash choralarining shaffofligi va demokratik boshqaruv tamoyillariga mos kelishini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi.

Ulrich Beck esa zamonaviy jamoat xavfsizligini ta'minlash muammolarini faqat davlat kuchi bilan hal qilishning imkonsizligini, chunki jamoat xavfsizligiga tahdidlar tobora global tus olayotganini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, fuqarolik jamiyati global xavfsizlik tahdidlariga nisbatan jamoaviy yondashuv orqali javob qaytarishi kerak. Terrorizm, ekologik muammolar va kiberjinoyatchilik kabi xavflarga qarshi kurashda davlat va jamiyatning o'zaro hamkorligi asosiy omil bo'lib xizmat qilishi kerak.

O'zbekiston sharoitida Foucault va Beck modellaridan foydalanish muhim, biroq ehtiyotkorlik bilan tatbiq etish lozim. Davlat jamoat xavfsizligini ta'minlash siyosatini yuritishda inson huquqlari va demokratik boshqaruv tamoyillariga rioya qilishi, lekin favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash choralarini tezkor va samarali amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shu sababli, O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlash siyosatini takomillashtirishda fuqarolik jamiyatining rolini oshirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash choralarining shaffofligini ta'minlash va jamiyatni xavfsizlik masalalarida faollikka undash zarur.

O'zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta'minlash siyosatini takomillashtirish uchun fuqarolik jamiyati va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Robert Putnam modeli jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalarida davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun mos keladi, chunki mamlakatda mahalla institutlari va fuqarolik jamiyatining xavfsizlikdagi ishtiroki ortib bormoqda.

Shuningdek, Manuel Castells va Anthony Giddens modellaridan foydalanish mumkin, chunki ular zamonaviy jamoat xavfsizligini ta'minlashga tahdidlariga, ayniqsa, axborot xavfsizligi va raqamli xavfsizlik muammolariga urg'u beradi.

Bundan tashqari, Foucault va Beck yondashuvlari ekstremal holatlarga tegishli bo'lsa-da, O'zbekiston jamoat xavfsizligini ta'minlash siyosatini yanada demokratlashtirish va fuqarolik jamiyati ishtirokini oshirishda qo'llanishi mumkin. Ushbu modellar asosida O'zbekiston jamoat xavfsizligini ta'minlash siyosatini zamonaviy talablar va demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirishi, davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishi hamda fuqarolar huquqlari va jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar o'rtasida muvozanatlashtirish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishi kerak.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolik jamiyatining ishtiroki tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy tahdidlar sharoitida xavfsizlik faqat davlatning ishi bo'lib qolmasdan, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar va mahalla tizimining faolligini talab qiladi.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2023-yilgi yillik tahliliy hisoboti[9] ga ko'ra, mahalla institutlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida amalga oshirilgan profilaktik chora-tadbirlar jinoyatchilik darajasining 8% ga pasayishiga olib kelgan. Ushbu natija huquqni muhofaza qilish organlari va mahalliy jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini oshirishga xizmat qilganining yaqqol isboti bo'lib, jamoat xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy institutlarning faolligi muhim omil ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari[10] ga ko'ra, 2022-2023 yillarda mahalliy jamoatchilik va huquqni muhofaza

qilish organlari tomonidan amalga oshirilgan profilaktik choralar natijasida oilaviy zo‘ravonlik holatlari 15% ga kamaygan. Bu natijalar oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash, ularning oldini olish va jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tizimli yondashuv samaradorligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning oshishi, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash ham muhim omillar sifatida baholanadi.

Mazkur ijobiy o‘zgarishlar O‘zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi mustahkam aloqalar asosida shakllangan xavfsizlik strategiyasining real natijalari bo‘lib, kelgusida jamoat xavfsizligini ta’minlash siyosatini takomillashtirish, mahalla institutlari va jamoatchilik ishtirokini yanada kengaytirish, huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish va oilaviy nizolarning oldini olish bo‘yicha innovatsion mexanizmlarni joriy etish lozimligini anglatadi.

Ushbu yo‘nalishda qo‘llash mumkin bo‘lgan quyida keltirilgan ilmiy asoslangan strategiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi samaradorligi davlat organlari bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokiga ham bog‘liq. Robert Putnam tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko‘ra, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy ishonch jamoat xavfsizligi tizimining barqaror ishlashiga asos bo‘ladi. Fuqarolik jamiyatining jamoat tartibini saqlashdagi roli kengaytirilishi orqali xavfsizlik tizimi yanada demokratik tus oladi. Xususan, mahallalar va nodavlat tashkilotlar ishtirokida xavfsizlik choralari samaradorligini oshirish ijtimoiy kapitalni mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, jamoat xavfsizligi bo‘yicha davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikni institutsional darajada rivojlantirish zarur.

Ushbu masalani hal etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya hamda Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi hamkorligida “Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha Davlat-Fuqarolik Jamiyati Hamkorlik Dasturi” ishlab chiqilishi taklif etiladi. Mazkur dastur fuqarolik jamiyatining jamoat xavfsizligidagi ishtirokini oshirish, mahallalarda xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish va huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikni kuchaytirishga yo‘naltiriladi.

Dastur doirasida quyidagi amaliy qadamlarni amalga oshirish lozim: (1) mahallalar, nodavlat tashkilotlar va huquqni muhofaza qilish organlari vakillaridan iborat doimiy ishlovchi xavfsizlik monitoring guruhlarini tashkil etish; (2) har bir mahalla fuqarolar yig‘inida xavfsizlik bo‘yicha rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va uni ichki ishlar organlari bilan muvofiqlashtirish; (3) “Fidokor yoshlar” loyihasi doirasida jamoatchilik asosida ishlaydigan xavfsizlik volontyorlari tizimini kengaytirish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning faolligi oshib, mahalla institutlari va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasida ishonch mustahkamlanadi. Xavfsizlik choralari mahalliy hamjamiyat darajasida amalga oshirilishi natijasida xavfsizlikni ta’minlashning oldini olish funksiyalari kuchayadi. Natijada jamoat tartibini saqlash bo‘yicha davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga chiqadi.

Ikkinchidan, Jamoat xavfsizligini ta’minlash siyosatining ochiqligi va shaffofligi fuqarolar ishonchini oshirishning muhim omillaridan biridir. Jürgen Habermas va Manuel Castells qarashlariga ko‘ra, xavfsizlik siyosati samarali bo‘lishi uchun OAV orqali davlatning xavfsizlik bo‘yicha qarorlari tushunarli va ochiq tarzda yoritilishi lozim. Biroq, zamonaviy axborot makonida noto‘g‘ri ma’lumotlarning keng tarqalishi fuqarolar orasida xavfsizlik masalalariga nisbatan noto‘g‘ri tushunchalarni shakllantirishi mumkin. Shu bois, jamoat xavfsizligiga oid xabarlarning ishonchliligini oshirish va dezinformatsiyaga qarshi kurashish zarur.

Bu muammoni hal etish uchun Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, OAV va blogerlar ishtirokida “Jamoat xavfsizligi bo‘yicha OAV va Blogerlar kodeksi” ishlab chiqilishi taklif etiladi. Ushbu kodeks OAV va blogerlarning xavfsizlik masalalarini yoritishdagi javobgarligini oshirishga, dezinformatsiyaga qarshi samarali kurashishga xizmat qiladi.

Mazkur kodeks doirasida quyidagi amaliy qadamlarni amalga oshirish lozim: (1) jamoat xavfsizligi masalalarida noto‘g‘ri ma’lumotlarning oldini olish maqsadida fact-checking (faktlarni tekshirish) markazini

tashkil etish; (2) ommaviy axborot vositalari va blogerlar uchun rasmiy manbalar orqali muntazam xavfsizlik statistikasi va tahlillarni yetkazish mexanizmini yaratish; (3) xavfsizlik mavzusidagi teleko‘rsatuv va radioeshittirishlarni tashkil etish.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilgach, jamoat xavfsizligiga oid axborot shaffofligi ortadi va dezinformatsiyaning oldi olinadi. Natijada, fuqarolar xavfsizlik masalalarida ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lishadi, bu esa jamoatchilik va davlat o‘rtasida ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan jamoat xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlarning yangi shakllari – kibertahdidlar va kiberjinoyatchilik ortib bormoqda. Manuel Castells va Ulrich Beck tomonidan ilgari surilgan nazariyalarga ko‘ra, xavfsizlikni ta’minlashda fuqarolik jamiyatining roli oshishi bilan birga, davlat organlari tomonidan haddan tashqari nazorat qilish xavfi ham mavjud. Shu sababli, kiberxavfsizlik sohasida davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatda axborot xavfsizligi jamoat xavfsizligining ajralmas qismi bo‘lib, Manuel Castells va Ulrich Beck yondashuvlari bu masalaga alohida e’tibor qaratadi. O‘zbekiston sharoitida raqamli xavfsizlik bo‘yicha quyidagi muammolar mavjud: kiberjinoyatchilik darajasi oshib bormoqda, jumladan, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasida kiberfiribgarlik bilan bog‘liq jinoyatlar 27% ga ortgan[11]; fuqarolar orasida raqamli xavfsizlik bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalar shakllanmagan, masalan, fishing va ma’lumotlarni o‘g‘irlashga qarshi samarali himoya tizimlaridan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida “Fuqarolar uchun kibertahdidlarni oldini olish markazi”ni tashkil etish taklif etiladi. Ushbu markaz orqali fuqarolar uchun kibertahdidlar bo‘yicha xabardorlik darajasi oshiriladi va davlat organlari hamda jamiyat o‘rtasida internet xavfsizligi bo‘yicha hamkorlik rivojlantiriladi.

Markaz doirasida quyidagi amaliy qadamlarni amalga oshirish lozim: mahallalarda va oliy o‘quv yurtlarida internet tahdidlariga qarshi kurash bo‘yicha bepul o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish; fuqarolar kiberjinoyatlar va onlayn firibgarlik holatlari haqida anonim xabar berishlari uchun maxsus onlayn shikoyat platformasini yaratish; (3) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Axborot xavfsizligi markazi hamkorligida internet xavfsizligi bo‘yicha monitoring tizimini joriy etish.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida kibertahdidlarga qarshi kurashda samarali tizim yaratiladi, fuqarolar internet xavfsizligiga oid huquqiy savodxonligi oshadi hamda kiberjinoyatlarga qarshi tezkor va samarali chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Montesquieu C. The Spirit of the Laws. – Paris: Gallimard, 1748. - 550 b. https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/S/bo13182525.html
2. Putnam R. D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster, 2000. - 500 b. https://www.simonandschuster.com/books/Bowling-Alone/Robert-D-Putnam/9780743203043
3. Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere. – Cambridge: MIT Press, 1962. – 280 b. https://mitpress.mit.edu/9780262581080/the-structural-transformation-of-the-public-sphere/
4. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Wiley-Blackwell, 1996. – 350 b. https://www.wiley.com/en-us/The+Rise+of+the+Network+Society,+2nd+Edition-p-9781444319515
5. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: SAGE Publications, 1992. – 260 b. https://us.sagepub.com/en-us/nam/risk-society/book205504
6. Giddens A. The Consequences of Modernity. – Stanford: Stanford University Press, 1990. – 250 b. https://www.sup.org/books/title/?id=28843
7. Foucault M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. – New York: Pantheon Books, 1975. – 350 b. https://www.penguinrandomhouse.com/books/56233/discipline-and-punish-by-michel-foucault/

8. Mirakulov M.M. va boshqalar Jamoat xavfsizligini ta’minlash asoslari. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. -471 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. O‘zbekiston Respublikasida jinoyatchilik darajasining tahlili va oldini olish choralari bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent: Ichki ishlar vazirligi nashriyoti. www.iiv.uz
10. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi. O‘zbekiston Respublikasida oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurash bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar statistikasi. Toshkent: Bosh prokuratura nashriyoti. www.prokuratura.uz
11. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. O‘zbekistonda kiberjinoyatchilik tahdidlarini baholash va oldini olish choralari bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent: Raqamli texnologiyalar vazirligi nashriyoti.

Олейник Валентин Валентинович,
Самостоятельный соискатель Университета
общественной безопасности Республики Узбекистан

ФИКСАЦИЯ ДОКАЗАТЕЛЬСТВЕННОЙ ИНФОРМАЦИИ ПО НАРКОПРЕСТУПЛЕНИЯМ, СОВЕРШЕННЫМ В СЕТИ ИНТЕРНЕТ

В статье рассматриваются теоретические и практические проблемы фиксации доказательственной информации по уголовным делам, связанным с незаконным оборотом наркотических средств, совершённым с использованием сети Интернет. Автор анализирует характерные особенности цифровых следов в условиях бесконтактного наркосбыта, способы их фиксации, а также вопросы допустимости полученных доказательств в судебном процессе. На основе изучения научной литературы, следственной и судебной практики, предлагаются рекомендации по совершенствованию методик фиксации, включая использование сертифицированного программного обеспечения, внедрение технических регламентов и усиление межведомственного взаимодействия. Обоснована необходимость нормативной детализации процедуры обращения с цифровыми носителями, создания единых стандартов извлечения и хранения информации, а также повышения профессиональной подготовки следователей в сфере цифровой криминалистики. Работа представляет интерес для сотрудников правоохранительных органов, специалистов по кибербезопасности и научного сообщества, занимающегося исследованием цифровых аспектов уголовного судопроизводства.

Ключевые слова: расследование, наркопреступления, интернет, цифровые доказательства, криминалистика, телеграм-каналы, киберпреступность, взаимодействие, информация, уголовный процесс.

Мақолада интернетдан фойдаланган ҳолда гиёҳванд моддаларнинг ноқонуний айланиши билан боғлиқ жиноий ишлар бўйича далилий маълумотларни қайд етишнинг назарий ва амалий муаммолари муҳокама қилинади. Муаллиф контакциз дори бозоридаги рақамли изларнинг характерли хусусиятларини, уларни аниқлаш усулларини, шунингдек суд жараёнларида олинган далилларнинг қабул қилиниши масалаларини таҳлил қилади. Илмий адабиётларни, тергов ва суд амалиётини ўрганиш асосида рўйхатга олиш техникасини такомиллаштириш, шу жумладан сертификатланган дастурий таъминотдан фойдаланиш, техник регламентларни жорий етиш ва идоралараро ҳамкорликни мустаҳкамлаш бўйича тавсиялар таклиф етилади. Рақамли оммавий ахборот воситалари билан ишлаш тартибини тартибга солиш, ахборотни олиш ва сақлашнинг ягона стандартларини яратиш, шунингдек рақамли суд экспертизаси соҳасида терговчиларнинг касбий тайёргарлигини такомиллаштириш зарурлиги асосланади. Иш ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимлари, киберхавфсизлик бўйича мутахассислар ва жиноят процессининг рақамли жиҳатларини ўрганиш билан шуғулланадиган илмий жамоатчиликни қизиқтиради.

Калит сўзлар: тергов, гиёҳвандлик жиноятлари, Internet, рақамли далиллар, криминология, telegram каналлари, кибержиноятчилик, ўзаро таъсир, ахборот, жиноят процесси.

The article deals with theoretical and practical problems of fixation of evidentiary information in criminal cases related to illegal drug trafficking committed with the use of the Internet. The author analyses the characteristic features of digital traces in the conditions of non-contact drug sales, methods of their fixation, as well as the issues of admissibility of the obtained evidence in the judicial process. Based on the study of scientific literature, investigative and judicial practice, recommendations are offered to improve the methods of fixation, including the use of certified software, the introduction of technical regulations and strengthening interagency cooperation. The necessity of normative detailing of the procedure of handling digital media, creation of unified standards of information retrieval and storage, as well as increasing the professional training of investigators in the field of digital forensics is substantiated. The work is of interest to law enforcement officers, cybersecurity specialists and the scientific community engaged in the study of digital aspects of criminal proceedings.

Keywords: investigation, drug offences, internet, digital evidence, forensics, telegram channels, cybercrime, interaction, information, criminal procedure.

Современный этап развития общества характеризуется широким проникновением цифровых технологий во все сферы жизнедеятельности, включая противоправную. Одной из наиболее тревожных тенденций последних лет стало перемещение незаконной наркоторговли в виртуальную плоскость — в частности, в сеть Интернет, включая даркнет, мессенджеры, социальные сети, а также специализированные платформы, ориентированные на бесконтактный сбыт. Данное обстоятельство обусловило необходимость качественного переосмысления существующих криминалистических подходов к фиксации доказательственной информации, возникающей при расследовании преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических средств с использованием информационно-коммуникационных технологий (ИКТ).

Актуальность избранной темы обусловлена несколькими аспектами.

Во-первых, в условиях цифровизации наркобизнеса существенно возрастает уровень его латентности: обмен информацией между организаторами, закладчиками и потребителями осуществляется посредством зашифрованных каналов связи и анонимных электронных идентификаторов, а передача наркотиков происходит через закладки без личного контакта [1]. Согласно статистике Комитета по правовой статистике и специальным учетам Генеральной прокуратуры Республики Казахстан, в 2024 году более 68% выявленных фактов сбыта наркотиков сопровождались использованием электронных платформ и интернет-сервисов.

Во-вторых, фиксация цифровых следов требует применения специализированных программных комплексов, знаний в сфере кибербезопасности и соответствующих криминалистических алгоритмов.

Научная новизна исследования заключается в том, что в условиях растущей технологизации преступной деятельности по незаконному обороту наркотиков, выявляется необходимость системного подхода к фиксации и юридически значимому оформлению цифровой доказательственной информации. Речь идет не только о логах посещений сайтов, IP-адресах, переписке в мессенджерах, данных из криптокошельков, но и об особенностях сохранения и легализации этих материалов в уголовном процессе. В отличие от традиционных форм наркоторговли, где преобладают вещественные доказательства (образцы веществ, упаковка, следы хранения и перевозки), цифровая наркопреступность опирается



на нематериальные доказательства, требующие особой тактики обнаружения и процессуального оформления.

Ряд учёных уже обращались к данной проблематике. Так, в работах Ю.В. Гаврилина и И.С. Бедерова обоснована необходимость стандартизации процедур установления владельцев криптовалютных кошельков при расследовании наркопреступлений [2]. О.С. Кайгородова акцентирует внимание на проблемах легализации цифровой информации в качестве доказательств по уголовным делам [3]. Зарубежные исследования, в том числе труды E. Casey и B. Carrier, анализируют методы фиксации цифровых следов в распределённых сетях и роль цифровой криминалистики в процессе доказывания [4].

Таким образом, объективная реальность диктует необходимость не только правового, но и методического совершенствования процедур фиксации доказательственной информации по наркопреступлениям, совершаемым в сети Интернет. Настоящее исследование направлено на формулирование предложений, ориентированных на практическое применение в деятельности следственных и оперативных подразделений, с учётом современных технических возможностей и процессуальных ограничений.

Нарушения, связанные с незаконным оборотом наркотических средств, стремительно адаптируются к возможностям цифровой среды. Основными каналами распространения выступают даркнет-маркетплейсы, зашифрованные мессенджеры (Telegram, Wickr, Signal), а также теневые сайты, маскирующиеся под обычные форумы или торговые площадки. При этом общение между продавцами, так называемыми «операторами», и покупателями организуется в псевдоанонимном формате, что затрудняет идентификацию участников. Расчеты преимущественно осуществляются через криптовалюту, а способ доставки реализуется через систему «dead drop» (закладок) [5].

В этих условиях фиксация доказательственной информации приобретает качественно новые характеристики. Ключевую роль начинают играть такие источники, как:

- скриншоты переписки и публикаций в даркнете и мессенджерах;
- данные IP-адресов, MAC-адресов, геолокации;
- журнал системных событий (логи) на серверах и пользовательских устройствах;
- данные о транзакциях в блокчейне;
- видеозаписи с камер наблюдения при передаче закладок.

Фиксация подобных следов требует не только высокотехнологичного оборудования, но и строго соблюдения процессуальных требований, вытекающих из ст. 125 УПК РК [6], а также международных стандартов, предусмотренных Будапешской конвенцией о киберпреступности 2001 года [7]. Согласно действующему законодательству, каждый элемент цифрового доказательства должен быть получен, зафиксирован и изъят в соответствии с принципами допустимости и достоверности.

Современные методики фиксации цифровой информации в рамках расследования наркопреступлений условно подразделяются на превентивные (мониторинг и выявление) и реагирующие (сбор и изъятие). В Казахстане с 2021 года используется комплекс технических средств, в том числе система «Кибершторм», позволяющая в автоматическом режиме анализировать интернет-трафик на предмет ключевых слов, характерных для наркотематики [8].

Фиксация доказательств осуществляется с использованием специализированных программ, таких как Belkasoft Evidence Center, FTK Imager, Magnet AXIOM. Эти средства позволяют произвести точную копию (имидж) устройства, восстановить удалённую переписку, извлечь метаданные файлов. Отдельное значение имеет применение скрин-рекордеров, средств видеозахвата экрана, а также генераторов хэш-сумм (SHA256, MD5), позволяющих подтвердить неизменность цифрового файла [9].

Исследователь М.В. Лелетова в своей работе подчеркивает, что фиксация цифровых доказательств невозможна без точного соблюдения процедуры, предусмотренной протоколом осмотра электронных устройств и сетевой активности, включая описание всех этапов доступа, программных средств и создаваемых копий [10]. Это полностью кор-

релирует с выводами В.Н. Кудрявцева о том, что юридическая сила цифровых доказательств напрямую зависит от соблюдения алгоритма процессуальной фиксации [11].

Одной из наиболее дискуссионных проблем в правоприменительной практике остаётся вопрос допустимости цифровых доказательств. Несмотря на формальную норму ст. 125 УПК РК, определяющую допустимость любого доказательства при условии его получения в соответствии с законом, в судах нередки случаи признания цифровой информации недопустимой. Основные причины связаны с нарушением процедуры изъятия, отсутствием хэш-сумм, непрозрачностью методики фиксации, а также отсутствием сертифицированного программного обеспечения.

В практике Верховного Суда РК зафиксированы случаи, когда скриншоты переписок в мессенджерах признавались недопустимыми, если отсутствовали технические акты, подтверждающие целостность файла, или протоколы, фиксирующие путь получения информации [12]. Аналогичные позиции содержатся в решениях российских судов где суды указывали, что цифровая переписка не может быть положена в основу обвинения без установления факта её подлинности [13].

Как отмечает О.С. Кайгородова, проблема допустимости цифровых доказательств требует не только юридической регламентации, но и наличия методических стандартов по их получению и закреплению, включая определение минимального перечня обязательных реквизитов: времени создания, источника, фиксации цифрового следа, участия понятых или видеофиксации [3, с. 45]. В условиях, когда наркосбыт через сеть осуществляется в большинстве случаев безлично, доказательная база основывается именно на цифровых следах, и их признание недопустимыми часто влечёт прекращение уголовного преследования по реабилитирующим основаниям.

Проблему также усугубляет отсутствие национального технического регламента, регламентирующего порядок создания электронных копий и имиджей носителей информации. В условиях, когда криминалист действует по ситуации, без унифицированного алгоритма, велика вероятность потери доказательственной ценности информации. Некоторые авторы предлагают создать отдельный нормативный акт, регламентирующий порядок фиксации, хранения и передачи цифровых доказательств в органах внутренних дел и органах прокуратуры [14].

Анализ материалов дел, рассмотренных в судах Республики Казахстан за 2020–2024 годы, показывает, что фиксация доказательств по интернет-наркопреступлениям чаще всего осуществляется при участии сотрудников специальных подразделений по борьбе с киберпреступностью. В качестве примера можно привести дело № 7520/2023, рассмотренное в суде города Алматы, в котором основным доказательством обвинения стали данные об интернет-переписке, идентификации аккаунта Telegram, а также информация с криптовалютного кошелька, полученная по запросу правоохранительных органов на платформу Binance [15].

Особое внимание уделяется фиксации момента «закладки» — ключевого действия сбытчика. Здесь активно применяются негласные следственные действия, фиксация с использованием скрытых камер, а также дактилоскопическая экспертиза на упаковках. Однако, как указывает Т.А. Михайлова, применение таких средств должно сопровождаться их цифровым удостоверением (метки времени, геолокация, хэш-функции), иначе доказательство будет признано сомнительным [16].

Следственная практика также указывает на растущую роль аналитических инструментов: использование машинного анализа текстов, построение графов взаимодействия (социальных сетей), трекинг криптопереводов с помощью Chainalysis и Crystal Blockchain. Такие инструменты, по мнению С.В. Баранова, не только расширяют возможности следствия, но и позволяют выявлять скрытые связи между участниками преступных сообществ, а также использовать информацию в целях профилактики [17].

В условиях цифровой трансформации противоправной деятельности, включая незаконный оборот наркотических средств, наблюдается устойчивая тенденция смещения акцентов в сторону

интернет-коммуникаций, криптовалютных транзакций и бесконтактного сбыта. Сложность фиксации доказательственной информации при расследовании наркопреступлений, совершённых в сети Интернет, заключается в многослойной структуре цифровых следов, использовании технологий анонимизации, а также в правовой неопределенности процессуального режима отдельных видов электронных доказательств.

Анализ научных подходов, судебной и следственной практики позволил выявить ряд существенных проблем: отсутствие унифицированных методик фиксации цифровых следов, дефицит специализированного программно-технического оснащения, неразвитость нормативной базы, касающейся допустимости и проверки подлинности электронных доказательств. В то же время выработка надлежащего алгоритма действий в условиях цифровой криминалистики позволяет обеспечить надлежащее доказывание и успешное судебное преследование интернет-наркопреступников.

В целях повышения эффективности расследования наркопреступлений, совершаемых с использованием информационно-коммуникационных технологий, следственным подразделениям целесообразно принять к реализации следующие практические рекомендации:

- разработать и внедрить ведомственные регламенты и инструкции, устанавливающие процедуру фиксации, копирования, хэширования и хранения цифровых доказательств, полученных в ходе следственных действий (включая изъятие гаджетов, осмотр сайтов, видеозаписи и лог-файлы);

- использовать сертифицированное криминалистическое ПО (Belkasoft, Magnet AXIOM, FTK) для изъятия и анализа информации, обеспечивая достоверность получаемых данных и возможность их последующей верификации в суде;

- проводить обязательную видеофиксацию всех действий при работе с цифровыми устройствами, а также включать в протоколы сведения о применённых технических средствах, лицах, участвовавших в фиксации, и контрольных хэш-суммах;

- укреплять взаимодействие с международными криптобиржами и платформами, создавая механизм быстрого получения информации по криптокошелькам в рамках сотрудничества (на основе запросов, меморандумов и участия в международных соглашениях);

- повышать квалификацию следователей и экспертов в области цифровой криминалистики, организуя обучающие курсы, практикумы и стажировки по выявлению, документированию и исследованию цифровых следов;

- создать межведомственные группы анализа цифровых следов, включающие следователей, сотрудников ОКИБ (отдела криминальной информационной безопасности), криминалистов и экспертов в области блокчейн-технологий, для комплексного анализа материалов дел.

Реализация данных мер обеспечит устойчивое повышение эффективности уголовного преследования лиц, совершающих наркопреступления в цифровой среде, и укрепит доказательственную базу в условиях трансформации методов совершения преступлений. Таким образом, фиксация цифровых доказательств становится неотъемлемым элементом современной методики расследования, требующей постоянного научного и организационного совершенствования.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Гаврилин Ю.В., Бедеров И.С. Установление владельцев криптовалютных кошельков при расследовании преступлений в сфере незаконного оборота наркотических средств: учеб. пособие. — М. : Академия управления МВД России, 2022. — 96 с.

2. Кайгородова О.С. Решение вопроса о возможности наложения ареста на цифровые финансовые активы, цифровую валюту // Сибирские уголовно-процессуальные и криминалистические чтения. — 2022. — № 1. — С. 43–52.

3. Лелетова М.В. Фиксация цифровых следов в уголовном процессе: методология и практика // Криминалистика: научные исследования. — 2021. — № 4. — С. 34–41.

4. Casey E., Carrier B. Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers, and the Internet. — 4th ed. — London: Academic Press, 2019. — 496 p.
5. Баранов С.В. Инструменты анализа криптотранзакций в следственной практике // Информационная безопасность. — 2022. — № 3. — С. 77–85.
6. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V (с изменениями и дополнениями по состоянию на 12.07.2025 г.) // https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575852&pos=148;-51#pos=148;-51
7. Convention on Cybercrime (ETS No. 185), Budapest, 23.XI.2001. Council of Europe // https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list/-/conventions/treaty/185
8. МВД Республики Казахстан:. Комплекс «Кибершторм» для мониторинга интернет-преступлений: презентационные материалы. — Нур-Султан, 2021. – 68 с.
9. Grimes J., Schneck P. Forensic Tools for Data Acquisition in Cybercrime Investigations // Journal of Digital Forensics. — 2020. — Vol. 12. — №2. — P. 22–38.
10. Кудрявцев В.Н. Теория доказывания и цифровые технологии: вызовы уголовного судопроизводства // Российский судья. — 2022. — № 9. — С. 11–16.
11. Михайлова Т.А. Видеофиксация действий следователя: правовой и криминалистический аспекты // Уголовное право и процесс. — 2023. — № 2. — С. 53–59.
12. Обзор судебной практики Верховного Суда РК по делам о незаконном обороте наркотиков за 2022 год. — Астана: ВС РК, 2023. — 47 с.
13. Вострикова К. Электронная переписка как одно из средств доказывания // https://slp-legal.ru/elektronnaya-perepiska-kak-odno-iz-sredstv-dokazyvaniya?utm_source=chatgpt.com
14. Прудникова И.Н. Проблемы стандартизации процессуальных действий с цифровыми доказательствами // Право и цифровая среда. — 2023. — № 1. — С. 61–70.
15. Судебный кабинет Республики Казахстан: уголовные дела // https://office.sud.kz/new/index.xhtml
16. Тропин Л.В. Цифровые следы как объект фиксации в рамках ОРД и УД // Законность. — 2021. — № 10. — С. 14–20.
17. Graglia L. Digital Forensics and Blockchain Tracing: Challenges and Legal Considerations // Cybercrime Review. — 2022. — Vol. 15. — №1. — P. 85–96.

Mamajonov Sherzod Tairovich,
Independent applicant of the University of
Public Safety of the Republic of Uzbekistan

THE SOCIAL NECESSITY OF PROSECUTORIAL OVERSIGHT OVER THE INVESTIGATION OF TRANSPORT CRIMES BY THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS

The article is devoted to the study of the social necessity of prosecutorial oversight over the investigation of transport crimes by the Ministry of Internal Affairs. The features of qualification and investigation of crimes in the transport sector are analyzed, and the main problems in the activities of investigative units of the Ministry of Internal Affairs when working with this category of cases are identified. The role of prosecutorial supervision in ensuring the quality of preliminary investigation, protecting the rights of road users and victims of transport accidents is examined. The social significance of effective prosecutorial control for preventing transport crimes and ensuring road safety is substantiated. The author proposes specific measures to improve the supervisory activities of the prosecutor's office in this area.

Key words: prosecutorial supervision, transport crimes, Ministry of Internal Affairs, preliminary investigation, road safety, social necessity, investigative units, participants' rights, investigation quality, crime prevention

Maqola Ichki ishlar vazirligining transport jinoyatlarini tergov qilishi ustidan prokuror nazoratining ijtimoiy zarurligini o'rganishga bag'ishlangan. Transport sohasidagi jinoyatlarni malakasini belgilash va tergov qilishning xususiyatlari tahlil qilinadi, IIV tergov bo'linmalarining ushbu toifadagi ishlar bilan ishlashdagi asosiy muammolari aniqlanadi. Dastlabki tergov sifatini ta'minlash, yo'l harakati ishtirokchilari va transport hodisalari jabrlanuvchilarining huquqlarini himoya qilishda prokuror nazoratining roli ko'rib chiqiladi. Transport jinoyatlarining oldini olish va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash uchun samarali prokuror nazoratining ijtimoiy ahamiyati asoslanadi. Muallif ushbu sohada prokuratura nazorat faoliyatini takomillashtirishning aniq chora-tadbirlarini taklif etadi.

Kalit so'zlar: prokuror nazorati, transport jinoyatlari, IIV, dastlabki tergov, yo'l harakati xavfsizligi, ijtimoiy zarurlat, tergov bo'linmalari, ishtirokchilar huquqlari, tergov sifati, jinoyatlarning oldini olish

Статья посвящена исследованию социальной необходимости прокурорского надзора за расследованием транспортных преступлений органами Министерства внутренних дел. Анализируются особенности квалификации и расследования преступлений в сфере транспорта, выявляются основные проблемы в деятельности следственных подразделений МВД при работе с данной категорией дел. Рассматривается роль прокурорского надзора в обеспечении качества предварительного расследования, защите прав участников дорожного движения и потерпевших от транспортных происшествий. Обосновывается социальная значимость эффективного прокурорского контроля для предупреждения транспортных преступлений и обеспечения безопасности дорожного движения. Автор предлагает конкретные меры по совершенствованию надзорной деятельности прокуратуры в данной сфере.

Ключевые слова: прокурорский надзор, транспортные преступления, МВД, предварительное расследование, безопасность дорожного движения, социальная необходимость, следственные подразделения, права участников, качество расследования, предупреждение преступлений



Prosecutorial oversight of investigations into crimes committed in the transport sector plays a crucial role in maintaining law and order, ensuring public safety, and protecting citizens’ rights. In the context of the rapid growth of global transportation networks, increasing transportation crimes, and the complexity of modern criminal activities, the significance of prosecutorial oversight is more important than ever. The challenges involved in criminal investigations in the transport sector are not only related to the nature of the crimes but also to the need for effective coordination between various law enforcement agencies at local, national, and international levels.

Transport-related crimes cover a wide array of offenses, ranging from road traffic violations to more serious issues such as terrorism, organized crime, smuggling, and corruption. Given the substantial role of transportation in economic and social life, it is of utmost importance that these crimes are investigated and prosecuted effectively, and that law enforcement agencies are held accountable. The prosecutor’s office, with its independent supervisory functions, is tasked with ensuring the legality and effectiveness of such investigations.

Before delving into the specifics of prosecutorial oversight over transport-related criminal investigations, it is essential to understand the broader context of the prosecutor’s role within the Russian legal system. The prosecutor’s office in Russia is an independent state institution responsible for supervising the implementation of laws, protecting citizens’ rights, and preventing crime. Prosecutors are tasked with overseeing criminal investigations, ensuring that they are carried out according to the law, and maintaining the integrity of the judicial system.

In the context of transportation, prosecutors play an essential role in ensuring that investigations into crimes committed on roads, railways, waterways, and airways adhere to the rule of law. They are tasked with monitoring the actions of law enforcement agencies, such as the MIA, ensuring that investigators respect the legal rights of suspects, victims, and witnesses. Prosecutors also have the authority to intervene in investigations, issue directives, and, if necessary, order the reopening of investigations or the initiation of criminal cases when there are grounds to believe that an offense has not been properly prosecuted.

The prosecutor’s office through its oversight functions, ensures that the investigative process is transparent and lawful. In cases involving crimes on transportation networks, this oversight is particularly important, as these crimes can often involve high stakes, including significant economic losses, risks to public safety, and impacts on national security. The independence of the prosecutor’s office is crucial for maintaining the integrity of the criminal justice system and for instilling public confidence in the fairness of criminal investigations.

Crimes occurring in the transportation sector are diverse and can take many forms. They may involve violations of traffic regulations, accidents, thefts, fraud, and even organized crime. Some crimes in this sector are directly related to transportation operations, while others are peripheral but still involve transport as a means for committing criminal acts. Transport crimes can be grouped into several categories:

1. Traffic Offenses and Violations. This is the most common form of criminal activity related to transportation, encompassing violations such as speeding, driving under the influence of alcohol or drugs, negligent driving, and accidents resulting from reckless driving. While these offenses are typically investigated by traffic police, the prosecutor’s office plays a critical role in overseeing these investigations, ensuring that they are thorough and that the rights of involved parties are respected.

2. Property Crimes. Theft, robbery, vandalism, and fraud are frequent occurrences in the transport sector. This includes cargo theft, hijacking of goods, vehicle theft, and fraudulent activities related to transportation contracts. Prosecutorial oversight ensures that investigators follow proper procedures and that perpetrators are held accountable, particularly in cases involving organized criminal groups.

3. Economic Crimes. The transportation sector is also vulnerable to economic crimes such as corruption, embezzlement, and illegal business practices. These crimes can undermine the efficiency and safety of transport networks. Prosecutors play a vital role in overseeing investigations into such offenses, particularly when they involve high-

ranking officials or large sums of money.

4. Environmental and Safety Violations. Crimes related to environmental protection, such as the illegal disposal of hazardous materials or the violation of safety regulations, can have significant consequences for public health and the environment. Prosecutors ensure that these investigations are conducted rigorously and that perpetrators are appropriately prosecuted.

5. Terrorism and Security-Related Crimes. Acts of terrorism, sabotage, and other security threats in the transportation sector, including hijacking of planes, trains, or ships, are of national concern. Prosecutorial oversight is essential in such cases to ensure that investigations are conducted with the utmost attention to legal rights and national security interests.

6. International and Cross-Border Crimes. Many transportation crimes, especially in the case of smuggling or trafficking, may involve international cooperation. Prosecutors oversee these investigations to ensure that legal processes are respected across jurisdictions, and that criminals are held accountable regardless of national boundaries.

In the legal system, the prosecutor's office is mandated to oversee criminal investigations carried out by law enforcement agencies, including the Ministry of Internal Affairs (MIA). The legal framework governing prosecutorial oversight is outlined in the Russian Criminal Procedure Code, as well as in various laws regulating law enforcement activities. The prosecutor's role is multifaceted and includes the following functions:

1. Supervision of Investigative Activities. Prosecutors are required to ensure that criminal investigations are conducted in accordance with the law. This includes overseeing the collection of evidence, questioning of witnesses, and interrogation of suspects. Prosecutors can intervene in cases where they believe that the investigation is not being conducted properly or where there are violations of procedural norms.

2. Protection of Citizens' Rights. Prosecutors are tasked with ensuring that the rights of suspects, victims, and witnesses are protected throughout the investigation process. This includes ensuring that suspects are not subjected to torture or unlawful detention, and that victims receive appropriate support and compensation.

3. Ensuring Fairness and Impartiality. Prosecutorial oversight ensures that investigations are carried out impartially, without bias, favoritism, or undue influence. Prosecutors monitor the actions of investigators and ensure that all individuals involved in the investigation are treated fairly and in accordance with the law.

4. Prevention of Abuse of Power. Prosecutors act as a check on the power of law enforcement agencies to prevent corruption, abuse of power, or unlawful practices. They can take corrective actions if investigators overstep their authority or engage in corrupt behavior.

5. Directing Investigations. Prosecutors have the authority to direct investigations by issuing instructions to law enforcement agencies, demanding specific investigative actions, or requesting additional evidence. They can also close cases if they determine that there is insufficient evidence to proceed or if the investigation is flawed.

6. Public Interest and Social Welfare. Prosecutors ensure that investigations align with the public interest and contribute to the broader goal of public safety. In the context of transport crimes, this involves not only prosecuting offenders but also contributing to broader efforts to reduce crime and improve safety in the transport sector.

While prosecutorial oversight is essential, several challenges complicate its effective implementation in the context of transport-related crimes. The global and often fragmented nature of transportation systems can make investigations particularly challenging. Crimes that occur across borders or in international transit hubs may involve complex legal and procedural issues. Prosecutors must navigate these complexities while ensuring that investigations remain consistent with national laws.



Transport crimes often involve multiple agencies, such as the MIA, traffic police, border control, customs officials, and sometimes even private security companies. Coordinating efforts between these various stakeholders can be difficult, and lapses in communication or jurisdictional disputes can undermine the effectiveness of investigations. Prosecutors play a key role in facilitating cooperation among different law enforcement entities.

Investigating transport crimes, especially those of a serious or organized nature, can require significant resources, including specialized knowledge and technical expertise. Prosecutors must balance oversight responsibilities with limited resources, ensuring that investigations are comprehensive without overburdening investigative agencies.

The rise of new technologies, such as digital surveillance, GPS tracking, and cybersecurity tools, has introduced new challenges in both the commission of crimes and their investigation. Prosecutors must stay abreast of these developments to ensure that investigations use the most up-to-date methods and that they remain consistent with the law.

Effective prosecutorial oversight not only ensures that transport crimes are investigated and prosecuted but also plays a significant role in preventing crime. By overseeing investigations, prosecutors help identify systemic issues within the transportation sector that could lead to increased crime. Prosecutorial involvement in setting up preventive measures, ensuring that transport laws are enforced, and advocating for changes in legislation can reduce opportunities for criminal activity and improve overall safety.

Furthermore, the mere presence of an active prosecutorial oversight mechanism serves as a deterrent to potential criminals. Knowing that their actions will be scrutinized by an independent authority helps deter individuals from committing

The social necessity of prosecutorial oversight over the investigation of transport crimes cannot be overstated. Prosecutors play a vital role in ensuring that investigations are conducted lawfully, efficiently, and impartially. They act as a check on law enforcement agencies, ensuring that citizens’ rights are protected and that justice is served. By contributing to the prevention of crime, enhancing the quality of investigations, and ensuring that the legal system operates transparently, prosecutors make a critical contribution to the safety and security of society. As transport networks become more complex and crimes become more sophisticated, the role of prosecutorial oversight will continue to be central to the fight against crime and the protection of public interests in the transport sector.

Prosecutors should play a more active role in facilitating communication and coordination between various law enforcement agencies involved in transport-related investigations, including the Ministry of Internal Affairs (MIA), traffic police, border control, and customs officials. Regular interagency meetings, shared databases, and joint task forces could help streamline efforts, minimize jurisdictional disputes, and ensure a more unified approach to investigating complex transport crimes.

Prosecutors should receive specialized training in transport-related criminal activities, including the legal, technical, and logistical aspects of transport systems. This could involve regular workshops on emerging transportation crime trends, such as cybercrime in the transport sector, organized crime in cargo trafficking, or issues related to cross-border crimes. Prosecutors with deeper knowledge of the transport industry would be better equipped to identify irregularities and enforce effective oversight.

To increase public confidence and effectiveness in prosecutorial oversight, transparent reporting mechanisms should be established to publicly track the progress of transport-related criminal investigations. This could include regular updates on high-profile cases, reports on the number of cases prosecuted, and the outcomes of investigations. Enhanced transparency would not only help hold prosecutors accountable but also demonstrate the effectiveness of their oversight to the public.

Given the growing reliance on technology in both the commission and investigation of transport crimes, prosecutors should be equipped with modern digital tools for overseeing investigations. This could include access to real-time data from GPS tracking, surveillance systems, or automated reporting from law enforcement agencies. The use

of digital tools can also help prosecutors monitor the status of ongoing investigations more efficiently and identify potential gaps in the process.

Prosecutors should be proactive in identifying systemic issues within the transport sector that contribute to criminal activities. This includes advocating for stronger regulations, better security protocols, and improved infrastructure. For example, proposing legislative changes that address weaknesses in the transport sector's safety or security measures could help prevent future crimes. By engaging in preventive legal reforms, prosecutors can play a larger role in reducing the overall volume of transport-related crime.

Public involvement can enhance the effectiveness of prosecutorial oversight by providing prosecutors with more information on transport crimes. Campaigns aimed at educating the public about the legal and safety aspects of transport-related crimes can encourage reporting of crimes and increase collaboration between the public and law enforcement. Engaging communities in discussions about transport safety and crime prevention can also create a stronger deterrent against criminal behavior.

In order to ensure that investigations are not influenced by external pressures, independent audits of transport crime investigations should be introduced. These audits would involve external legal experts or independent bodies reviewing the work of both prosecutors and law enforcement agencies to ensure that investigations are thorough, unbiased, and in compliance with the law.

Enhancing the financial and human resources allocated to the prosecutor's office for handling transport-related crimes would significantly improve the effectiveness of oversight. This could include hiring additional staff, providing resources for specialized investigations, and funding technological upgrades. Adequate resourcing would ensure that prosecutors have the necessary tools and personnel to handle complex and high-volume investigations in the transport sector.

Many transport-related crimes, such as human trafficking, drug smuggling, and cross-border theft, require international cooperation. Prosecutors should be involved in global initiatives and networks that facilitate the exchange of information, joint investigations, and cross-border legal action. Strengthening international relations with law enforcement agencies in other countries will enhance the ability of prosecutors to tackle transnational transport crimes.

To ensure continuous improvement, a feedback loop should be created where the outcomes of previous investigations inform future prosecutorial actions. This could involve regular reviews of case outcomes, identification of recurring problems or gaps in the investigative process, and the implementation of lessons learned. This process would ensure that prosecutors can refine their approaches over time and maintain a dynamic, responsive oversight system.

By adopting these suggestions, prosecutors would be better positioned to effectively oversee the investigation of transport crimes, ensuring that justice is served, public safety is enhanced, and criminal activities in the transport sector are minimized.

Turg‘unov Alisher Abror o‘g‘li ,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Olmazor tumani sudi sudyasi,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

SUD TERGOVIDA PROKURORNING ISHTIROKI BILAN BOG‘LIQ PROTSESSUAL MUAMMOLAR

Mazkur maqolada jinoyat protsessining sud bosqichidagi asosiy elementlardan biri bo‘lgan sud tergovi jarayonining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Sud tergovi sud muhokamasining markaziy va hal qiluvchi bosqichi bo‘lib, unda sud ish bo‘yicha barcha taqdim etilgan dalillarni tekshiradi, baholaydi va jinoyat ishini hal qilish uchun asos yaratadi. Muallif amaliyotda sud tergovi jarayonida taraflar tengligining yetarli darajada ta’minlanmasligi, dalillarni baholashdagi sub’ektiv yondashuvlar, advokat so‘rovlarining e’tiborsiz qolishi kabi muammolarni ko‘rsatib, ularni bartaraf etish uchun sud tergoviga ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, protsessual huquqiy normalarni takomillashtirish lozimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, prokurorning ayblovdan voz kechish instituti yuzasidan xorijiy tajriba tahlil qilinib, O‘zbekiston qonunchiligida bu institutni kengaytirish va mukammallashtirish bo‘yicha takliflar berilgan. Sud tergovi bosqichining obyektiv, shaffof va zamonaviy qoidalarga asoslanishi adolatli sud hukmini ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutishi ta’kidlanadi.

Ushbu maqolada sud tergovining huquqiy tabiati, uning funksiyalari, amaliyotdagi muammolar tahlil qilinadi va ularni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo‘llanilgan. Tadqiqot ishida ilg‘or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Sud tergovi, ayblovdan voz kechish, Jinoyat-protsessual kodeks, prokuror vakolati, tortishuvchanlik prinsipi, oqlov hukmi, sudlov adolati, dalil ishonchliligi, sud tizimi islohoti.

В настоящей статье подробно рассматривается ключевой этап уголовного процесса — судебное следствие. Автор анализирует значение судебного следствия как механизма обеспечения состязательности сторон и непосредственного изучения доказательств. Отмечаются актуальные проблемы практики: субъективность в оценке доказательств, игнорирование запросов защитников, отсутствие четких критериев для возобновления судебного следствия. Особое внимание уделено институту отказа прокурора от обвинения, его недостаточной регламентации в национальном законодательстве и сравнительному анализу с правом России, Казахстана и Новой Зеландии. Выдвинуты конкретные предложения по совершенствованию норм УПК и обеспечению полной реализации принципа состязательности. Автор подчеркивает необходимость внедрения современных технологий в судебный процесс, а также ставит во главу угла защиту прав и свобод человека как высшую цель правосудия.

В ходе исследовательской работы был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические воззрения и следственная и судебная практика, в результате чего были разработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовной кодекс Республики Узбекистан и другие законодательные и подзаконные акты.

Ключевые слова: Судебное следствие, отказ от обвинения, Уголовно-процессуальный кодекс, полномочия прокурора, принцип состязательности, оправдательный приговор, судебная реформа, надежность доказательств, справедливость правосудия

This article provides an in-depth analysis of judicial investigation as a central and decisive phase of the criminal trial process. The author emphasizes the critical importance of this stage for the direct examination of evidence and upholding the adversarial principle. Practical challenges such as subjective evaluation of evidence, insufficient consideration of defense motions, and the lack of clear standards for reopening judicial investigations are discussed. The article critically examines the underdeveloped legal framework concerning the prosecutor’s withdrawal of charges in Uzbekistan, comparing it with legal practices in Russia, Kazakhstan, and New Zealand. Recommendations are offered for enhancing the procedural laws to ensure a balanced adversarial process. The study calls for the integration of modern technologies into court proceedings and underscores the principle of human dignity as the core of justice. Legislative reforms are deemed essential to strengthen the objectivity and transparency of the criminal justice process.

During the research work, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative and subordinate acts

Keywords: Judicial investigation, withdrawal of charges, Criminal Procedure Code, prosecutor’s authority, adversarial principle, acquittal verdict, judicial reform, evidentiary reliability, fair trial, human dignity

Sud tergovi – jinoyat ishi bo‘yicha sud muhokamasining markaziy va hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda sud ishda ishtirok etuvchi taraflar tomonidan taqdim etilgan dalillarni bevosita o‘rganadi, guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, gumondor yoki ayblanuvchilar so‘roq qilinib, har tomonlama tahlil qilinadi. Shu bois, sud tergovi jarayoni adolatli va qonuniy hukm chiqarishning huquqiy asosidir. Sud tergovi faqat ayblovchi emas, balki himoya tarafining ham protsessual huquqlari teng ta’minlangan holda olib borilishi lozim. Ammo amaliyotda bu tenglik prinsipi har doim to‘liq ta’minlanmasligi, dalillarni baholashda sub’ektiv yondashuvlar, advokat so‘rovlarining yetarli darajada ko‘rib chiqilmasligi kabi muammolar mavjud. Shuningdek, sud muhokamasining audio va videoyazuvini majburiy tarzda joriy etish tartibining aniq belgilanmaganligi hamda sudyaning sud tergovini qayta ochish bo‘yicha protsessual harakatlari uchun huquqiy mezonlar mavjud emasligi amaliyotda nizolar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Eng muhimi, “Qonun – muqaddas, har qanday holatda ham adolatni qaror toptirish shart!” degan qarash jamiyatning har bir a’zosi, ayniqsa, mansabdorlar uchun hayot qoidasiga aylanishi kerak.”, deya ta’kidlaydi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev[1].

Darhaqiqat yurtboshimiz qonun avvalo inson va uning manfaatlariga xizmat qilishi lozimligini to‘g‘ri ta’kidlaydi. Mazkur islohotlar zamirida alohida e’tirof va e’tiborga sazovor jihat bu – jinoyat protsessual qonunchiligidagi ayrim normalar xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari asosida qayta shakllanganligi bo‘lib hisoblanadi.

Jinoyat protsessi – shaxs, jamiyat va davlatning adolatga, adolatli sud tizimiga bo‘lgan muhim ehtiyojini qanoatlantirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, bu boradagi tadqiqotlar alohida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni aprobatsiyasi huquqiy davlatning rivojida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jinoyat protsessida ko‘pincha sudga qadar ish yurituvida protsessual mexanizmni takomillashtirishga oid tahlillar va tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ishni mazmunan hal etadigan sud bosqichi va mexanizmlari yuzasidan tadqiqotlar nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Shu bois, sud bosqichi va unga qadar to‘plangan va taqdim etilgan ayblovga oid dalillarni tekshirish va baholash bo‘yicha sudning vakolatlari hamda jarayon mexanizmlari bo‘yicha tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega.

Respublikamizda birinchi instansiya sudlari tomonidan so‘nggi besh yilda mazmunan ko‘rib chiqilgan ishlar



dinamikasiga e’tibor qaratsak, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yilda 30 282 ta ish birinchi instansiya sudlari tomonidan ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, 2021-yilda 47 657 ta ish, 2022-yilda 58 697 ta ish, 2023-yilda 58 418 ta ish va 2024-yilda 61 481 ta jinoyat ishlari mazmunan ko‘rib chiqilgan[2].

Yuqoridagi statistik ma’lumotlar tahlilidan ma’lum bo‘lmoqdaki, birinchi instansiya sudlari tomonidan yildan-yilga mazmunan ko‘rilayotgan ishlar soni ortib borayotganligi, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlanayotgan shaxslarning ham soni mos ravishda ortib borayotganligi, bu esa o‘z navbatida sud jarayonida fuqarolarning qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarini ta’minlagan holda ularga nisbatan to‘plangan dalillarni tekshirishning ob’ektiv, shaffof, xolis hamda zamonaviy usullarini sud jarayoniga joriy etish orqali takomillashtirib borishni talab qiladi. Zero, mazkur davr oralig‘ida sud tizimida sud’yalarning shtat birligi yoki qo‘shimcha ish kuchi bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlar yuz bermadi va sud’yalar sonini ko‘paytirish bilan yuqoridagi o‘sish tendensiyasiga jiddiy ta’sir etib bo‘lmaydi, deb hisoblaymiz.

Jinoyat protsessining sud bosqichida alohida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qismi bu – sud tergovi bo‘lib hisoblanadi. Chunki mazkur bosqichda sud dastlabki tergov yoki surishtiruv organi taqdim etgan jinoyat ishidagi dalillarni o‘rganadi, tekshiradi va ularning maqbulligi bo‘yicha baho beradi. Ushbu bosqichning qanchalik ob’ektiv va shaffof hamda taraflarning tortishuvi prinsipiga asoslanishi, jinoyat ishini mazmunan hal etishda sudga shunchalik ta’sir etadi.

Tan olish lozimki, mamlakatimizda sud tizimi 2017-yilda keyin alohida isloh etildi va bunda Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning oqilona siyosati sababli amalga oshdi. Buni quyidagi statistik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi, xususan, 2017-yilga qadar oqlangan jinoyat ishlari soni statistikasi mavjud bo‘lmagan bo‘lsa, 2017-yilning o‘zida 263 ta jinoyat ishi bo‘yicha oqlov hukmi e’lon qilindi, 2018-yilda 867 ta, 2019-yilda 859 ta, 2020-yilda 781 ta, 2021-yilda 932 ta, 2022-yilda 1 010 ta, 2023-yilda 1 244 ta jinoyat ishi bo‘yicha shaxslar oqlangan bo‘lsa, 2024-yilda 723 ta jinoyat ishi bo‘yicha sudlar oqlov hukmini chiqarganlar[2].

Yuqoridagi raqamlar tahlili shuni asoslaydiki, sudlarning jinoyat ishlari bo‘yicha dalillarni tekshirish yoki tasdiqlash bo‘yicha faoliyati juda muhim. Bu borada sud tergovi jarayonida aniqlangan holatlar, dalillarning nomaqbulligi yoki tergov harakati natijalarining sohtalashtirilganiligi, shuningdek boshqa ko‘plab faktlarga aynan sud tergovi jarayonida aniqlanadi va baho beriladi.

Yuqoridagi jinoyat ishlarida ham aynan oqlov, sud tergovi bosqichida ko‘rib chiqilgan holatlari natijasiga asoslanganligini e’tiborga olsak, sudlarning surishtiruv va dastlabki tergov natijalari ustidan baho berishda eng muhim bosqich ekanligini anglaymiz. Shu bois, sud tergovi bosqichiga ob’ektiv, shaffof, xolis hamda zamonaviy mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhim sanaladi.

M.I.Muhtorovning fikriga ko‘ra, “Sud tergovi bosqichi tomonlarning tortishuvi prinsiga asoslangan bo‘lishi, bunda himoya va ayblov tomon o‘zaro mutanosib kuchga ega bo‘lishi lozim”[3, 21-95-b]. Mazkur fikrlar juda o‘rinli, sababi butun dunyoda sud taraflarning tortishuviga asoslanishi bunda o‘zaro muvozanat ham imkoniyatlarning tengligiga qarab belgilanishi qabul qilinganligini unutmasligimiz lozim. Biroq mazkur tadqiqotda M.I.Muhtorov sud tergovida prokurorning o‘rni va roli haqida tahlillar olib borib, bunda “prokurorning protsessual maqomi nafaqat uning davlat aybovchisi ekanligi balki davlat ayblovidan voz kechishi mumkin bo‘lgan subekt ekanligi”ni keltiradi[3, 21-95-b].

Haqiqattan ham bu bosqichda prokurorning davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlashda chegaralar va vakolatlar aniq belgilanishi, ayblov xulosasi yoki dalolatnomasini tasdiqlash orqali mazmunan oqlanishi lozim bo‘lgan ishda ayblovni protsessning oxiriga qadar quvvatlashi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishda xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Bundan tashqari sud tergovi jarayoni aynan prokurorning ayblov mazmunini ya’ni aynan ayblov xulosasi yoki dalolatnomasidagi ayblov qismini o‘qib eshittirishda boshlanishini inobatga olsak, bu jarayonni ham qat’iy belgilanishidagi mohiyatni anglashimiz mumkin bo‘ladi. Jumladan, bugungi kunda sudlar tomonidan ayblov mazmunini prokurorlarni ishtirokini ta’minlashning imkoni bo‘lmagan hollarda

o‘zlari ya’ni sud tomonidan o‘qib eshittirish holatlari kuzatilayotganligi, JPKning tortishuvchanlik prinsipiga zid sanaladi.

Darhaqiqat, sir emaski, jinoyat sudlarida prokuror davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlaganligi uchun fuqarolar oldida «qoralovchi» sifatida namoyon bo‘ladi. Aslida, yuqoridagi fikrga qo‘shilgan holda shuni aytishimiz lozimki, prokuror jinoyat sudlaridagi fuqarolar huquqlarining himoyasi kafilidir. Chunki, unga davlat ayblovini himoya qilish bilan birgalikda, undan voz kechish vakolati ham berilgan. Ammo, amaliyotda prokurorlar ushbu vakolatdan qanchalik foydalanishmoqda?

2020-yil 30-iyundagi odil sudlovni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida 2018-2019 yillarda birinchi instansiya sudlarida jami 192 ta jinoyat ishi bo‘yicha 307 nafar shaxs oqlangan bo‘lsa-da, hech qaysi holatda prokuror ayblovdan voz kechmagan. Shu bois tergov jarayonidagi xatolar sud majlisida aniqlansa, prokuror sudning tugashini kutib o‘tirmasdan, o‘z tashabbusi bilan ayblovdan voz kechadigan tartib joriy etilishi lozimligi qayd etilgan edi.

Biroq, hanuzgacha ayblovdan voz kechish amaliyoti keng tarqalmadi va bu fikrimizcha, ayblovdan voz kechishning moddiy va protsessual-huquqiy asoslari to‘la shakllantirilmaganligi bilan bog‘liq.

Chunonchi, ayblovdan voz kechish haqida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining faqatgina bir o‘rnida, ya’ni 409-moddasidagina ta’kidlab o‘tilgan. Unga ko‘ra, “sud muhokamasi natijasida prokuror sud tergovi ma’lumotlari sudlanuvchining aybsizligidan dalolat beradi degan ishonchga kelsa, u ayblovdan voz kechishi va voz kechish sabablarini sudga bayon qilishi shart. Prokurorning ayblovdan voz kechishi sud tomonidan jinoyat ishini reabilitatsiya asoslariga ko‘ra tugatishga sabab bo‘ladi. Shuningdek, prokuror ayblovning mazmunini o‘zgartirish yoki ayblovdan voz kechish sabablari xususidagi fikrini sudga yozma ravishda taqdim etishi shart”[4].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining “Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda ishlar ko‘rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida”gi 126-sonli buyrug‘iga ko‘ra, sud muhokamasida tekshirilgan dalillar asosida sudlanuvchining aybsizligi isbotlangan va davlat ayblovini quvvatlayotgan prokuror bunga ishonch hosil qilgan taqdirda, ayblovdan voz kechish to‘g‘risidagi qonun talablariga so‘zsiz amal qilishi lozimligi qayd etilgan[5].

E’tiborli jihati shundaki, qonunchiligimizda ayblovdan voz kechishni tartibga soluvchi bundan boshqa huquqiy normalar mavjud emas. Qonunchiligimizda bu bilan bog‘liq ko‘plab jihatlar ochiq qolgan, masalan, prokuror davlat ayblovidan voz kechganda to‘liq voz kechishi kerakmi? Ayblovdan qisman voz kechsa bo‘ladimi? Davlat ayblovidan voz kechish faqat birinchi instansiya sudlarida bo‘lishi kerakmi? Apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida davlat ayblovidan voz kechsa bo‘ladimi va boshqalar. Shu kabi nazariy va amaliy muammolarni yuzaga keltirayotgan ayblovdan voz kechish institutini tadqiq qilishimiz va qonunchiligimizga zarur bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritishimiz bugungi kundagi dolzarb masaladir.

Darhaqiqat, Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasining “Jinoyat protsessining yangi shakl va tartib-taomilini joriy etish”[6] bo‘limida prokurorning ayblovdan voz kechish protsessual mexanizmini yaratish lozimligi haqida ta’kidlab o‘tilganligi yuqoridagi fikrimizni yana bir dalili desak yanglishmagan bo‘lamiz. Prokurorning ayblovdan voz kechishi xususida xorijiy davlatlarda bir qator amaliyot shakllangan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi amaldagi jinoyat-protsessual kodeksining 246-moddasining 7-qismiga binoan prokuror ayblovdan voz kechishga haqli va sudga ayblovdan voz kechish asoslarini bildirishi lozim[8]. Xuddi bizning qonunchiligimizda mavjud bo‘lgani kabi Rossiya Federatsiyasida ham prokurorning davlat ayblovidan voz kechishi sudda jinoyat ishining tugatilishiga asos bo‘ladi.

Qozog‘iston jinoyat-protsessual kodeksida esa prokurorning ayblovdan voz kechishi va unga bog‘liq keyingi jarayonlar kengroq yoritilgan. Ya’ni, Qozog‘iston JPKning 337-moddasiga ko‘ra, prokuror amaldagi qonunlar va o‘zining ichki ishonchiga asoslanib, sudda ko‘rilgan va isbotlangan holatlardan kelib chiqib, davlat ayblovini quvvatlaydi. Shuningdek, prokuror ayblovni o‘zgartirishi ham mumkin. Agarda sud muhokamasi davomida sudlanuvchining

aybi yo‘qligi isbotlansa, prokuror davlat ayblovidan qisman yoki to‘laligicha voz kechishi lozim. Prokurorning ayblovdan voz kechishiga sud tergovi yoki sud muhokamasi bosqichida yo‘l qo‘yiladi. Shuningdek, agar prokuror ayblovdan to‘laligicha voz kechsa va bunga sudlanuvchi rozi bo‘lsa, ishni ko‘rishni sud tugatadi. Sudlanuvchi rozi bo‘lmagan taqdirda esa, ish umumiy tartibda davom ettiriladi va prokuror sud jarayonining keying bosqichlariga qatnashishdan ozod etiladi. Bunday holatda ayblovni qo‘llab-quvvatlash sudlanuvchining shaxsan o‘zi yoki vakili orqali davom ettiriladi. Agar prokuror ayblovdan qisman voz kechsa, sud aynan ayblovning rad etilgan qismi bo‘yicha ishni tugatib, qolgani bo‘yicha ish yuritishni umumiy tartibda davom ettiradi[9].

2011-yilda qabul qilingan Yangi Zellandiya jinoyat-protsessual Aktiga ko‘ra, prokuror ayrim toifadagi jinoyat ishlaridan tashqari istalgan jinoyat ishi bo‘yicha ayblovdan voz kechish instituti mavjud bo‘lsa, ko‘plab anglo-sakson huquq oilasiga taalluqli bo‘lgan davlatlarda ayblovni qo‘llabquvvatlayotgan prokuror quyidagi sabablardan biri bo‘lgandagina ayblovdan voz kechishi mumkin: shaxsga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi taalluqli bo‘lmasa; ayblovni amalga oshirish jamoat manfaatlariga zarar yetkazsa; aybsizligini ko‘rsatuvchi yaqqol dalil mavjud bo‘lsa; aybni isbotlab beruvchi aniq, to‘g‘ri va qonuniy manbadan olingan dalil mavjud bo‘lmasa[10].

Fikrimizcha, jinoyat-protsessual qonunchiligimizga ayblovdan to‘la yoki qisman voz kechish tushunchalarini kiritishimiz lozim.

Ma’lumki, JPKning 449-moddasida taraflar muzokarasining mazmuni va tartibi keltirilgan. Unga ko‘ra, sud taraflarning takliflarini inobatga olgan holda so‘zga chiqish navbatini birinchi bo‘lib himoyachi yoki jamoat himoyachisiga ham berishi mumkin. Taraflar nutq so‘zlab bo‘lganlaridan keyin ulardan har biri boshqa tarafning nutqlarida aytilgan masalalar yuzasidan yana bir marta so‘zga chiqishlari mumkin va so‘nggi e’tiroz bildirish hamisha himoyachi va sudlanuvchiga beriladi. Ushbu huquqiy normadan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, agar himoyachi muzokara nutqiga tayyorligini bildirsayu, keyingi bir marta e’tiroz bildirish huquqidan prokurorning muzokara nutqidan so‘ng foydalansa va prokuror ham o‘z navbatida yana e’tiroz bilan murojaat qilsa, JPKda qayd etilgan so‘nggi e’tiroz bildirish huquqi buziladi. Ya’ni, JPK talabi bo‘yicha so‘nggi e’tiroz prokurorga berilmagan holda prokuror so‘nggi e’tiroz va mulohazani bildirgan bo‘ladi. Shu sababdan ham ushbu huquqiy normani qayta ko‘rib chiqish lozim.

Bizning fikrimizcha, JPK 449-moddasida qayd etilgan bir martadan e’tiroz va mulohazani bildirish huquqi bu JPK 25-moddasida qayd etilgan cudda ishlarni tortishuvchanlik tamoyili asosida amalga oshirilishigato‘siq bo‘luvchi omillardan biridir. Chunki, agar taraflar o‘rtasida tortishuvchanlik prinsipini to‘la namoyon qilmoqchi bo‘lsak, taraflarga bir martadan iborat bo‘lgan mulohaza va e’tirozlarni bildirish huquqini cheklab qo‘ymasligimiz zarurdir. Masalan, Rossiya Jinoyat-protsessual kodeksining 337-moddasida taraflarning mulohaza va e’tiroz bildirish huquqi keltirilgan bo‘lib, bir marta deb cheklab qo‘yilmaganligini ko‘rishimiz mumkin[5]. Shu sababdan ham amaldagi JPK 449-moddasidagi “Taraflar nutq so‘zlab bo‘lganlaridan keyin ulardan har biri boshqa tarafning nutqlarida aytilgan masalalar yuzasidan yana bir marta so‘zga chiqishlari mumkin” degan qoidadagi yana bir marta degan so‘zni chiqarib tashlash lozim, deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi tahlillarga xulosa o‘laroq, jinoyat protsessida sud tergovi bosqichini ob’ektiv, shaffof, xolis hamda zamonaviy qoidalar bilan boyitish, bu jarayonlarga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, shuningdek sud tergovini jaxon standartlariga moslashtirishimiz yurtimizda bugungi kun talabi bo‘lgan – inson qadrini ulug‘lash va mazkur jarayonning bosh mezoni sifatida aynan inson qadrini belgilash kabi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар, суд ва ижро этувчи ҳокимият органлари раҳбарлари ҳамда жамоатчилик фаоллари билан референдум якунларига бағишланган учрашувидан нутқи // https://t.me/Press_Secretary_Uz/3095

2. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning 2024 yil asosiy ko'rsatkichlari https://stat.sud.uz/criminal мурожаат санаси 27.06.2025 йил
3. Мухторов М.И. Жиноий суд ишларини кўрилишида прокурор иштирики: қиёсий –ҳуқуқий таҳлил // магистрлик диссертация иши – Т – 2022, 21-95-бетлар
4. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси https://www.lex.uz/acts/111460
5. Ўзбекистон Республикаси Бош Прокурорининг "Жиноят ишлари бўйича судларда ишлар кўрилишида прокурор иштирокининг самарадорлигини янада ошириш тўғрисида"ги 126-сонли буйруғининг 7.4-банди.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилиги тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида ПҚ-3723-сон Қарори https://lex.uz/docs/3735818
7. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан Кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V ЗРК. https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231
8. Калиновский К.Б. Уголовный процесс современных зарубежных государств // Учебное пособие Издательство Петрозаводского государственного университета – Петрозаводск – 2000

Olimjonov Xushnudbek Maxamadsalim o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti
yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent, mayor

MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI MAMLAKATLARINING HARBIY XIZMATCHILARINI HUQUQIY HIMOYASI BO‘YICHA TAJRIBASI

Ushbu maqolada Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi ta’minlanganlik darajasi ва Qurolli Kuchlar tizimini modernizatsiya qilish va mudofaa sohasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan islohotlar, hozirgi shiddat bilan taraqqiy etayotgan zamonda harbiy xizmatchilarga berilayotgan e’tibor va ularning huquqiy himoyasi masalalari nazariy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: istiqlol, qurolli kuchlar, harbiy xizmatchi, harbiy huquq, harbiy qonunchilik, islohotlar, ofitser, xorij, tajriba, takomillashtirish, taklif, modernizatsiya, tavsiya.

В статье дается теоретический анализ уровня правовой защищенности военнослужащих в странах Содружества Независимых Государств, проводимых реформ по модернизации системы Вооруженных Сил и развитию оборонной отрасли, внимания, уделяемого военнослужащим и их правовой защите в современную стремительно развивающуюся эпоху.

Ключевые слова: независимость, вооружённые силы, военнослужащий, военное право, военное законодательство, реформы, офицер, иностранный, опыт, улучшение, предложение, модернизация, рекомендация.

This article provides a theoretical analysis of the level of legal protection of military personnel in the countries of the Commonwealth of Independent States, the reforms carried out to modernize the Armed Forces system and develop the defense sector, the attention paid to military personnel and their legal protection in the current rapidly developing era.

Key words: independence, armed forces, military serviceman, military law, military legislation, reforms, officer, foreign, experience, improvement, proposal, modernization, recommendation.



Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) – davlatlararo tashkilot. 1991-yil

8-dekabrda Minskda Belarus, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo‘q bo‘lgani qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991-yil 21-dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston qo‘shildi, ular Belarus, Rossiya va Ukraina bilan birga Mustaqil davlatlar hamdo‘stligining maqsad va qoidalari to‘g‘risidagi Deklaratsiyaga Olmaota shahrida imzolashdi. 1993-yil dekabrda Mstaqil davlatlar hamdo‘stligiga Gruziya qo‘shildi.

1993-yil yanvarda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog‘lig‘i va atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo‘riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi haqiqiy a’zolari bilan birga Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a’zolar bo‘lishi mumkin. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligining quyidagi organlari tashkil qilingan: Davlat boshliqlari kengashi, Hukumat boshliqlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Davlatlararo iqtisodiy qo‘mita, markazi Sankt-Peterburgda bo‘lgan Parlamentlararo assambleya va boshqa Mustaqil davlatlar hamdo‘stligining doimiy ishlovchi organi Minsk shahrida joylashgan Muvofiqlashtiruvchi maslahat qo‘mita hisoblanadi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari kengashi

1 yilda kamida 2-marta o‘tkaziladi. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi organlarining faoliyati Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi Nizomi bilan tartibga solinadi.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi sobiq SSSR hududida fuqarolik urushi kelib chiqishining oldini oldi, mamlakatlarni bosqichma-bosqich xalqaro munosabatlar tizimiga kirib, mustaqilliklari, suverenitetini mustahkamlashga ko‘mak berdi. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi o‘z faoliyati davomida haddan tashqari ko‘p qarorlar qabul qildi-yu, lekin aksariyat hollarda ularning ko‘pi bajarilmadi. Hozir Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga kiruvchi davlatlarning aholisi 283 mln. kishini tashkil etadi. Bu aholining 120,5 mln. iqtisodiyotda mashg‘uldir. Ularning 29,4 foizi sanoat va qurilishda, 21,5 foizi qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik sohasida ishlaydi.

O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligida ishtirok etmoqda. U Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida qaraydi. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi hududida davlatlarning teng huquqligi asosida yagona iqtisodiy makonni yaratish, tashkilotda umuman iqtisodiy munosabatlarning ustuvorligiga erishish, davlatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun harakat qiladi[1].

Hozirgi kunda to‘qqizta doimiy a’zosi mavjud bo‘lib, bular Armaniston, Belarus, Moldava, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Rossiya, Tojikiston, O‘zbekiston kabi davlatlar tashkil etadi. Ushbu davlatlar Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi bo‘yicha tajribasiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

Xususan, Rossiya Federatsiyasida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi konstitutsiya va maxsus qonunlar asosida ta’minlanadi. Harbiy xizmatchilar “Harbiy burch va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Federal qonun bilan o‘z huquq va majburiyatlariga ega bo‘ladilar[2]. Ular mehnat shartlari, oylik maosh, uy-joy, tibbiy xizmat va ijtimoiy kafolatlar bilan ta’minlanadi[3].

Harbiy prokuratura va harbiy sudlar harbiy xizmatchilarning huquqlarini himoya qiladi[4]. Qonunsiz buyruqlarni bajarmaslik huquqiga ega bo‘lib, harbiy xizmat vaqtida sodir etilgan mojarolarda huquqiy yordam olishlari mumkin[5]. Mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolganda pensiya va nafaqa bilan ta’minlanadi.

Oila a’zolari ijtimoiy imtiyozlarga ega va ularning sha’nini tahqirlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Harbiy xizmatchilar sudga murojaat qilish va huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga ega. Ular uyushmalar

tashkil qilish huquqiga ega emaslar, lekin davlat tomonidan manfaatlari himoya qilinadi.

Davlat uy-joy masalalarida imtiyozli ipoteka dasturlari orqali yordam beradi, tibbiy muassasalar va reabilitatsiya markazlari faoliyat ko‘rsatadi. Huquqlari buzilganda advokat yordamida shikoyat qilishlari mumkin. Rossiya qonunchiligi harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomini muntazam takomillashtirib bormoqda[6].

Belarus Respublikasida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi Konstitutsiya va maxsus qonunlar asosida ta’minlanadi. Harbiy xizmatchilarning huquqlari va majburiyatlari “Harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonun bilan aniq belgilangan[7]. Ular mehnat shartlari, oylik maosh, tibbiy yordam va ijtimoiy kafolatlar bilan ta’minlanadi[8].

Harbiy xizmatchilarga nisbatan huquqbuzarlik holatlari harbiy prokuratura va sud organlari tomonidan nazorat qilinadi[9]. Qonunsiz buyruqlarni bajarmaslik huquqiga ega bo‘lib, ular huquqiy yordam va sudda o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga egadirlar.

Harbiy xizmatchilarga uy-joy ta’minlash va ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat dasturlari mavjud. Mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolganda pensiya va nafaqalar belgilanadi. Harbiy xizmatchilarning sha’nini tahqirlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Oila a’zolari ijtimoiy imtiyozlarga ega va tibbiy muassasalarda maxsus xizmatlar ko‘rsatiladi. Davlat harbiy xizmatchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratadi. Ular huquqlari buzilganda advokat yordamida shikoyat qilishlari mumkin.

Belarus qonunchiligida harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi muntazam takomillashtirib borilayotgan sohalardan hisoblanadi[10].

Armaniston Respublikasida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi Konstitutsiya va maxsus qonunchilik asosida ta’minlanadi. Harbiy xizmatchilarning huquqlari va majburiyatlari «Harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonun bilan belgilanadi[11]. Ular mehnat shartlari, oylik maosh, tibbiy yordam va ijtimoiy kafolatlar bilan ta’minlanadi[12].

Harbiy xizmatchilarning huquqlari buzilganda, ular davlat sudlari va harbiy prokuratura organlari orqali himoya qilinadi[13]. Qonunsiz buyruqlarni bajarmaslik huquqiga ega bo‘lib, huquqiy yordam olish va sudga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Armanistonda harbiy xizmatchilarga uy-joy ta’minlash va ijtimoiy yordam ko‘rsatish uchun davlat dasturlari mavjud. Mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolganda pensiya va nafaqalar belgilanadi. Harbiy xizmatchilarning sha’nini tahqirlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Harbiy xizmatchilarning oila a’zolari ijtimoiy imtiyozlar va tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egadirlar. Davlat ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratadi. Ular huquqlari buzilganda advokat yordamida shikoyat qilishlari mumkin[14].

Qirg‘iziston Respublikasida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi mamlakat Konstitutsiyasi va maxsus qonunlar orqali ta’minlanadi. Harbiy xizmatchilar o‘z vazifalarini bajarishda konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga egadirlar.

Harbiy xizmatchilarning huquqlari «Harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonun bilan tartibga solinadi va ularning ijtimoiy kafolatlari davlat tomonidan kafolatlanadi[15]. Qonunsiz buyruqlarni bajarmaslik huquqiga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar o‘z huquqlarini sud orqali himoya qilishlari mumkin.

Harbiy prokuratura organlari harbiy xizmatchilarning huquqlari buzilishining oldini olish va huquqiy nazoratni amalga oshirish vazifasini bajaradi. Harbiy xizmatchilar mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolgan taqdirda pensiya va nafaqalarga da’vo qilish huquqiga ega. Davlat harbiy xizmatchilarga uy-joy bilan ta’minlash va ijtimoiy yordam ko‘rsatish maqsadida maxsus dasturlarni amalga oshiradi[16].

Qozog‘iston Respublikasida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi mamlakat Konstitutsiyasi va maxsus qonunlar orqali ta’minlanadi[17]. Harbiy xizmatchilar o‘z vazifalarini bajarishda konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga egadirlar.

Harbiy xizmatchilarning huquqlari «Harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonun bilan tartibga solinadi va ularning ijtimoiy kafolatlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Qonunsiz buyruqlarni bajarmaslik huquqiga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar

o‘z huquqlarini sud orqali himoya qilishlari mumkin. Harbiy prokuratura organlari harbiy xizmatchilarning huquqlari buzilishining oldini olish va huquqiy nazoratni amalga oshirish vazifasini bajaradi. Harbiy xizmatchilar mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolgan taqdirda pensiya va nafaqalarga da’vo qilish huquqiga ega. Davlat harbiy xizmatchilarga uy-joy bilan ta’minlash va ijtimoiy yordam ko‘rsatish maqsadida maxsus dasturlarni amalga oshiradi. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari tibbiy xizmatlar va ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish huquqiga egadirlar[18].

Tojikiston Respublikasida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi mamlakat Konstitutsiyasi va maxsus qonunlar orqali ta’minlanadi[19]. Harbiy xizmatchilar o‘z vazifalarini bajarishda konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga egadirlar.

Harbiy xizmatchilarning huquqlari «Harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonun bilan tartibga solinadi va ularning ijtimoiy kafolatlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Harbiy xizmatchilarning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ular o‘z huquqlari buzilganda advokat yordamida sudga murojaat qilishlari mumkin[20].

Moldaviya Respublikasida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi Konstitutsiya va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonunlar asosida ta’minlanadi[21]. Harbiy xizmatchilar o‘z vazifalarini bajarishda konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga egadirlar[22].

Harbiy xizmatchilarning huquqlari davlat tomonidan ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy kafolatlar bilan ta’minlanadi[23]. Qonunsiz buyruqlarni bajarmaslik huquqiga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar o‘z huquqlarini sud orqali himoya qilishlari mumkin.

Harbiy xizmatchilarning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlashga qarshi jinoiy javobgarlik belgilangan va ular huquqiy yordamdan foydalanish huquqiga egadirlar[24].

Ozarbayjon Respublikasida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi mamlakat Konstitutsiyasi va maxsus qonunlar asosida ta’minlanadi[25]. Harbiy xizmatchilar o‘z vazifalarini bajarishda konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga egadirlar[26].

Harbiy xizmatchilarning huquqlari «Harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonun bilan tartibga solinadi va ular ijtimoiy kafolatlar bilan ta’minlanadi[27]. Qonunsiz buyruqlarni bajarmaslik huquqiga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar o‘z huquqlarini sud orqali himoya qilishlari mumkin[28].

Harbiy prokuratura organlari harbiy xizmatchilarning huquqlari buzilishining oldini olish va huquqiy nazoratni amalga oshirish vazifasini bajaradi[29]. Davlat harbiy xizmatchilarga uy-joy, tibbiy xizmat va ijtimoiy yordam ko‘rsatish maqsadida dasturlar amalga oshiradi.

Harbiy xizmatchilarning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan va ular advokat yordamida sudga murojaat qilishlari mumkin[30].

O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi Konstitutsiya va maxsus qonunlar asosida mustahkamlangan. Harbiy xizmatchilar o‘z vazifalarini bajarishda konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga egadirlar[31].

Harbiy xizmatchilarning huquqlari va majburiyatlari “Harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinadi va ularning ijtimoiy kafolatlari davlat tomonidan ta’minlanadi. Harbiy xizmatchilar qonunsiz buyruqlarni bajarmaslik huquqiga egadirlar va o‘z huquqlarini sud orqali himoya qilishlari mumkin[32].

Harbiy prokuratura organlari harbiy xizmatchilarning huquqlari buzilishining oldini olish va huquqiy nazoratni amalga oshirish vazifasini bajaradi[33]. Harbiy xizmatchilar mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolgan taqdirda pensiya va nafaqalarga da’vo qilish huquqiga egadirlar.

Davlat harbiy xizmatchilarga uy-joy bilan ta’minlash va ijtimoiy yordam ko‘rsatish maqsadida maxsus dasturlarni amalga oshiradi. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari tibbiy xizmatlar va ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish huquqiga egadirlar. Harbiy xizmatchilarning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ular o‘z huquqlari buzilganda advokat yordamida sudga murojaat qilishlari mumkin. O‘zbekiston qonunchiligida harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi doimiy ravishda takomillashtirib boriladi va ularga zarur huquqiy himoya kafolatlanadi[34].

Shuningdek, xalqaro kelishuvlar va konvensiyalar doirasida ham ularning

huquqlari himoya qilinadi. Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadida davlat tomonidan muttasil huquqiy ta’lim va treninglar o‘tkaziladi[35].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarining Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasi aksariyat jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘lib, ushbu tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlar va o‘rnatilgan tartib qoida albatta harbiy huquq sohasini takomillashtirish va bu orqali harbiy xizmatchilarning va ularning oila a’zolarining huquqlarni huquqiy ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Ularning xizmat nuqtai nazaridan huquq va erkinliklarini cheklanishi harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini takomillashtirish ehtiyojini mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, barcha rivojlangan davlatlar mamlakat mudofaasiga bel bog‘lagan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini huquqiy ta’minlash globallashib borayotgan bugungi zamonning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mustaqil_davlatlar_hamdo‘stligi // (Murojaat sanasi 07.08.2025 15:45)
2. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi, http://www.consultant.ru/ document/cons_doc_LAW_28399
3. “Harbiy burch va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Federal qonun №53-FZ, 1998-yil 28-mart, http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_17862
4. “Harbiy xizmatchilarning maqomi to‘g‘risida”gi Federal qonun №76-FZ, 1998-yil 27-mart, http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_18698
5. Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi, https://mil.ru
6. Rossiya Federatsiyasi Harbiy prokuraturasi, https://genproc.gov.ru
7. Belarus Respublikasi Konstitutsiyasi, https://pravo.by/
8. “Harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun, 1992-y. 2-iyul, https://pravo.by /document/?guid=12551&p0=H79200160
9. Belarus Respublikasi Harbiy prokuraturasi, https://mil.gov.by/ru/
10. Belarus Respublikasi Sud tizimi, https://court.by
11. Armaniston Respublikasi Konstitutsiyasi, https://www.arlis.am /DocumentView.aspx?docid=117616
12. “Harbiy xizmat to’g’risida”gi Qonun, 1999 yil 27 iyul, https://www.arlis.am /DocumentView.aspx?docid=13636
13. Armaniston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, https://www.prosecutor.am
14. Armaniston Respublikasi Sud tizimi, https://court.am
15. Qirg’iziston Respublikasi Konstitutsiyasi, http://cbd.minjust.gov.kg /act/view/ky-kg/11201
16. Qirg‘iziston Respublikasi “Harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2008 йил, http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ky-kg/20284 ва Qirg‘iziston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti
17. Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi, https://online.zakon.kz/ document/?doc_id=1004975
18. Qozog‘iston Respublikasi “Harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014 yil 7 iyul, http://adilet.zan.kz/rus/docs/ Z1400000434 ва Qozog‘iston Milliy prokuraturasi rasmiy sayti
19. Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasi, www.parlament.tj
20. Tojikiston Respublikasi “Harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni
21. Moldaviya Respublikasi Konstitutsiyasi, https://www.constcourt.md
22. Moldaviya Respublikasi “Harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni
23. Moldaviya Respublikasi ijtimoiy muhofaza qonunlari
24. Moldaviya Respublikasi Jinoyat kodeksi va huquqiy yordam tizimi
25. Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasi, https://president.az
26. Ozarbayjon Respublikasi “Harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni
27. Ozarbayjon Respublikasi ijtimoiy kafolatlar to‘g‘risidagi qonunlar
28. Ozarbayjon Respublikasi sud tizimi haqidagi qonunlar

29. Ozarbayjon Respublikasi harbiy prokuraturasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar
30. Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksi va huquqiy yordam tizimi
31. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, lex.uz
32. O‘zbekiston Respublikasi “Harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Ijtimoiy muhofaza to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Sud to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni
33. “O‘zbekiston Respublikasi harbiy prokuraturasi faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni
34. O‘zbekiston Respublikasining “Pensiya to‘g‘risida”gi, “Uy-joy munosabatlari to‘g‘risida”gi, “Tibbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
35. O‘zbekistonning xalqaro shartnomalari, mfa.uz

U.Boliyev,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

JAMOAT TARTIBINI SAQLASHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MAHALLALARDA XAVFSIZ MUHITNI YARATISH





Maqola mahallalarda xavfsiz muhit yaratish maqsadida jamoat tartibini saqlash tizimini takomillashtirishga bag’ishlangan. Mahalliy jamiyatda tartib-intizomni ta’minlashning hozirgi holati tahlil qilinadi, mahalla fuqarolari kengashlarining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi roli va imkoniyatlari o’rganiladi. Aholi o’rtasida huquqiy madaniyatni oshirish, ijtimoiy nazoratni kuchaytirish, yoshlar bilan profilaktik ishlarni olib borish masalalari ko’rib chiqiladi. Mahallalarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, axborot tizimlarini joriy etish yo’llari tahlil qilinadi. Muallif mahalliy darajada jamoat tartibini saqlashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va ularning amaliy tatbiqini ta’minlash bo’yicha takliflar beradi.

Kalit so’zlar: mahalla, jamoat tartibi, xavfsiz muhit, mahalla fuqarolari kengashi, ijtimoiy nazorat, profilaktik ishlar, huquqiy madaniyat, zamonaviy texnologiyalar, jinoyatchilik profilaktikasi, mahalliy jamiyat

Аннотация: Статья посвящена совершенствованию системы охраны общественного порядка с целью создания безопасной среды в махаллях. Анализируется современное состояние обеспечения порядка и дисциплины в местном сообществе, изучаются роль и возможности советов граждан махаллей в обеспечении общественной безопасности. Рассматриваются вопросы повышения правовой культуры среди населения, усиления социального контроля, проведения профилактической работы с молодежью. Анализируются пути использования современных технологий в предупреждении преступности и правонарушений в махаллях, внедрения информационных систем. Автор предлагает разработку новых механизмов охраны общественного порядка на местном уровне и обеспечение их практического применения.

Ключевые слова: махалля, общественный порядок, безопасная среда, совет граждан махалли, социальный контроль, профилактическая работа, правовая культура, современные технологии, профилактика преступности, местное сообщество

Abstract: The article is devoted to improving the public order protection system with the aim of creating a safe environment in mahallahs. The current state of ensuring order and discipline in the local community is analyzed, and the role and capabilities of mahallah citizens’ councils in ensuring public safety are studied. Issues of raising legal culture among the population, strengthening social control, and conducting preventive work with youth are considered. Ways of using modern technologies in preventing crime and offenses in mahallahs and implementing information systems are analyzed. The author proposes the development of new mechanisms for public order protection at the local level and ensuring their practical application.

Keywords: mahallah, public order, safe environment, mahallah citizens’ council, social control, preventive work, legal culture, modern technologies, crime prevention, local community

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida mahalla institutini rivojlantirish, uning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, xususan, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 yanvardagi “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori[1] bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tardi. Mazkur qaror bilan barcha mutasaddi idoralar oldiga jinoyatlarning oldini olishga yo‘naltirilgan infratuzilma yaratish vazifasi qo‘yildi. Shu asosda bajarilgan ishlar natijasida 2025 yilning dastlabki 5 oyida o‘rtacha darajadagi jinoyatlar 12, og‘ir jinoyatlar 37,3 foiz kamaydi. Qotillik, o‘g‘rilik, talonchilik, firibgarlik va mast holda avtohalokat sodir qilish kabi ko‘plab jinoyat turlari keskin kamayishiga erishildi[2].

Mahallalarda xavfsiz muhitni ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib, bu borada tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etmoqda. Ushbu holat mazkur mavzuni chuqur o‘rganish zaruratini belgilab beradi.

Amaldagi qonunchilik asosida jamoat xavfsizligini ta’minlashga oid jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maqsadli va manzilli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida malakali kadrlarni tayyorlash va tizimli malakasini oshirish, jamoat xavfsizligiga xatarlarning holati va darajalarini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish hamda joriy etish kabi asosiy vazifalar belgilangan.

Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning oldini olish masalasini tadqiq etish natijasida quyidagilar aniqlandi.

Birinchidan,mahallainstitutininghuquqiy asoslari takomillashtirildi. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi qonuni yangi tahrirda qabul qilinib, mahalla institutining vakolatlari kengaytirildi. Mahalla fuqarolar yig‘inlariga jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida qo‘shimcha vakolatlar berildi.

Ikkinchidan, profilaktika inspektorlari faoliyati takomillashtirildi. Har bir mahallada profilaktika inspektorining faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Profilaktika inspektorlarining aholi bilan bevosita muloqoti kuchaytirilib, ularning faoliyati samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Uchinchidan, mahallalarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «Xavfsiz mahalla» konsepsiyasi doirasida videokuzatuv tizimlari o‘rnatilmoqda, xavf guruhidagi shaxslar bilan manzilli ishlar olib borilmoqda, jamoatchilik nazorati kuchaytirilmoqda.

To‘rtinchidan, mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlari olib borilmoqda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda, sport va madaniy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Beshinchidan, mahalla-oila-ta’lim muassasasi hamkorligi kuchaytirilmoqda. Mahalla fuqarolar yig‘inlari huzurida yarashtirish komissiyalari, ota-onalar universitetlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Oilaviy ajrimlarning oldini olish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Oltinchidan, raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Mahallalarda elektron hisobot tizimi, onlayn murojaat qilish imkoniyati yaratilgan. Mahalla fuqarolar yig‘inlari faoliyatini raqamlashtirish borasida dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda.

Biroq, mavjud yutuqlarga qaramasdan, mahalla institutining vakolatlari amaliyotda to‘liq ro‘yobga chiqarilmayotganligi, profilaktika inspektorlari faoliyatini baholash mezonlari takomillashtirilmaganligi, jamoatchilik ishtirokining huquqiy maqomi yetarli darajada aniq belgilanmagan,

profilaktika tadbirlari ko‘pincha rasmiyyatchilikka asoslanib qolayotganligi, xavf guruhidagi shaxslar bilan ishlash samaradorligi pastligi, jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini o‘rganish yetarli darajada emasligi, aholining huquqiy ongi va madaniyati yetarli darajada emasligi, yoshlar o‘rtasida g‘oyaviy bo‘shliq mavjudligi, oila institutining ta’siri sustlashganligi kabi qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Mavjud muammolarni hal etish va mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish uchun qator yo‘nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq.

Shu jumladan, huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida «Mahallada jamoat tartibini saqlash to‘g‘risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish; mahalla posboni institutini qayta tiklash va uning huquqiy maqomini aniq belgilash, profilaktika inspektorlarining vakolatlarini kengaytirish, mahalla fuqarolar yig‘inlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, profilaktika inspektorlari faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish, «Xavfsiz mahalla» loyihasini keng joriy etish, xavf guruhidagi shaxslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish kerak.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda muayyanyutuqlarga erishayapmiz. Ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, jumladan, profilaktika ishlari ijobiy samara bermoqda. Biroq jinoyatchilikni to‘liq bartaraf etish uchun mahalla tizimini shu yo‘nalish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish, har bir oiladagi muammolarni barvaqt aniqlash, bolalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash, raqamli tahlilni kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini oshirish talab etiladi. Mazkur tavsiyalarning amalga oshirilishi mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishda jamoat tartibini saqlash tizimini takomillashtirish talab etiladi. Bu borada profilaktik tadbirlarni kengaytirish, mahalla faollarining faol ishtirokini ta’minlash, axborot tizimlarini integratsiya qilish va texnik vositalardan samarali foydalanish orqali aholining tinch va xavfsiz hayoti kafolatlanishi mumkin. Jamoatchilikning huquqiy madaniyatini oshirish orqali xavfsiz muhitni yaratish va mahallalarda jinoyatchilikka qarshi kurashda aholi o‘rnini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-1-сон қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.01.2025 й., 07/25/01/0059-сон

2. Бурханов К.Н. Жиноятнинг оқибати билан эмас, сабаблари билан курашиш — энг мақбул йўл // Янги Ўзбекистон.№133 (1459), 2025 йил 1 июль

Тимур Нурйигитович Бутунбаев,
Самостоятельный соискатель Университета
общественной безопасности Республики Узбекистан

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ БОРЬБЫ С НЕЗАКОННЫМ (НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫМ) ДОСТУПОМ К КОМПЬЮТЕРНОЙ ИНФОРМАЦИИ

Статья посвящена комплексному анализу зарубежного опыта противодействия незаконному (несанкционированному) доступу к компьютерной информации. Исследуются правовые механизмы борьбы с киберпреступностью в различных юрисдикциях, рассматриваются особенности национальных подходов к криминализации компьютерных преступлений. Автор обосновывает возможности адаптации успешного зарубежного опыта для совершенствования национальной системы противодействия киберугрозам.

Ключевые слова: зарубежный опыт, киберпреступность, незаконный доступ, компьютерная информация, информационная безопасность, международное сотрудничество, цифровые доказательства, кибербезопасность, превентивные меры, правовое регулирование

The article is devoted to a comprehensive analysis of foreign experience in combating illegal (unauthorized) access to computer information. Legal mechanisms for combating cybercrime in various jurisdictions are examined, and features of national approaches to criminalization of computer crimes are considered. The author substantiates the possibilities of adapting successful foreign experience to improve the national system of countering cyber threats.

Keywords: foreign experience, cybercrime, unauthorized access, computer information, information security, international cooperation, digital evidence, cybersecurity, preventive measures, legal regulation

Maqola kompyuter ma’lumotlariga noqonuniy (ruxsatsiz) kirish bilan kurashishning xorijiy tajribasini kompleks tahlil qilishga bag’ishlangan. Turli yurisdiksiyalarda kiberjinoyatchilik bilan kurashishning huquqiy mexanizmlari o’rganiladi, kompyuter jinoyatlarini jinoiy javobgarlikka tortishga nisbatan milliy yondashuvlarning xususiyatlari ko’rib chiqiladi. Muallif kiberxavflarga qarshi kurashishning milliy tizimini takomillashtirishda muvaffaqiyatli xorijiy tajribani moslashtirishning imkoniyatlarini asoslaydi.

Kalit so’zlar: xorijiy tajriba, kiberjinoyatchilik, noqonuniy kirish, kompyuter ma’lumotlari, axborot xavfsizligi, xalqaro hamkorlik, raqamli dalillar, kiberxavfsizlik, profilaktik choralar, huquqiy tartibga solish



По мере внедрения информационных технологий в различные сферы нашей жизни усугубляется и проблема борьбы с компьютерной преступностью. В зарубежных странах с высоким уровнем компьютеризации она уже давно стала одной из первостепенных. По оценкам аналитиков, в США ущерб от подобных преступлений составляет ежегодно около 5 млрд. долларов, во Франции - до 1 млрд. франков, в Германии - порядка 4 млрд. марок, при этом число таких преступлений увеличивается на 30-40% в год. Широкая разнообразность компьютерных преступлений не позволила до сих пор прийти к единому понятию компьютерной преступности. Причем проблема эта на сегодняшний день настолько остро стоит перед многими государствами, что Совет Европы принял ряд рекомендаций, целью которых является выработка согласованного подхода государств к совершенствованию уголовного и уголовно-процессуального законодательства.

В указанных рекомендациях использовалось первоначально понятие «преступление с использованием компьютера», поскольку было признано, что дать определение компьютерного преступления чрезвычайно сложно. Не всякое незаконное использование компьютерной системы содержит признаки состава компьютерного преступления в уголовно-правовом смысле. Именно поэтому в рекомендациях понятие компьютерного преступления определяется через примерный перечень конкретных действий, которые в совокупности дают представление о компьютерном преступлении. В дальнейшем в рекомендациях Совет Европы заменил термин «преступление с использованием компьютера» на «преступление, связанное с использованием информационных технологий»[1].

По мнению нидерландских ученых, причина отсутствия общепризнанного определения компьютерного преступления заключается в том, что существует множество трудностей при формулировании определения. Ученые применяют два понятия компьютерного преступления - в узком и широком смысле. В узком смысле преступление, которое невозможно совершить без использования компьютера или другого автоматического устройства, а в широком - использование компьютера или автоматического устройства как объекта или инструмента совершения преступления[2].

Первым документом Совета Европы, посвященным компьютерной преступности была Рекомендация № R 89 (9) Комитета Министров стран-членов Совета Европы о преступлениях, связанных с компьютерами, принятая 13 сентября 1989 г. В ней определены практически все преступления, связанные с использованием компьютер¬ных технологий, а также дана глубокая классификация компьютерных преступлений с рекомендуемым и факультативным перечнем включения их в национальное законодательство.

С учетом того, что наша страна не имеет большого опыта противодействия преступлениям такого рода, представляется целесообразным привести в данной статье анализ европейского подхода к криминализации и пенализации деяний в сфере компьютерных технологий, который в 2003 году проводила Орловская Н.А.

В статье представлен анализ криминализации и наказуемости таких деяний согласно Конвенции о киберпреступности 2001 г. и уголовному законодательству ФРГ как одной из наиболее развитых стран Европейского Союза. Это весьма важно не только для получения ценного опыта в деле противостояния преступности, но и в свете ряда нормативных документов Европейского парламента и Европейского Союза, в частности, Директивы от 8 июня 2000 г. «О некоторых правовых аспектах информационных услуг, в частности, электронной коммерции на внутреннем рынке». Согласно п.61 данной Директивы, если рынок фактически будет функционировать при помощи электронных средств в контексте глобализации, Европейский союз и неевропейские зоны будут нуждаются в консультации друг с другом с целью согласования законов и процедур.

Международная Конвенция о киберпреступности предлагает странам-участникам криминализировать следующие деяния:

- противозаконный доступ, противозаконный перехват, воздействие на данные (согласно ч.2 ст.4 Конвенции, преимущественно квалифицируются

как преступления только те случаи воздействия на данные, которые влекут за собой серьезный ущерб), воздействие на функционирование системы, противозаконное использование устройств - преступления против конфиденциальности, целостности и доступности компьютерных данных и систем;

- подлог с использованием компьютерных технологий, мошенничество с использованием компьютерных технологий - правонарушения, связанные с использованием компьютерных средств;

- правонарушения, связанные с детской порнографией - правонарушения, связанные с содержанием данных;

- правонарушения, связанные с нарушением авторского права и смежных прав.

Таким образом, в качестве киберпреступлений (компьютерных преступлений) Международная Конвенция о киберпреступности рассматривает не только деяния, непосредственно связанные с операциями с компьютерной информацией (доступ, перехват), но и деяния, при совершении которых компьютер выступает как орудие совершения преступления (подлог, мошенничество).

Согласно ст. 13 Конвенции, к физическим лицам, совершившим преступления, предусмотренные данной Конвенцией, должны применять эффективные, соразмерные и убедительные наказания, включая лишение свободы. К юридическим лицам возможно применение мер и неуголовного характера, включая денежные санкции.

Таким образом, по мнению международного сообщества, необходимо консолидировать те деяния, которые причиняют наибольший вред в сфере развития и использования компьютерных технологий, для сплочения правопослушных представителей общества в деле противостояния одному из наиболее динамично развивающихся видов преступности.

Необходимо отметить, что ряд деяний, которые предложено криминализировать в Конвенции, не могут быть в полной мере отнесены к киберпреступлениям. Это, касается, в частности, правонарушений, связанных с использованием компьютерных средств. Не совсем понятно, почему орудие совершения преступления, каким выступает компьютер, должно выступать системообразующим признаком. Если это так, то логично предположить, что убийство тоже может быть киберпреступлением в случае, если путем изменения данных злоумышленники отключают системы жизнеобеспечения потерпевшего, чем причиняют ему смерть.

Что касается ФРГ, то следует отметить, что данное государство обладает высокоразвитой правовой системой, во главе угла которой стоит защита личности, ее основных прав и свобод от преступных посягательств с учетом принципов правового государства.

В УК ФРГ[3] нет отдельной главы (раздела), посвященного ответственности за совершение компьютерных преступлений. Однако это не значит, что подобная проблематика не привлекала внимание немецких законодателей. Ими предусмотрены три параграфа:

1. Компьютерное мошенничество. Положения об ответственности за компьютерное мошенничество расположены в разделе 22 «Мошенничество и преступное злоупотребление доверием».

2. Изменение данных - раздел 27 «Повреждение имущества». Подлежит ответственности лицо, которое противоправно аннулирует, уничтожает, делает непригодными или изменяет данные.

3. Компьютерный саботаж - раздел 27 «Повреждение имущества». Подлежит ответственности лицо, которое нарушает обработку данных, имеющих существенное значение для чужого предприятия, организации или органа таким образом, что разрушает, повреждает, делает непригодной, устраняет или изменяет установку для обработки данных или носителя информации.

Таким образом, анализ криминализации согласно законодательству ФРГ дает основания утверждать, что уголовно-правовое противодействие компьютерной преступности лежит преимущественно в плоскости недопущения причинения вреда имущественным интересам потерпевшего.

Подход к пенализации указанных деяний, на наш взгляд, заслуживает внимания, поскольку правовые системы стран-членов Европейского Союза являются достаточно гуманными. В их карательной политике превалируют наказа-

ния, не связанные с лишением свободы. В то же время, устанавливая достаточно существенные сроки лишения свободы за преступления, сопряженные с использованием компьютерных технологий, что подчеркивает их значительную общественную опасность.

В Модельном уголовном кодексе стран - участниц СНГ, принятом на седьмом пленарном заседании Межпарламентской Ассамблеи государств - участников Содружества Независимых государств 17 февраля 1996 г., в главе 30 («Преступления против информационной безопасности») предусмотрены семь составов информационных преступлений: несанкционированный доступ к компьютерной информации (ст.286), модификация компьютерной информации (ст.287), компьютерный саботаж (ст.288), неправомерное завладение компьютерной информацией (ст.289), изготовление и сбыт специальных средств для получения неправомерного доступа к компьютерной системе или сети (ст.290), разработка, использование и распространение вредоносных программ (ст.291), нарушение правил эксплуатации компьютерной системы или сети (ст.292). По сравнению с УК Республики Узбекистан в нем более расширен круг деяний, отнесенных к информационным преступлениям.

Кроме того, Модельный кодекс устанавливает ответственность за преступления, связанные с использованием компьютера или посягающие на компьютерную информацию. Так, в главе 28 («Преступления против собственности») – за хищение совершенное путем использования компьютерной техники (ст.243), причинение имущественного ущерба путем обмана, злоупотребление доверием или модификации компьютерной информации (ст.250). В главе 29 («Преступления против порядка осуществления предпринимательской и иной экономической деятельности») - за незаконное получение информации, составляющей коммерческую или банковскую тайну (ст.269), где в качестве одного из способов совершения преступления назван «незаконное проникновение в компьютерную систему или сеть». В главе 31 («Преступления против основ конституционного строя и безопасности государства») – за нарушение правил обращения с содержащими государственную тайну документами или компьютерной информацией (ст.300).

Так же необходимо отметить, что за рубежом существует опыт более широкого учета компьютерных преступлений. Например, по¬лицейское разведывательное управление Нидерландов, занимаясь регистрацией всех случаев компьютерных преступлений, использует в качестве критерия отнесения того или иного преступления к числу компьютерных следующее определение: поведение, которое потенциально вредно и имеет отношение к устройствам, связанным с ком¬пьютерами с точки зрения хранения, передачи и обработки данных. При этом в ходе учета делается различие между преступлениями, в которых компьютер является пред¬метом преступления, и теми, в которых он выступает в качестве средства соверше¬ния преступления.

Законодательство разных стран по-разному подходит к проблематике компьютерных преступлений. На это влияет множество факторов: национальная правовая система, история развития, современное экономическое положение и многое-многое другое.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Мерзогитова Ю.А. Понятие компьютерной преступности // Вестник МВД России, 2001. – № 5-6. – С. 84 – 88.
2. Панфилова Е.И., Попов А.Н. Компьютерные преступления. Подборка сравнительно-правовых материалов по вопросам борьбы с экономическими преступлениями. Тамбов, 2000.
3. Уголовный кодекс ФРГ / Пер. С нем. – М.: ИКД «Зерцало-М», 2001

Kamilxanov Jamshidxon Kamilxanovich,
mustaqil izlanuvchi

JAZO EMAS, NAZORAT: ELEKTRON BRASLETLAR ORQALI EHTIYOT CHORASINI IJRO ETISHNING YANGI MODELI

Ushbu maqolada elektron monitoring vositasi sifatida elektron braslet texnologiyasining jinoyatga qarshi kurashda va jazoni ijro etishda tutgan o‘rni, uning texnik asoslari, huquqiy maqomi, xalqaro tajriba va inson huquqlari bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, elektron brasletning jazo emas, balki jazoni samarali va insonparvarlik asosida ijro etishni ta’minlovchi texnik vosita ekanligi ilmiy asoslarda yoritiladi.
Kalit so‘zlar: elektron monitoring, elektron braslet, jazo nazorati, jinoyatchilik profilaktikasi, inson huquqlari, GPS, GSM, innovatsion texnologiyalar.

В данной статье рассматривается значение технологии электронного браслета как средства электронного мониторинга в борьбе с преступностью и исполнении наказаний. Анализируются технические основы, правовой статус, международный опыт и аспекты, связанные с правами человека. Также научно обосновано, что электронный браслет представляет собой не инструмент наказания, а техническое средство, обеспечивающее эффективное и гуманное исполнение наказания.
Ключевые слова: электронный мониторинг, электронный браслет, контроль наказания, профилактика преступности, права человека, GPS, GSM, инновационные технологии.

This article analyzes the role of electronic bracelet technology as a means of electronic monitoring in crime prevention and sentence execution. It explores the technical foundations, legal status, international practices, and human rights-related aspects of this technology. The paper scientifically substantiates that the electronic bracelet is not a tool of punishment, but rather a technical instrument ensuring the effective and humane implementation of sentencing.
Keywords: electronic monitoring, electronic bracelet, punishment control, crime prevention, human rights, GPS, GSM, innovative technologies.



Zamonaviy jinoyat-huquq siyosatida jazoni ijro etishda inson huquqlarini ta’minlash va jamoat xavfsizligini muhofaza qilish tamoyillarini muvozanatda olib borish muhim o‘rin tutadi. Shu maqsadda, an’anaviy jazolash usullaridan tashqari, innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirilgan elektron nazorat tizimlari keng joriy etilmoqda. Ulardan biri bo‘lmish elektron braslet bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida samarali tatbiq etilib, jinoyatchilar ustidan masofaviy nazoratni ta’minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Elektron brasletning huquqiy maqomi va texnik asoslari to‘g‘risida fikr yuritilganda elektron braslet mustaqil jazo turi bo‘lmay, ozodlikni cheklash, uy qamog‘i yoki ehtiyot choralarining ijrosini nazorat qilishda yordamchi texnologik vosita hisoblanadi (Harvard CRCL, 2024) [1].

O‘zbekistonda ushbu texnologiyaning huquqiy asoslari 2024-yil 5-dekabrdagi 813-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilangan. Unga ko‘ra, Ichki ishlar vazirligi organlari masofadan turib nazorat qilishni amalga oshiradi, sudlar esa brasletni qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qiladi [2].

Texnik jihatdan, elektron brasletlar GPS va GSM modullari, harakatni aniqlovchi sensorlar, uzluksiz monitoringni ta’minlovchi aloqa tizimlaridan tashkil topgan. Bu tizimlar brasletni yechishga urinish, signal uzilishi yoki hududdan chiqish holatlarini aniqlaydi hamda nazorat markazlariga real vaqt rejimida xabar yuboradi [3].

Bu borada xalqaro tajribalar tahlil qilinganda AQSH, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Rossiya va Turkiya kabi mamlakatlarda elektron brasletlar keng ko‘lamda qo‘llanilib, har birida ularning texnik va yuridik tatbiqi farq qiladi. Masalan, AQSH: probatsiya, uy qamog‘i tizimida real-time GPS monitoring asosida ishlaydi.

Fransiya: qat’iy yuristik nazorat bilan qo‘llaniladi, GSM va GPS texnologiyalari asosida.

Germaniya: avtomatik ma’lumotlar tahlili, inson huquqlarini ustuvor hisoblash.

Yaponiya: ijro va sud hokimiyatlari o‘rtasida kuchli koordinatsiya mavjud.

Rossiya va Turkiya: qonunchilik asoslari mavjud bo‘lsada, texnik va nazorat muammolari saqlanib qolgan.

Undan tashqari elektron brasletning texnologik afzalliklar va muammolar to‘g‘risida ham fikr yuritish o‘rinlidir. Tadqiqotchilar, xususan, Sahoo va Rath (2013) GPS-GSM texnologiyalarining jinoyatchilarni joylashuv asosida nazorat qilishdagi samaradorligini ta’kidlashadi [5].

Biroq, boshqa olimlar, masalan, Sepand Malek va boshqalar (2023),

bu tizimlarning texnik nosozliklari va signal uzilishi holatlarini tanqid qilishadi [6].

Shuningdek, European Digital Rights (EDRi, 2022) ma’lumotlariga ko‘ra, doimiy monitoring funksiyasi nazorat samaradorligini oshiradi, biroq inson shaxsiy hayoti daxlsizligi muammolarini keltirib chiqarishi mumkin [7].

Elektron brasletning iqtisodiy samaradorlik va jamiyatga ijobiy ta’siri esa elektron braslet tizimining amaliyoti jazoni ijro etish muassasalaridagi yuklamani kamaytiradi, qayta jinoyat sodir etish ehtimolini pasaytiradi va ijtimoiy moslashuv jarayonini tezlashtiradi [8].

AQSH va Germaniyadagi tadqiqotlar elektron monitoringni joriy qilish orqali byudjet xarajatlarini 20-30%ga qisqartirish mumkinligini ko‘rsatgan. Shu sababli, u an’anaviy jazolash usullariga nisbatan iqtisodiy va insonparvarlik jihatdan samaraliroq hisoblanadi.

Jahon amaliyotida uy qamog‘iga mahkum etilgan yoki unga nisbatan mazkur ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxslarni elektron vositalar yordamida nazorat qilish nafaqat jinoiy jazoni ijro etish tizimini isloh qilish, balki inson huquqlari kafolatini ta’minlash yo‘lidagi muhim bosqich sifatida qaraladi.

Avvalo, AQSH tajribasini e’tiborga olish lozim. AQShda «home confinement» yoki «electronic monitoring» amaliyoti 1980-yillardan boshlab qo‘llanila boshlangan. Masalan, Nagin va Paternoster (1991) o‘z tadqiqotlarida elektron nazorat jazoning psixologiyaviy ta’siriga alohida e’tibor qaratib, uning yosh mahkumlarda o‘zini to‘g‘ri tutishga undaydigan omil sifatida xizmat qilishini ta’kidlaydilar[9]. Shu bilan birga, ba’zi tadqiqotchilar, jumladan, Payne va Gainey (2004) elektron nazorat mahkumni jamiyatdan to‘liq ajratmasdan, uning erkinligiga cheklov qo‘yish orqali jamiyat xavfsizligini ta’minlashda samarali mexanizm ekanini asoslab berishgan[10].

Fransiya va Germaniya kabi Yevropa davlatlarida ham uy qamog‘i va elektron braslet amaliyoti huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida keng qo‘llaniladi.

Fransiyada “Placement sous surveillance électronique” tizimi orqali mahkum kunning belgilangan soatlarida uyida bo‘lishi, ishga borishi yoki sud majlislarida ishtirok etishi mumkin. 2019 yilda Fransiya Adliya vazirligi elektron nazorat ostida bo‘lgan shaxslar soni 13 000 nafarga yetganini ma’lum qilgan. Shu bilan birga, Belgiya va Shveysariyadagi ilmiy doiralar ayrim holatlarda elektron nazoratning samaradorligi past bo‘lishini ta’kidlab, uni faqat nisbatan kam xavfli shaxslarga nisbatan qo‘llashni tavsiya qiladilar[11].

Shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi va Janubiy Koreyada ham elektron brasletlar nafaqat uy qamog‘i uchun, balki jinoyatchilik tahdidini bartaraf etish maqsadida profilaktik nazorat vositasi sifatida ham qo‘llaniladi. Ayniqsa, Xitoyda «智慧监控» (aqlli monitoring) tizimi elektron brasletlardan tashqari, videokuzatuv, biometrik ma’lumotlar, yuz tanish algoritmlari bilan birlashtirilgan kompleks nazorat tizimiga aylangan[12]. Bu esa inson huquqlari nuqtayi nazaridan jiddiy palemikalarga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, elektron nazorat vositalarining – xususan, elektron brasletlarning qo‘llanilishi inson shaxsiy hayoti daxlsizligiga daxl qilish, kuzatuv va nazoratning chegaralarini belgilash, shaxsning huquqiy maqomi noaniq bo‘lgan hollarda unga «jazo» sifatida bosim o‘tkazish kabi huquqiy va etik muammolarni vujudga keltirmoqda.

Xususan, bir qator inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar (masalan, Amnesty International va Human Rights Watch) bu texnologiyalarning cheklov xarakterini tan olish bilan birga, ularning noqonuniy yoki haddan tashqari qo‘llanilishi orqali inson qadr-qimmatini kamsitish, ruhiy bosimga sabab bo‘lishi mumkinligi haqida ogohlantirmoqdalar. Ba’zi hollarda, elektron brasletlar qo‘llanilgan shaxslar o‘zlarini doimiy nazorat ostida ekanligini his qilgan holda, ruhiy beqarorlik, ijtimoiy oqlanish muammosi yoki «sifrlashtirilgan jazo» tahdidi ostida qolishlari qayd etilgan.

Fransuz huquqshunosi Sofi Luis (Sophie Louis) fikricha, elektron nazorat usullari huquqiy jihatdan «jazoni yengillashtirish» shaklida ko‘rinish bersa-da, amalda shaxsning erkin harakatlanish, shaxsiy hayot xususiyligi va jamiyatda erkin ishtirok etish huquqlarini cheklaydi va bu inson huquqlari to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasining 8-moddasiga zid kelishi mumkin[13].

Yana bir huquqshunos, rossiyalik olim V.A. Malkov ta’kidlashicha, elektron nazorat vositalarining huquqiy maqomi aniq belgilanmagan jamiyatlarda, ulardan faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki jazo uslubi sifatida foydalanilishi mumkin. Bu esa «jazo» va «ehtiyot chorasi» o‘rtasidagi chegaralarni aniqlashtirib, inson huquqlarini himoya qilishning tamoyillariga zid bo‘ladi[14].

Bu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ba’zi mutaxassislar elektron nazorat vositalarini qo‘llashda mutlaq qonuniylik, shaffoflik va inson qadr-qimmatiga nisbatan hurmat tamoyillarini qat’iy ta’minlash zarurligini ta’kidlaydilar. Aks holda, texnologiyaviy nazorat demokratik jamiyatlarda nazorat mexanizmining avtoritar tus olishiga xizmat qilishi mumkin.

Bu borada ayrim olimlar fikriga ko‘ra, elektron nazorat inson shaxsiy hayoti daxlsizligiga putur yetkazishi mumkin. Misol uchun, Marc Renzema (2003) ushbu usul jinoyatchini jamiyatdan butunlay chetlatmasligi bilan ijobiy, biroq nazoratning uzluksizligi tufayli shaxsning erkinlikka bo‘lgan hissini yo‘qotishiga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydi[15]. Shunga qaramasdan, Samuel Norris va hamkasblari (2019) elektron nazorat qayta jinoyat sodir etish holatlarini kamaytirganini tadqiqot natijalari asosida ilmiy jihatdan asoslab berganlar[16].

Jinoiy jazoni ijro etish tizimida zamonaviy texnologiyalarning, xususan, elektron brasletlarning joriy etilishi inson huquqlari va jamiyat xavfsizligini ta’minlash o‘rtasidagi muvozanatni saqlashda muhim rol o‘ynamoqda. Dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, elektron nazorat vositalari, ayniqsa, uy qamog‘i va ehtiyot choralari qo‘llanilgan shaxslarni nazorat qilishda samarali bo‘lib, sud-huquq tizimida yuzaga keladigan ortiqcha yuklamani kamaytirish, byudjet xarajatlarini qisqartirish va jinoyatchilarni ijtimoiy reintegratsiya qilishga yordam beradi.

Biroq, bu tizimning qo‘llanilishi inson huquqlari nuqtayi nazaridan jiddiy palemikalarga ham sabab bo‘lmoqda. Elektron brasletlarning doimiy monitoring imkoni shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligi, erkin harakatlanish va jamiyatda teng ishtirok etish huquqlariga putur yetkazishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar, huquqshunos olimlar va ilmiy tadqiqotlar bu texnologiyaning afzalliklari bilan birga, potensial xavflarini ham ko‘rsatmoqda.

Eng asosiysi, elektron nazorat tizimi faqat texnik yechim emas, balki inson qadr-qimmati, erkinlik va adolatning saqlanishiga xizmat qiladigan huquqiy mexanizm sifatida qaralishi kerak. Shu bois, uni joriy etishda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim:

1. Qonuniylik va sud qarorlari orqali faqat aniq mezonlar asosida qo‘llanilishi;

2. Nazorat va axborotlarning shaffofligi, shaxsning axborotga ega bo‘lish huquqining ta’minlanishi;

3. Nazorat jarayonida inson qadr-qimmatiga hurmat va ruhiy holati hisobga olinishi;

4. Jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan muntazam monitoring etilishi.

Shunday qilib, elektron braslet texnologiyasini qo‘llash – bu faqat jinoyatchini kuzatish usuli emas, balki zamonaviy huquq-tartibot tizimining insonparvarlik, samaradorlik va adolatga yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladigan holatdir.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Harvard Civil Rights–Civil Liberties Law Review. (2024). Electronic Monitoring and Criminal Justice Reform. Vol. 59, No. 2, pp. 301–320.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 5 dekabrdagi “Jinoyat ishlari bo‘yicha sud hukmi, ajrimi yoki qarorini ijro etishda elektron nazorat vositalarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida”.813-sonli qarori.
3. Rusu, L., & Dragomir, G. (2020). The Use of GPS/GSM Electronic Monitoring in Criminal Justice Systems. Journal of Criminal Law and Technology, 6(1), pp. 45–57.
4. Council of Europe. (2021). Electronic Monitoring: Legal and Ethical Considerations in Europe. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
5. Sahoo, J., & Rath, A. (2013). Real-Time Tracking of Offenders Using GPS-GSM Technology. International Journal of Engineering and Technology, 5(2), pp. 134–139.
6. Malek, S., Mohammadi, F., & Liu, Y. (2023). Reliability Challenges in GPS-Based Criminal Monitoring Systems. Journal of Surveillance Technology, 11(3), pp. 89–102.
7. European Digital Rights (EDRi). (2022). Electronic Monitoring and Fundamental Rights in the Digital Age. Brussels: EDRi Report.
8. Brenan, M., & Heinrich, A. (2020). Cost-Effectiveness of Electronic Monitoring in Correctional Systems. Criminal Justice Policy Review, 31(5), pp. 621–638.
9. Nagin, D. S., & Paternoster, R. (1991). The Preventive Effects of the Threat of Punishment: Testing Rational Choice Theory. Criminology, 29(4), pp. 561–586.
10. Payne, B. K., & Gainey, R. R. (2004). The Electronic Monitoring of Offenders Released from Jail or Prison: A Look at Current Practice. Federal Probation, 68(2), pp. 24–31.
11. Lebeau, Y., & Meyer, F. (2020). Effectiveness of Electronic Monitoring in Western Europe: A Comparative Study. European Journal of Criminology, 17(3), pp. 265–284.
12. Zhang, L., & Wang, H. (2021). Smart Surveillance in China: Integrating Electronic Monitoring with AI. Asian Journal of Law and Society, 8(1), pp. 55–75.
13. Louis, S. (2021). Electronic Monitoring and Human Rights: A European Perspective. Journal of Law and Ethics, 13(2), pp. 99–114.
14. Малков, В. А. (2020). Правовые проблемы электронного мониторинга: между контролем и наказанием. Москва: Юридический мир.
15. Renzema, M. (2003). Evaluating the Effectiveness of Electronic Monitoring of Offenders. Crime and Delinquency, 49(2), pp. 196–205.
16. Norris, S., Stevenson, M., & Venkataramani, A. (2019). The Effects of Electronic Monitoring on Recidivism. National Bureau of Economic Research (NBER), Working Paper No. 25860.

Fozilov Ikrom Yusupovich,
Yuridik fanlar doktori, professor;

Jo‘rayev Muhiddin Utkurovich,
y.f.b.f.d. (PhD) mustaqil izlanuvchi

YANGI O‘ZBEKISTON TAMOYILLARI ASOSIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI KONSEPSIYASINING TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi konsepsiyasining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish zaruriyati, konsepsiyada kiritilgan konseptual o‘zgarishlar, subyekt va obyektlar doirasining aniqlashtirilishi, zamonaviy tahdidlar kontekstida konsepsiyaning takomillashtirilgan ta’riflari va yondashuvlari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, konsepsiya, strategiya, xavfsizlik subyekti, xavfsizlik obyektlari, davlat siyosati, ijtimoiy barqarorlik, huquqiy mexanizm, tahdidlar.

В данной статье научно обоснована необходимость разработки новой редакции Концепции общественной безопасности в Республике Узбекистан. Освещены концептуальные изменения, внесённые в проект, уточнение круга субъектов и объектов безопасности, а также обновлённые подходы и определения Концепции в контексте современных угроз.

Ключевые слова: общественная безопасность, концепция, стратегия, субъект безопасности, объекты безопасности, государственная политика, социальная стабильность, правовой механизм, угрозы.

This article scientifically substantiates the need to develop a new edition of the Public Security Concept in the Republic of Uzbekistan. It highlights the conceptual changes introduced in the draft, the clarification of the range of security subjects and objects, and improved definitions and approaches within the Concept in the context of modern threats.

Keywords: public security, concept, strategy, security subject, security objects, state policy, social stability, legal mechanism, threats.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida davlat boshqaruvi, huquqiy islohotlar va xavfsizlik tizimlari tubdan isloh qilinmoqda. Ayniqsa, jamoat xavfsizligi sohasidagi huquqiy konsepsiyalarni zamon talablariga moslashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Jamoat xavfsizligi konsepsiyasining yangi tahriri nafaqat normativ hujjat sifatida, balki barqarorlik va taraqqiyotning kafolati bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi ehtiyojlardan kelib chiqib, 2021-yil 29-noyabrdagi Muhtaram Prezidentimiz Farmoni (PF–27) bilan tasdiqlangan [1], jamoat xavfsizligini ta’minlashga doir konsepsiyaning 2025-yilgacha amal qilishi belgilangan edi. Shu bois, hozirda mazkur konsepsiyani tubdan qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zaruriyati yuzaga chiqmoqda.

Avvalgi konsepsiyada jamoat xavfsizligi asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati doirasida talqin qilingan. Ammo hozirgi global va ichki tahdidlar, axborot xavfsizligining zaiflashuvi, ekologik ofatlar, ijtimoiy notinchlik kabi omillar xavfsizlik tushunchasini kengaytirishni taqozo qilmoqda. Shu nuqtada, Germaniyalik olim Volfgang Xofmann fikricha, “jamoat xavfsizligi — bu faqat jinoiy xavfga qarshi kurash emas, balki fuqarolarning hayoti va farovonligini har tomonlama kafolatlash tizimidir”deb aytib o‘taganligi ham fikrimizning yorqin na’munasidir [2].

Shu bois muallif tomonidan yangi konsepsiya loyihasi ilgari surilgan, yangi tahrirdagi konsepsiyada quyidagi ta’riflar keltiriladi:

“Jamoat xavfsizligi – jamiyatning axloqiy-ruhiy qadriyatlari, uning yaxlitligi va barqarorligi, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va farovonligini haqiqiy va potensial tahdidlardan himoyalanganlik holati.”

Ushbu ta’rifda xavfsizlik faqat tahdidlarni bartaraf etish emas, balki ijtimoiy barqarorlik va axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish bilan bog‘langan. Bu yondashuv M.Fuko (Michel Foucault) tomonidan ilgari surilgan “nazorat jamiyatlari” haqidagi g‘oyalarga muvofiqdir [3].

“Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi – jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan, jamoat xavfsizligi obyektlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va texnik chora-tadbirlar majmui.”

Bu ta’rifda xavfsizlik tizimi ko‘p qatlamli va interdisiplinar yondashuv orqali talqin qilinmoqda. R.Frederikson (AQSH) bunday tizimlarni “kompleks xavfsizlik infratuzilmasi” deb ataydi [4].

Jamoat xavfsizligi obyektlari ta’rifi: “Jamiyatning axloqiy-ruhiy qadriyatlari, uning yaxlitligi va barqarorligi, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va farovonligi.”

Bu yondashuv subyektiv qadriyatlar (axloq, ruhiy holat) ni ham obyektiv xavfsizlik obyektlari qatoriga qo‘shib, xavfsizlikni ko‘p darajali ijtimoiy hodisa sifatida talqin etadi.

Yangi konsepsiyada subyektlar doirasi kengaytirilib, quyidagi tashkilotlar ham jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar sifatida belgilanishi taklif etilmoqda: Milliy gvardiya, FVV (Favqulodda vaziyatlar vazirligi), Axborot texnologiyalari vazirligi, Tibbiyot xizmatlari, Mahalliy hokimliklar va jamoatchilik tuzilmalari.

Bu esa xavfsizlikni faqatgina kuch ishlatar tizimlar emas, balki barcha ijtimoiy institutlar zimmasiga yuklash zaruratidan kelib chiqadi. Xususan, BMT Bosh kotibi A.Guterresh ta’kidlaganidek: “Xavfsizlikni ta’minlash – bu faqat armiyaga emas, ijtimoiy adolatga, taraqqiyotga va ishonchga asoslangan siyosatdir” [5].

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda jamoat xavfsizligini faqat huquqbuzarliklarning oldini olish yoki politsiya nazorati sifatida ko‘radigan yondashuvlar hukmron. Bu esa, mutaxassislar ta’biri bilan aytganda, reduksionist yondashuv sanaladi [6].

Olim S.V. Borodin ta’kidlaganidek, “faqat kriminal profilaktika yoki politsiya organlarini markaziy subyekt deb bilish xavfsizlikni idoraviy chegaralarga solib qo‘yadi” [7]. Shu bois, yangi konsepsiya bundan voz kechib, integral davlat siyosati sifatida ko‘rib chiqilmoqda.

Xususan, 5 ta yangi subyekt: Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Yoshlar ishlari agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Bojxona qo‘mitasi), Transport vazirligi (Temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi), Energetika vazirligi (Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi) qo‘shilgan, bitta subyektning nomlanishi (Raqamli texnologiyalar vazirligi) o‘zgargan, bitta subyekt (Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi) chiqarilgan.

Qayd etilgan holatlarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasining yangi tahrirdagi loyihasida jamoat xavfsizligini ta’minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlarga doir normalarni quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq deb topildi: “Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlardan iborat”.

Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar va ularning faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasining yangi tahrirdagi loyihasida xavfsizlikni ta’minlovchi asosiy subyektlar aniq belgilab berilgan. Unga ko‘ra, quyidagi davlat boshqaruvi va ijro etuvchi organlari jamoat xavfsizligining asosiy subyektlari sifatida e’tirof etilgan: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Transport vazirligi, Energetika vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Yoshlar ishlari agentligi, Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Shuningdek, konsepsiyada boshqa davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar ham jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi subyektlar sifatida belgilangan. Bu yondashuv xavfsizlikni markazlashgan boshqaruvdan ijtimoiy sheriklik va ishtirok asosidagi tizimga o‘tkazishga qaratilgan.

Bu masala bo‘yicha I.Y.Foygt va S.V.Borodin tomonidan ta’kidlanganidek, “jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat institutlari bilan bir qatorda jamoatchilik va shaxsiy manfaatdorlik subyektlarini jalb qilish – davlat xavfsizlik siyosatini legitimlashtiruvchi omillardan biri sanaladi” .

Yangi tahrirdagi konsepsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish maqsadida subyektlar faoliyatini baholash tizimi ishlab chiqilgan. Jumladan: 14 ta asosiy subyekt uchun alohida-individual baholash indikatorlari ishlab chiqilgan, jamoat xavfsizligi bo‘yicha Respublika ekspert kengashi tashkil etilib, ushbu kengash har chorakda faoliyatni baholaydi;

Baholash mezonlari: rag‘batlantiruvchi va jarima ballaridan iborat 67 ta indikatordan tashkil topgan (29 ta rag‘batlantiruvchi, 38 ta jarima ball beruvchi).

Bu kabi tizimli yondashuv xalqaro amaliyotlarda ham qo‘llanilib, xususan, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) tomonidan jamoat xavfsizligi muassasalarining samaradorligini baholashda indikatorlar asosida monitoring amalga oshiriladi.

Misol uchun Ichki ishlar vazirligiga quyidagi yangi vakolatlar berilmoqda: xavfsizlikni raqamlashtirish bo‘yicha yagona texnik talablarni tasdiqlash, aholi gavjum hududlarni qabul qilishda IIV roziligini majburiy qilish, Milliy gvardiya bilan birga xavfsizlik talablariga muvofiqligini tekshirish.

Baholash indikatorlari, Rag‘batlantiruvchi: tashabbus asosida aniqlangan jinoyatlar, jinoyat omillarini tergov jarayonida bartaraf etish,moddiy zararlarning qoplanishi.

Jarima: fosh etilmagan jinoyatlar, qidiruvdagi shaxslar, oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar, qayta jinoyatlar, YTHlar oqibatida o‘lim holatlari.

Milliy gvardiya, Rag‘batlantiruvchi: Milliy gvardiya nazoratidagi obyektlarda jinoyatlarni aniqlash, qo‘riqlovga olingan obyektlar soni.

Jarima: oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar, ommaviy tadbirlardagi huquqbuzarliklar.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Rag‘batlantiruvchi: yong‘in va favqulodda vaziyatlar oldini olish bo‘yicha aniqlangan huquqbuzarliklar.

Jarima: yong‘inlar va favqulodda vaziyatlar ko‘rsatkichi, jabrlanganlar va moddiy zararlar statistikasi.

Davlat xavfsizlik xizmati, Rag‘batlantiruvchi: chegaraviy jinoyatlarni aniqlash, tahdidlar bo‘yicha tezkor bartaraf etish choralari.

Jarima: fosh etilmagan jinoyatlar, qidiruvdagi xavfli shaxslar, oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar.

Bosh prokuratura, Rag‘batlantiruvchi: iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha tashabbusli faoliyat, surishtiruv orqali zararni qoplash, jarimalarni undirish ko‘rsatkichi.

Jarima: iqtisodiy jinoyatlar fosh

qilinmasligi, qidiruvdagi moliyaviy jinoyatchilar, yer sohasidagi profilaktika sustligi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan “Yangi O‘zbekiston” davrida xavfsizlik siyosati ham tubdan qayta ko‘rib chiqilmoqda. Jamoat xavfsizligi konsepsiyasining yangi tahrirdagi loyihasi nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda, balki fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va farovonligini kafolatlashda strategik huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur loyiha bir nechta jihatlari bilan amaldagi konsepsiyadan tubdan farqlanadi:

Jamoat xavfsizligi endi faqat jinoiy tahdidlarga qarshi kurash doirasida emas, balki jamiyatning axloqiy-ruhiy qadriyatlari, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolar farovonligini himoyalash tizimi sifatida talqin qilinmoqda. Bu yondashuv zamonaviy xavfsizlik paradigmalari, xususan M.Fuko, R.Frederikson, va V.Xofmann singari olimlarning g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

Yangi konsepsiyada xavfsizlikni faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki ijtimoiy institutlar, mahalliy boshqaruv organlari, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda ta’minlash zarurati ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa xavfsizlikni markazlashtirilgan yondashuvdan ijtimoiy sheriklik modeliga o‘tkazishga xizmat qiladi.

14 ta asosiy subyekt uchun individual indikatorlar asosida faoliyat samaradorligini baholash tizimi ishlab chiqilgan. Bu indikatorlar rag‘batlantiruvchi va jarima mezonlari orqali aniqlanadi va doimiy nazorat ostida bo‘ladi. Ushbu tizim xalqaro tajribalar, xususan YXHT tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan.

Har bir subyektning aniq vazifalari, vakolatlari va mas’uliyat chegaralari belgilangan. Masalan, Ichki ishlar vazirligiga xavfsizlik texnologiyalarini raqamlashtirish, Milliy gvardiyaga obyektlarni qo‘riqlash, Favqulodda vaziyatlar vazirligiga profilaktika va tezkor javob choralari yuklatilgan.

Konsepsiya davlat xavfsizlik siyosatini yagona integratsiyalashgan tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Bunda barcha darajadagi davlat boshqaruvi va jamoat institutlarining hamkorligi asosiy prinsip sifatida ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, jamoat xavfsizligi konsepsiyasining yangi tahriri O‘zbekistonning zamonaviy xavf-xatarlar sharoitidagi ijtimoiy-huquqiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan strategik hujjat bo‘lib, uni huquqiy, siyosiy va institutsional jihatdan takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Ushbu konsepsiya davlat boshqaruvida demokratik prinsiplar, inson huquqlari, axborot xavfsizligi va jamiyat bilan o‘zaro ishonch asosida samarali xavfsizlik infratuzilmasini yaratishga xizmat qiladi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF–27-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://www.lex.uz/acts/-PF-27 (murojaat qilingan sana: 26.07.2025).
2. Hofmann, W. Public Safety in a Democratic Society. – Berlin: Springer, 2019. – 256 p.
3. Foucault, M. Surveiller et punir: Naissance de la prison. – Paris: Gallimard, 1975. – 316 p.
4. Frederickson, R. Public Security and System Integration // Journal of Homeland Affairs. – 2020. – No. 3. – P. 45–59.
5. United Nations. Secretary-General’s address to the UN Security Council. – 2021. – URL: https://www.un.org/sg/en/content/sg/statement/2021 (мурожаат қилинган сана: 26.07.2025).
6. Лапаева В.В. Публичная безопасность: правовые аспекты. – М.: Норма, 2018. – 272 с.
7. Бородин С.В. Полиция в системе обеспечения общественной безопасности. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2020. – 198 с.

Alijonov Ibroximjon Rustamjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi,
y.f.f.d.(PhD)

AHOLI YASHASH JOYLARIDA XAVFSIZ MUHITNI YARATISH BO‘YICHA MDH DAVLATLARI TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI

Mazkur maqolada MDH mamlakatlarida jinoyatchilikni oldini olish va aholi yashash joylarida xavfsiz muhitni yaratishga doir ilg‘or tajribalari tadqiq qilingan va O‘zbekistonga tadbiq qilish masalalari ko‘rib chiqilgan.
Kalit so‘zlar: xavfsiz muhit, xavfsiz davlat, kriminogen vaziyat, jinoyatchilik, CPTED.
В статье анализируется передовой опыт стран СНГ по предупреждению преступности и созданию безопасной среды в жилых помещениях, а также рассматриваются вопросы его применения в Узбекистане.
Ключевые слова: безопасная среда, безопасное государство, криминогенная обстановка, преступность, CPTED.
The article analyzes the best practices of the CIS countries in crime prevention and creation of a safe environment in residential premises, and also considers the issues of its application in Uzbekistan.
Keywords: safe environment, safe state, criminogenic situation, crime, CPTED.



So‘nggi yillarda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab bo‘layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni ijtimoiy profilaktika choralari tizimi orqali hal etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Buning natijasida O‘zbekistonning xavfsiz davlat sifatidagi reyting va indekslardagi o‘rni yaxshilanib bormoqda, jumladan butunjaxon odil sudlov loyihasi (World Justice Project-AQSh) tashkiloti tomonidan har yili o‘tkaziladigan huquq ustuvorligi indeksining “Tartib va xavfsizlik indikatori”[1] bo‘yicha O‘zbekiston, dunyoda 142 ta davlat orasida 17-o‘rinni, Osiyoda 49 ta davlat orasida 5-o‘rinni, Markaziy Osiyo va Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari orasida 1-o‘rinni egallaganligi fikrimizni yorqin dalili hisoblanadi.

Shu bilan birga mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzilishlarning asl omillarini o‘z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Aholi uchun xavfsiz yashash muhitini yaratish – bu nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari zimmasidagi vazifa, balki keng jamoatchilik ishtirokini talab qiluvchi keng qamrovli davlat siyosatidir. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)ga a’zo bo‘lgan mamlakatlarso‘nggiyillardajinoyatchilikning oldini olishda yangi yondashuvlar, jumladan, shahar va mahallalar miqyosida kompleks profilaktik tadbirlar, raqamli nazorat vositalari va jamoatchilik hamkorligiga tayanmoqda. Shuningdek, sobiq MDH a’zolari — Latviya, Litva va Estoniyada Yevropaning ilg‘or standartlari asosida aholi xavfsizligi ta’minlanmoqda. Ushbu maqolada aynan ana shu davlatlarning ijobiy amaliyoti tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

1. Rossiya Federatsiyasi

Rossiyada “Jamoat tartibini ta’minlash” tizimi muntazam ravishda modernizatsiya qilinmoqda. “Qulay shahar muhiti” (Комфортная городская среда) milliy loyihasi doirasida shaharlarning jamoat joylarida jinoyatchilik darajasini pasaytirish uchun video kuzatuv, yoritish, patrul xizmatlari kengaytirildi[2]. Bundan tashqari, politsiya bilan mahalliy jamoatchilik (jamoat kengashlari) hamkorlik qiluvchi profilaktika guruhlari faoliyat yuritadi.

Rossiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash “Jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlash” konsepsiyasi asosida amalga oshiriladi. 2021-yilda qabul qilingan “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi doirasida:

videokuzatuv tizimlari keng joriy etildi;

qo‘shni nazorati (соседский контрол) mexanizmi rivojlandi;

bolalar uchun xavfsiz maktab va bog‘cha atroflari standarti joriy etildi[3].

Ijobiy tajriba: Rossiyadagi “Qo‘shni nazorati” modeli mahallalarda faol nuroniylar va ixtiyoriy jamoalar orqali tatbiq etilishi mumkin.

2. Qozog‘iston

Qozog‘istonda “Qauipsiz qala” (Xavfsiz shahar) dasturi doirasida intellektual kameralar, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari joriy etildi. Ichki ishlar organlari bilan mahalliy hokimiyatlar o‘rtasida muntazam “jamoat kengashlari” orqali muloqot o‘rnatilgan. Xavfsizlikni ta’minlashda urbanistika va loyihalashtirish vositalariga ham e’tibor kuchaygan[4].

Qozog‘istonda “Qulay shahar” (Komfortniy gorod) konsepsiyasi va “Smart City” dasturi asosida:

jamoat joylarida 24/7 monitoring markazlari tashkil etilgan;

elektron xavfsizlik tizimlari (e-Security) ishga tushirilgan;

Shaharlar arxitekturasida xavfsizlikni ta’minlovchi dizayniga (CPTED) e’tibor kuchaygan[5].

Ijobiy tajriba: Yangi qurilayotgan shaharlarda “aqlli kvartal” va jamoat nazorati nuqtalari joriy etish mumkin.

3. Belarus

Belarusda jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida “Yorug‘ ko‘cha” va “Xavfsiz mahalla” loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar doirasida mahallalarda yoritish vositalari, jamoatchilik videokuzatuvi tizimlari va ishonchli signalizatsiya joylashtirilgan. Jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha mahalla nazoratchilari faoliyat yuritadi[6].

Belarusda xavfsizlik masalalarida:

“Безопасные и комфортные города” dasturi amalga oshirilmoqda;

yo‘llar, piyoda yo‘laklari va bog‘larda

LED-yorug‘lik va kameralar o‘rnatilib, jinoyatchilik 15%ga kamaygan[7];

Milliy gvardiyaga jamoaviy profilaktikada ishtirok etish vakolati berilgan.

4.Ozarbayjon

Ozarbayjonda jamoat xavfsizligi «Jamoat politsiyasi» va «Smart city Baku» loyihalari asosida ta’minlanmoqda. Aholining fikr va takliflarini inobatga olgan holda shahar infratuzilmalari yangilanmoqda. Ko‘chalardagi kameralar markazlashtirilgan axborot tizimiga ulangan[8].

Boku shahrida:

“İntellektual Şəhər” loyihasi asosida xavfsizlik infratuzilmasi raqamlashtirilgan;

mahalla jamiyatlari bilan hamkorlikda tinchlik komitetlari faoliyat yuritmoqda;

maktab atrofida “Xavfsiz tuman” tashabbuslari faol amalga oshirilmoqda.

5. Armaniston

Armanistonda «E-police» raqamli tizimi joriy etilgan bo‘lib, bu politsiya bilan aholi o‘rtasidagi aloqani osonlashtirdi. Yo‘llar, bog‘lar va ko‘chalardagi xavfsizlik kuzatuvi uchun jamoatchilik ko‘ngillilari jalb etilgan. Jamoaviy profilaktika choralari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan[9].

“Yerevan – xavfsiz shahar” dasturi jamoat transportlari, maydonlar va bog‘lar atrofida aniq kuzatuv va mobil patrul tizimini joriy qildi;

bolalar va yoshlar uchun alohida profilaktika dasturlari faollashtirilgan.

6. Moldova

Moldovada Yevropaning CPTED (jinoyatchilikni oldini olishda atrof-muhit dizayni) konsepsiyasini joriy qilishga urinishlar amalga oshirilmoqda. “Xavfsiz maktablar” va “Xavfsiz mahallalar” loyihalari orqali bolalar va ayollar xavfsizligiga alohida e’tibor qaratilmoqda[10].

“Comunitate în siguranţă” (Xavfsiz jamoa) dasturi doirasida jamoatchilik va NNTlar ishtirokida profilaktik faoliyat yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, qishloq joylarda jamoaviy turmush orqali xavfsizlikni oshirishga e’tibor berilmoqda.

7. Qirg‘iziston

Qirg‘izistonda “Koopsuz shaar” dasturi doirasida poytaxt Bishkek va boshqa yirik shaharlarda intellektual videokuzatuv tizimi joriy qilingan. Mahallalarda jinoyatchilikni aniqlash va oldini olish bo‘yicha jamoatchilik kengashlari va hokimiyatlar o‘rtasida hamkorlik kengaytirilgan[11].

Bishkek shahrida “Smart Safe City” loyihasi doirasida:

kameralar orqali harakat aniqlanishi;

videonazorat jarayonida politsiya va mahalla kengashlari hamkorligi tashkil etilgan

8. Tojikiston

Tojikistonda xavfsizlik muammolarida asosan politsiya va mahalliy kengashlar hamkorligiga asoslangan yondashuv mavjud. Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi qonun qabul qilingan, hamda maxsus profilaktika markazlari tashkil etilgan. Shahar va qishloqlarda qo‘ng‘iroq markazlari faoliyat yuritmoqda.

9. Turkmaniston

Mahalliy darajada xavfsizlikni ta’minlash Turkmanistonda mahalliy hokimiyatlar va ichki ishlar organlari orqali amalga oshiriladi. Jamoatchilik ishtirokini oshirishga qaratilgan maxsus qonunchilik hali shakllanish bosqichida.

10. Boltiqbo‘yi davlatlari tajribasi (Latviya, Litva, Estoniya)

Latviya

Latviyada jamoat xavfsizligi sohasida “Droša Latvija” (Xavfsiz Latviya) strategiyasi amalga oshiriladi. Bu strategiyaga ko‘ra, aholi ishtirokida jamoat nazorati, shahar kameralari, shoshilinch xabar berish tizimlari va zamonaviy urbanistik yondashuvlar joriy qilingan.

Litva

Litvada CPTED konsepsiyasiga asoslangan jinoyatchilikni oldini olish modellari (masalan, hududlar dizayni, jamoaviy nazorat, vizual to‘siqlar) keng qo‘llaniladi. “Xavfsiz shaharlar forumi” doimiy ravishda tashkil etiladi, va bu orqali mutaxassislar va fuqarolar muloqot qilishi ta’minlanadi.

Estoniya

Estoniya raqamlashtirishda yetakchi bo‘lib, jamoat xavfsizligiga oid barcha tizimlar E-Gov platformalari orqali boshqariladi. Masofaviy nazorat, intellektual xavfsizlik chiplari, raqamli politsiya servislari orqali jinoyatlarga tezkor javob qaytarish mumkin. Aholining shikoyatlari, xavfsizlik bo‘yicha murojaatlari real vaqtda monitoring qilinadi.

MDH davlatlari jamiyat xavfsizligini ta’minlashda o‘zining huquqiy, texnik va ijtimoiy yechimlarini shakllantirgan. Ulardan O‘zbekiston uchun ayrim mexanizmlarni lokallashtirish, jumladan jamoatchilik asosida nazorat, raqamli xavfsizlik va profilaktika faoliyatini kuchaytirish juda

dolzarb hisoblanadi. Bu orqali jinoyatchilikni oldini olishda va aholi turmush sifatida ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin.

MDH davlatlari tajribasi O‘zbekistonda xavfsiz muhitni yaratishda quyidagi yo‘nalishlarni joriy qilishni taklif etadi:

integratsiyalashgan profilaktika kengashlarini mahallalarda joriy etish (Rossiya va Moldova tajribasi);

videokuzatuv va raqamli nazorat tizimlarini kengaytirish (“Sergek”, “Xavfsiz shahar”);

jamoatchilik ishtirokiga asoslangan nazorat (Armaniston va Moldova tajribasi);

shaharsozlik standartlarini xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirish (Belarus va Turkmaniston tajribasi);

yoshlar va aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirish dasturlari (Tojikiston modeli).

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2024/Order%20;
2. Министерство строительства РФ. Проект “Комфортная городская среда”. https://www.minstroyrf.gov.ru
3. Министерство внутренних дел РФ, “Программа «Безопасный город»”, 2022.
4. «Сергек» – умная система видеонаблюдения. https://sergek.kz
5. Kazinform.kz – “Smart City: развитие цифрового Казахстана”, 2023.
6. Министерство внутренних дел Республики Беларусь. https://mvd.gov.by
7. БелТА – “Безопасность и комфорт – приоритет в городском планировании”, 2022.
8. Baku Smart City Concept. Азербайджанское агентство по инновациям
9. Armenia Police Reforms: https://www.police.am/en
10. Moldovan Police Development Strategy. https://www.mai.gov.md
11. МВД Кыргызстана: “Безопасный город”. http://mvd.gov.kg

Axmedov Abrorjon Anvarjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi

OZODLIKNI CHEKLASH JAZOSINING TARIXIY, HUQUQIY VA INSONPARVARLIK ASOSLARI

Mazkur maqolada ozodlikni cheklash jazosining tarixiy ildizlari, huquqiy asoslari va jahon amaliyotidagi rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur jazo turining insonparvarlik tamoyillari bilan uyg‘unligi va zamonaviy jinoyat-huquq tizimidagi o‘rni yuritilgan. Xorijiy davlatlar, xususan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar amaliyotida ozodlikni cheklash, probatsiya, elektron nazorat vositalari orqali ijro etishning huquqiy va institutsional asoslari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ozodlikni cheklash, alternativ jazo, probatsiya, elektron monitoring, jinoyat-huquq siyosati, insonparvarlik.

В данной статье проанализированы исторические корни, правовые основы и этапы развития наказания в виде ограничения свободы в мировой практике. Особое внимание уделено гуманистическим принципам данного вида наказания и его месту в современной системе уголовного права. Исследованы правовые и институциональные основы исполнения наказания в виде ограничения свободы с применением пробации и электронного контроля в таких странах, как США, Германия, Франция, Швеция, Россия и других.

Ключевые слова: ограничение свободы, альтернативное наказание, пробация, электронный мониторинг, уголовно-правовая политика, гуманизм.

This article analyzes the historical origins, legal foundations, and stages of development of the penalty of restriction of liberty in global practice. Special emphasis is placed on the compatibility of this type of punishment with humanitarian principles and its role in the modern criminal justice system. The study examines the legal and institutional frameworks for implementing restriction of liberty, including probation and electronic monitoring, in countries such as the USA, Germany, France, Sweden, Russia, and others.

Keywords: restriction of liberty, alternative punishment, probation, electronic monitoring, criminal justice policy, humanitarianism.



Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar jinoyat-huquq siyosatini takomillashtirishda mahkumlarni jamiyatdan ajratmagan holda jazo qo‘llashga ustuvor ahamiyat bermoqda. Jinoyatga javoban faqat ozodlikdan mahrum etishni universal jazo turi sifatida qo‘llash, jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini nazar-pisand qilmagan holda yondashish bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois, ozodlikni cheklash jazosining kelib chiqishi va rivojlanishini tarixiy va huquqiy jihatdan tahlil etish, ushbu jazo turining mazmun-mohiyatini chuqur anglash, uning jazo tizimidagi o‘rni va ahamiyatini aniq belgilash uchun zarur hisoblanadi.

Ozodlikni cheklash milliy jinoyat qonuniyatda nisbatan yangilik sanalsa-da, jahon amaliyotida bu institutning ildizlari XVIII–XIX asrlarga borib taqaladi. Mazkur davrlarda inson huquqlarini himoya qilish, jazo tayinlashda insonparvarlik mezonlariga tayangan holda yondashish g‘oyalari keng tarqala boshladi. Shu bilan birga, jazoni jamiyatdan to‘liq ajratmagan holda ijro etish konsepsiyasi vujudga keldi va amaliy qo‘llanish sohasi kengaydi.

XX-asrning ikkinchi yarmida, xususan, 1950–1970-yillarda Yevropaning bir qator davlatlari hamda AQShda alternativ jazo shakllari – shartli jazo, majburiy mehnat, ozodlikni cheklash kabi choralar keng joriy etildi. Bu jarayon jinoyatchilikning oldini olish, qamoqxonalardagi ortiqcha zo‘riqishni kamaytirish hamda mahkumlarni jamiyatga qayta moslashtirishga qaratilgan islohotlar doirasida amalga oshirildi[1].

1980–1990-yillarda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda jazo ijrosini nazorat qilishning yangi usullari, jumladan, elektron monitoring (elektron brasletlar) tizimi tatbiq etildi. Bu tizim mahkumlarni masofadan kuzatish orqali ozodlikni cheklash jazosining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qildi. Ayniqsa, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, AQSH kabi davlatlar mazkur tajribani amaliyotda keng qo‘llashni boshladi va natijada jazoni ijro etishning gumonlashtirilgan, ijtimoiy moslashuvga yo‘naltirilgan shakllari keng ommalashdi [2].

Shu tariqa, ozodlikni cheklash jazosining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi uning insonparvarlik tamoyillariga mos ravishda takomillashib borishini ko‘rsatadi. Bugungi kunda bu institut jinoyat-huquq tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida jamiyat va shaxs manfaatlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga xizmat qilmoqda.O‘zbekistonda ozodlikni cheklash jazosining tarixi mustaqillikdan avvalgi sobiq sovet tuzumi davriga taqaladi.

Bu ko‘rinishdagi jazo shaxsni jamiyatdan mutlaqo uzoqlashtirish emas, balki uning harakat erkinligini cheklash orqali ijtimoiy nazoratni amalga oshirishni ko‘zda tutgan.

Qadimgi Rus davlatida jamoatchilik va shaxsiy jazo turlarining ilk shakli sifatida xizmat qilgan va ushbu tizim asosida keyinchalik surgun qilish kabi jazosi shakllangani kuzatiladi [3].

1845-yilda qabul qilingan «Jinoiy jazolar to‘g‘risidagi nizom» ozodlikni cheklashni mustaqil jinoiy jazo sifatida nazarda tutmagan. Ammo, ushbu hujjatda mahkumlarga nisbatan belgilangan ayrim cheklovlar, mazmunan, ozodlikni cheklash jazosi shartlariga yaqin kelishi bilan diqqatga sazovordir. Masalan, yashash joyini nazorat organlarining ruxsatisiz o‘zgartirish taqiqlari, poytaxt va shahar markazlariga borishni cheklash, mahalliy ma’muriy hududlardan tashqariga chiqish va muayyan joylarga borishni taqiqlovchi normalar, bugungi kundagi ozodlikni cheklash jazosining funksional jihatdan o‘xshash xususiyatlarini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, 1845-yilgi «Jinoyat jazolar to‘g‘risidagi nizomi» qabul qilinishi bilan Rossiya jinoyat qonunida ozodlikni cheklash jazosiga mazmunan yaqin bo‘lgan mustaqil huquqiy institut – nazorat shakllandi.

AQShda bunday alternativ jazo turlaridan biri bo‘lgan probatsiya ilk bor 1878-yilda Boston shahrida qo‘llanila boshlangan va 1957-yilga kelib, federal darajada barcha shtatlarda joriy etilgan [4].

Germaniyada esa 1933-yilning o‘zidayoq aybdorlarga nisbatan tuzatish va xavfsizlik choralari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular orasida RF jinoyat qonunidagi ozodlikni cheklash jazosiga mazmunan o‘xshash bo‘lgan nazorat shakli ham mavjud edi [5].

Hozirgi kunda 17 ta davlatning (Buyuk Britaniya, Daniya, Ispaniya, Xitoy Xalq Respublikasi, Latviya, Litva, Belarus, Qozog‘iston, Polsha, San-Marino, Serbiya, AQSH, Tunis, Germaniya, Fransiya, Shveysariya, Shvetsiya) jinoyat qonunchiligida hamda AQShning Arizona va Nyu-York shtatlari jinoyat kodekslarida

yuqoridagi meyorlarga mos keladigan, ozodlikni cheklashga tenglashtiriluvchi mustaqil jazo shakllari mavjud[6].

Shuningdek, yaqin qo‘shni davlatlar jinoyat qonunchiligida ham ozodlikni cheklash jazosi mustaqil jazo turi sifatida nazarda tutilgan. Jumladan, Ozarbayjon, Belarus, Gruziya, Litva, Qozog‘iston, Tojikiston va Ukraina jinoyat kodekslarida bu jazo turi alohida belgilangan[7].

Fransiyadagi jazo tizimida ham maxsus davlat organi nazorati ostidagi cheklovlar shaklidagi jazolar qo‘llaniladi. Fransiya Jinoyat kodeksiga ko‘ra, ijtimoiy – sud nazorati mahkumni sud belgilagan muddat davomida jazoni ijro etish sudyasi nazoratida «nazorat va ko‘mak choralari»ga rioya qilish majburiyatini yuklaydi. Bundan tashqari, sud tomonidan mahkumga qo‘shimcha majburiyatlar yuklanishi mumkin[8].

1982-yildan boshlab AQShda kuchaytirilgan nazorat ostidagi probatsiya keng qo‘llanila boshlandi. Bunday dasturlar turli toifadagi jinoyatchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, barchasi kichik guruhlarga qaratilgan, qattiq nazorat, zararni qoplash, nazorat xarajatlarini to‘lash, jamoat ishlarini bajarish, doimiy ravishda giyohvand moddalar bo‘yicha testdan o‘tishni nazarda tutadi. Ko‘plab shtatlar qonunchiligida probatsiyaning qo‘shimcha sharti sifatida elektron monitoringdan foydalanish imkoni ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Shvetsiya ham probatsiya institutidan foydalanadi. Uning Jinoyat kodeksida probatsiya uch turda ko‘zda tutilgan:

shartli ozodlikka chiqarish oqibati sifatida;

shartli hukm oqibati sifatida;

mustaqil jazo turi sifatida (eng qattiq turi bo‘lib, nazoratni o‘z ichiga oladi va qisqa muddatli qamoq bilan birga qo‘llanilishi mumkin).

Probatsiya Buyuk Britaniyada ham an’anaviy ravishda jinoyat qonunchiligida keng foydalanilgan. Bu institut 2003-yilgacha amal qilgan, unga asos bo‘lgan «Probatsiya to‘g‘risida»gi qonun, mahkumning huquq va erkinliklarini cheklovchi jazo turlarini nazarda tutgan.

Ispaniya Jinoyat kodeksida ma’lum hududlarda bo‘lish huquqidan mahrum qilish yoki ularni tashrif etmaslik kabi jazo turlari ko‘zda tutilgan bo‘lib, ular Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksidagi muayyan joylarga borishni taqiqlash bilan o‘xshashdir.

Rossiyada bu jazoning ijrosi, odatda, mahkum yashab turgan joyda jinoyat-ijroiya inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda inspeksiya: mahkumlarni ro‘yxatga olish, ularni jinoyat jazosini o‘tash shartlari bilan tanishtirish, nazorat qilish, qoidabuzarliklarning oldini olish, ishga joylashishda yordam berish, tarbiyaviy ishlar olib borish, mukofotlash va jazolash choralarini qo‘llash, sudga tegishli taqdimnoma kiritish kabi vazifalarni bajaradi.

Ozodlikni cheklash jazosi jinoyat-huquq tizimida insonni jamiyatdan to‘liq ajratmagan holda jazoni amalga oshirishga qaratilgan insonparvar va isloh etuvchi huquqiy institut sifatida shakllanib bormoqda. Mazkur jazo turining tarixiy shakllanishi XVIII–XIX asrlardagi gumanistik g‘oyalar ta’sirida boshlangan bo‘lib, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida raqamli texnologiyalarning kirib kelishi bilan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Jahon amaliyotida – xususan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya kabi mamlakatlarda – probatsiya, elektron monitoring, mahalliy jamoalar nazorati kabi shakllar orqali ozodlikni cheklash instituti juda samarali tatbiq etilmoqda. Bu jarayon nafaqat jinoyatchini ijtimoiy muhitda qayta tarbiyalash, balki qamoqxonalardagi yukni yengillashtirish, byudjet xarajatlarini qisqartirish va fuqarolarni jamiyatga qayta moslashtirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ham mustaqillikdan so‘ng ozodlikni cheklash jazosi mustaqil huquqiy institut sifatida shakllanib, jinoyat-huquq islohotlari doirasida o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda.

Xususan, inson huquqlarini ta’minlash, jazoni ijro etishda adolat va samaradorlikni oshirish maqsadida mazkur jazoni qo‘llash amaliyotida xalqaro tajribalardan samarali foydalanilmoqda.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, ozodlikni cheklash jazosi insonparvarlik, adolat va samaradorlik tamoyillariga asoslangan holda rivojlanib, zamonaviy jinoyat-huquq siyosatida muhim o‘rin egallamoqda. Uning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish va jamiyat bilan bog‘liq ijro shakllarini kengaytirish orqali bu institut kelgusida yanada samarali huquqiy vositaga aylanishi shubhasizdir.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Nazarov U.T. Jinoyat jazolarining ijro etilishini takomillashtirishda alternativ jazo turlarining ahamiyati// Yurisprudensiya va huquq amaliyoti. – Toshkent, 2020. – №3. – B. 112–115;
2. Tonry M. Sentencing Matters. – Oxford University Press, 1996. – P. 45–49; Padgett K.G., Bales W.D., Blomberg T.G. Under Surveillance: An Empirical Test of the Effectiveness and Consequences of Electronic Monitoring // Criminology & Public Policy. – 2006. – Vol. 5, No. 1. – P. 61–91.
3. Головко Л.В. Уголовно-правовая политика и развитие института наказания в России. – Москва: Норма, 2010. – С. 205–209.
4. Козочкин И. Д. Уголовное право США: Успехи и проблемы реформирования / И. Д. Козочкин. – СПб.: Юридический центр пресс, 2007.
5. Есаков Г. А. Уголовное право зарубежных стран / Г. А. Есаков, Н. Е. Крылова, А. В. Серебренникова. – М.: Проспект, 2009.
6. International Centre for Prison Studies. World Prison Brief – Comparative Data on Sentencing and Alternatives to Imprisonment, 2023.
7. Bekmurodov, SH.X. “Ozodlikni cheklash jazosi: huquqiy-meyoriy asoslari va amaliy ahamiyati.” – Jinoyat huquqi muammolari, №1, 2023.
8. Code pénal français, Article 132-45. Voir aussi: Ministère de la Justice, France – Le contrôle judiciaire et les peines alternatives, 2022.

Mamadaliev Avvolbek Ziyoitdinovich,
Sudyalar oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi

TOVAR BELGILARINI RO‘YXATDAN O‘TKAZISHDA ULARGA DOIR HUQUQNI SUIISTE’MOL QILISH MUAMMOLARI

Ushbu maqolada ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal sur’atlari sharoitida tovar belgilarining savdo aylanmasidagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Tovar belgilari ishlab chiqaruvchilar uchun individuallashtirish vositasi va iste’molchilar uchun sifat kafolati sifatidagi funksiyalari hamda ularning iqtisodiy samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, tovar belgilariga doir eksklyuziv huquqlarni suiiste’mol qilishning ko‘p uchraydigan shakllari, jumladan, “trademark squatting”, raqobatchilarni bloklash va belgilarni to‘plash kabi holatlar O‘zbekiston va xorijiy davlatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, YeI) qonunchiligi nuqtai nazaridan o‘rganiladi. “Vijdonsizlik” mezoni asosida sud amaliyoti tahlil qilinib, qonunchilikdagi mavjud bo‘shliqlar va ularni bartaraf etish yo‘llariga takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: tovar belgisi, ilmiy-texnik taraqqiyot, individuallashtirish, huquqni suiiste’mol qilish, vijdonsizlik, raqobat, intellektual mulk, bozor, qonunchilik, trademark squatting, sud amaliyoti.

В данной статье анализируется роль и значение товарных знаков в торговом обороте в условиях стремительного научно-технического прогресса. Рассматриваются функции товарных знаков как средства индивидуализации для производителей и как гарантии качества для потребителей, а также их экономическая эффективность. Одновременно исследуются наиболее распространённые формы злоупотребления исключительными правами на товарные знаки, включая «захват товарных знаков» (trademark squatting), блокирование конкурентов и накопление знаков, с точки зрения законодательства Узбекистана и зарубежных стран (США, Великобритания, ЕС). На основе критерия «недобросовестности» анализируется судебная практика, выявляются пробелы в законодательстве и предлагаются пути их устранения.

Ключевые слова: товарный знак, научно-технический прогресс, индивидуализация, злоупотребление правом, недобросовестность, конкуренция, интеллектуальная собственность, рынок, законодательство, trademark squatting, судебная практика.

This article analyzes the role and significance of trademarks in commercial turnover under the conditions of rapid scientific and technological progress. It examines the functions of trademarks as a means of individualization for manufacturers and as a guarantee of quality for consumers, as well as their economic efficiency. At the same time, the study explores the most common forms of abuse of exclusive trademark rights, including trademark squatting, competitor blocking, and mark hoarding, from the perspective of the legislation of Uzbekistan and foreign countries (the USA, the United Kingdom, and the EU). Based on the criterion of “bad faith,” judicial practice is analyzed, legislative gaps are identified, and proposals for their elimination are provided.

Keywords: trademark, scientific and technological progress, individualization, abuse of rights, bad faith, competition, intellectual property, market, legislation, trademark squatting, judicial practice.



Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi sharoitida bozorda taklif qilinayotgan tovar va xizmatlar soni eksponensial ravishda ortib bormoqda. Ushbu jarayon tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari) ning savdo aylanmasidagi roli va ahamiyatini sezilarli darajada kuchaytirmoqda. Tovar belgilari turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan taqdim etiladigan o‘xshash turdagi tovarlarning farqlanishini ta’minlab, ularni individuallashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ular iste’molchilarda tovarlar, jumladan ularning sifati va xususiyatlari to‘g‘risida aniq tasavvurlar shakllanishiga xizmat qiladi.

Tovarlarni individuallashtirish vositalari ishlab chiqaruvchilar uchun muhim rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi, chunki ular nafaqat muayyan tovarga bo‘lgan talabni oshirishga qodir, balki mahsulotning bozordagi qiymati va raqobatbardoshligini yuksaltirishga ham yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va yangi innovatsion yechimlarni joriy etishga undaydi. Tovar belgilarining bunday ta’siri iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lib, ular iste’molchilarning e’tiborini jalb qilish va ularning brendga sadoqatini mustahkamlash orqali taklif qilinayotgan mahsulotning narxini oshirish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda sudlar tomonidan intellektual mulkka oid ko‘rib chiqilayotgan nizolar orasida eng ko‘p tarqalgan toifa tovar belgisi egalarining huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq masalalardir. Bunday nizolar mualliflik, turdosh yoki patent huquqlarining buzilishiga doir jinoyatlarga nisbatan ko‘proq uchraydi. Buning asosiy sababi shundaki, tovar belgilari iste’molchilarga tovar to‘g‘risida dolzarb ma’lumot olish imkonini berish bilan cheklanib qolmay, shu bilan birga ishlab chiqaruvchi uchun muhim mulkiy aktiv sifatida ham xizmat qiladi.

V.S. Nikulina bu borada shunday yozadi “tovar belgisi o‘z vazifalarini amalga oshirganda, u ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: ishlab chiqaruvchi uchun mulkiy aktiv sifatida, ya’ni uning tijorat foydasini oshiruvchi va bozordagi o‘rnini mustahkamlovchi resurs hamda iste’molchi uchun himoya sifatida, ya’ni tovarning sifati, kelib chiqishi va ishonchliligini kafolatlovchi muhim ko‘rsatkich”[1].

Rus olimi Ye.A. Suxanov tovar belgilarining mulkiy ahamiyatiga urg‘u berib, ularni quyidagicha ta’riflaydi, “tovar belgisi nafaqat tovarlarni individuallashtirish vositasi, balki egasiga iqtisodiy foyda keltira oladigan muhim mulkiy huquq ob’ektidir”[2].

Ingliz olimi Layonel Bentli (Lionel Bently) esa buning ikki tomonlama tabiatini ko‘rsatadi, ya’ni “tovar belgisi ikki xil maqsadga xizmat qiladi: u iste’molchi uchun tovarning kelib chiqishi belgisi sifatida mahsulotga ishonchni ta’minlaydi va shu bilan birga ishlab chiqaruvchi uchun qimmatli tijorat aktivi vazifasini bajarib, uning bozordagi imkoniyatlarini kengaytiradi”[3].

Amerikalik olim Mark A. Lemli (Mark A. Lemley) tovar belgilarining zamonaviy ahamiyatiga e’tibor qaratib, shunday deydi: “tovar belgilari endi faqat identifikator emas, ular iste’molchi xatti-harakatlarini shakllantiruvchi va bozor raqobatini boshqaruvchi iqtisodiy vositalarga aylanib, ko‘pincha murakkab huquqiy nizolarning sababchisi bo‘ladi”[4].

Tovar belgisi nomoddiy aktiv sifatida e’tirof etilgani sababli, fuqarolik muomalasida insofli huquq egalari o‘zlarining mutlaq huquqlarini insofsiz shaxslardan himoya qilish zarurati keskin ortib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, tovar belgisiga doir eksklyuziv huquqlarni suiiste’mol qilishning turli shakllarining yuzaga kelishiga olib keldi. Ular orasida eng ko‘p uchraydigani tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida huquqdan noqonuniy foydalanishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 9-moddasi 5-qismi (keyingi o‘rinlarda O‘R FK deb ataladi) huquqni suiiste’mol qilishni quyidagicha ta’riflaydi, “fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa shaxsga zarar yetkazishga, boshqacha shakllarda huquqni suiiste’mol qilishga, shuningdek huquqni uning maqsadiga zid tarzda amalga oshirishga qaratilgan harakatlar” bilan foydalanish. Shunday qilib, qonun chiqaruvchi huquqni suiiste’mol qilishni aniqlashda, ushbu huquqlarning uchinchi shaxslar manfaatlariga zid yoki ularga zarar keltirish maqsadida qo‘llanilishining qabul qilinmasligiga alohida e’tibor beradi.

AQShda tovar belgilari bilan bog‘liq huquqni suiiste’mol qilish masalalari asosan “Lanham Act” (1946 yilda qabul qilingan va tovar belgilari to‘g‘risidagi asosiy qonun) doirasida tartibga solinadi.

Bu qonunda huquqni suiiste'mol qilish aniq tushuncha sifatida ko'rsatilmagan bo'lsa-da, u "noodatiy raqobat" (unfair competition) va "tovar belgisining noqonuniy foydalanilishi" (trademark misuse) kabi tushunchalar orqali amalga oshiriladi. Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishda yoki foydalanishda "yomon niyat" (bad faith) mavjud bo'lsa, bu suiiste'mol sifatida baholanishi mumkin. Masalan, "trademark squatting" (tovar belgisini boshqa shaxslardan oldin ro'yxatga olib, keyin foyda uchun sotish) AQSh sudlari tomonidan rad etiladi. O'R FK 9-moddasidagi "boshqa shaxsga zarar yetkazish maqsadida qilingan harakat" bilan o'xshash bo'lib, AQSh qonunchiligida ham suiiste'mol uchinchi shaxslarga zarar keltirish niyati bilan bog'lanadi. Farq shundaki, AQShda bu masala ko'proq sud pretsedentlari (common law) orqali shakllanadi.

Buyuk Britaniyada tovar belgilari "Trade Marks Act 1994" asosida tartibga solinadi. Bu qonunda huquqni suiiste'mol qilish tushunchasi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan, lekin u "good faith" (vijdonlilik) tamoyiliga asoslanadi. Agar tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazish yoki foydalanish jarayonida vijdonsizlik (bad faith) aniqlansa, bu harakatlar qonunga zid deb topiladi. Agar shaxs tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishda uni tijoratda foydalanish niyatisiz, faqat boshqa shaxslardan ustunlik qilish uchun amalga oshirsa, sud uni rad etishi mumkin (masalan, Imperial Group v Philip Morris ishi[5]).

YeIda tovar belgilari "EU Trade Mark Regulation" (2017/1001-sonli reglament) bilan tartibga solinadi. Bu qonunda huquqni suiiste'mol qilish "bad faith" (vijdonsizlik) konsepsiyasi orqali ko'rib chiqiladi. Ushbu qonunning 7-moddasida tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish rad etilishi mumkin bo'lgan asoslar, shu jumladan vijdonsiz niyat ko'rsatilgan.

Shunday qilib, O'R FK 9-moddasida huquqni suiiste'mol qilish umumiy fuqarolik munosabatlarga taalluqli bo'lib, uning doirasi keng. Xorijiy davlatlarda (AQSh, Buyuk britaniya, YeI) esa bu masala ko'proq tovar belgilariga xos tartibga solinadi va "vijdonlilik" (good faith) yoki "noodatiy raqobat" kabi maxsus tushunchalarga asoslanadi.

Amaldagi fuqarolik qonunchiligi tovar belgisini davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq harakatlarni huquqni suiiste'mol qilish deb tan olish uchun maxsus tartibni belgilab bermaydi. Shu bilan birga, tovar belgisiga bo'lgan huquqni suiiste'mol qilish masalasini ko'rib chiqishda vijdonsiz raqobatning har qanday shaklini taqiqlovchi Parij konvensiyasining 10-bis moddasini e'tiborga olish zarur. Sudlar tovar belgisiga doir huquqni suiiste'mol qilishni aniqlashda ko'pincha "vijdonsizlik" mezoniga tayanadi. Shunday ekan, sudlar shaxsning harakatlarini suiiste'mol qilish deb baholash uchun huquq egasining niyati ataylab vijdonsizlik bilan huquqlarni amalga oshirishga qaratilganligini va buning asosiy maqsadi boshqa shaxsga zarar yetkazish ekanligini isbotlashi lozim. Agar sud ish jarayonida huquq egasining vijdonsiz xulq-atvorini aniqlasa, unga tegishli huquqlarni himoya qilish talabi to'liq yoki qisman rad etilishi mumkin. Binobarin, tovar belgisiga bo'lgan huquqni suiiste'mol qilishni aniqlashda "vijdonsizlik" mezoni asosiy o'rin tutadi. Shu sababli, tovar belgisiga bo'lgan huquqni suiiste'mol qilishni fuqarolik qonunchiligining asosiy tamoyillariga zid ravishda, boshqa shaxsga zarar keltirish niyati bilan sub'ektiv fuqarolik huquqlarini ataylab va vijdonsizlik bilan amalga oshirishga yo'naltirilgan huquq egasining qasddan qilingan harakatlari sifatida ta'riflash mumkin.

Fuqarolik qonunchiligida tovar belgilariga bo'lgan huquqni suiiste'mol qilishning aniq shakllari belgilab berilmagan. Bunday suiiste'mol shakllarini aniqlash uchun faqat huquqni qo'llash amaliyotiga, ya'ni sud va boshqa huquqiy jarayonlar tajribasiga murojaat qilish zarur. Masalan, tovar belgisiga huquqiy muhofaza olish, boshqacha aytganda, uni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida huquqni suiiste'mol qilish holatlarini ko'rib chiqish mumkin.

Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish jarayonidagi barcha suiiste'mol turlari uning funksional xususiyatlariga rioya qilmaslikdan kelib chiqadi. Tovar belgisining asosiy vazifasi – tovarlar yoki xizmatlarni individuallashtirish, iste'molchilar uchun ularning kelib chiqishi va sifatini ko'rsatish hamda ishlab chiqaruvchiga iqtisodiy foyda keltirishdan iborat bo'lsada, vijdonsiz shaxslar bu institutsional maqsadlarni ataylab e'tibordan chetda qoldiradi. Ular tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazishni uning haqiqiy tijoratda qo'llanishi yoki iste'molchilar manfaatini ta'minlash

uchun emas, balki noqonuniy foyda olish, raqobatchilarga zarar keltirish yoki bozorda ustunlikka erishish kabi vijdonsiz niyatlar bilan amalga oshiradilar. Masalan, “trademark squatting” (tovar belgisini egallash) deb ataladigan amaliyotda vijdonsiz shaxs mashhur brend nomini yoki unga o‘xshash belgini o‘ziga hech qanday tijorat faoliyati bog‘liq bo‘lmagan holda ro‘yxatdan o‘tkazadi. Bunday holatda, masalan, “Apple” kabi taniqli kompaniya nomini boshqa bir shaxs o‘z nomiga ro‘yxatga olib, keyinchalik uning haqiqiy egasiga qimmatga sotishni maqsad qilishi mumkin. Bu tovar belgisining asosiy funksiyasi – iste’molchilarning ishonchi va tovarning o‘ziga xosligini ta’minlashga xizmat qilishdan butunlay chetga chiqadi va uni faqat mulkiy foyda manbaiga aylantiradi. Shunday qilib, ro‘yxatdan o‘tkazishdagi suiiste’mollar tovar belgisining huquqiy va iqtisodiy mohiyatini buzib, uni tijoratdagi o‘ziga xos vazifalaridan uzoqlashtiradi. Bunda vijdonsiz shaxslar nafaqat qonunni chetlab o‘tishga urinadi, balki bozordagi raqobat muhitiga zarar keltirib, haqiqiy huquq egalari va iste’molchilarning manfaatlariga putur yetkazadi.

Tovar belgisiga ega bo‘lish huquqini qo‘lga kiritish bilan bog‘liq eng ko‘p uchraydigan turlaridan biri – mashhur tovar belgisini uning obro‘sidan foydalanib, g‘araz niyatda ro‘yxatdan o‘tkazishdir[6]. Bu holatda vijdonsiz shaxs mashhur belgi qamroviga kiruvchi tovar turlaridan farqli bo‘lgan boshqa tovar turlariga o‘z belgisini ro‘yxatga oldiradi va shu tariqa ro‘yxatdan o‘tkazish rad etilishi xavfini kamaytiradi. Mashhur ishlab chiqaruvchining tijoratdagi obro‘si, ya’ni “gudvill” (ishbilarmonlik obro‘si)dan foydalanish orqali buzuvchi o‘z tovarlarini fuqarolik muomalasiga kiritishda noqonuniy ustunlikka ega bo‘ladi.

Xorijiy huquqiy amaliyotda ushbu insofsiz holatni aks ettiruvchi ko‘plab sud pretsedentlar mavjud. Masalan, Tiffany Prods kompaniyasi “Tiffany” nomi va qimmatbaho toshli uzuk tasviridan foydalangan. Tiffany & Co va Tiffany Prods[7] o‘rtasidagi nizoni ko‘rib chiqishda sud quyidagi xulosaga keldi, “javobgar da’vogarning gudvillidan foydalanib, insofsiz afzallikka ega bo‘lishga qasddan uringan”.

Tovar belgisiga bo‘lgan huquqni suiiste’mol qilishning keyingi jihati bozordan raqobatchilarni siqib chiqarish maqsadida keng tarqalgan, lekin ro‘yxatdan o‘tmagan belgilarni ro‘yxatdan o‘tkazishdan iboratdir[8]. Bu strategiya vijdonsiz shaxsning raqobatchi kompaniya tomonidan foydalanilayotgan mashhur belgini o‘z nomiga ro‘yxatga olishga urinishi bilan tavsiflanadi. Shakllangan amaliyotga ko‘ra, tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazgan shaxsning vijdonsizligiga ishora qilishi mumkin bo‘lgan holatlardan biri shundaki, ushbu shaxs ariza topshirgan vaqtda uchinchi shaxslarning tegishli belgidan qonuniy ravishda foydalanib kelayotganidan xabardor bo‘lgan yoki bo‘lishi kerak edi, shu bilan birga bu belgi iste’molchilar orasida muayyan mashhurlikka erishganligini ham bilishi lozim edi.

Shaxsning muayyan harakatlarini vijdonsiz deb baholash uchun uning bu harakatlarni amalga oshirishdagi maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bunda shaxsning niyati va maqsadini aniqlashda bir qator omillar, jumladan, ariza topshirishdan oldingi xulq-atvori (masalan, raqobatchi belgidan xabardorlik darajasi) va huquq olingandan keyingi xulq-atvori (masalan, belgidan foydalanish yoki uni raqobatchilarga qarshi qo‘llash) hisobga olinadi. Agar shaxs boshqa shaxslar tomonidan qo‘llanib kelayotgan belgini tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishga ariza topshirsa, bu jarayonda belgining iste’molchilar orasidagi mashhurlik darajasi, uning bozordagi obro‘si va bunday o‘xshashlikning tasodifiy bo‘lish ehtimoli sinchiklab o‘rganiladi. Misal uchun, agar belgi raqobatchi tomonidan uzoq vaqtdan beri muvaffaqiyatli ishlatilib, iste’molchilar orasida tanilgan bo‘lsa, uni ro‘yxatga olishga urinish vijdonsiz niyatni ko‘rsatishi mumkin. Bunday holatlarda sud yoki vakolatli organ belgini ro‘yxatdan o‘tkazishga ariza bergan shaxsning raqobatchilarni bozordan siqib chiqarish yoki ularning obro‘sidan noqonuniy foydalanish niyati bor-yo‘qligini aniqlashga harakat qiladi. Buning uchun shaxsning ariza berishdan oldingi faoliyati, belgining mashhurlik darajasi va uning raqobatchi bilan bog‘liqligi kabi jihatlar ko‘zdan kechiriladi. Agar niyat raqobatchilarga zarar keltirish yoki ularning bozordagi mavqeidan foydalanishga qaratilgani isbotlansa, bu huquqni suiiste’mol qilish sifatida baholanishi mumkin.

Huquqni suiiste’mol qilishning yana bir ko‘rinishi ko‘p miqdordagi tovar belgilarini to‘plash maqsadida ro‘yxatdan o‘tkazishdan iboratdir. Bu strategiya moddiy foyda

yoki boshqa imtiyozlarga erishish uchun tovar belgilariga mutlaq huquqlarni qo‘lga kiritishga qaratilgan. Vijdonsiz huquq egalari o‘zlariga tegishli tovar belgilarini boshqalarga o‘tkazish bo‘yicha shartnomalar tuzish, shuningdek, o‘xshash belgilarning huquqiy muhofazasini bekor qilish uchun da’volar qo‘zg‘atish kabi harakatlarni amalga oshiradilar, lekin o‘zlari bu belgilardan faol foydalanmaydilar.

G.A. Gadjiev ta’kidlaganidek, “bunday vaziyatda sub’ektiv mutlaq huquqlar g‘ayrioddiy, ma’lum ma’noda qoralanadigan tarzda amalga oshiriladi. Huquq egasi qoidabuzar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar miqdori sezilarli darajaga yetguniga qadar kutib turadi va keyin kontrafakt tovarlar qiymatining ikki baravar miqdorida kompensatsiya talab qilib da’vo qo‘zg‘atadi. Shu bilan birga, u o‘z eksklyuziv huquqlari buzilishidan amalda hech qanday zarar ko‘rmaydi[9]. Bu strategiya huquq egasining belgidan tijorat maqsadlarida foydalanish niyati yo‘qligini, balki uni faqat raqobatchilarga qarshi qurol sifatida ishlatishga uringanini ko‘rsatadi. Ushbu suiiste’molning oldini olish uchun hozircha to‘liq ishlab chiqilgan mexanizm mavjud emas. Chunki vijdonsiz huquq egasining tovar belgisiga bo‘lgan huquqiy muhofazasi haqiqiy emas deb rasman e’tirof etilmaguncha, uning himoyasini rad etish mumkin emas. Bu esa qonunchilikdagi mavjud bo‘shliqni ko‘rsatadi: ro‘yxatdan o‘tkazilgan belgidan foydalanmaslik yoki uni to‘plash niyati bilan olish qonunan taqiqlanmagan, lekin bu amaliyot raqobat muhitiga va iste’molchilar manfaatlariga zarar keltirishi mumkin.

Tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazishda huquqni suiiste’mol qilishning yana bir ko‘rinishi sifatida allaqachon mavjud belgiga o‘xshash yoki u bilan bir xil bo‘lgan belgini ro‘yxatga olish uchun ariza berishni alohida ta’kidlash mumkin[10]. Bu amaliyot vijdonli huquq egalarining Xalqaro tovar va xizmatlar klassifikatsiyasi (XKTS) doirasidagi muayyan tovar sinflariga tegishli yangi belgilarni ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyatini to‘sish maqsadini ko‘zlaydi. Ushbu suiiste’mol strategiyasi O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi 2001 yil 30 avgust 267-II-son qonunining 10-moddasining vijdonsiz talqiniga asoslanadi, bu band boshqa shaxslar tomonidan o‘xshash tovarlar va xizmatlar uchun ariza berilgan belgilarga o‘xshash yoki bir xil bo‘lgan belgilarni ro‘yxatdan o‘tkazishni man qiladi.

Bozor doimo rivojlanib bormoqda, har kuni yangi va takomillashtirilgan tovarlar hamda xizmatlar paydo bo‘lmoqda. Bu esa ishlab chiqaruvchilarni mahsulotlarini yaxshilashga va bozorga modernizatsiya qilingan tovarlarni chiqarishga undaydi. Tovarlar o‘zgarishi bilan ularni farqlab turuvchi belgilar ham yangilanib, mavjud belgilar asosida shakllanadi. N.A. Ayrapetov ta’kidlaganidek, agar shaxsda nizoli belgiga o‘xshash yoki aralashish darajasigacha mos keladigan belgi bo‘lsa, potensial huquq egasining noinsofona harakatlarini cheklash imkoniyati yuqori bo‘ladi[11]. Ammo yangi belgilarni ro‘yxatga olishga urinayotgan huquq egalari “osilgan arizalar” deb nomlanuvchi to‘siqqa duch kelishadi. Bu arizalarni bergan shaxslar o‘z belgilari mavjud belgilar bilan o‘xshash bo‘lgani uchun ro‘yxatdan o‘tkazilmasligini yaxshi bilishadi va shuning uchun davlat bojini to‘lamasdan, rasmiy ekspertiza bosqichida arizalarni qoldirib ketishadi.

Bundan tashqari, vijdonsiz shaxslar bu arizalarni takroran topshirish orqali – ya’ni har safar arizalar chaqirib olingan deb tan olinganda – vijdonli huquq egalariga yangi belgilarni ro‘yxatga olish uchun imkon bermay, ularning faoliyatiga to‘sqinlik qiladi. Natijada, bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning normal faoliyatiga jiddiy xalaqit beradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun davlat bojini to‘lash muddatini qisqartirish taklif qilinadi. Chunki vijdonsiz shaxslar ariza berishdan keyin boj to‘lash uchun berilgan uzoq muddatdan foydalanib, jarayonni cho‘zadi. Agar rasmiy ekspertiza boshlangan paytdan boshlab boj to‘lash muddati qisqartirilsa va belgilangan vaqt ichida to‘lov amalga oshirilmasa, ariza darhol chaqirib olingan deb e’tirof etiladi. Bu chora bozorga yangi kiruvchi sub’ektlarga o‘z faoliyatlarini suiiste’moldan oldin himoya qilishga imkon beradi va mavjud belgilarga o‘xshash yangi belgilarni ro‘yxatdan o‘tkazishni soddalashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazishda huquqni suiiste’mol qilish amaliyoti ko‘p uchrashi muhim masala sifatida ko‘zga tashlanadi. Rossiya qonunchiligida bu suiiste’molning mumkin bo‘lgan shakllari aniq ko‘rsatilmaganligi

sababli, ularni faqat huquqni amalda qo‘llash tajribasini tahlil qilish orqali aniqlash mumkin. Bu jarayonda huquqni suiiste’mol qilishning asosiy yo‘nalishlari vijdonsiz huquq egalari tomonidan tovar belgilarining asl maqsadi – individuallashtirish vazifasiga e’tibor bermay, moddiy foyda yoki boshqa imtiyozlarga erishishga qaratilganligidan iborat.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal rivojlanishi bozordagi tovar va xizmatlar sonining keskin ortishiga olib kelmoqda, bu esa tovar belgilarining savdo aylanmasidagi rolini kuchaytirmoqda. Tovar belgilari ishlab chiqaruvchilar uchun tovarlarni individuallashtirish va iste’molchilar uchun sifat kafolatini ta’minlash vazifasini bajarib, bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq, ularning nomoddiy aktiv sifatidagi ahamiyati ortishi bilan huquqni suiiste’mol qilish holatlari ham ko‘paymoqda.

O‘zbekiston va xorijiy davlatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, YeI) qonunchiligida huquqni suiiste’mol qilishning aniq shakllari ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, “vijdonsizlik” mezoni asosida sud amaliyotida ushbu masalalar ko‘rib chiqilmoqda. Suiiste’molning asosiy strategiyalari – mashhur belgilarni g‘arazli niyatda ro‘yxatga olish, raqobatchilarni bloklash, belgilarni to‘plash va “osilgan arizalar” orqali to‘siq yaratish – tovar belgilarining institutsional vazifasini buzib, raqobat muhitiga zarar keltiradi. Masalan, “trademark squatting” kabi amaliyotlar vijdonsiz shaxslarning tijorat foydasi uchun belgilarning obro‘sidan foydalanishga urinishini ko‘rsatadi.

Qonunchilikda mavjud bo‘shliqlar, xususan, suiiste’molning aniq tartibga solinishi va “osilgan arizalar” muammosining yechimi yo‘qligi raqobat va iste’molchilar manfaatlariga xavf tug‘diradi. Shu sababli, tovar belgilari sohasidagi huquqiy bazani takomillashtirish – boj to‘lash muddatlarini qisqartirish, vijdonsiz niyatlarni aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish – fuqarolik huquqlarini samarali himoya qilish va bozordagi adolatli raqobatni ta’minlash uchun zarurdir. Bu nizolarning oldini olish va sud amaliyotida bir xillikni ta’minlashda muhim qadam bo‘ladi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Никулина В.С. Правовая защита товарного знака и борьба с недобросовестной кон куренцией. М.: Статут, 2015. – С.
2. Суханов Е.А. Гражданское право: В 2 т. Том 1. – М.: Волтерс Клувер, 2004. – С. 312
3. Bently, L., & Sherman, B. Intellectual Property Law. – 5th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – p. 867
4. Lemley, M. A. “The Modern Lanham Act and the Death of Common Sense.” – Yale Law Journal, Vol. 108, No. 7, 1999. – p. 1687
5. https://vlex.co.uk/vid/imperial-group-ltd-plaintiffs-793768781
6. Ворожевич А.С., Козлова Н.В. Недобросовестная конкуренция или злоупотребление правом при регистрации товарного знака: проблемы квалификации и способы защиты // Lex Russia. 2017. № 5(126). - С. 71.
7. https://case-law.vlex.com/vid/tiffany-co-v-tiffany-885266949
8. Бахарева В.С. Способы эффективной защиты исключительных прав на товарные знаки // Устойчивое развитие России: вызовы, риски, стратегии: матер. XIX Междунар. науч.-практ. конф. к 25-летию Гуманитарного университета (Екатеринбург, 12–13 апреля 2016 г.). Екатеринбург: Изд-во Гуманитарного ун-та, 2016. Т. 2. С. 132–135.
9. Гаджиев Г.А. Патентный троллинг: вопросы правовой квалификации // Журнал российского права. 2021. № 3. – С. 53.
10. Зацепина Н.С. Злоупотребление правом при подаче заявок на регистрацию товарного знака: скрытые проблемы и классификация // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2019. № 12. С. 210–214.
11. Айрапетов Н.А. Принцип добросовестности и требование о злоупотреблении правом при регистрации товарного знака // Имущественные отношения в Российской Федерации. 2024. № 1. С. 93–99.

Jo‘rayev Muhiddin Utkurovich,
y.f.b.f.d. (PhD) mustaqil izlanuvchi

MUSTAQILLIK DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ILMIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga 34 yil to‘lgan bir davrda, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimining ilmiy va ekspertlik asoslarini rivojlantirish, davlat siyosatini zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida shakllantirish yo‘llari hamda mavjud tizimni yanada takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan.
Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, huquqiy asos, qonun loyihasi, ekspert fikri, kodekslashtirish, ichki ishlar organlari, islohot.
Данная статья посвящена вопросам развития научных и экспертных основ системы обеспечения общественной безопасности в стране в период 34-летия независимости Республики Узбекистан, путям формирования государственной политики на основе современных научных достижений и дальнейшего совершенствования существующей системы.
Ключевые слова: общественная безопасность, правовая основа, законопроект, мнение эксперта, кодификация, органы внутренних дел, реформа.
This article, dedicated to the 34th anniversary of the independence of the Republic of Uzbekistan, is devoted to the development of the scientific and expert foundations of the public security system in the country, the ways of forming state policy based on modern scientific achievements, and the further improvement of the existing system.
Keywords: public safety, legal basis, draft law, expert opinion, codification, internal affairs bodies, reform.



Mustaqil O‘zbekiston o‘zining 34 yillik taraqqiyot yo‘lida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy sohalarda salmoqli yutuqlarga erishdi. Xususan, jamiyatning tinch va osoyishta hayotini ta’minlovchi jamoat xavfsizligi tizimi tobora takomillashib bormoqda. Mamlakatda xavfsizlikni ilmiy asoslangan tarzda ta’minlashga oid siyosiy hujjatlar va dasturlar, bu boradagi yangicha yondashuvlar mustaqillik ne’matlarining amaliy ifodasidir.

2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmon bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi va unga asos bo‘lgan 2022–2025-yillarga mo‘ljallangan rivojlantirish strategiyasi, sohaning ilmiy asoslarini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi[1]. Mazkur hujjatlarda jamoat xavfsizligi sohasidagi indikatorlar va mezonlar tizimi, monitoring mexanizmlari, idoralararo muvofiqlashtirish, ekspertlik baholari singari muhim jihatlar nazarda tutilgan.

Jamoat xavfsizligiga tahdidlarning barvaqt oldini olish va ularni tizimli tahlil qilishda ilmiy-analitik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, mavjud tizimda sohaga oid ilmiy-tahliliy markazlar va mustaqil ekspert kengashlari yetarli darajada faoliyat yuritmayapti. Shuning uchun 2023-yil 23-martdagi 121-son qaror bilan tasdiqlangan «yo‘l xaritasi»da Jamoat xavfsizligi bo‘yicha respublika ekspert kengashi tuzish g‘oyasi ilgari surildi.

Mualliflar taklifiga ko‘ra, kengash Ichki ishlar vazirligi huzurida tashkil etilishi, uning tarkibi, vakolat doirasi, qarorlar qabul qilish tartibi huquqiy va tashkiliy jihatdan belgilanishi zarur. Kengash quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– jamoat xavfsizligi siyosatining ilmiy asoslanganligini ta’minlash;

– yil yakunida tahdidlar holati bo‘yicha Davlat hisoboti tayyorlash;

– indikatorlar asosida harakatlar dasturini ishlab chiqish;

– tahdidlarni baholash va takliflar ishlab chiqish orqali tizimni yaxshilash.

Avstriya, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlarda jamoat xavfsizligi masalalarida ekspert kengashlari va strategik rejalashtirish bo‘limlarining muvaffaqiyatli faoliyati kuzatilmoqda. Avstriya IIV Kriminal strategiya bo‘limi misolida metodologik va ilmiy asoslangan boshqaruv tizimi shakllantirilgan bo‘lib, bu O‘zbekiston uchun foydali tajriba bo‘la oladi[2].

Ba’zi olimlar – xususan, V.I. Kovalenko byurokratik mexanizmlarning ortiqcha bo‘lishi xavfsizlik tizimining tezkorligini pasaytirishini ta’kidlaydi[3]. Biroq O‘zbekiston misolida bu yondashuv har doim ham o‘zini oqlamaydi. Zero, Konsepsiya va Strategiya asosida shakllangan amaliy mexanizmlar natijadorlik, ochiqlik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga 34 yil to‘lishi arafasida jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi milliy xavfsizlik tizimining ajralmas bo‘lagi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamoat xavfsizligi sohasida olib borilayotgan islohotlar, ilmiy yondashuvlar va huquqiy asoslar bu tizimning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada jamiyat xavfsizligini ta’minlashga doir ilmiy-nazariy qarashlar, huquqiy asoslar, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Jamoat xavfsizligi deganda fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i, mulki va umumiy ijtimoiy barqarorlikni tahdid soluvchi har qanday xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. Bu borada professor A.Usmonov ta’kidlaganidek: “Jamoat xavfsizligi — bu davlat va jamiyatning o‘zaro integratsiyalashgan faoliyatini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy institutdir” [3].

Yevropa Ittifoqi va BMT ekspertlari ham bu tushunchaga strategik yondashuvni taklif etib, jamoat xavfsizligini “barqaror ijtimoiy muhit yaratishga xizmat qiluvchi xalqaro mezon” sifatida baholaydi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida belgilangan bo‘lib, bu jamoat xavfsizligini ta’minlashning konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun (2014-yil, O‘RQ–371-son) esa xavfsizlikni ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlarini aniq belgilab bergan [5].

2020-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ–647-son) esa jamoat tartibini saqlash, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlash va fuqarolarni himoya qilishda yangi mexanizmlarni yo‘lga qo‘ydi [6].

Shuningdek, 2022-yilda Muhtaram Prezidentimiz farmoni bilan tasdiqlangan

“Ichki ishlar organlarini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ham fuqarolik xavfsizligi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanib, zamonaviy texnologiyalar asosida xavfsizlikni ta’minlash vazifasi yuklatilgan [7].

Jamoat xavfsizligi ilmiy kategoriya sifatida sotsiologiya, huquqshunoslik, kriminologiya va davlat boshqaruvi fanlari kesishmasida shakllanadi. Professor A.Qodirov bu borada shunday deydi: “Jamoat xavfsizligi – bu nafaqat tartib-intizomni saqlash, balki fuqarolarda ijtimoiy adolat hissini mustahkamlovchi ijtimoiy institutdir” [8].

Qozog‘istonlik tadqiqotchi T.Eshimov esa jamoat xavfsizligining xalqaro ta’minot mexanizmlarini tahlil qilib, O‘zbekiston uchun integratsiyalashgan xavfsizlik tizimini yaratish taklifini bildiradi [9].

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, FVV, prokuratura va mahalliy hokimiyat organlarining o‘zaro hamkorligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. “Mahalla posboni” instituti, jamoat tartibini ta’minlashda joriy etilgan “Xavfsiz mahalla” tamoyili ijobiy natijalar bermoqda.

Ayniqsa, Yagona dispetcherlik markazlari, videokuzatuv tizimlari, elektron monitoring vositalari (elektron bilakuzuklar) va jamoat nazoratining kengayishi fuqarolarning ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shunga qaramay, jamoat xavfsizligiga oid quyidagi muammolar mavjud:

1. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida axborot almashinuvi sustligi;
2. Mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining yetarli darajada faol emasligi;
3. Jamoat xavfsizligi sub’ektlari faoliyatining yagona baholash tizimi mavjud emasligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. “Jamoat xavfsizligi indeksi” ni ishlab chiqish;
2. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida “raqamli koordinator” tizimini joriy etish;
3. Oliy o‘quv yurtlarida “Jamoat xavfsizligi va xavf-xatarlarni boshqarish” fanini majburiy kiritish;
4. Mahalla va fuqarolik jamiyatlari ishtirokini kuchaytirish maqsadida subsidiar dasturlarni yo‘lga qo‘yish.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga 34 yil to‘lmoqda. Shu davr mobaynida davlatimiz tomonidan inson xavfsizligi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga oid qator islohotlar amalga oshirildi. Ulardan biri – jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks yondashuv va ilmiy-huquqiy asoslarning shakllantirilishidir. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi yutuqlar, ilmiy yondashuvlar, normativ-huquqiy baza va xalqaro tajribalarning milliy modelga integratsiyasi tahlil qilinadi.

Jamoat xavfsizligi – bu davlat va jamiyat hayotining barqarorligi, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i, mulki va konstitutsiyaviy huquqlarini tahdidlardan himoya qilishni anglatadi. Olimlar ta’kidlashicha, jamoat xavfsizligi faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan emas, balki ta’lim, tarbiya, axborot xavfsizligi, raqamli texnologiyalar bilan ham chambarchas bog‘liqdir [10]. Masalan, professor A.Qodirov fikricha, “jamoat xavfsizligi – bu huquqiy madaniyat, axloqiy immunitet ва davlat organlarining uzviy hamkorligi mahsulidir” [11].

1991-yildan buyon O‘zbekistonda huquqni muhofaza qilish tizimi takomillashtirilib, Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar, Mudofaa vazirligi kabi tashkilotlar faoliyati qayta ko‘rib chiqildi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi ham jamoat xavfsizligini ta’minlashda inson huquqlari va erkinliklarini birlamchi o‘ringa qo‘ymoqda [12].

Shuningdek, Prezidentimizning 2023-yil 14-fevraldagi PQ–57-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Jamoat xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi” ushbu yo‘nalishda muhim qadam bo‘ldi. Unda xavfsizlikning tizimli modeli, subyektlari, ularning vakolat va javobgarligi, hamda tahdidlarni baholash mezonlari belgilab berildi [13].

Ilmiy asosda yondashish jamoat xavfsizligini ta’minlashda uzoq muddatli barqarorlikni kafolatlaydi. Jumladan, Jamoat xavfsizligi universitetida olib borilayotgan tadqiqotlar, kursantlar uchun maxsus o‘quv rejalari, xalqaro tajriba asosidagi simulyatsion treninglar – bularning barchasi ilm-fan yutug‘idir.

Professor S.Abduraxmonov yozadi: “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasi – bu alohida ilmiy soha sifatida shakllanmoqda. Uning ixtisoslashgan magistratura,

doktorantura tizimi hamda xalqaro ilmiy hamkorlik doirasi kengaymoqda” [14].

Ayniqsa, so‘nggi yillarda xavfsizlikka oid ijtimoiy tadqiqotlar, big-data (katta ma’lumotlar) yordamida profilaktik tahlillar, axborot xavfsizligi yo‘nalishidagi ilg‘or ilmiy loyihalar jamoat xavfsizligining texnologik va tahliliy salohiyatini oshirdi.

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, Prezident farmon va qarorlari, 2023-yilgi Milliy xavfsizlik strategiyasi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Milliy gvardiya to‘g‘risida”gi Qonunlar jamoat xavfsizligining asosiy normativ-huquqiy asoslaridir [15].

Bundan tashqari, xalqaro standartlarga muvofiq, BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, YEXHT va SHHT doirasidagi xavfsizlikka oid ko‘rsatmalar milliy qonunchilikka integratsiya qilinmoqda.

Turkiya, Janubiy Koreya, Singapur, Fransiya va AQSh tajribalari tahlil qilinganida, jamoat xavfsizligini ta’minlashda texnologik yechimlar, fuqarolik jamiyatining faolligi ва ochiqlik muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston tajribasi esa shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy hamkorlik, mahalla tizimi, raqamlashtirilgan nazorat, “Safe City” loyihalari orqali xavfsizlikni saqlashda muvozanatli yondashuv shakllanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi yutuqlari nafaqat huquqiy, balki ilmiy asosga ega bo‘lmoqda. Bu esa xavfsizlikni ta’minlashga oid yangi avlod kadrlarini yetishtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ва tahdidlarni ilmiy baholash imkonini bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga 34 yil to‘lishi arafasida jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganini kuzatamiz. Mamlakatda ushbu sohani rivojlantirish borasida qabul qilingan Konsepsiyalar, Strategiyalar, qonunlar va Prezident farmonlari jamoat xavfsizligini zamonaviy, ilmiy va institutsional asosda yo‘lga qo‘yishga xizmat qilmoqda.

Xususan, jamoat xavfsizligiga oid tahdidlarni barvaqt aniqlash, ilmiy tahlil asosida qarorlar qabul qilish, indikatorlar orqali monitoring yuritish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tizimning samaradorligi oshib bormoqda. Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, mahalliy hokimiyat, fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik va ularning vakolatlarini aniq belgilab berish, xavfsizlikni boshqarishda huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta’minlamoqda.

Ilmiy nuqtai nazardan olganda, jamoat xavfsizligi endilikda mustaqil ilmiy sohaga aylanishi, maxsus tadqiqotlar, ilmiy markazlar, mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi orqali yondashuv darajasini oshirmoqda. Bu esa, xalqaro standartlarga mos keluvchi, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirgan va barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi xavfsizlik siyosatini shakllantirishga imkon bermoqda.

Shu bois, mavjud muammolarni bartaraf etish, xalqaro tajribalarni milliy tizimga integratsiya qilish, fuqarolarning ishonchini mustahkamlash, shaffoflik va samaradorlikni oshirish orqali jamoat xavfsizligini ta’minlash yangi bosqichga o‘tilmoqda. Mustaqillik yillarida bosib o‘tilgan yo‘l shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlik faqat kuch ishlatish vositalariga emas, balki ilm, tafakkur va ijtimoiy hamjihatlikka tayanadi.

Demak, jamiyat xavfsizligi endilikda faqat davlat idoralari emas, balki har bir fuqaroning ongli ishtirokini talab qiladigan ijtimoiy masalaga aylangan. Mustaqillikning 34 yillik tarixida erishilgan yutuqlar esa, bu yo‘nalishdagi islohotlarning barqaror yo‘ldan ketayotganini ko‘rsatadi.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash Konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni. // https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 121-son qarori bilan tasdiqlangan “Jamoat xavfsizligini ta’minlashga doir yo‘l xaritasi”. // https://lex.uz
3. Kovalenko V.I. Государственная безопасностъ и бюрократичесие препятствия: Теоретический анализ. М.: 2018. Юрайт.
4. Usmonov, A. Huquqiy davlat va jamoat xavfsizligi: nazariy va amaliy masalalar. – Toshkent: 2020. TDYU nashriyoti.

5. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2014-yil 14-sentabr, O‘RQ-371-son. // https://lex.uz
6. “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun, 2020-yil 13-yanvar, O‘RQ-647-son. // https://lex.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-iyuldagi “Ichki ishlar organlarini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. // https://lex.uz
8. Qodirov A.R. Jamoat xavfsizligi: ilmiy-nazariy asoslar va amaliy yo‘nalishlar. – Toshkent: 2022. O‘zMU nashriyoti.
9. Eshimov T. Jamoat xavfsizligini xalqaro standartlar asosida ta’minlash: Qozog‘iston va O‘zbekiston tajribalari. // Markaziy Osiyo ijtimoiy tadqiqotlari jurnali. – 2021№ 2(17).
10. Yevropa Ittifoqi xavfsizlik va huquqiy islohotlar bo‘yicha ekspertlar guruhi Public Safety in Transition Societies. Brussels: – 2020. EU Policy Reports.
11. Qodirov A.R. Jamoat xavfsizligi va fuqarolik madaniyati. – Toshkent: IIV Akademiyasi nashriyoti. – 2023.
12. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023-yilgi yangi tahrir). // https://lex.uz
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-fevraldagi PQ-57-son qarori “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi to‘g‘risida”. // https://lex.uz
14. Abduraxmonov S. Jamoat xavfsizligi sohasida ilmiy tadqiqotlar va strategik yondashuvlar. – Toshkent: – 2022. Jamoat xavfsizligi universiteti nashriyoti.
15. BMT. Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030: Xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari. (2015). // https://sdgs.un.org

Murodov O‘ktam Subxonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universitetining mustaqil izlanuvchisi

VIRTUAL EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISH YO‘LLARI: HUQUQIY VA AMALIY JIHATLAR TAHLILI

Ushbu maqolada virtual makonda ekstremistik faoliyatga qarshi kurashishning huquqiy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining kibermakonda ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilik bazasi, sud amaliyoti va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati o‘rganilgan. Muallif tomonidan virtual ekstremizmning zamonaviy shakllari va ularni aniqlash usullari, profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligi tahlil qilingan. Maqolada virtual ekstremizmga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish, qonunchilikdagi bo‘shliqlarni bartaraf etish va xalqaro tajribani O‘zbekiston sharoitida qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: virtual ekstremizm, huquqiy mexanizmlar, kibermakon, axborot xavfsizligi, qonunchilik bazasi, profilaktika choralari, radikallashuv, ekstremistik kontent, sud amaliyoti, xalqaro hamkorlik.

В данной статье проводится глубокий анализ правовых и практических аспектов борьбы с экстремистской деятельностью в виртуальном пространстве. В исследовании изучена законодательная база Республики Узбекистан по противодействию экстремизму в киберпространстве, судебная практика и деятельность правоохранительных органов. Автором проанализированы современные формы виртуального экстремизма и методы их выявления, эффективность профилактических мероприятий. В статье представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию механизмов борьбы с виртуальным экстремизмом, устранению пробелов в законодательстве и применению международного опыта в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: виртуальный экстремизм, правовые механизмы, киберпространство, информационная безопасность, законодательная база, профилактические меры, радикализация, экстремистский контент, судебная практика, международное сотрудничество.

This article provides an in-depth analysis of the legal and practical aspects of combating extremist activities in virtual space. The study examines the legislative framework of the Republic of Uzbekistan on countering extremism in cyberspace, judicial practice, and law enforcement activities. The author analyzes modern forms of virtual extremism and methods for their detection, as well as the effectiveness of preventive measures. The article presents scientifically based proposals and recommendations for improving mechanisms to combat virtual extremism, eliminating gaps in legislation, and applying international experience in the context of Uzbekistan.

Keywords: virtual extremism, legal mechanisms, cyberspace, information security, legislative framework, preventive measures, radicalization, extremist content, judicial practice, international cooperation.



Bugungi kunda virtual ekstremizm global xavfsizlikka tahdid soluvchi eng jiddiy muammolardan biriga aylanib bormoqda. O‘zbekistonda ekstremistik internet-materiallar soni tobora oshib bormoqda, 2025 yil boshiga kelib bunday manbalar soni 1400 ga yetgan. Ushbu raqam 2024 yil yanvarida qayd etilgan 800 dan ortiq manbaga nisbatan sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatmoqda[1]. Bu esa virtual ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha tizimli va samarali yondashuvlar zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur masala milliy xavfsizlik, jamiyat barqarorligi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga egaligi sababli virtual ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo‘llarini taklif etish uchun virtual ekstremizmga qarshi kurashishning huquqiy asoslari, xalqaro tajriba va O‘zbekiston qonunchiligi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasida virtual ekstremizm bilan bog‘liq tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha so‘nggi yillarda bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan ekstremistik va terroristik g‘oyalarni o‘z ichiga olgan internet-materiallar ro‘yxati muntazam ravishda yangilanib, to‘ldirilib borilmoqda. 2025 yil yanvar oyi holatiga ko‘ra, ushbu ro‘yxatga 1389 ta turli xil materiallar kiritilgan bo‘lib, ular orasida 203 ta Facebook sahifasi, 713 ta Telegram kanali, 226 ta Instagram akkaunti, 135 ta YouTube kanali, 35 ta «Odnoklassniki» sahifasi, 44 ta TikTok akkaunti, 13 ta veb-sayt va 20 ta boshqa manbalar mavjud[1]. Taqqoslash uchun, 2024 yil yanvar oyida ro‘yxatda 800 dan ortiq manba bo‘lgan bo‘lsa, 2023 yil may oyida esa bu raqam 500 gacha qisqargan edi.

O‘zbekistonda ekstremistik kontentni aniqlash bilan Din ishlari qo‘mitasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi kabi davlat organlari shug‘ullanadi. Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunga muvofiq, bunday materiallarni namoyish qilish, tarqatish va saqlash taqiqlangan bo‘lib, ularga kirish cheklanishi kerak. «Jamoat xavfsizligi va tartibiga tahdid soluvchi kontentni» tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish qilish uchun O‘zbekistonda jinoiy javobgarlik belgilangan[2].

O‘zbekistonning virtual ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi xalqaro huquqiy me’yorlarga mos keladi va bu mamlakatda ekstremistik kontentning tarqalishini oldini olish bo‘yicha kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Qonunchilikda ekstremistik materiallarni aniqlash, ularni taqiqlash va bunday materiallarni tarqatganlik uchun jazolar belgilash mexanizmlari aniq ko‘rsatilgan.

Virtual ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro-huquqiy baza BMT Xavfsizlik Kengashining bir qator rezolyusiyalariga, shuningdek mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan hujjatlarga asoslanadi. BMT Xavfsizlik Kengashining 1373, 1624, 2178, 2199, 2253, 2354, 2396, 2462, 2482-sonli rezolyusiyalari terroristik tashkilotlarni moliyalashtirish kanallarini aniqlash va to‘xtatish bo‘yicha choralarni kuchaytirishga, shuningdek IShID, «Al-Qoida» va Tolibon harakatiga nisbatan sanksiyalar rejimini o‘rnatishga qaratilgan[3].

Xalqaro miqyosda terrorizmga qarshi kurashishning eng muhim vositalaridan biri Xalqaro terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha umumiy konvensiya loyihasini kelishib olish hisoblanadi. Ushbu hujjat terrorizmning umume’tirof etilgan ta’rifini o‘z ichiga olib, barcha BMT a’zo davlatlari uchun maqbul bo‘lgan yechimni topish zarurligiga asoslanadi.

2017 yilda Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Tojikiston qo‘shma sa’y-harakatlari bilan ishlab chiqilgan ShHTning ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha konvensiyasi xalqaro hamkorlikning muhim standarti hisoblanadi[4]. Ushbu hujjat samarali va innovatsion xalqaro-huquqiy mexanizmlarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, unga yangi davlatlarning tashabbuskorlik bilan qo‘shilish imkoniyatini nazarda tutadi.

Bundan tashqari, jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhi (EAG) doirasida hamkorlikni rivojlantirishga ham e’tibor qaratilmoqda. Rossiya mutaxassislarining yetakchi roli bilan YeAG pullarni yuvish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog‘liq mintaqaviy xavflarni o‘rganish bilan faol shug‘ullanmoqda3.

Internet ekstremistik va terroristik

oqimlarning amaliy namoyon bo‘lishi va tarqalishi uchun qulay muhit yaratib bermoqda. A.Yu. Atajanov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda internetning ekstremistik va terroristik oqimlarning tarqalishidagi roli tahlil qilingan. Muallif ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va videoxostinglar ekstremistik guruhlar uchun o‘z g‘oyalarini tarqatish, tarafdorlarni jalb qilish va o‘z faoliyatini muvofiqlashtirish vositasi bo‘lib xizmat qilayotganini ta’kidlaydi.

Raqamli kriminalistika tahlili orqali to‘plangan dalillarni tizimli o‘rganish virtual ekstremizmga qarshi kurashishning muhim qismi hisoblanadi. Fayl tizimini tahlil qilish, ma’lumotlarni qazib olish, kontent-tahlil kabi usullar virtual makonda ekstremistik faoliyatni aniqlash va oldini olish imkonini beradi[5].

Ekstremistik g‘oyalarning tarqalishiga qarshi kurashishning huquqiy va amaliy jihatlarini tahlil qilib, bu borada kompleks yondashuvning zarur deb hisoblaymiz.

Virtual ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha mavjud yondashuvlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu borada qonunchilik bazasi mavjud bo‘lsa ham, uning samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar zarur. O‘zbekistonda ekstremistik materiallar ro‘yxatining muntazam ravishda yangilanib borilishi ijobiy holat bo‘lsa-da, bu muammoni to‘liq hal qilish uchun yetarli emas. Ekstremistik kontentni bloklash va uni tarqatganlik uchun javobgarlikni belgilash bilan birga, aholining media savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, yoshlarni ekstremistik g‘oyalar ta’siridan himoya qilish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Virtual ekstremizmga qarshi kurashish uchun xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. ShHTning ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha konvensiyasi kabi hujjatlar asosida mintaqaviy va xalqaro darajada hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish, qo‘shma tadbirlarni amalga oshirish zarur. Shuningdek, terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy konvensiya loyihasini kelishib olish, terrorizmning umume’tirof etilgan ta’rifini ishlab chiqish ham muhim vazifalardan biridir.

Ekstremistik kontentni aniqlash va unga qarshi kurashish uchun zamonaviy texnologiyalardan, jumladan sun’iy intellekt va mashina o‘rganishi texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshirishga yordam beradi[6]. Raqamli kriminalistika tahlili, fayl tizimini tahlil qilish, ma’lumotlarni qazib olish kabi usullar virtual makonda ekstremistik faoliyatni aniqlash va oldini olish imkonini beradi.

Virtual ekstremizmga qarshi kurashish jarayonida huquqiy va axloqiy dilemmalar yuzaga keladi. Bir tomondan, ekstremistik kontentga qarshi kurashish zarur bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu so‘z erkinligi, shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi kabi asosiy huquqlarga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun ekstremistik kontentga qarshi kurashish choralarini amalga oshirishda inso n huquqlariga rioya qilish, so‘z erkinligini ta’minlash va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish o‘rtasida muvozanatni topish muhim.

Virtual ekstremizmni aniqlash va unga qarshi kurashish uchun qo‘llaniladigan texnologiyalar ham etik jihatdan muammoli bo‘lishi mumkin. Masalan, kontentni monitoring qilish, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish uchun foydalaniladigan texnologiyalar fuqarolarning shaxsiy hayotiga aralashish, shaxsiy ma’lumotlarga noqonuniy kirish xavfini tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun bu texnologiyalardan foydalanishda shaffoflik, hisobdorlik va qonuniylik prinsiplariga rioya qilish zarur.

Virtual ekstremizmga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish mumkin:

Birinchidan, virtual ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish, jumladan ekstremistik kontentni aniqlash, uni bloklash va javobgarlikka tortish mexanizmlarini yanada aniqlashtirish zarur. Bunda xalqaro huquqiy standartlarga mos keladigan, ammo mahalliy sharoitlarni ham hisobga oladigan yondashuvni ishlab chiqish muhim.

Ikkinchidan, virtual ekstremizmga qarshi kurashish uchun davlat organlari, internet-provayderlar, ijtimoiy tarmoqlar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu hamkorlik doirasida ekstremistik kontentni aniqlash va bloklash bo‘yicha tezkor ma’lumot almashish, qo‘shma tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

Uchinchidan, virtual ekstremizmga qarshi kurashish uchun zamonaviy texnologiyalardan, jumladan sun’iy intellekt,

katta ma'lumotlarni tahlil qilish, mashina o'rganishi texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish zarur. Bu texnologiyalar ekstremistik kontentni avtomatik ravishda aniqlash va bloklash imkonini beradi.

To'rtinchidan, aholining media savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ekstremistik g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bu ayniqsa yoshlar uchun muhim, chunki ular ekstremistik g'oyalarning ta'siriga ko'proq moyil bo'lishi mumkin.

Beshinchidan, virtual ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, tajriba almashish, qo'shma tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu hamkorlik doirasida ekstremistik kontentni aniqlash va bloklash bo'yicha ma'lumot almashish tizimini yaratish, xalqaro huquqiy bazani takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Virtual ekstremizm bugungi kunda global xavfsizlikka tahdid soluvchi eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ekstremistik internet-materiallar sonining oshib borishi, 2025 yil boshiga kelib bunday manbalar sonining 1400 ga yetgani bu muammoga qarshi kurashish bo'yicha tizimli va samarali yondashuvlar zarurligini ko'rsatadi. Virtual ekstremizmga qarshi kurashish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, davlat organlari, internet-provayderlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, aholining media savodxonligini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

ShHTning ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha konvensiyasi kabi hujjatlar asosida mintaqaviy va xalqaro darajada hamkorlikni rivojlantirish, BMT Xavfsizlik Kengashining tegishli rezolyusiyalarini amalga oshirish virtual ekstremizmga qarshi kurashishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha umumiy konvensiya loyihasini kelishib olish, terrorizmning umume'tirof etilgan ta'rifini ishlab chiqish ham muhim vazifalardan biridir.

Raqamli kriminalistika tahlili, fayl tizimini tahlil qilish, ma'lumotlarni qazib olish kabi usullar virtual makonda ekstremistik faoliyatni aniqlash va oldini olish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalardan, jumladan sun'iy intellekt va mashina o'rganishi texnologiyalaridan foydalanish virtual ekstremizmga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Virtual ekstremizmga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish uchun qonunchilikni takomillashtirish, davlat organlari, internet-provayderlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, aholining media savodxonligini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar amalga oshirilishi zarur. Bu takliflarning amalga oshirilishi virtual ekstremizmga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, milliy xavfsizlik, jamiyat barqarorligi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. В Узбекистане в список "экстремистских" интернет-материалов за год внесли еще 600 источников // CurrentTime.tv [Электрон ресурс]. – 2025. – URL: https://www.currenttime.tv/a/v-uzbekistane-spisok-ekstremistskih-internet-materialov-za-god-1400/33269558.html
2. Киберправо – CyberLaw Department // Cyber-law.uz [Электрон ресурс]. – 2024
3. Противодействие терроризму и экстремизму // [Электрон ресурс]. – 2023. – URL: https://www.mid.ru/ru/foreign_policy/international_safety/crime/1848368/
4. Шанхайская Конвенция «О борьбе с терроризмом, сепаратизмом и экстремизмом» Шанхай, 15 июня 2001 г.// Ратифицирована Постановлением Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 30 августа 2001 года N 274-II. В настоящую Конвенцию внесены изменения в соответствии с Протоколом от 5 сентября 2003 г.
5. Киберправо – CyberLaw Department // Cyber-law.uz [Электрон ресурс]. – 2024
6. Атажанов А.Ю. Роль сети Интернет в пути практического проявления и распространения экстремистских и террористических течений // ORIENSS. – 2024. – №3. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/rol-seti-internet-v-puti-prakticheskogo-proyavleniya-i-rasprostraneniya-ekstremistskih-i-terroristicheskih-techeniy

Radjabov Ulug‘bek Abduraxmonovich
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

PORA OLISH JINOYATLARIGA QARSHI KURASHISH HOLATI VA XUSUSIYATLARI

Poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurashda xorijiy mamlakatlar tajribasi, hozirgi zamon tendensiyalari, qonunchilikdagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari tahlil etilgan.
Kalit so‘zlar: poraxo‘rlik, korrupsiya, xorij tajribasi, huquqiy ong, huquqiy ta’lim, profilaktika, , korrupsiyaga qarshi kurash shakllari va usullari.
В статье проанализированы опыт зарубежных стран в борьбе со взяточничеством и коррупцией, современные тенденции, проблемы в законодательстве и пути их решения.
Ключевые слова: взяточничество, коррупция, зарубежный опыт, правосознание, правовое просвещение, профилактика, формы и методы противодействия коррупции.
The article analyzes experience of foreign countries in the fight against bribery and corruption, current trends, problems in legislation and ways to solve them are analyzed.
Keywords: bribery, corruption, foreign experience, legal consciousness, legal education, prevention, , forms and methods of combating corruption.



Dunyoda XXI asr boshlariga kelib ham korrupsiyaga barham berish masalalari had etilgani yo‘q. BMT ma’lumotlariga ko‘ra duneda berilgan pora hajmi keyingi uch yil ichida yiliga o‘rtacha 1 trln. AQSh dollarini tashkil etmoqda. Pora olishga qarshi kurashning ijtimoiy zarurati uning ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga zararli ta’siridan kelib chiqadi. Pora olish huquqiy davlatning asoslarini buzadi, qonun oldida adolat va tenglik tamoyillarini buzadi, iqtisodiyot va demokratik institutlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Ushbu hodisa salbiy ta’sirlar zanjirini keltirib chiqaradi, shu jumladan investitsiya muhitining yomonlashishi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi va fuqarolarning hokimiyatga bo‘lgan ishonchining buzilishi.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyaga eng qisqa, lekin, keng qamrovli ta’rif quyidagicha berilgan: “Korrupsiya – bu shaxsiy naf ko‘rish maqsadida davlat hokimiyatini suiiste’mol qilishdir”[1].

Jinoyatchilikka barham berish yoki ularni oldini olish faqat va faqat jinoyat sodir etilishiga asos bo‘luvchi sababiyatga barham berish orqali samarali natijaga erishiladi. Shu sababdan ham respublikamizda korrupsiyaga murosasiz kurashish mexanizmlari ishlab chiqilib amalda qo‘llanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”[2], deb ta’kidladi.

Mamlakatimizda 2016 yilning oxiridan boshlab davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashining tizimli faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun[3] qabul qilinishi bilan korrupsiyaga qarshi kurashda yangi davr boshlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” [4] va “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son farmoni mazkur turdagi jinoyatchilik bilan kurashishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda[5]. Korrupsiya jinoyatlari bog‘liq jinoyatlarni oldini olishda “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari” nizomini yangi tahrirda qabul qilish, unda korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etilishida yangi metodlarini o‘rganish maqsadga muvofiq[6].

G.Blekning yuridik lug‘atida korrupsiya quyidagicha tavsiflanadi:

1) mansabdor shaxsning rasmiy vazifalari va o‘zga shaxslarning huquqlari bilan muvofiq bo‘lmagan muayyan imtiyoz berish niyatida sodir etiladigan qilmish;

2) mansabdor shaxsning o‘z xizmat lavozimi yoki maqomidan o‘zga shaxslarning vazifalari va huquqlariga zid bo‘lgan maqsadlarda o‘zi yoki o‘zga shaxs uchun biron-bir ustunlikni qo‘lga kiritish uchun qonunga xilof ravishda foydalanishidan iborat bo‘lgan qilmish[7].

Bunday ehtiyoj ko‘pincha tergov hibsxonasi ma’muriyatining qamoqda saqlanayotgan shaxslar o‘rtasidagi nizolarga umuman aralashishni istamasligi, ba’zi hollarda jabrlangan shaxslarni himoya qilish bo‘ladi, bu esa muassasada qononsizlik muhitini yaratadi. Bu ular nizolarni o‘zlari bilganicha hal qilishga harakat qilishlariga olib keladi, ayniqsa jinoyat olamida obro‘mand shaxslarning ta’siri bo‘lsa, muammolar “o‘g‘rilar an’analari” bo‘yicha hal qilinadi.

Har qanday huquqbuzarlik holatlarini hisobga olishdan yashirish, ularni qonuniy yo‘l bilan hal etishni istamaslik, tajovuzkorlik va shafqatsizlik zanjiri reaktsiyasini shakllantiradi. Shaxsiy qadr-qimmatni kamsitish kim tomonidan va qanday shaklda namoyon bo‘ishidan qat’i nazar, og‘ir qabul qilininadi.

Ko‘pgina hollarda ko‘rib chiqilayotgan omillar tergov hibsxonasi xodimlarning o‘zlari mansab jinoyatlarini sodir etish yo‘l qo‘yish yoki keltirib chiqarish holatlari bilan bog‘liq bo‘ladi (mansab vakolatini suiiste’mol qilish, mansab vakolati doirasidan chetga chiqish va boshqalar).

Ushbu aniqlovchi omillar majmuasi ko‘pincha tergov hibsxonalari xodimlarining sub]ektiv shaxsiy xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq.

Amaliyotda bu ularning o‘z xizmat vazifalarini professional darajada bajarmasliklari, xizmatga sovuqqonlik bilan munosabatda bo‘lishlari, me’yoriy huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar talablarini bilmasliklarida namoyon bo‘lmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash tog‘gisida”gi Qonunning 45-49 moddalarida qamoqda saqlash joylarining xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o‘qotar qurollarni qo‘llash holatlari aniq ko‘rsatilgan[5].

Profilaktik chora-tadbirlar sifatida tergov hibsxonalar boshliqlari tomonidan tegishli bo‘lim va xizmatlar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish zarur.

Kasbiy tayyorgarlik doirasida xodimlar xizmat faoliyatni tartibga soluvchi va xizmat vazifalarini bajarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishishlari, qonunga xilof ravishda jismoniy kuch, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurolni qo‘llash qanday huquqiy oqibatlarga

olib kelishi mukinligi haqida, bunday harakatlar butun fuqarolik jamiyati oldida tergov hibsxonasini obro‘sizlantirishi haqida doimiy ravishda tushuntirishlar berish lozim.

Fikrimizcha, yuqoridagi qayd etilgan omillarning oldini olishning samarali vositalaridan biri, tergov hibsxonalarini zamonaviy texnik qo‘riqlash va nazorat vositalari bilan jihozlash hisoblanadi.

Tergov hibsxonasida qamoqqa olinganlar saqlanadigan kameralar va qamoqqa olinganlar bo‘ladigan boshqa joylarda portativ videoregistratorlar va videokuzatuv uskunalaridan foydalanish, qamoqda saqlanayotgan shaxslarni ham, tergov hibsxonasi xodimlarini ham harakatini nazorat qilishga yordam beradi hamda ularni tartib-intizomga chaqiradi. Bunda qamoqda saqlanayotgan shaxslar qamoqda saqlash rejimi va ichki tartib qoidalariga rioya qilishga harakat qilsa, tergov hibsxonasi xodimlarini esa bunday choralar bilan ushlab turilgan va qamoqqa olinganlarga nisbatan xushmuomalalik va hurmat bilan munosabatda bo‘lishga, ularning noqonuniy xatti-harakatlari holatlarining oldini olishga undaydi.

Umuman olganda, profilaktik chora-tadbirlari tizimini ko‘rib chiqishda, jinoyat-ijroiya siyosatni amalga oshirish doirasida tergov hibsxonalari xodimlarini xizmat vazifalariin bajarish chog‘ida, ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va mahkumlarning noqonuniy xatti-harakatlariga samarali barham berishga, shuningdek ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va mahkumlarning huquqlari buzilganligi to‘g‘risidagi holatni yashirishga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Tergov hibsxonalaridagi huquqbuzarliklar sabablari va shartlarining yana bir yo‘nalishini ko‘rib chiqqanda, qamoqda saqlanayotgan shaxslarning shaxsiyatiga bevosita bog‘liq bo‘lgan omillarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin bular: maishiy sharoitlaridan norozilik (haftada bir marta dush, ovqat sifati va boshqalar), oziq-ovqat sotib olish bilan bog‘liq ma’lum bir moddiy manfaatlarni olishdagi to‘siqlar, shuningdek qarindoshlar va boshqa shaxslar bilan muloqot qilishni taqiqlash va boshqalar.

Qamoqda saqlanayotgan shaxslarning muayyan huquq va erkinlaiklari cheklanishi qonun bilan belgilangan, ammo tergov hibsxonasida saqlanayotgan shaxslar ayblanayotgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini hisobga olgan holda, hibsxona xodimlari (ayniqsa, birinchi marta qamoqqa olingan shaxslarga) ushlab turilgan va qamoqqa olingan shaxslar tergov hibsxonasiga qabul qilinganida ular bilan dastlabki suhbatlar o‘tkazishga, ushbu shaxslarni ularning huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar bilan tanishtirishga alohida e’tibor qaratishlari lozimdir.

Bundan tashqari, agar qamoqda saqlanayotgan shaxslarning talablari qonuniy bo‘lsa, tergov hibsxonasi ma’muriyati uning huquqlarini amalga oshirish uchun barcha say-harakatlarni amalga oshirishi shart.

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan samarali jazo tizimini qo‘llash zarur. Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash tog‘risidagi Qonunning 37-moddasida ushbu holatlarda qo‘llaniladigan intizomiy jazo choralarini nazarda tutadi. Jazolar ro‘yxati to‘liq bo‘lib, xodim boshqa turlarni qo‘llashi mumkin emas. Ushbu intizomiy jazo choralari ro‘yxatini kengaytirishni taklif qilayotgan bir qator mualliflarning nuqtai nazarlarini ko’rib chiqishimiz mumkin.

Rus olimlari Zarubin S.P. va Krivosheev S.V. Aamaldagi intizomiy jazo choralarini yanada kenaytirish (ushrashuvga chiqishdan, yo‘qlov, posilka va banderol olishdan mahrum qilish yoki vaqtinchalik taqiqlash), huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan jazoni ta’sirchanligini oshirishda va huquqbuzarliklarning oldini olishda samarali vosita bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi.

Bundan tashqari, jazoni muddatini hisoblashda, intizomiy jazo sifatida karserda o‘tkazilgan vaqtni hisobga olmaslik to‘g‘risidagi qoidani qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yish imkoniyati to‘g‘risidagi taklifni qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu qoida qamoqda saqlanayotgan shaxslarda qonunga itoatkorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Qamoqda saqlashning maishiy sharoitidan kelib chiqadigan noroziliklar, tergov hibsxonasi xodimlariga bog‘liq bo‘lmagan sabab bilan bog‘liq bo‘lishi

mumkin, bu holat tergov hibsxonasi belgilangan saqlash limitidan oshib ketishi. Bu barcha tergov hibsxonalar oldida turgan o‘tkir muammo bo‘lib, ushlab turilgan va qamoqqa olingan shaxslarni saqlash sharoitlarini qonun talablariga muvofiqlashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlardan biri tergov hibsxonalarining saqlash limitini barqarorlashtirishdir. Buning uchun barcha hududiy organlar sud-huquq tizimi bilan hamkorlikni tashkil etishi lozim, xususan:

mahkumlarni jazoni o‘tashga yuborish yoki qamoqdan ozod qilish bo‘yicha sud qarorlarini ijro etish uchun o‘z vaqtida olish;

ijtimoiy havfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etganlikda ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olish hollarini maksimal darajada qisqartirish.

Joylardagi DXX va IIV tergov hibsxonalari rahbarlari ham tuman sudlari raislari bilan yig‘ilishlar o‘tkazishlari, yig‘ilishda sudlar ixtiyorida uzoq muddatdan beri turgan va sud qarorlari va sud hukmlarining qonuniy kuchga kirishi to‘g‘risidagi farmoyishni olinishini kutayotgan shaxslarning ro‘yxatlarini yuborishlari; sudyalarni tergov hibsxonalari saqlash limiti to‘lganligi to‘g‘risida xabardor qilishlari lozim hisoblanadi.

Shunday qilib, tergov hibsxonalariga yuklamani kamaytirish va bir kishiga to‘g‘ri keladigan yashash maydoninig normasini buzmaslik uchun qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashning asosliligi va qonuniyligi bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlar belgilanishi talab etiladi, xususan,

- dastlabki tergov organlarining qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnomalarining qonuniyligi va asosliligi ustidan prokuror nazorati shakllarini takomillashtirish;

- jamiyatdan ajratish bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyot choralarini qo‘llash ko‘lamini kengaytirish;

- ijtimoiy havfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan va ayblanayotgan shaxslarga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashni cheklash va qamoqda saqlash muddatlarini qisqartirish.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 2025. 10-modda. https://lex.uz/

2. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni // URL: http://www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni // URL: http://www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi IIV Jazoni ijro etish departamentidan olingin ma’lumotlar.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2011-йил 29-сентабрдаги “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida” O‘RQ-298-son qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-1876877

Naimov Raximjon Xafizovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

XORIJ MAMLAKATLARINING PROFILAKTIK HISOBGA OLISH MEXANIZMINI QO‘LLASH BO‘YICHA TAJRIBASI

Mazkur maqolada xorij mamlakatlarining profilaktik hisobga olish mexanizmini qo‘llash bo‘yicha tajribasi tadqiq etilgan. Muallif tomonidan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Rossiya va boshqa davlatlarda jinoyat sodir etgan, huquqbuzarlik qilgan yoki ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni profilaktik hisobga olish mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Xorijiy tajribani o‘rganish asosida O‘zbekistonda profilaktik hisobga olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan profilaktik hisobga olish mexanizmidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: profilaktik hisobga olish, xorijiy tajriba, jinoyatchilik profilaktikasi, probatsiya, jinoyat sodir etgan shaxslar, ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar, ijtimoiy reintegratsiya, reabilitatsiya.

В данной статье исследуется опыт зарубежных стран по применению механизма профилактического учета. Автором проанализированы особенности механизма профилактического учета лиц, совершивших преступления, правонарушения или освобожденных из мест лишения свободы в США, Великобритании, Германии, Франции, Японии, Республике Корея, Сингапуре, России и других странах. На основе изучения зарубежного опыта разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию системы профилактического учета в Узбекистане. Автором раскрыты возможности внедрения передового зарубежного опыта механизма профилактического учета в законодательство и практику Республики Узбекистан.

Ключевые слова: профилактический учет, зарубежный опыт, профилактика преступности, пробация, лица, совершившие преступления, лица, освобожденные из мест лишения свободы, социальная реинтеграция, реабилитация.

This article examines the experience of foreign countries in applying the preventive accounting mechanism. The author analyzed the features of the mechanism for preventive registration of persons who have committed crimes, offenses, or have been released from places of detention in the USA, Great Britain, Germany, France, Japan, the Republic of Korea, Singapore, Russia, and other countries. Based on the study of foreign experience, proposals and recommendations have been developed for improving the preventive accounting system in Uzbekistan. The author reveals the possibilities of implementing the best foreign practices of the preventive accounting mechanism in the legislation and practice of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: preventive registration, foreign experience, crime prevention, probation, persons who have committed crimes, persons released from places of detention, social reintegration, rehabilitation.



Jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasi har qanday davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifani hal qilishning muhim vositalaridan biri profilaktik hisobga olish mexanizmi hisoblanadi. Profilaktik hisobga olish – bu jinoyat sodir etgan, huquqbuzarlik qilgan yoki ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni nazorat qilish va ularning qayta jinoyat yo‘liga kirishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimidir. Dunyoning turli mamlakatlarida profilaktik hisobga olish mexanizmlari farqli xususiyatlarga ega bo‘lib, ular o‘sha mamlakatlarning huquqiy tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, madaniy xususiyatlari va boshqa omillarga bog‘liq. Shu sababli, xorij mamlakatlarining profilaktik hisobga olish mexanizmini qo‘llash bo‘yicha tajribasini o‘rganish va tahlil qilish O‘zbekistonda ushbu sohadagi islohotlarni yanada takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2014 yil 14 mayda «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonun qabul qilinishi, 2018 yil 24 yanvarda «Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Prezident qarorining qabul qilinishi bu sohadagi muhim qadamlar bo‘ldi. Biroq, xorij mamlakatlarining ilg‘or tajribasini o‘rganish va milliy qonunchilikka tatbiq etish orqali profilaktik hisobga olish mexanizmini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Aynan shundan kelib chiqqan holda xorij mamlakatlarining profilaktik hisobga olish mexanizmini qo‘llash bo‘yicha tajribasini o‘rganish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va amaliyotiga tatbiq etish mumkin bo‘lgan ilg‘or tajribalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida profilaktik hisobga olish mexanizmi asosan probatsiya (probation) va shartli ozod qilish (parole) tizimlari orqali amalga oshiriladi. Probatsiya – bu sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘rniga tayinlanadigan shartli jazo bo‘lib, mahkum jamiyatda qolgan holda sud tomonidan belgilangan shartlarga rioya qilishi va probatsiya xizmati nazorati ostida bo‘lishi kerak. Shartli ozod qilish esa ozodlikdan mahrum etish jazosining bir qismini o‘tab bo‘lgan shaxslarni ozodlikka chiqarish bo‘lib, ular ham ma’lum shartlarga rioya qilishlari va nazorat ostida bo‘lishlari lozim.

AQShda har bir shtatning o‘z probatsiya va shartli ozod qilish tizimi mavjud bo‘lib, ular orasida ma’lum farqlar mavjud. Federal darajada ham probatsiya xizmati mavjud bo‘lib, u federal jinoyatlar bo‘yicha sudlangan shaxslar bilan ishlaydi. AQShda profilaktik hisobga olish tizimi o‘z ichiga elektron nazorat tizimini, xavf darajasini baholashni metodikasini, darhol aralashuv prinsipini, maxsus dasturlarni va jamoat tashkilotlari ishtirokini qamrab oladi. Xususan, AQShda profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan elektron bilaguzuklar, GPS-trekerlar va boshqa elektron nazorat vositalaridan keng foydalaniladi. Bu ularning harakatlanishini nazorat qilish va belgilangan cheklovlarga rioya qilishini ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga AQShning profilaktik hisobga olingan shaxslarning xavf darajasini baholashning ilmiy asoslangan tizimi foylanilishi amaliyoti diqqatga sazovor. Bu tizim (Risk-Needs-Responsivity model – Xavf-ehtiyoj-moslashuvchanlik modeli) shaxsning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini baholash va unga mos profilaktik choralarni belgilash imkonini beradi. Mazkur mamlakatda profilaktik hisobda turgan shaxs belgilangan qoidalarni buzganda darhol aralashuv (Swift, Certain, and Fair sanctions) tizimi ishga tushiriladi. Bu yondashuv profilaktik hisobda turgan shaxs belgilangan qoidalarni buzganda darhol, aniq va adolatli jazo choralarini qo‘llashni nazarda tutadi. Bu yondashuv AQShning bir qator shtatlarda samarali natijalar berayotganligi qayd etilgan.

Shu bilan bir qatorda profilaktik hisob yuritish doirasidagi chora-tadbirlar orasida maxsus dasturlarni alohida keltirish kerak. AQShda profilaktik hisobda turgan shaxslar uchun turli maxsus dasturlar mavjud: giyohvandlikdan davolanish dasturlari, psixologik yordam dasturlari, kasbiy ta’lim va bandlik dasturlari va boshqalar. Bu dasturlar profilaktik hisobda turgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga qaratilgan. Mazkur faoliyatda jamoat tashkilotlari ishtiroki keng joriy etilganligini e’tirof etish joiz. AQShda

profilaktik hisobga olish tizimida nodavlat va jamoat tashkilotlari faol ishtirok etadi. Ular profilaktik hisobda turgan shaxslarga turli xizmatlar (uy-joy, ish, psixologik yordam va boshqalar) ko‘rsatadi.

Buyuk Britaniyada profilaktik hisobga olish tizimi asosan probatsiya xizmati (Probation Service) orqali amalga oshiriladi. 2014 yilda o‘tkazilgan islohotlar natijasida probatsiya xizmati ikki qismga bo‘lingan: milliy probatsiya xizmati (National Probation Service) va xususiy kompaniyalar (Community Rehabilitation Companies). Milliy probatsiya xizmati yuqori xavf tug‘diruvchi jinoyatchilar bilan ishlaydi, xususiy kompaniyalar esa o‘rta va past xavf tug‘diruvchi jinoyatchilar bilan ishlaydi. Biroq, 2021 yilda bu tizim qayta birlashtirildi va hozirda yagona probatsiya xizmati faoliyat yuritmoqda.

Buyuk Britaniyada profilaktik hisobga olish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari qatorida integratsiyalashgan huquqbuzarlarni boshqarish (Integrated Offender Management)ni keltirish mumkin. Bu yondashuv profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan turli idoralar (politsiya, probatsiya xizmati, sog‘liqni saqlash, mahalliy hokimiyat organlari va boshqalar) hamkorlikda ishlashini nazarda tutadi. Bu yondashuv ayniqsa takroran jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar bilan ishlashda samarali natijalar bermoqda.

Mazkur organlarning hamkorlikdagi faoliyatida Offender Assessment System (xavf, ehtiyoj va javobgarlikni baholash tizimi)dan foydalaniladi. Bu tizim profilaktik hisobga olingan shaxslarning xavf darajasini, ularning ehtiyojlarini va reabilitatsiya dasturlariga moslashish qobiliyatini baholash imkonini beradi. Bu baholash natijalari asosida har bir shaxs uchun individual reabilitatsiya rejasi tuziladi. Mazkur reja asosida jamoat ishlari (Community Payback) tashkillashtiriladi. Buyuk Britaniyada profilaktik hisobda turgan shaxslar jamoat foydasi uchun bepul ishlar bajarishlari mumkin. Bu ishlar jamoat joylarini tozalash, ko‘kalamzorlashtirish, ijtimoiy ob’ektlarni ta’mirlash va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bu ularning jamiyatga foydali ishlar qilish orqali ijtimoiy maqomini tiklash imkonini beradi.

Ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish uchun Buyuk Britaniyada ham profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan elektron bilaguzuklar va boshqa elektron nazorat vositalaridan keng foydalaniladi. Profilaktika hisob doirasida amalga oshirilayotgan ishlar muntazam ravishda jamoat kengashlari (Community Justice Panels)da muhokama etilib boradi. Bu kengashlar jamoat vakillari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari va mahalliy hokimiyat organlari vakillaridan iborat bo‘lib, ular profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi.

Germaniyada profilaktik hisobga olish tizimi asosan probatsiya xizmati (Bewährungshilfe) va politsiya organlari orqali amalga oshiriladi. Germaniyada probatsiya xizmati sud tizimining bir qismi hisoblanadi va u sudlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi. Germaniyada profilaktik hisobga olish tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan birinchisi – ijtimoiy yordam xizmati xodimlarining ishtirokida namoyon bo‘ladi. Germaniyada profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlashda ijtimoiy yordam xizmati xodimlarning roli juda muhim. Ular profilaktik hisobda turgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash, ularga turli xizmatlar (uy-joy, ish, psixologik yordam va boshqalar) ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, probatsiya doirasida reintegratsiya dasturlaridan faol foydalaniladi. Germaniyada profilaktik hisobda turgan shaxslar uchun turli reintegratsiya dasturlari mavjud. Bu dasturlar shaxsning qayta ijtimoiylashuvi, jamiyatga moslashuvi va qayta jinoyat sodir etishining oldini olishga qaratilgan. Mazkur mamlakat tajribasining eng mug‘im jihati – profilaktik hisobda turgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishdan iborat. Germaniyada profilaktik hisobda turgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratiladi. Ular sud orqali profilaktik hisobga olish qarorlarini apellyatsiya qilish huquqiga ega.

Profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishtiroki ham ta’minlanadi. Germaniyada profilaktik hisobga olish tizimida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faol ishtirok etadi. Ular profilaktik hisobda turgan shaxslarni uy-joy bilan ta’minlash, ish bilan ta’minlash va boshqa masalalarda yordam ko‘rsatadi. Eng qiziq jihati shundaki, Germaniyada profilaktik hisobda turgan shaxslar uchun guruhli terapiya dasturlari keng qo‘llaniladi. Bu dasturlar shaxsning

psixologik holatini yaxshilash, uning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va qayta jinoyat sodir etishining oldini olishga qaratilgan.

Fransiyada profilaktik hisobga olish tizimi asosan penitensiar xizmat (Service Pénitentiaire d’Insertion et de Probation – SPIP) orqali amalga oshiriladi. Bu xizmat Adliya vazirligi tarkibiga kiradi va u ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar, shartli hukm qilingan shaxslar va boshqa toifadagi shaxslar bilan ishlaydi.

Fransiyada profilaktik hisobga olish tizimining eng muhim masalasi bu psixologik yordam va shaxsiy yondashuv birinchi o‘rinda, keyingina esa nazorat va kontrol amalga oshiriladi. Birinchi xususiyat bu shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdir. Fransiyada profilaktik hisobda turgan har bir shaxs uchun individual reabilitatsiya rejasi tuziladi. Bu reja shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy, oilaviy, sog‘liq va boshqa ehtiyojlarini hisobga oladi. Mazkur rejada jamoat xizmatlari (Travail d’intérêt général) ham kiritilishi mumkin. Bu profilaktik hisobga olingan shaxslar tomonidan jamoat foydasi uchun bepul ishlar bajarishlaridan iborat choradir. Bu ishlar 20 soatdan 280 soatgacha bo‘lishi mumkin.

Fransiyada profilaktik hisobga olish tizimida nodavlat va jamoat tashkilotlari faol ishtirok etadi. Ular profilaktik hisobda turgan shaxslarga turli xizmatlar (uy-joy, ish, psixologik yordam va boshqalar) ko‘rsatadi.

Fransiyada ozodlikdan cheklash (Contrainte pénale) jazo turi 2014 yilda joriy etilgan bo‘lib, u profilaktik hisobda turgan shaxsning erkinligini cheklash, ammo uni jamiyatdan ajratmaslikni nazarda tutadi. Bunda shaxs ma’lum shartlarga rioya qilishi va penitensiar xizmat nazorati ostida bo‘lishi kerak. Shu bilan birga profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan elektron bilaguzuklar va boshqa elektron nazorat vositalaridan foydalaniladi.

Yaponiyada profilaktik hisobga olish tizimi asosan shartli ozod qilish xizmati (Parole Office) va politsiya organlari orqali amalga oshiriladi. Yaponiyada shartli ozod qilish xizmati Adliya vazirligi tarkibiga kiradi va u ozodlikdan mahrum etish joylaridan shartli ozod qilingan shaxslar va shartli hukm qilingan shaxslar bilan ishlaydi.

Yaponiyada profilaktik hisobga olish tizimin qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchisi - ko‘ngillilar ishtiroki. Yaponiyada profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlashda ko‘ngillilar (Volunteer Probation Officers) faol ishtirok etadi. Ular mahalliy jamoatchilikdan saylanadi va profilaktik hisobda turgan shaxslarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashadi. Shu bilan birga Yaponiyada ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar uchun maxsus reintegratsiya markazlari Rehabilitation Centers)mavjud. Bu markazlar ularga vaqtinchalik uy-joy, oziq-ovqat, ish topishda yordam va boshqa xizmatlarni taqdim etadi. Yaponiyada profilaktik hisobga olish tizimida mahalliy jamoatchilikning roli juda muhim. Mahalliy jamoatchilik vakillari profilaktik hisobda turgan shaxslarni nazorat qilish va ularga yordam ko‘rsatishda ishtirok etadi.

Yaponiyada profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan insonparvarlik va hurmat tamoyillariga asoslangan munosabat mavjud. Bu ularning qadr-qimmatini hurmat qilish va ijtimoiy maqomini tiklash imkonini beradi. Engg muhimi bu oila ishtirokidir. Yaponiyada profilaktik hisobda turgan shaxslarning oila a’zolari ham profilaktik ishlarga jalb qilinadi. Oila a’zolari shaxsning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashadi va uning xulq-atvorini nazorat qilishda ishtirok etadi.

Koreya Respublikasida profilaktik hisobga olish tizimi asosan probatsiya xizmati (Probation Office) va politsiya organlari orqali amalga oshiriladi. Koreya Respublikasida probatsiya xizmati Adliya vazirligi tarkibiga kiradi va u ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar, shartli hukm qilingan shaxslar va boshqa toifadagi shaxslar bilan ishlaydi. Koreya Respublikasida profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan elektron bilaguzuklar va boshqa elektron nazorat vositalaridan, profilaktik hisobni yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Barcha profilaktik hisobda turgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar yagona elektron ma’lumotlar bazasiga kiritiladi va tegishli organlar tomonidan foydalaniladi. 2008 yildan boshlab jinsiy jinoyatlar uchun sudlangan shaxslarga nisbatan elektron nazorat majburiy ravishda qo‘llaniladi. Lekin Koreya Respublikasida profilaktik hisobda turgan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratiladi. Mamlakatda jinoyat sodir etgan shaxslar uchun maxsus psixologik

reabilitatsiya markazlari mavjud bo‘lib, ularda professional psixologlar va sotsial xodimlar faoliyat yuritadi.

Koreya Respublikasida profilaktik hisobda turgan shaxslar uchun turli reintegratsiya dasturlari mavjud bo‘lib, ushbu dasturlar kasbiy ta’lim, kompyuter savodxonligi, moliyaviy savodxonlik, hayotiy ko‘nikmalar va boshqa sohalarni qamrab oladi. Koreya Respublikasida profilaktik hisobda turgan shaxslar jamoat foydasi uchun bepul ishlar bajarishlari mumkin. Bu ishlar jamoat joylarini tozalash, ko‘kalamzorlashtirish, ijtimoiy ob’ektlarni ta’mirlash va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Singapurda profilaktik hisobga olish tizimi asosan probatsiya xizmati (Probation Service) va politsiya organlari orqali amalga oshiriladi. Singapurda probatsiya xizmati Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligi tarkibiga kiradi va u asosan voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlaydi. Katta yoshdagi shaxslar bilan esa Ichki ishlar vazirligi tarkibiga kiruvchi Penitensiar xizmat (Singapore Prison Service) ishlaydi.

Singapurda profilaktik hisobga olish tizimida «Sariq lenta» loyihasi (Yellow Ribbon Project) e’tiborni o‘ziga jalb qiladi. Bu loyiha 2004 yilda ishga tushirilgan bo‘lib, u ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarning jamiyatga qayta integratsiyalashuviga ko‘maklashishga qaratilgan. Loyiha doirasida bu toifadagi shaxslarga ish topishda yordam ko‘rsatish, kasbiy ta’lim berish, ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish kabi xizmatlar taqdim etiladi. Albatta profilaktik hisobga olish tizimida jamoatchilikning roli juda muhimligi Sinapurda tan olingan va jamoatchilik vakillari profilaktik hisobda turgan shaxslarni nazorat qilish va ularga yordam ko‘rsatishda ishtirok etadi. Singapurda profilaktik hisobda turgan shaxslarning oila a’zolari ham profilaktik ishlarga jalb qilinadi. Oila a’zolari shaxsning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashadi va uning xulq-atvorini nazorat qilishda ishtirok etadi.

Ilg‘or tajriba sifatida Singapurda profilaktik hisobga olish tizimida xususiy sektor ham faol ishtirok etishini ko‘rsatish mumkin. Xususiy kompaniyalar profilaktik hisobda turgan shaxslarni ishga qabul qilish, ularga kasbiy ta’lim berish va boshqa masalalarda yordam ko‘rsatadi. Singapurda profilaktik hisobga olish tizimida innovatsion yondashuvlar qo‘llaniladi. Masalan, «Through-care» modeli ozodlikdan mahrum etish joylarida boshlanadigan va ozodlikka chiqqanidan keyin ham davom etadigan uzluksiz yordam ko‘rsatish tizimini nazarda tutadi.

Rossiya Federatsiyasida profilaktik hisobga olish tizimi asosan Ichki ishlar vazirligi (politsiya) va Jazolarni ijro etish federal xizmati organlari orqali amalga oshiriladi. Politsiya organlari jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni profilaktik hisobga oladi, Jazolarni ijro etish federal xizmati esa ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni nazorat qiladi.

Rossiya Federatsiyasida profilaktik hisobga olishning bir necha turlari mavjud: umumiy profilaktik hisob, ma’muriy nazorat, shartli hukm qilingan shaxslarni nazorat qilish, voyaga yetmaganlarni profilaktik hisobga olish va boshqalar. Rossiyada ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslarga nisbatan ma’muriy nazorat o‘rnatiladi. Bu nazorat shaxsning harakatlanish erkinligini cheklash, ma’lum joylarga borishini taqiqlash, ma’lum vaqtda uydan chiqishni taqiqlash kabi choralarni o‘z ichiga oladi. Rossiyada profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan muntazam ravishda profilaktik suhbatlar o‘tkaziladi. Bu suhbatlar shaxsning xulq-atvorini nazorat qilish, unga psixologik yordam ko‘rsatish va qayta jinoyat sodir etishining oldini olishga qaratilgan. Rossiyada profilaktik hisobda turgan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu maqsadda turli dasturlar va loyihalar amalga oshiriladi va profilaktik hisobga olish tizimida idoralararo hamkorlikka alohida e’tibor qaratiladi. Bu maqsadda idoralararo komissiyalar va ishchi guruhlar tashkil etiladi.

Xorij mamlakatlarining profilaktik hisobga olish mexanizmini qo‘llash bo‘yicha tajribasini o‘rganish natijasida O‘zbekistonda qo‘llash mumkin bo‘lgan quyidagi ilg‘or tajribalar aniqlandi:

1. Probatsiya xizmatini takomillashtirish. O‘zbekistonda 2019 yilda Probatsiya xizmati tashkil etilgan bo‘lsa-da, uning faoliyatini yanada takomillashtirish zarur. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniyaning probatsiya xizmati tajribasidan foydalanish mumkin. Bu mamlakatlarda probatsiya xizmati nafaqat nazorat funksiyasini, balki ijtimoiy reabilitatsiya funksiyasini ham

samarali bajaradi.

2. Xavf darajasini baholash tizimini joriy etish. O‘zbekistonda profilaktik hisobga olingan shaxslarning xavf darajasini baholashning ilmiy asoslangan tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu borada AQShning «Risk-Needs-Responsivity» modeli va Buyuk Britaniyaning «Offender Assessment System» tizimi tajribasidan foydalanish mumkin.

3. Elektron nazorat tizimini kengaytirish. O‘zbekistonda profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan elektron nazorat vositalarini kengroq qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu borada AQSh, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi tajribasidan foydalanish mumkin.

4. Jamoatchilik ishtirokini kengaytirish. O‘zbekistonda profilaktik hisobga olish tizimida jamoatchilikning ishtirokini kengaytirish zarur. Bu borada Yaponiya, Singapur va Buyuk Britaniya tajribasidan foydalanish mumkin. Xususan, mahalla instituti imkoniyatlaridan kengroq foydalanish mumkin.

5. Reintegratsiya dasturlarini takomillashtirish. O‘zbekistonda profilaktik hisobda turgan shaxslar uchun reintegratsiya dasturlarini takomillashtirish zarur. Bu borada Germaniya, Koreya Respublikasi va Singapur tajribasidan foydalanish mumkin.

6. Ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish. O‘zbekistonda profilaktik hisobda turgan shaxslarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu borada Germaniya va Koreya Respublikasi tajribasidan foydalanish mumkin.

7. Axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish. O‘zbekistonda profilaktik hisobni yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish zarur. Bu borada Koreya Respublikasi va Singapur tajribasidan foydalanish mumkin.

8. Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish. O‘zbekistonda profilaktik hisobga olish tizimida xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish zarur. Bu borada Buyuk Britaniya va Singapur tajribasidan foydalanish mumkin.

9. Idoralararo hamkorlikni kuchaytirish. O‘zbekistonda profilaktik hisobga olish tizimida idoralararo hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu borada Buyuk Britaniyaning «Integrated Offender Management» tizimi tajribasidan foydalanish mumkin.

10. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish. O‘zbekistonda profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish zarur. Bu borada Fransiya tajribasidan foydalanish mumkin.

Xorij mamlakatlarining profilaktik hisobga olish mexanizmini qo‘llash bo‘yicha tajribasini o‘rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Xorij mamlakatlarida profilaktik hisobga olish mexanizmlari turli xil bo‘lib, ular o‘sha mamlakatlarning huquqiy tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, madaniy xususiyatlari va boshqa omillarga bog‘liq. Biroq, barcha mamlakatlarda profilaktik hisobga olishning asosiy maqsadi shaxsni jamiyatga qayta integratsiyalash, uning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash va qayta jinoyat sodir etishining oldini olishdan iborat.

2. Profilaktik hisobga olish mexanizmi samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun u nafaqat nazorat funksiyasini, balki ijtimoiy reabilitatsiya funksiyasini ham bajarishi kerak. Bu profilaktik hisobda turgan shaxslarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish, ularni ish bilan ta’minlash, uy-joy masalalarini hal qilishga ko‘maklashish zarurligini anglatadi.

3. Profilaktik hisobga olish tizimida jamoatchilikning, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat tashkilotlarining ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Bu profilaktik hisobga olingan shaxslarni nazorat qilish va ularga yordam ko‘rsatishda jamiyat barcha qatlamlarining ishtirokini ta’minlash zarurligini anglatadi.

4. Profilaktik hisobga olish tizimida zamonaviy texnologiyalarni, xususan, axborot texnologiyalarini va elektron nazorat vositalarini qo‘llash samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu profilaktik hisobni yuritishda zamonaviy texnologik imkoniyatlardan keng foydalanish zarurligini anglatadi.

5. Profilaktik hisobga olish tizimida xavf darajasini baholashning ilmiy asoslangan metodikalarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bu profilaktik hisobga olingan shaxslarning xavf darajasini aniqlash va ularga mos profilaktik choralarni belgilash imkonini beradi.

6. Profilaktik hisobga olish tizimida

idoralararo hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bu turli idoralarning profilaktik hisobga olish jarayonida hamkorlik qilishi zarurligini anglatadi.

7. Profilaktik hisobga olish tizimi samaradorligini baholash mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu profilaktik hisobga olish tizimining samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va muntazam ravishda monitoring o‘tkazish zarurligini anglatadi.

Demak, O‘zbekistonda profilaktik hisobga olish tizimini takomillashtirish uchun xorij mamlakatlarining ilg‘or tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu borada profilaktik hisobga olish mexanizmini takomillashtirish, xavf darajasini baholash tizimini joriy etish, elektron nazorat tizimini kengaytirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, reintegratsiya dasturlarini takomillashtirish, ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish, axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish zarur. Bunda xorij tajribasini qo‘llashda O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyatlarini, huquqiy tizimini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, madaniy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu xorij tajribasini mexanik ravishda ko‘chirib olish emas, balki uni milliy sharoitga moslashtirish zarurligini anglatadi.

Profilaktik hisobga olish tizimini takomillashtirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u doimiy ravishda yangi tendensiyalarni va innovatsion yondashuvlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Bu jahon miqyosida profilaktik hisobga olish sohasidagi yangi tendensiyalarni va innovatsion yondashuvlarni doimiy ravishda o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish zarurligini anglatadi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонуни. 14.05.2014 йил, ЎРҚ-371-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жиноят-ижроия қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори. 24.01.2018 йил, ПҚ-3484-сон.
3. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг «Озодликдан маҳрум этиш жойларидаги маҳкумлар билан муомала қилишнинг минимал стандарт қоидалари» (Нельсон Мандела қоидалари). БМТ Бош Ассамблеясининг 70/175-сонли резолюцияси билан қабул қилинган, 17.12.2015 йил.
4. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг «Озодликдан маҳрум этилмаган маҳкумларга нисбатан минимал стандарт қоидалари» (Токио қоидалари). БМТ Бош Ассамблеясининг 45/110-сонли резолюцияси билан қабул қилинган, 14.12.1990 йил.
5. Ўзбекистон Республикасининг "Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"ги қонуни, 2014 йил 14 май. https://www.lex.uz/acts/2387357
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори, 2017 йил 14 март, ПҚ-2833-сон. https://lex.uz/docs/3141186
7. "Выдержки из законодательства Германии, Англии и Финляндии, касающиеся защиты прав потерпевших и свидетелей (обзорная справка)". Фонд поддержки пострадавших от преступлений. http://soprotivlenie.org/zakon/vyderzhki-iz-zakonodatelstva-germanii-anglii-i-finlyandii/
8. "Правоохранительные органы Великобритании.". https://ru.wikipedia.org/wiki/Правоохранительные_органы_Великобритании
9. "Характеристика уголовного процесса в зарубежных странах." https://zaochnik-com.com/spravochnik/pravo/ugolovnyj-protsess/harakteristika-ugolovnogo-protsessa-v-zarubezhnyh/
10."Правовая система в Германии." https://www.tupa-germania.ru/zhizn/pravovaya-sistema-v-germanii.html

11.“Международный опыт в сфере защиты прав детей.” https://www.usynovite.ru/experience/sbornik/world/
12.“О деятельности полиции Германии по профилактике незаконного оборота наркотических средств.” Центр-Берег. http://center-bereg.ru/g152.html
13.“Криминология и противодействие преступности в немецкоязычных странах (Германия, Австрия, Швейцария). https://cyberleninka.ru/article/n/kriminologiya-i-protivodeystvie-prestupnosti-v-nemetskoyazychnyh-stranah-germaniya-avstriya-shveytsariya
14.“О профилактическом учете осужденных к лишению свободы.” https://meschanskayasloboda.moscow/2020/11/13/o-profilakticheskom-uchete-osuzhdennyih-k-lisheniyu-svobodyi/
15.Зиёдуллаев М.З. Пробация хизмати: хорижий тажриба ва Ўзбекистонда жорий этиш масалалари // Ҳуқуқ ва бурч. – 2019. – №6. – Б. 42-46.
16.Исмоилов И.У. Озодликдан маҳрум этиш жойларидан озод қилинган шахсларни ижтимоий мослаштириш: хорижий тажриба // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – 2021. – №4. – Б. 38-44.
17.Рустамбаев М.Ҳ. Жиноят ҳуқуқи: умумий қисм. – Тошкент: Илм зиё, 2018. – 450 б.
18.Deering J. Probation Practice and the New Penology: Practitioner Reflections. – London: Routledge, 2018. – 224 p.
19.Durnescu I. Pains of Probation: Effective Practice and Human Rights // International Journal of Offender Therapy and Comparative Criminology. – 2019. – Vol. 63. – №7. – P. 1056-1073.
20.Farrington D.P., Welsh B.C. Crime Prevention and Public Policy // The Oxford Handbook of Crime Prevention / Ed. by M. Tonry. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – P. 3-19.
21.Frieder D. Electronic Monitoring in the Criminal Justice System. – New York: Nova Science Publishers, 2020. – 152 p.
22.Kaeble D., Alper M. Probation and Parole in the United States, 2017-2018. – Washington: Bureau of Justice Statistics, 2020. – 25 p.
23.Mallender J., Roberts E. A Comparative Analysis of Community-Based Alternatives to Incarceration: A Cross-National Study. – London: RAND Europe, 2021. – 180 p.
24.Miller J.M., Khey D.N. Fighting America’s Highest Incarceration Rates with Offender Programming: Process Evaluation Implications from the Louisiana 22nd Judicial District Reentry Court // American Journal of Criminal Justice. – 2020. – Vol. 45. – №2. – P. 225-242.
25.Robinson G., McNeill F., Maruna S. Understanding Desistance from Crime. – Maidenhead: Open University Press, 2018. – 212 p.
26.Woo Y., Maguire E.R., Gau J.M. Direct and Indirect Effects of Procedural Justice on Cooperation and Compliance: Evidence from South Korea // Police Practice and Research. – 2020. – Vol. 21. – №4. – P. 365-380.
27.Блувштейн Ю.Д., Зырин М.И., Романов В.В. Профилактика преступлений. – Минск: Университетское, 2018. – 287 с.
28.Воронин М.Ю. Криминологические проблемы профилактического учета // Труды Академии управления МВД России. – 2019. – №3. – С. 67-71.
29.Герасимов А.В. Профилактический учет как форма индивидуальной профилактики правонарушений: сравнительно-правовой анализ // Вестник Московского университета МВД России. – 2019. – №5. – С. 158-161.
30.Горобцов В.И. Теоретические проблемы реализации мер постпенитенциарного воздействия: международный опыт. – Орел: ОрЮИ МВД России, 2020. – 225 с.

Умматов Мухаммадрасул Турсунович
Самостоятельный соискатель Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Статья посвящена комплексному анализу правового регулирования системы общественной безопасности в Республике Узбекистан. Исследуются теоретические основы и нормативно-правовые акты, регламентирующие деятельность органов, обеспечивающих общественную безопасность. Анализируются структура и функции системы общественной безопасности, особенности взаимодействия различных правоохранительных органов и государственных институтов. Изучаются современные вызовы и угрозы общественной безопасности, а также правовые механизмы их предотвращения. Автор анализирует эффективность действующего законодательства и предлагает направления его совершенствования в контексте демократических реформ и модернизации правовой системы страны.

Ключевые слова: общественная безопасность, правовое регулирование, Республика Узбекистан, правоохранительные органы, нормативно-правовые акты, государственные институты, местное самоуправление, демократические реформы, модернизация законодательства, угрозы безопасности

The article is devoted to a comprehensive analysis of the legal regulation of the public safety system in the Republic of Uzbekistan. The theoretical foundations and regulatory legal acts governing the activities of bodies ensuring public safety are examined. The structure and functions of the public safety system, features of interaction between various law enforcement agencies and state institutions are analyzed. Modern challenges and threats to public safety, as well as legal mechanisms for their prevention, are studied. The author analyzes the effectiveness of current legislation and proposes directions for its improvement in the context of democratic reforms and modernization of the country's legal system.

Keywords: public safety, legal regulation, Republic of Uzbekistan, law enforcement agencies, regulatory legal acts, state institutions, local self-government, democratic reforms, legislation modernization, security threats

Maqola O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi tizimini huquqiy tartibga solishni kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi nazariy asoslar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganiladi. Jamoat xavfsizligi tizimining tuzilishi va funksiyalari, turli huquqni muhofaza qilish organlari va davlat institutlarining o'zaro hamkorligi xususiyatlari tahlil qilinadi. Jamoat xavfsizligiga zamonaviy qiyinchiliklar va tahdidlar, shuningdek, ularning oldini olishning huquqiy mexanizmlari o'rganiladi. Muallif amaldagi qonunchilik samaradorligini tahlil qiladi va uni demokratik islohotlar va mamlakat huquqiy tizimini modernizatsiya qilish kontekstida takomillashtirishning yo'nalishlarini taklif etadi.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, huquqiy tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi, huquqni muhofaza qilish organlari, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat institutlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, demokratik islohotlar, qonunchilikni modernizatsiya qilish, xavfsizlik tahdidlari



Система обеспечения общественной безопасности в Республике Узбекистан представляет собой комплексную структуру государственных органов, правовых норм и организационных мероприятий, направленных на защиту общества от различных угроз и поддержание правопорядка. Правовое регулирование данной сферы базируется на конституционных принципах и реализуется через систему специализированных законов и подзаконных актов.

Фундаментальным документом, определяющим современную систему обеспечения общественной безопасности, является Концепция общественной безопасности Республики Узбекистан, утвержденная Указом Президента от 29 ноября 2021 года №УП-27[1]. Данная концепция определяет общественную безопасность как состояние защищенности общества от противозаконных посягательств, социальных и межнациональных конфликтов, чрезвычайных ситуаций и иных угроз, которое способствует устойчивому развитию общества и обеспечивает реализацию прав, свобод и законных интересов человека.

Обеспечение общественной безопасности рассматривается как единая система, содержащая политические, социально-экономические, правовые и комплекс других организационных мероприятий, устанавливаемых государством для защиты общества от угроз и совершенствуемых на постоянной основе. Концепция устанавливает основные принципы деятельности по обеспечению общественной безопасности: законность, защита и уважение прав, свобод и законных интересов граждан, открытость и прозрачность, приоритетность мер по предупреждению и пресечению угроз общественной безопасности, единство и последовательность действий всех уполномоченных структур.

Стратегия развития системы обеспечения общественной безопасности на 2022-2025 годы определяет конкретные направления совершенствования правовых основ обеспечения общественной безопасности, включая развитие методических основ и повышение эффективности деятельности уполномоченных государственных органов.

Правовое регулирование четко определяет круг субъектов, обеспечивающих общественную безопасность. К основным субъектам относятся Кабинет Министров, Министерство внутренних дел, Национальная гвардия, Министерство по чрезвычайным ситуациям, Служба государственной безопасности, Генеральная прокуратура, Министерство по поддержке махалли и семьи, Министерство по развитию информационных технологий и коммуникаций, Министерство здравоохранения, а также местные органы государственной власти.

Другие государственные органы и организации, органы самоуправления граждан, негосударственные некоммерческие организации и граждане являются субъектами, участвующими в обеспечении общественной безопасности. Такая широкая система субъектов обеспечивает комплексный подход к решению задач обеспечения общественной безопасности и создает правовую основу для межведомственного взаимодействия.

Ключевую роль в системе обеспечения общественной безопасности играют органы внутренних дел, деятельность которых регулируется Законом Республики Узбекистан «Об органах внутренних дел» от 16 сентября 2016 года №ЗРУ-407.

Министерство внутренних дел является центральным органом исполнительной власти, осуществляющим функции по реализации государственной политики и нормативно-правовому регулированию в сфере внутренних дел, охраны общественного порядка и общественной безопасности, раскрытию преступлений и их профилактике, в сфере контроля за оборотом наркотических средств, психотропных веществ и их прекурсоров, а также в сфере миграции.

Основными задачами органов внутренних дел являются обеспечение общественной безопасности и охрана общественного порядка, организация работы по борьбе с преступностью, защита прав, свобод и законных интересов граждан. Органы внутренних дел наделены широкими полномочиями, включающими право вызывать граждан и должностных лиц для дачи объяснений, привлекать граждан к сотрудничеству, получать необходимую информацию от организаций и граждан безвозмездно, вносить обязательные для выполнения представления

об устранении нарушений.

Законодательство четко определяет структуру, штаты, материально-техническое и социально-бытовое обеспечение работников органов внутренних дел. Центральный аппарат Министерства и органы внутренних дел комплектуются лицами начальствующего состава и служащими, способными по своим личным, моральным и профессиональным качествам выполнять возложенные задачи.

Важное место в системе правового регулирования общественной безопасности занимает Закон Республики Узбекистан «О Национальной гвардии Республики Узбекистан» от 18 ноября 2020 года №ЗРУ-647. Национальная гвардия определяется как специальный род войск Вооруженных Сил Республики Узбекистан, наделенный отдельными правоохранительными функциями в сфере обеспечения общественной безопасности и профилактики правонарушений.

Основными задачами Национальной гвардии являются защита прав, свобод и охраняемых законом интересов физических и юридических лиц, участие в борьбе с терроризмом, а также в устранении последствий террористических актов и чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера, осуществление доследственной проверки, проведение дознания, возбуждение уголовных дел и ведение производства по делам об административных правонарушениях.

Maktab o‘quvchilari orasida jinoyatchilik muammosi, umumiy ta’lim va tarbiya tizimidagi inqirozli holat bilan yanada yomonlashmoqda. Ta’lim, madaniy-ma’rifiy muassasalar, ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlar muassasalari uchun moliyalashtirish sezilarli darajada kamaydi. Ta’limdan tashqari qolgan maktab yoshidagi shaxslar muammosi kuchaymoqda. Ta’lim tizimida tarbiyaning ahamiyati oshganiga qaramay, ko‘p hollarda ta’lim muassasalari «tarbiyasi og‘ir» o‘quvchilardan qutulishga harakat qilmoqda. «Bizning mamlakatimizda oxirgi yillarda ta’lim dasturlarini amalga oshirishda bunday yengilfikrlik va mas’uliyatsizlik hech qachon bo‘lmagan, chunki o‘n minglab bolalar va o‘smirlar maktabdan tashqari qolib ketib, ko‘pincha alkogoliklar va jinoiy elementlar

qo‘liga tushib qolmoqda»[8]. Natijada ularda shafqatsizlikka barqaror qarashlar shakllanadi, yatimlik hissi paydo bo‘ladi, ko‘plarida o‘zining ijobiy imkoniyatlariga ishonchni susaytiruvchi intellektual salohiyat pastligi kuzatiladi, bu esa ko‘pincha yoki hatto muqarrar ravishda turli asotsial xulq-atvor shakllarida ifodalanadi.

D.Z.Ziyadova umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasidagi jinoyatchilik xususiyatlarini quyidagi parametrlar bo‘yicha ko‘rib chiqadi:

1. Umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasidagi jinoyatchilik jinoyatchilikning umumiy tizimi tarkibiy qismi, uning bir qismi, bir turi sifatida barcha unga xos bo‘lgan tipik va xarakterli xususiyatlar bilan namoyon bo‘ladi. Umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasidagi jinoyatchilik jinoyatchilikning umumiy turi bo‘lgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkilotchilik omillarga nisbatan eng sezgir bo‘lib, ularga nisbatan yuqori ta’sirchanlikka ega.

2. Umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasidagi jinoyatchilik mustaqil, o‘ziga xos hodisa sifatida namoyon bo‘lib, uni nisbatan mustaqil tizim sifatida o‘rganishni talab qiladi. Bu yondashuv kriminologiyada yangi yo‘nalish - yuvenal kriminologiyani belgilashga imkon beradi.

3. Umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasidagi jinoyatchilikni kompleks kriminologik muammo sifatida o‘rganishda uning tuzilmasining alohida elementlarini - qiz bolalar o‘rtasidagi jinoyatchilik, guruhiy, residiv jinoyatchilik kabi turlarini o‘rganish lozim. Bu o‘quvchilar tomonidan sodir etilgan ayrim turdagi jinoyatlar va guruhlarning o‘ziga xosligini aniqlashga va, shu sababli, ularning o‘ziga xos sabab va shartlarini hisobga olgan holda profilaktik ishlarni yanada maqsadli tashkil qilishga imkon beradi.

4. Umumta’lim muassasalaridagi jinoyatchilik jamiyatda sodir bo‘layotgan salbiy jarayonlar natijasidir. U jamiyatdagi umumiy ahvolning pastligi ko‘rsatkichi hisoblanadi.

5. Jinoyatchilikka xos salbiy omillar va hodisalar ta’siri ostida bo‘lib, umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasidagi jinoyatchilik o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu o‘ziga xosliklar jamiyat, oila, maktabgacha ta’lim muassasasi, maktab yoki boshqa ta’lim muassasalari, maxsus tarbiya muassasalari kabi ijtimoiy ierarxiyaning turli bosqichlaridagi sabab-oqibat kompleksining namoyon bo‘lishini va huquqbuzar shaxsning shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi.

6. Maktab muhitida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini etnopolitik va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda shakllantirish muhimdir.

7. Umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish vazifalarini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonidagi muvaffaqiyat profilaktik choralar qanchalik differensirlangan va profilaktika sub’ektlari ularga ta’sir etishi kerak bo‘lgan shaxslarning xususiyatlarini qay darajada hisobga olganiga bevosita bog‘liq [2].

D.Z.Ziyadovaning o‘quvchilar o‘rtasidagi jinoyatchilikni mustaqil hodisa sifatida o‘rganish zaruratiga oid fikri yuvenal kriminologiyani rivojlantirish uchun muhimdir. Biroq, fikrimizcha, jinoyatchilikning umumiy tizimi bilan bog‘liqlikni inkor etish yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikni to‘liq tushunishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Jinoyatchilikni to‘g‘ri tahlil qilish uchun uni mustaqil o‘rganish bilan birga, uning ijtimoiy tizimdagi o‘rni va boshqa omillar bilan bog‘liqligini ham hisobga olish zarur. Bu, o‘z navbatida, samarali profilaktika choralarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Umuman olganda, maktab o‘quvchilarining huquqbuzarliklar holati, tuzilishi va dinamikasini o‘rganishda quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

Birinchidan, umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoiy ko‘rsatkichlar va tendensiyalarni aniqlash va tahlil qilish;

Ikkinchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga hamroh bo‘lgan kriminogen ijtimoiy jarayonlarning umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilikning miqyosi, tuzilishi va dinamikasiga ta’sirini ko‘rib chiqish;

Uchinchidan, maktab yoshidagi shaxslarning hayot va tarbiya sharoitlarini o‘rganish, ularning asotsial shaxsga aylanishiga sabab bo‘lgan omillarni tahlil qilish;

To‘rtinchidan, umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning profilaktikasi uchun ijtimoiy-pedagogik sharoitlar va psixologik muhitni yaxshilashning eng samarali usullarini kriminologik jihatdan aniqlash;

Beshinchidan, ta’lim muassasalarining tarbiyaviy-profilaktik ishlarning holatini o‘rganish va o‘quvchilarning jinoyat oldi va jinoiy xulq-atvori profilaktikasini takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish;

Oltinchidan, o‘quvchilarning jinoiy xulq-atvorini oldini olish choralar tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. https://referat.uz/drugie/tekst-lekciy/13874-13874.html
2. Зиядова Д.З. Теоретические и прикладные проблемы преступности среди учащихся общеобразовательных учреждений: региональный аспект. // Дис.док.юрид.наук. – Москва – 2006. С.464
3. Назаров Б. (2023). “Жиноятчиликка қарши курашда ижтимоийлашув институтининг роли”. Тошкент: Фан.
4. Бельский А.И., Лыков Э.Н. Молодежная преступность: проблемы и пути решения // Право: история и современность. 2020. № 3(12). С.84–91.
5. Криминология: Учебник / Под ред. Н.Ф. Кузнецовой, В.В. Лунеева. - М., 2004. - С.260.
6. Булатов И.Г. Криминологический анализ преступности несовершеннолетних: По материалам Республики Дагестан // Дис.канд.юрид.наук. – Махачкала - 2001. С.189 // https://www.dissercat.com/content/kriminologicheskii-analiz-prestupnosti-nesovershennoletnikh-po-materialam-respubliki-dagesta
7. Минимальные стандартные правила Организации Объединенных Наций, касающиеся отправления правосудия в отношении несовершеннолетних (Пекинские правила) — Конвенции и соглашения — Декларации, конвенции, соглашения и другие правовые материалы (un.org)
8. Алексеев А.И., Герасимов С.И., Сухарев А.Я. Криминологическая профилактика: теория, опыт, проблемы. Монография. - М., 2001. - С. 10.

Xudoyqulov Yo‘lchi Azamqulovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASINI HARBIY SOHADA QO‘LLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Maqolada zamonaviy harbiy sohada sun’iy intellekt texnologiyasini qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlari tahlil etilgan. Chunki sun’iy intellekt harbiy texnologik tafakkurning an’anaviy paradigmasini ortda qoldirib, algoritmik va o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi tizimlarga asoslangan yangi epistemik manzarani yuzaga keltirayotgani, bu o‘z navbatida zamonaviy harbiy sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va rivojlantirishni dolzarb masalalardan biriga aylantirmoqda. Harbiy soha va fandagi paradigmalar o‘zgarishi ushbu muammoni falsafiy-epistemologik jihatdan tadqiq etishni taqoza etadi.

Kalit so‘zlari: harbiy soha, sun’iy intellekt texnologiyalari, paradigma, zamonaviy harbiy strategiyalar, kiberxavfsizlik, kiberhimoya tizimlari, axborot urushlari, algoritm, kognitiv imkoniyatlar.

В статье анализируются приоритетные направления применения технологий искусственного интеллекта в современной военной сфере. Поскольку искусственный интеллект выходит за рамки традиционной парадигмы военно-технологического мышления и формирует новый эпистемологический ландшафт, основанный на алгоритмических и самосовершенствующихся системах, это, в свою очередь, делает разработку и совершенствование современных технологий военного искусственного интеллекта одной из актуальных задач. Смена парадигм в военной сфере и науке требует изучения данной проблемы с философско-эпистемологической точки зрения.

Ключевые слова: военная сфера, технологии искусственного интеллекта, парадигма, современные военные стратегии, кибербезопасность, системы киберзащиты, информационная война, алгоритм, когнитивные возможности.

The article analyzes the priority areas of application of artificial intelligence technologies in the modern military sphere. Since artificial intelligence goes beyond the traditional paradigm of military-technological thinking and forms a new epistemological landscape based on algorithmic and self-improving systems, this, in turn, makes the development and improvement of modern military artificial intelligence technologies one of the urgent tasks. The change of paradigms in the military sphere and science requires studying this problem from a philosophical and epistemological point of view.

Keywords: military sphere, artificial intelligence technologies, paradigm, modern military strategies, cybersecurity, cyber defense systems, information warfare, algorithm, cognitive capabilities.




Kirish. Zamonaviy harbiy sohada sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi nafaqat taktik va operativ ustunlik omili sifatida, balki strategik tafakkur va qaror qabul qilish paradigmasining tubdan yangilanishini anglatadi. Sun’iy intellekt bugungi kunda jang maydonini boshqarishdan tortib, axborot urushlari, kiberxavfsizlik, razvedka, logistikani optimallashtirish, avtonom platformalar boshqaruvi va psixologik operatsiyalarigacha bo‘lgan ko‘lamda faol tatbiq etilmoqda. Bu esa harbiy texnologik tafakkurning an’anaviy paradigmasini ortda qoldirib, sun’iy intellekt asosidagi algoritmik va o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi tizimlarga asoslangan yangi epistemik manzara yuzaga keltiradi. Zamonaviy harbiy strategiya va texnologik taraqqiyotning kesishgan nuqtasida sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat harbiy doktrinaning transformatsiyasiga, balki butun harbiy bilish epistemologiyasining qayta shakllanishiga olib kelmoqda. Harbiy sohadagi sun’iy intellektning ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qilarkanmiz, ularni faqat texnologik afzallik emas, balki yangi geostrategik, axloqiy va sivilizatsion muammolarni keltirib chiqaruvchi konseptual o‘zgarish sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili. Sun’iy intellekt texnologiyasini qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlari tadqiqot mavzusida izlanishlar olib borgan olimlarning ilmiy ishlari o‘rganilganda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy mulohazalarni tahlil etish mumkin. Amerikalik strategik tahlilchi Pol: “Sun’iy intellekt texnologiyasi jang maydonida tezlik, aniqlik va o‘zaro koordinatsiya darajasini inqilobiy darajada oshiradi. Ayniqsa, avtonom halokatli tizimlar deb ataluvchi tizimlar qaror qabul qilishda inson faktorini siqib chiqarib, axloqiy va huquqiy noaniqliklar muhitini yaratadi”[1;173]. Nemis strategik tahlilchisi va faylasufi G.Kyun: “Harbiy sun’iy intellekt texnologiyasi texnik inqilob emas, balki strategik ongning algoritmlashtirilishi demakdir. Bu esa urushning ontologik xarakterini o‘zgartiradi — inson qarori o‘rniga statistik bashorat, sezgi o‘rniga kod, tajriba o‘rniga ma’lumotlar bazasi keladi” [2;119]. Britaniyalik harbiy tahlilchi A.Ross: “Sun’iy intellekt harbiy razvedkaning kognitiv imkoniyatlarini keskin oshiradi. U katta ma’lumotlar to‘plamini real vaqt rejimida tahlil qilib, inson uchun sezilmas bo‘lgan naqsh va xavflarni aniqlaydi. Ammo bu texnologik ustunlik siyosiy manipulyatsiya, noto‘g‘ri xulosalar yoki algoritmik xatolarga olib kelishi mumkin” [3;91].

Xitoylik harbiy-tahlilchi olim Chjan Chjouchjun: “Sun’iy intellektga asoslangan harbiy tizimlar nafaqat jangovar harakatlarni optimallashtiradi, balki urushning kognitiv fazasini yangi bosqichga olib chiqadi. Endilikda jang maydoni aql-idrok, ongli tanlov va psixologik ustunlik asosida emas, balki algoritmik bashorat, neyron tarmoqlar va o‘z-o‘zini o‘rganuvchi tizimlar orqali belgilanadi” [4;113]. AQSHlik tadqiqotchi Djon Allen: “Yaqin kelajakda urushlar insonlar tomonidan emas, balki ularning nomidan harakat qiluvchi sun’iy tizimlar o‘rtasida bo‘ladi. Bu tizimlar o‘zaro muvofiqlashgan, real vaqt rejimida ishlovchi va avtonom qaror qabul qiluvchi algoritmlar asosida harakat qiladi. Insonlar bu jarayonda faqat axborot filtri yoki tasdiqlovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi” [5;84]. Yevropa harbiy tahlillar markazi olimi Bart Gellman: “Sun’iy intellekt texnologiyalari bilan jihozlangan kiber platformalar faqat mudofaa vositasi emas, balki tajovuzkor strategik vositaga aylanishi mumkin. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosida yuritilayotgan dezinformatsiya va psixologik operatsiyalar axborot maydonini sun’iy realiliklar bilan to‘ldiradi va bu orqali dushmanni anglash imkonini ham buzadi” [6;72]. Kanadalik harbiy tadqiqotchi J.H.Maykls: “Sun’iy intellekt texnologiyalari harbiy qaror qabul qilishda sezilarli tezlik va ishonchlilikni ta’minlasa-da, bu jarayon ayni paytda insoniy noaniqlikni, intuitiv holatlarni va tajriba asosidagi sezgilarni chetlab o‘tish xavfini tug‘diradi. Shuning uchun sun’iy intellekt faqat vosita bo‘lib qolmasdan, strategik subyektga aylanish xavfi bilan yuzma-yuz turibdi” [7;137]. Yapon olimi Kiyosi Takeda: “Garchi sun’iy intellekt harbiy sohada axborot tahlili, razvedka va dron texnologiyalari sohasida misli ko‘rilmagan ustunlikni bergan bo‘lsa-da, u inson omilining ijtimoiy-axloqiy barqarorlashtiruvchi rolini so‘ndirishga xizmat qilmoqda. Sun’iy intellekt algoritmlari texnik jihatdan mukammal bo‘lishi mumkin, ammo ular insoniyat tarixidagi har bir qarorning ortida yotgan irodaviy va axloqiy zaminni rekonstruksiya qila olmaydi” [8;88]. AQSHlik siyosiy-harbiy olim B.L.Rittberg: “Halokatli jangovar tizimlar — LAWS (Lethal Autonomous Weapon Systems) — insoniy

aralashuvsiz qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan algoritmik strukturalardir. Ularning qaror qabul qilish mexanizmlarida axloqiy tafakkur o‘rnini statistik afzallik egallaydi. Bu esa insoniyat tarixida urushni asoslaydigan axloqiy-paradigmatik mohiyatni butunlay inqirozga olib keladi” [9;102]. Germaniyalik olim Helmut Kriger: “Bugungi sun’iy intellekt tizimlari inson aqli idrok yetmaydigan tezlikda axborot oqimlarini filtrlash, anglatmalarni semantik darajada tahrir qilish va dushmanning ongini sun’iy realitetga yo‘naltirish qudratiga ega. Bunday imkoniyatlar klassik harbiy operatsiyalarni ortda qoldirib, ong urushi bosqichiga o‘tishni bildiradi” [10;147]. Janubiy Koreyalik olim Li Chon-Yun: “Sun’iy intellekt texnologiyalari harbiy sohaga kirib kelishi natijasida jang maydonining fizik chegaralari o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Endilikda algoritmik muloqot, axborot ustuvorligi va neyroanalitik tarmoq ustidan nazorat kurashi urushning yangi formatini belgilab bermoqda” [11;97]. Xitoylik harbiy tahlilchi Vey Szyankan: “Sun’iy intellekt vositalarining harbiy sohaga joriy etilishi operativ darajadagi tezkorlik va aniqlikni oshiradi, biroq bu tezlik qarorlarning madaniy, axloqiy va siyosiy oqibatlarini e’tibordan chetda qoldirishi mumkin. Harbiy intellektual ustunlik endilikda algoritmik reaksiya tezligi bilan emas, balki kognitiv manevr qilish qobiliyati bilan aniqlanishi kerak” [12;183].



1-diagramma

Tadqiqot metodologiyasi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining harbiy sohaga integratsiyasi XXI asrda global strategik muvozanatning shakllanishida hal qiluvchi o‘rin egallamoqda. Harbiy bilishning transformatsiyasi endilikda an’anaviy qurollanish poygasidan ko‘ra, algoritmik ustunlik, neyrotexnologik bashorat va avtonom strategik fikrlash imkoniyatlari bilan belgilanmoqda. Bu kontekstdagi ustuvor yo‘nalishlar nafaqat texnologik innovatsiyalarni o‘z ichiga oladi, balki strategik ong, axborot manipulyatsiyasi, axloqiy mezonlar va inson omili ustidan sun’iy intellektning epistemik bosimini anglatadi.

Shunday epistemik o‘zgarishlar fonida sun’iy intellekt texnologiyalarining harbiy sohada qo‘llanishidagi ustuvor yo‘nalishlarni tahlil qilish nafaqat texnik, balki gnoseologik va aksiologik jihatdan ham muhimdir.

Birinchi ustuvor yo‘nalish – avtonom jangovar tizimlarning shakllanishi. Bu tizimlar inson aralashuvini minimal darajaga

tushirib, jangovar qarorlarni algoritmik asosda qabul qilish imkonini beradi.

Ikkinchi yo‘nalish – kiberintellektual xavfsizlik infratuzilmasini shakllantirish.

Uchinchi yo‘nalish – strategik prognozlash va sun’iy simulyatsiya.

To‘rtinchi yo‘nalish – kognitiv urush strategiyalarida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishdir

Natijalar va ularning tahlili.

Tadqiqotning muhim natijasi sifatida sun’iy intellekt texnologiyalarini harbiy sohada qo‘llashning yetti asosiy ustuvor yo‘nalishi tahlil qilingan.

Yuqoridagi murakkab rangli diagrammada sun’iy intellekt texnologiyalarini harbiy sohada qo‘llashning yetti asosiy ustuvor yo‘nalishi tahlil qilingan. Har bir yo‘nalish harbiy strategik ustuvorlik darajasi (foiz ko‘rinishida) bilan ifodalangan.

Ushbu tahliliy grafik harbiy-tadqiqot kontekstida sun’iy intellektdan foydalanish yo‘nalishlarini ontologik va amaliy ustuvorlik asosida baholaydi. Diagramma gorizontal ustunlar orqali ustuvorlik darajasini aniqlashtiradi:

Razvedka va kuzatuv (90%): Bu yo‘nalish sun’iy intellekt texnologiyalarining eng muhim sohasidir. Dushman harakatlarini oldindan aniqlash, sun’iy yo‘ldoshlar, dronlar va aqlli sensorlar orqali real vaqtli ma’lumotlarni tahlil qilish strategik ustunlikni ta’minlaydi.

Autonom tizimlar (85%): Harbiy robototexnika (masalan, dronlar va yerusti robotlar) jang maydonida inson ishtirokini kamaytiradi va tezkorlikni oshiradi. Bu yondashuv taktikaviy qarorlar qabul qilishda sun’iy intellektning muhim amaliyotga aylanganini ko‘rsatadi.

Kiberxavfsizlik (80%): Sun’iy intellekt asosida avtomatik tahdidlarni aniqlash va javob berish algoritmlari davlat mudofaasini zamonaviy kiberxavflardan himoya qiladi.

Operativ qaror qabul qilish tizimlari (75%): sun’iy intellekt vositasida katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish strategik rejalashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Logistika va resurslar boshqaruvi (70%): Intellektual tahlil asosida texnika, oziq-ovqat va boshqa harbiy ta’minotlarning samarali boshqaruvi xavfsiz va doimiy ta’minotni kafolatlaydi.

Simulyatsiya va o‘quv mashg‘ulotlari (65%): sun’iy intellekt asosidagi virtual realistik trening tizimlari harbiy xizmatchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Informatsion operatsiyalar va psixologik ta’sir (60%): Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari orqali sun’iy intellekt texnologiyalari dushman axborot makoniga kirib borib, raqib ruhiyatiga ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Bu yo‘nalishlar harbiy fan va texnologik falsafa sintezida harbiy strategiyani zamonaviy axborot-sivilizatsiya sharoitida qayta qurishga xizmat qiladi. sun’iy intellekt texnologiyalarining harbiy sohaga integratsiyasi nafaqat texnik ustunlik, balki gnoseologik jihatdan qaror qabul qilish jarayonlarini tubdan o‘zgartirayotganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, sun’iy intellekt texnologiyalarining harbiy sohaga joriy etilishi quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda kuzatilmoqda:

birinchidan, real vaqtli axborot tahlili va razvedka tizimlarining avtomatlashtirilishi;

ikkinchidan, avtonom jangovar platformalar orqali inson ishtirokisiz qarorlar qabul qilish imkoniyatlari;

uchinchidan, kiberxavfsizlik va dezinformatsiyaga qarshi kognitiv operatsiyalar; to‘rtinchidan, strategik ssenariylar asosida urush modelini bashorat qilishga qaratilgan simulyatsion tizimlar.

Biroq bu ustuvorliklar ortida inson ongining murakkabligi, axloqiy mas’uliyat, siyosiy kontekstlar va ijtimoiy oqibatlar yotishini unutmaslik kerak. Sun’iy intellekt texnologiyalari harbiy sohada yordamchi funksiyani bajarmog‘i, lekin strategik subyekt sifatida qabul qilinmasligi kerak. Aks holda, urush raqamli algoritmlar o‘yiniga aylanib, insoniyat mohiyatini rad etgan texnokratik xavfga aylanishi mumkin.

Xulosa. Sun’iy intellektga haddan tashqari tayanish strategik masalalarni texnik yechimlarga muvofiqlashtirish orqali harbiy gumanizm asoslarini zaiflashtiradi. Harbiy harakatlar faqat texnologik ustunlik emas, balki axloqiy-psixologik muvozanatga asoslanishi kerak. Sun’iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda inson qarorlarini inkor qilmasligi, balki to‘ldirishi zarurligini harbiy-falsafiy tafakkur doimo nazarda tutishi kerak.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining harbiy sohaga chuqur integratsiyalashuvi global strategik muvozanat, jangovar tamoyillar

va harbiy-falsafiy tafakkur asoslarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Endilikda urushlar faqat fizik maydonlarda emas, balki algoritmik fazoda, axborot oqimlari, real vaqtli ma’lumotlar tahlili va prediktiv modellar orqali olib borilmoqda. Ushbu tanqidiy mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining harbiy sohadagi ustuvor yo‘nalishlari yuqori darajadagi samaradorlikni va operativlikni ta’minlasa-da, u insoniyatni texnologiyalarning manipulyativ tahdidiga duchor etish xavfini ham oshirmoqda.

◄ Iqtiboslar/Чокки/References

1. Scharre P. Army of None: Autonomous Weapons and the Future of War. – New York: Norton, 2018.
2. Kühn G. Maschinenherrschaft: Künstliche Intelligenz und das Ende der Strategie. – Berlin: Suhrkamp, 2020.
3. Ross A. The AI Commander: Intelligence and War in the Machine Age. – London: IISS Press, 2022.
4. Théron L. La guerre et l’algorithme. – Paris: L’Harmattan, 2021.
5. Zhang Z. Military Intelligence and the Future of War. – Beijing: PLA Press, 2020.
6. Allen J. Future War and the Rise of the Robots. – Washington: Brookings Institution, 2021.
7. Boullier D. Sociologie du numérique militaire. – Paris: CNRS Éditions, 2019.
8. Gellman B. Algorithms of War: AI and Strategic Deception. – Brussels: ECES, 2022.
9. Michaels J.H. AI and the Strategic Mind: Military Reasoning in the Age of Machines. – Toronto: Pearson Military Press, 2021.
10. Takeda K. Ethics of War in the Age of AI. – Tokyo: Keio University Press, 2020.
11. Rittberg B.L. The Algorithmic Battlefield: Warfare beyond the Human. – New York: Columbia University Press, 2022.
12. Krieger H. Psychosemantic War and AI. – Berlin: Springer-Verlag, 2021.

Ibragimov Nodir Maxmudovich,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining magistratura tinglovchisi

XIZMAT BO‘YICHA CHEKLASH VA INTIZOMIY QISMGA JO‘NATISH TARZIDAGI JINOIY JAZOLARNING BOSHQA JINOIY-HUQUQIY TA’SIR CHORALARI BILAN NISBATI

Maqolada xizmat bo‘yicha cheklash va intizomiy qismga yuborish tarzidagi maxsus jinoiy jazolarning huquqiy mohiyati, ularning umumiy jazo tizimidagi o‘rni va harbiy xizmatga xos xususiyatlar bilan uyg‘unlashuvi ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda mazkur jazolarning qo‘llash chegaralari, harbiy intizom va davlat mudofaa salohiyatini ta’minlashdagi funksional ahamiyati tahlil qilinib, ularning jinoyat-huquqiy siyosatning gumanistik yo‘nalishiga mos keluvchi profilaktik samara berishi asoslab berilgan. Shuningdek, xizmat bo‘yicha cheklash va intizomiy qismga yuborish jazolarining ozodlikdan mahrum qilishga nisbatan alternativ mexanizm sifatidagi ustun jihatlari, jazo ijrosining maxsus harbiy tashkiliy muhitga ega ekanligi va shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda qayta ijtimoiylashtirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy jazo; xizmat bo‘yicha cheklash; intizomiy qismga yuborish; maxsus sub’ekt; jinoiy javobgarlik; harbiy intizom; jinoyat-ijroiya tizimi; qayta ijtimoiylashtirish; profilaktik samaradorlik; jinoiy siyosatning gumanizatsiyasi.

В статье научно раскрывается правовая природа специальных уголовных наказаний в виде хизмат бўйича чеклаш (ограничение по службе) и направления в дисциплинарную часть, их место в общей системе наказаний и взаимосвязь с особенностями военной службы. В исследовании анализируются пределы применения данных наказаний, их функциональное значение в обеспечении воинской дисциплины и оборонного потенциала государства, а также обосновывается их профилактическая эффективность, соответствующая гуманистической направленности уголовно-правовой политики. Кроме того, показаны преимущества ограничений по службе и направления в дисциплинарную часть как альтернативного механизма по отношению к лишению свободы, наличие специальной военной организационной среды исполнения наказания и возможность ресоциализации осуждённого без его изоляции от общества.

Ключевые слова: военное наказание; ограничение по службе; направление в дисциплинарную часть; специальный субъект; уголовная ответственность; воинская дисциплина; уголовно-исполнительная система; ресоциализация; профилактическая эффективность; гуманизация уголовной политики.

The article provides a scholarly analysis of the legal nature of special criminal punishments such as service restriction (xizmat bo‘yicha cheklash) and assignment to a disciplinary unit, their place within the general system of penalties, and their correlation with the specific features of military service. The study examines the scope of application of these punishments, their functional significance in ensuring military discipline and the state’s defense capability, and substantiates their preventive effectiveness consistent with the humanistic orientation of criminal policy. The article also highlights the advantages of service restriction and assignment to a disciplinary unit as alternative mechanisms to imprisonment, the presence of a specialized military environment for the execution of such punishments, and the possibility of resocializing the offender without isolating him from society. The author concludes with a theoretical and practical argument stressing the need to improve the normative clarity and enforcement mechanisms of these punishments intended for military personnel.

Keywords: military punishment; service restriction; assignment to a disciplinary unit; special subject; criminal liability; military discipline; penal enforcement system; resocialization; preventive effectiveness; humanization of criminal policy.



Xizmat bo‘yicha cheklash va intizomiy qismga yuborish tarzidagi jazolarning huquqiy mohiyati ularning harbiy xizmat munosabatlaridagi maxsus sub’ekt — harbiy xizmatchiga nisbatan jinoiy-huquqiy ta’sir chorasi sifatida qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Mazkur jazo turlari umumiy jazolar tizimida alohida institutni tashkil qilib, jinoiy javobgarlikning umumiy qoidalari bilan harbiy xizmatga oid huquqiy talablarning o‘ziga xos uyg‘unligini ta’minlaydi. Shu bois, ularning huquqiy tabiatini ilmiy asosda ochib berish, avvalo, ushbu jazolarning umumiy jinoiy jazolar tizimidagi o‘rni, qo‘llash chegaralari va huquqiy intizomni ta’minlashdagi funksional ahamiyatini aniqlashni taqozo etadi.

Nazariy yondashuv nuqtai nazaridan, mazkur jazolarning boshqa jinoiy-huquqiy ta’sir choralari bilan nisbati jazoni individualizatsiyalash, adolat prinsipini ta’minlash va davlat mudofaa salohiyatini himoya qilish maqsadlarining bir vaqtning o‘zida amal qildirilishiga qaratilgan. Ya’ni, harbiy xizmatni o‘tash doirasida qo‘llaniladigan ushbu jazolar bir tomondan ozodlikdan mahrum qilishga nisbatan kamroq repressiv ta’sirga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan oddiy intizomiy choralarga nisbatan yuqori darajadagi qonun bilan belgilangan jazolovchi elementlarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, xizmat bo‘yicha cheklash va intizomiy qismga yuborish jinoiy jazolar tizimidagi ierarxiyani muvozanatlashtiruvchi muhim bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali sudlar nafaqat sodir etilgan huquqbuzarlikning jamoat xavflilik darajasini, balki harbiy xizmatchilarning maxsus maqomini va milliy xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rnini ham hisobga olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ta’kidlash mumkinki, ushbu jazolarning boshqa jinoiy-huquqiy ta’sir choralari bilan nisbatini ilmiy asosda belgilash jinoyat-huquqiy siyosatning gumanistik yo‘nalishi, harbiy intizom barqarorligini ta’minlash va shaxsni armiya safida saqlab qolish orqali profilaktik samaradorlikka erishish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, xizmat bo‘yicha cheklash va intizomiy qismga yuborish tarzidagi jinoiy jazolar umumiy jinoiy jazolarning barcha asosiy belgilarini saqlagan holda, ularning mazmun-mohiyati harbiy xizmat munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, faqat maxsus sub’ekt – harbiy xizmatchiga nisbatan qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Bu holat ushbu jazolarning huquqiy tabiatini belgilaydigan muhim differensiatsion mezon sifatida namoyon bo‘lib, ularni umumiy tartibdagi jazolardan tubdan farqlash imkonini beradi. Harbiy xizmatchining huquqiy maqomi, avvalo, qasamyod bilan mustaxkamlangan davlat va xalq oldidagi yuksak majburiyatlar, ustav va qonun talablariga so‘zsiz bo‘ysunuv, tashkilotchilik va intizomning yuqori darajasi, shuningdek mamlakat mudofaa qudrati va milliy xavfsizlikni ta’minlashdagi strategik mas’uliyat bilan tavsiflanadi. Mazkur jihatlar ushbu jazolarni qo‘llashda sub’ekt doirasini cheklagan holda, ularning huquqiy ahamiyatiga alohida ijtimoiy mazmun va funksional yuklama beradi.

Shundan kelib chiqib, mazkur jazolar nafaqat jinoiy-huquqiy ta’sir chorasi sifatida, balki harbiy intizom va nizom tartibini barqarorligini saqlash hamda shaxsning xizmatga oid majburiyatlarini bajarishini ta’minlashga qaratilgan maxsus institut sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday huquqiy mexanizmning mavjudligi harbiy xizmat munosabatlarining davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligini, shu bois ushbu sohada javobgarlik choralari qo‘llanilishida individualizatsiya tamoyili hamda harbiy xizmatning xususiyatini to‘la e’tiborga olish zarurligini anglatadi. Demak, mazkur jazolarni samarali tatbiq etish, birinchi navbatda, maxsus sub’ekt maqomini to‘g‘ri huquqiy baholash, uning shaxsiy xususiyatlari va xizmat jarayonidagi raftorining ijtimoiy oqibatlarini inobatga olgan holda huquqiy ta’sir choralarini aniq belgilash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bunday yondashuv ularning umumiy jazolar tizimida tutgan o‘rnini yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xizmat bo‘yicha cheklash va intizomiy qismga yuborish tarzidagi jazolar jinoyat-huquqiy ta’sir choralari tizimida o‘ziga xos o‘rnini egallaydi. Ular ozodlikdan mahrum qilish bilan solishtirilganda ancha yengilroq jazo sifatida namoyon bo‘lib, shaxsni jamiyatdan ajratib qo‘yish kabi og‘ir ijtimoiy oqibatlar keltirib chiqarmaydi, shu orqali xizmatchining ijtimoiy faolligi va xizmat tayyorgarligi saqlanib qoladi. Biroq, ushbu jazolar faqat intizomiy ta’sir choralariga nisbatan ancha qattiqroq va

davlatning jinoyatchiga nisbatan qaratilgan rasmiy ayblovi va javobgarlik talabini ifoda etuvchi huquqiy reaksiya sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jazolarning qo‘llanilishidagi asosiy maqsad — harbiy intizom va umumharbiy nizomlar talablarining buzilishi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etish, kelgusidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va xizmat munosabatlarining barqarorligini tiklashdir. Shu bilan birga, ayblanuvchini qurolli kuchlar safidan uzoqlashtirmasdan uning xizmat pog‘onasidagi salohiyatini saqlab qolish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu mamlakat mudofaa qobiliyatining uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Aslida, ushbu jazolarning huquqiy mohiyati jinoyat sodir etgan shaxsni og‘ir izolyatsiyadan himoya qilgan holda, uning moddiy va ma’naviy intizomini mustahkamlash, maqsadli tuzatuv ta’siri orqali shaxsni harbiy muhitda qayta ijtimoiylashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu holat ularning profilaktik ahamiyatini yanada oshiradi. Demak, mazkur jazolar jazolovchi ta’sir bilan birgalikda xizmatga layoqatli kadrlarni saqlab qolish va davlatning xavfsizlik sohasidagi manfaatlarini ta’minlash yo‘lida muhim huquqiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, xizmat bo‘yicha cheklash va intizomiy qismga yuborish tarzidagi jinoiy jazolar o‘zining huquqiy tabiati va amaliy ahamiyatiga ko‘ra ozodlikdan mahrum qilishga nisbatan alternativ mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki jinoyat sodir etgan harbiy xizmatchini jamiyatdan tubdan cheklab qo‘ymasdan, uning xizmat faoliyatini ma’lum huquqiy doirada davom ettirishiga sharoit yaratish orqali jinoyat-huquqiy muhofazaning maqsadlari amalga oshiriladi. Bunday yondashuv ayniqsa harbiy tarbiya va intizomni saqlashda muhim ahamiyat kasb etb, harbiy jamoa ta’siri ostida tuzatuv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu jazolar jinoyatning og‘ir-yengillik darajasiga qarab differensiatsiya qilinadi: masalan, xizmat bo‘yicha cheklash ayrim hollarda jarima, ijtimoiy foydali mehnat yoki boshqa yengilroq jinoiy-huquqiy yoxud intizomiy choralar bilan almashtirilishi mumkin; aksincha, intizomiy qismga yuborish jazosi esa shaxsning muayyan muddat davomida maxsus tartibga solingan harbiy muhitda saqlanishini nazarda tutadi va shu jihatdan ozodlikdan mahrum qilishga yaqin bo‘lgan izolyatsion tabiat kasb etadi. Bu, o‘z navbatida, uning davlat xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyatini yanada oshiradi, chunki umumharbiy nizomlar talablarini qo‘pol ravishda buzgan shaxsni qat’iy nazorat ostida tuzatish imkonini yaratadi.

Demak, mazkur institutlar jinoiy siyosatning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan individualizatsiyani amalga oshirishga imkon yaratadi: har bir huquqbuzarga nisbatan jazo uning shaxsiy xususiyatlari, sodir etilgan qilmishning xavflilik darajasi va xizmat intizomiga ko‘rsatgan salbiy ta’siriga mutanosib ravishda belgilanadi. Shu tariqa, ushbu jazolar nafaqat jazolovchi ta’sir ko‘rsatadi, balki harbiy kadrlarni saqlab qolish, ularni qayta ijtimoiy-huquqiy yo‘naltirish va davlat mudofaa salohiyatining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladigan muhim huquqiy vosita sifatida o‘zining strategik ahamiyatini namoyon etadi.

To‘rtinchidan, mazkur jazolarning ijro etilishi o‘ziga xos huquqiy va tashkiliy muhitda amalga oshiriladi, ya’ni ular fuqarolik jamiyatidan mutlaqo farq qiladigan maxsus harbiy-tashkiliy fazoda ijro etiladi. Bu esa harbiy xizmatning qat’iy ierarxiyasi, intizomga to‘liq bo‘ysunuvchan tartibi, umumharbiy nizomlar talablariga so‘zsiz rioya etilishi va xizmat jarayonining yuqori darajada reglamentatsiya qilinganligi bilan bevosita bog‘liq. Bunday muhitda jazo ijrosi nafaqat huquqiy majburlov choralari bilan, balki komandirlik nazorati, jamoaviy ta’sir va doimiy tarbiyaviy ta’sir mexanizmlari bilan uyg‘un holda amalga oshiriladi, bu esa tuzatuv ta’sirining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, maxsus harbiy muhitda jazo o‘tash jarayoni shaxsning xizmat vazifalari bilan uzluksiz bog‘liq holda kechadi, bu esa uning ijtimoiy-huquqiy izolyatsiyasining oldini oladi va jamiyat hamda xizmat jamoasiga qayta moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Qolaversa, harbiy muhitda ijro etiladigan jazolar intizom buzilishi oqibatida yuzaga kelgan xavflarni tezkor bartaraf etish, tartib-intizom barqarorligini tiklash va milliy xavfsizlik manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Demak, bunday ijro muhiti mazkur jazolarning huquqiy tabiatidagi maxsuslikni belgilab, ularni nafaqat jazolovchi, balki strategik ahamiyatga ega tarbiyaviy-profilaktik vosita

sifatida namoyon qiladi.

Beshinchidan, mazkur jazolarning kriminologik ta'sirchanlik salohiyatini alohida ta'kidlash zarur. Chunki xizmat bo'yicha cheklash va intizomiy qismga yuborish tarzidagi jazolar jinoyat sodir etgan harbiy xizmatchining xizmat jamoasi bilan uzviy aloqasini saqlab qolishga qaratilgan bo'lib, shaxsning ijtimoiy-huquqiy izolyatsiyaga tushib qolish ehtimolini asosli ravishda kamaytiradi. Aksincha, ushbu jazolar ijro etilishi jarayonida jamoaviy nazorat va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali tarzda ishlaydi, bu esa jazolangan shaxsning umumharbiy nizomlar talablariga rioya qilishga qaytishini tezlashtiradi va uning xizmat muhitiga qayta integratsiyalashuvini yengillashtiradi. Bundan tashqari, harbiy muhitda saqlanishi hamda ijro jarayonida komandir va jamoa tomonidan amalga oshiriladigan doimiy tarbiyaviy ta'sir shaxsda huquqiy ong va intizomiy mas'uliyatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Bu holat, o'z navbatida, takroriy huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishda, xizmat intizomini mustahkamlashda va umumiy kriminogen xavfni pasaytirishda muhim ahamiyatga egadir. Shunday qilib, mazkur jazolarning kriminologik samaradorligi asosan xizmatdan uzoqlashtirmaslik, jamoaviy ijtimoiylashuvni davom ettirish va harbiy jamoa orqali shaxsning pozitiv xulq-atvorini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, ularni harbiy soqada jinoyatchilikka qarshi kurashishning muhim profilaktik vositasi sifatida baholashga imkon beradi.

Bu borada Kamalova D. hamda Ibroximov S. o'z tadqiqotlarida jazoning ijro etilishida ozodlikdan shartli ravishda ozod qilish institutining o'rni va ahamiyatini tahlil qilib, mazkur mexanizm jinoiy jazo siyosatining gumanizatsiyasini ta'minlovchi, shaxsning qayta ijtimoiylashuviga yo'naltirilgan eng muhim huquqiy vositalardan biri ekanini ta'kidlaydi. Mualliflar fikriga ko'ra, jazoning faqat repressiv elementlarini emas, balki tuzatuv va profilaktika maqsadlarini ustuvor qo'yish, jazolangan shaxsni jamiyat va xizmat muhitiga qaytarish uchun qulay sharoit yaratadi Mualliflar, shuningdek, shartli ravishda ozod qilish institutini samarali tatbiq etish qonuniylik, individualizatsiya va javobgarlikning maqsadga muvofiqligi tamoyillariga qat'iy rioya qilishni talab qilishini ta'kidlaydilar. Bu hol, jinoyat-ijroiya tizimida shaxs xulqini dinamik baholash va ijtimoiy reabilitatsiya imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi[1].

Mazkur ilmiy xulosalar O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilariga nisbatan qo'llaniladigan maxsus jazolar bilan bevosita bog'liq. Chunki xizmat bo'yicha cheklash va intizomiy qismga yuborish ham, o'z tabiatiga ko'ra, shaxsni tuzatishni jamiyatdan to'liq ajratmagan holda amalga oshiradi. Shuningdek, Kamalova va Ibrokhimov tomonidan qayd etilgan tamoyillar - xulq-atvorni baholash, qayta ijtimoiylashuvni rag'batlantirish, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish - ushbu maxsus jazolar institutini takomillashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mualliflarning qarashlari harbiy jinoyat-huquqiy siyosatning insonparvarlikka yo'nalgan islohotlariga uyg'un bo'lib, shartli ravishda ozod qilish mexanizmlarini harbiy jazolar tizimiga muvofiq moslashtirish zarurligini ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Ibroximova M.S. o'zining ilmiy izlanishlarida jinoiy jazolar tizimini takomillashtirish, uning huquqiy-tashkiliy asoslarini aniq belgilash va amaliyotda izchil qo'llanilishini ta'minlashni zamonaviy jinoyat siyosati uchun ustuvor vazifa sifatida ta'kidlaydi. Muallifga ko'ra, jinoiy-huquqiy ta'sir choralarining samaradorligi, avvalo, jazoning qonuniyligi, adolatliligi va insonparvarlik tamoyillariga qat'iy rioya etilishi bilan belgilanadi. Shu bois, u jazolar o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlash, ularning funksional maqsadi va jinoyatlarning oldini olishdagi o'rnini aniq belgilash zarurligini asoslaydi. Tadqiqotchi, xususan, jazoni ijro etish jarayonida mahkumning ijtimoiy aloqalardan ortiqcha uzilib qolmasligi, uning qayta ijtimoiylashuv imkoniyatlari saqlab qolinishi kerakligini ta'kidlaydi[2]. Bu esa jazoning profilaktik vazifasini kuchaytirishga, residiv xavfini pasaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, Ibroximova mavjud jinoiy jazolarning ayrim turlarini huquqiy jihatdan aniqlashtirish va ularni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirishni jinoiy-huquqiy islohotlarning dolzarb yo'nalishi sifatida baholaydi.

Saydaliev tomonidan ilgari surilgan qoidaga ko'ra, jazoni ijro qilish jarayoni faqat nazorat mexanizmlari bilan cheklanib qolmasdan, balki qayta ijtimoiylashtirish

va qonuniy xulqni shakllantirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy komponent bilan ham ta’minlanishi lozim. Shu bilan birga, muallif jazoni ijro etish tizimidagi huquqiy tushunchalarning aniq va bir ma’noli qo‘llanishini ta’minlash, qonunchilikda talqini turlicha bo‘lishi mumkin bo‘lgan normalarni bartaraf etish muhimligini asoslab beradi[3].

A.M. Saydalievning ilmiy xulosalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning jinoyat-ijroiya siyosatini insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirishga qaratilgan yondashuvi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar mohiyoti bilan uyg‘unlik kasb etadi. Xususan, muallif ta’kidlagan normativ aniqlik, qonun ustuvorligi va jazoning tuzatuv-profilaktik vazifalarini kuchaytirishga oid takliflar amaliy ahamiyatga egadir.

Shuningdek, ozodlikdan mahrum qilishga alternativ jazolarni, jumladan xizmat bo‘yicha cheklash va intizomiy qismga yuborishni samarali qo‘llashga oid fikrlar harbiy xizmatchining ijtimoiy va kasbiy maqomini saqlash, intizomni tiklash va takroriy huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladigan muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Biroq, bizningcha, mazkur takliflarni amalga oshirishda harbiy xizmatning milliy-tashkiliy xususiyatlari, mudofaa salohiyatini saqlash va xavfsizlik tahdidlarining o‘ziga xosligi inobatga olinishi zarur. Shu jihatdan, muallif ta’kidlagan huquqiy reglamentatsiyani yanada aniqlashtirish vazifasi O‘zbekiston sharoitida alohida dolzarb ahamiyatga ega.

Shuningdek, ta’kidlash lozimki, harbiy xizmatga oid maxsus jazolar nafaqat jinoiy-huquqiy institut sifatida, balki jinoyat-ijroiya tizimi va umumharbiy nizomlar asosida ko‘zda tutilgan harbiy intizomni himoya qilish mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq holda amal qiladi. Bu bog‘liqlik ularning funksional yo‘nalishini faqat qonun buzgan shaxsni jazolashga emas, balki harbiy jamoada barqaror intizomiy muhitni saqlashga qaratilgani bilan izohlanadi.

Harbiy xizmatchiga nisbatan qo‘llaniladigan jinoiy jazolarning tegishli tartibda muvofiqlashtirilishi, jazoning maqsad va vazifalarini harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish, intizomni mustahkamlash va shaxsda huquqiy ongni kuchaytirishga xizmat qilishi zarur. Shu jihatdan, xizmat bo‘yicha cheklash va intizomiy qismga yuborish kabi maxsus jazolarning boshqa huquqiy mexanizmlar bilan nisbatini belgilash nafaqat huquqiy tartibga solish samaradorligini oshiradi, balki harbiy tashkilotning ichki barqarorligini ta’minlash, xizmat intizomining buzilishi ortidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan bartaraf etish kabi muhim strategik vazifalarni ham amalga oshiradi.

Shunday ekan, mazkur jazo turlarining huquqiy tabiati va ularning umumiy jazo tizimidagi o‘rnini to‘g‘ri belgilash, davlat xavfsizligi, mudofaa siyosati va harbiy jamoa barqarorligini ta’minlash nuqtai nazaridan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilashda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xizmat bo‘yicha cheklash va intizomiy qismga yuborish kabi maxsus jinoiy jazolarning boshqa huquqiy ta’sir choralari bilan nisbati ularning harbiy xizmatchi uchun mo‘ljallangan, huquqiy tabiat jihatdan differensiyalashgan va tarkiban murakkab institut ekanini namoyon etadi. Bunday nisbat, avvalo, harbiy xizmatning strategik ahamiyati, uning davlat xavfsizligi va mudofaa imkoniyatlariga bevosita ta’siri bilan belgilanadi. Shu boisdan, ushbu jazolar harbiy xizmatni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarning markaziy bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘lib, ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi shaxsning tuzalishi hamda xizmat intizomining saqlanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur jazolarning optimal tanlanishi va individualizatsiya prinsipiga to‘la rioya etilishi nafaqat jinoyat huquqi va jinoyat-ijroiya huquqi sohasida, balki harbiy-tashkiliy boshqaruv va milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasida ham yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Ularning amaliy qo‘llanilishidagi samara mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyati va mas’uliyatini oshirish, shuningdek takroriy huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik ta’sirni kuchaytirish imkoniyatini yaratadi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Kamalova D., Ibrokhimov S. Concept and legal significance of parole // Criminology and Criminal Justice. – 2024. – Vol. 4. – P. 44–56. – DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.4./UXBS1084.
2. Иброхимова М. С. Совершенствование системы уголовных наказаний // Central Asian Journal of Academic Research. – 2024. – Т. 2, № 6. – С. 82–86. – DOI: 10.5281/zenodo.11526741.
3. Сайдалиев Ахмадхон Махмудович Некоторые стороны совершенствования уголовно-исполнительного законодательства // Проблемы Науки. 2019. №11-1 (144). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-storony-sovershenstvovaniya-ugolovno-ispolnitelnogo-zakonodatelstva (дата обращения: 26.11.2025).

Aliboyev Sayfiddin Sharofiddinovich
O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

TEMIR YO‘L TRANSPORTI OB’EKTLARIDA SODIR ETILADIGAN O‘G‘RILIK JINOYATIDA DALILLARNI MAQBULLIGINI TA’MISHDA KONSTITUTSIYAVIY NORMALARNING AHAMIYATI

Mazkur maqolada temir yo‘l transportlarida sodir etilgan o‘g‘irlik jinoyatlarini aniqlash va fosh etishda tezkor qidiruv tadbirlari natijasida olingan dalillarni yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan normalar asosida maqbullashtirish va amaldagi huquq normalariga e’tirof etish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, maqbul dalil, tezkor qidiruv natijalari, tergovga qadar tekshiruv, tergov.
В данной статье разработаны научно обоснованные предложения, направленные на то, чтобы сделать доказательства, полученные в результате оперативно-розыскных мероприятий при выявлении и раскрытии преступлений, связанных с кражами, совершенными на железнодорожном транспорте, приемлемыми на основе норм, установленных в новой редакции Конституции, и признания применимых правовых норм.
Ключевые слова: Конституция, приемлемые доказательства, быстрые результаты поиска, доследственная проверка, расследование.
This article has developed scientifically sound proposals aimed at making the evidence obtained as a result of operational investigative measures in the detection and disclosure of crimes related to thefts committed on railway transport acceptable on the basis of the norms established in the new version of the Constitution and the recognition of applicable legal norms.
Keywords: Constitution, acceptable evidence, quick search results, pre-investigation check, investigation.



Amaldagi yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi” belgilangan. Shu bilan birgalikda 29-moddasida “Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi” belgilangan[1].

Shundan kelib chiqqan holda temir yo‘l transporti ob’ektlarida sodir etiladigan o‘g‘rilik jinoyatida aniqlangan dalillarni amaldagi Jinoyat protsessual normalar talablari asosida rasmiylashtirish va ularni sudda maqbul dalil sifatida tan olinishini yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan shaxs huquqlarini sudda ta’minlashga doir normalarga muvofiqlashtirishning ijtimoiy zaruriyati mavjud.

Bugungi kunda temir yo‘l transporti infratuzilmalari mamlakat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur infratuzilma orqali amalga oshirilayotgan yuk tashish jarayonlarida yuzaga kelayotgan o‘g‘rilik jinoyatlari nafaqat iqtisodiy zarar yetkazmoqda, balki yuk tashuvchilar, korxonalar, temir yo‘l xizmati xodimlari hamda fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga bo‘lgan ishonchga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, ushbu jinoyatlarga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ayniqsa tezkor-qidiruv faoliyati sohasidagi huquqiy mexanizmlarni yanada rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Amaldagi “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun bir qator muhim normalarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, temir yo‘l transporti ob’ektlarida sodir etiladigan o‘g‘rilik jinoyatlarining dinamikasi, ularni sodir etish uslublari va jinoyatchining o‘zgarib borayotgan texnogen muhitga tez moslashuvchanligi mavjud huquqiy asoslarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, tezkor tadbirlarning huquqiy maqomi, turlari, o‘tkazish shartlari hamda ularning dalil sifatida protsessual kuchini oshirish masalalari sohadagi tahlillarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan, temir yo‘l transporti ob’ektlarida o‘g‘rilik jinoyatlariga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv tadbirlarining samaradorligini oshirish maqsadida huquqiy asoslarni takomillashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarga aniq, to‘g‘ri va amaliyotga mos tushunchalar kiritish, tizimli institutsional islohotlar olib borish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, o‘g‘rilik jinoyatlariga qarshi kurashda o‘tkaziladigan niqoblangan operatsiya tezkor-qidiruv tadbiriga Qonunda “ikki yoki undan ortiq tezkor-qidiruv tadbirini tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida oshkora va nooshkora usullardan foydalangan holda o‘tkazishni o‘z ichiga oladigan kompleks tadbir”i sifatida ta’rif berilgan.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish shartlari belgilab qo‘yilgan mazkur qonunning 16-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlari sanksiya asosida o‘tkaziladigan, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror asosida o‘tkazildaigan hamda alohida ruxsat talab etilmaydigan tadbirlarga bo‘linib, niqoblangan operatsiya tezkor-qidiruv tadbiri tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror asosida o‘tkazilishi belgilangan.

Amaliyotda ushbu ta’rif bir qator noaniqlik va ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan: Qonunga muvofiq ayrim tezkor tadbirlar (so‘rov, ma’lumotlar to‘plash, shaxsni aniqlash, qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig‘ish, predmetlarni va hujjatlarni tekshirish, shaxsning aynanligini aniqlash, turar joylardan boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish) tezkor xodimning tashabbusi bilan, sanksiya yoki qarorsiz bir vaqtda o‘tkazilishi mumkin. Misol uchun guvoxlarning ko‘rsatuvlari, videokuzatuv qurulmalariga va boshqa manbaalarga ko‘ra o‘g‘rilik jinoyatini sodir etgan bo‘lishi mumkin deb shubxalanayotgan shaxs bilan bir vaqtning o‘zida ko‘chada so‘rov o‘tkazish, shaxsni aynanligini aniqlash, ma’lumotlar to‘plash, qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig‘ish, yonidagi predmetlari va xujjatlarini hamda texnik va transport vositalarini tekshirish tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazilishi mumkin. Lekin bir vaqtda shu kabi bir nechta tadbirni kompleks tarzda o‘tkazish “niqoblangan operatsiya” tushunchasiga to‘g‘ri kelib, ruxsat talab

etilmaydigan tadbirlar ham vakolatli rahbar qarori bilangina o‘tkazilishi kerak bo‘ladi, degan noto‘g‘ri tushuncha yuzaga kelib, bu “niqoblangan operatsiya” deb baholanishi hamda olingan dalillar nomaqbul deb topilishi ehtimoli mavjud.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “operatsiya” (lot. operatio-ish, harakat, faoliyat)-biror maqsadni ko‘zlab yoki biror operativ yoki strategik vazifani bajarish uchun yagona reja bo‘yicha va kelishilgan vaqtda olib boriladigan jang harakatlari majmui[2].

“Niqob” (a. yopinchiq, yuzga tortiladigan to‘r) - o‘zini tanitmaslikyoki himoya qilish uchun yuzga tutiladigan, kiyiladigan narsa, ko‘chma ma’noda esa haqiqatni, haqiqiy hol, qiyofa va shu kabilarni pardalovchi, yashiruvchi narsa, vosita, shuningdek “Niqoblamoq” deganda niqob tutib, tanib, bilib bo‘lmaydigan, ko‘rinmaydigan qilmoq degan ma’nolarni bildirishi ko‘rsatilgan[3].

Yuqoridagilarga ko‘ra, mazkur ziddiyatni bartaraf etish maqsadida Qonunning 14-moddasidagi “niqoblangan operatsiya” ta’rifi quyidagicha huquqiy taklif ilgari suriladi:

“Niqoblangan operatsiya — tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida vakolatli organlar tomonidan maxsus reja asosida, yashirin usullar va vositalar orqali amalga oshiriladigan tezkor-qidiruv tadbiri”

Shunda tushunchalar aniq bo‘lib, tezkor-qidiruv tadbirlari klassifikatsiyasida aniqlik va huquqiy kafolatlar kuchayadi, bahsli holatlar kamayadi, fuqarolarning huquqlari protsessual kafolatlar bilan samarali himoya qilinadi, qonun normalari amaliyotga mos holda mukammallashadi.

Ikkinchidan, Misol uchun temir yo‘l transporti ob’ektlarida uyali aloqa vositasi yoki kichik o‘lchamdagi sumkachalar yoxud kichik xajmdagi o‘zgalarning mulkini o‘g‘riligi bo‘yicha gumonlanuvchi shaxsni tezkor yo‘llar bilan aniqlab, uni ust-bosh kiyimlarini, qo‘l yuklarini tekshirib ko‘rish zarurati tug‘iladi. Shu vaqtda tezkor xodim gumonlanuvchi shaxsni ust-bosh kiyimlarini, qo‘l yuklarini tekshirib axamiyatli bo‘lgan dalillarni bayonnoma orqali rasmiytirib olib qo‘yish xolatlari uchrab turibdi. Lekin mazkur xolat “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning biro-bir tezkor-qidiruv tadbiri bilan qamrab olinmagan yoki belgilab berilmagan. Mazkur qonuning 17-moddasida “Tezkor-qidiruv faoliyatidagi cheklovlar”ning 1-qism 4-xatboshisida “ushbu Qonunning 14-moddasida nazarda tutilmagan tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishi;”dan cheklagan.

Yuqoridagi xolatlarni bartaraf etish uchun «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi qonunga quyidagi o‘zgartirishlarni kiritish taklif etiladi:

- “Turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish” tadbiri nomiga hamda ta’rifiga transport vositalarini so‘zlaridan keyin “shaxslarni, ularning ashyolarini, qo‘l yukini, bagajini” degan so‘zlarni qo‘shish;

- “Turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini, shaxslarni, ularning ashyolarini, qo‘l yukini, bagajini tekshirish” tadbiri nomini juda uzun, murakkab va hujjatlarda takrorlanishi noqulayligi, axborot tizimlarida, hisobotlarda va tahlilda qisqa va aniq atamalar foydalanish tezkorlik va samaradorlikni oshirishini hisobga olib tezkor-qidiruv tadbiri nomini umumiy faoliyatni ifodalaydigan, qisqa va aniq qilib “Tezkor tekshirish” deb nomlash.

- Tadbir tushunchasining oxirida “... ko‘zdan kechirish hamda o‘rganishdan iborat bo‘lgan tadbir;- deb ko‘rsatilgan. Tadbirni maqsadida esa tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan shaxslar, faktlar hamda holatlarni aniqlash maqsad qilib olingan. Shunday ekan “ko‘zdan kechirish”, “o‘rganish” so‘zlarining lug‘aviy manosiga e’tibor qaratsak “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ko‘zdan kechirmoq(yoki o‘tkazmoq)”- bir chekkadan qarab, ko‘rib chiqmoq; nazardan (e’tibordan) o‘tkazmoq[4], “o‘rganish”(o‘rganmoq fl. har. n.) – Bilim, kasb, ish va shu kabilarni o‘zlashtirmoq, egallamoq, bilib olmoq [5] deb ko‘rsatilgan.

Amaliyotda aksariyat xolatlarda mazkur tadbir o‘tkazilganda tadbir ishtirokchilari tomonidan tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan shaxslar, faktlar hamda holatlarni aniqlash maqsadida turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, kompyuterlarni, aloqa qurilmalarini va transport vositalarini titkilab, kovlashtirib, ag‘dar-to‘ntar qilib, taqiqlangan yoki yashirib qo‘yilgan

ashyoviy dalil bo‘lishi mumkin bo‘lgan faktlar, xolatlarni yoxud yashiringan shaxslarni qidirishadi. Bu harakatlarsiz maqsadga erishish imkonsiz bo‘ladi.

“Titkilab, kovlashtirib, ag‘dar-to‘ntar qilib, taqiqlangan yoki yashirib qo‘yilgan ashyoviy dalil bo‘lishi mumkin bo‘lgan faktlar, xolatlarni yoxud yashiringan shaxslarni qidirish” “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi “tintimoq, tintuv”[6] so‘zlariga to‘g‘ri keladi.

-Yuqoridagilarga ko‘ra, “Tezkor tekshirish” tezkor-qidiruv tadbirining tushunchasini quyidagi shaklda bayon qilish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

“Tezkor tekshirish-tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan shaxslar, faktlar hamda holatlarni aniqlash maqsadida turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, kompyuterlarni, aloqa qurilmalarini va transport vositalarini, shaxslarni, ularning ashyolarini, qo‘l yukini, bagajini bevosita yoki bilvosita (texnik vositalardan foydalangan holda) tintish, ko‘zdan kechirish, o‘rganish hamda tekshirishdan iborat bo‘lgan tadbir”

Uchunchidan, Toshkent mintaqasi temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasiga qarashli Bekobod bekatida xavfsizlikni ta’minlash bo‘limi xizmat xududi 10 km.ni tashkil etib, unda 2 ta park Qabul qilish parkida 5 ta, Markaziy parkda 10 ta temir yo‘l izlari(yo‘llari) mavjud. Bir sutkada 1 nafar ofitser hamda 2 nafar PPX xodimi xizmat olib borishadi. Temir yo‘l yo‘l izlarida to‘xtab turgan yoki xarakatlanayotgan ichiga tovar moddiy boylik(ko‘mir, taxta, qora xamda tayyor metall maxsulotlari, neft maxsulotlari va h.k)lar ortilgan yuk vagonlardan o‘g‘rilik qilishni maqsad (kasb) qilib olgan shaxslar avvalo vagonlarni qarovsiz qoldirilishini, o‘g‘rilikka imkon bo‘lishini temir yo‘l ob’ektlaridan tashqarida o‘zlari uchun xavfsiz bo‘lgan xududlarda kuzatib turishadi. Ma’sul xodimlar tomonidan ularga ogoxlantirish maqsadida murojaat qilinganda ko‘p xollarda ular boshqa maqsadda turganliklarini ma’lum qilishadi. Imkoniyat bo‘lishi bilan yuk vagonlardan tovar moddiy boyliklarni o‘g‘rilashga kirishadi. Shunday vaqtlarda tezkor xodimlar tomonidan yoki ularning topshirig‘iga asosan boshqa xizmat xodimlari yoki boshqa shaxslar tomonidan tezkor kuzatuv tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish orqali yuqoridagi jarayonlarni, xolatlarni, shaxslarni, ularning avtoulovlari xarakatlarini kuzatish yaxshi samara beradi.

Lekin, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 16-moddasi “Tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish shartlari”ning beshinchi bandida, tezkor kuzatuv tadbiri tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror asosida o‘tkazilishi belgilab qo‘yilgan.

Bekobod bekatida xavfsizlikni ta’minlash bo‘limi Toshkent mintaqasi temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasidan 120 km. uzoqlikda joylashgan. Bo‘lim boshlig‘i tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari hissoblanmaydi. Ba’zi viloyatlarda shu kabi bo‘linmalar boshqarmadan 300-350 km. uzoqlikda joylashgan.

Bu o‘z navbatida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga jinoyatlarni tayyorlash, sodir etish alomatlari to‘g‘risida, shuningdek jinoyatlarni tayyorlashga yoki sodir etishga daxldor shaxslar haqida ma’lumotlar ayon bo‘lganda, kechiktirib bo‘lmaydigan xolatlarda mazkur shaxslarni tezkorlikda tezkor kuzatuvga olishga, ularni jinoiy faoliyatini aniqlashga to‘sqinlik qiladi.

Shu bilan birga tezkor xodimlar tomonidan xizmat xududida xizmat olib borayotgan yoki tungi xizmatga jalb etilgan vaqtlarda kechiktirib bo‘lmaydigan xollarda hizmat xududidagi, hodisalarni va jarayonlarni bevosita yoki bilvosita (texnik vositalardan foydalangan holda) nooshkora kuzatish va qayd etish uchun xam organ raxbarining qarori talab etiladi.

Shuningdek, mazkur tezkor-qidiruv tadbirining maqsadi tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni olishdan iborat bo‘lmasdan zarur xollarda g‘ayrihuquqiy qilmish sodir etgan yoki unga tayyorgarlik ko‘rayotgan shaxslarni fosh etish va aniqlashni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tezkor kuzatuv tadbirini tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror asosida o‘tkazilishi shart bo‘lgan tezkor-qidiruv tadbirlari qatoridan chiqarishni hamda tadbirining tushunchasini quyidagicha o‘zgartirishni taklif etamiz.

Tezkor kuzatuv - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni olish hamda g‘ayrihuquqiy qilmish sodir etgan yoki unga tayyorgarlik ko‘rayotgan

shaxslarni fosh etish va aniqlash maqsadida shaxslarning harakatlarini, hodisalarni va jarayonlarni bevosita yoki bilvosita (texnik vositalardan foydalangan holda) nooshkora kuzatish va qayd etishdan iborat bo‘lgan tadbir.

To‘rtichidan, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 19-moddasida tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan faqat tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun foydalanilishi, tezkor-qidiruv faoliyati materiallari jinoyat ishi qo‘zg‘atish uchun asos bo‘lishi, jinoyat ishi o‘z yurituvida bo‘lgan surishtiruv, tergov organlariga, prokurorga tergov harakatlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish uchun taqdim etilishi, shuningdek bu materiallardan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi normalariga muvofiq jinoyat ishlari bo‘yicha isbot qilishda foydalanilishi mumkinligi, va mazkur Qonunning 16-moddasi shartlariga rioya etilgan holda o‘tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so‘ng dalillar sifatida e’tirof etilishi mumkinligi, Tezkor-qidiruv faoliyati natijalari tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror asosida surishtiruv, tergov organlariga, prokurorga texnika vositalaridan foydalanish natijasida olingan materiallar qo‘shilgan holda taqdim etiladi. Taqdim etiladigan materiallarning turi, toifasi va hajmi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda belgilanishi, Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi xodim o‘tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida aniqlangan jinoyatni qasddan yashirgan taqdirda, belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi[7] ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining JPKda ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni olish usullari 205-moddada ko‘rsatilgan bo‘lib unga ko‘ra, ashyoviy, yozma va raqamli dalillar sifatida foydalaniladigan narsalar, hujjatlar, elektron ma’lumotlar va boshqa yozuvlar hodisa sodir bo‘lgan joyni yoki boshqa joylarni, binolarni, shuningdek texnika vositalarini, telekommunikatsiya tarmoqlarini yoki Internet jahon axborot tarmog‘ini ko‘zdan kechirish chog‘ida, tanib olish uchun ko‘rsatish, guvohlantirish, murdani eksgumatsiya qilish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, ko‘rsatuvni hodisa yuz bergan joyda tekshirish chog‘ida, olib qo‘yish, tintuv yoki eksperiment o‘tkazish chog‘ida olinishi mumkin yoxud ular ushbu Kodeksning 198 — 202-moddalarida nazarda tutilgan tartibda tergovga kadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsiga, surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga taqdim etilishi mumkin[8].

“Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasi shartlariga rioya etilgan holda o‘tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so‘ng dalillar sifatida e’tirof etilishi mumkinligi ko‘rsatilgan bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 205-moddasida shu xususida keltirilmagan. Shunday ekan, mazkur moddani quyidagicha to‘ldirish maqsadga muvofiq.

205-modda. Ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni olish usullari

Ashyoviy, yozma va raqamli dalillar sifatida foydalaniladigan narsalar, hujjatlar, elektron ma’lumotlar va boshqa yozuvlar hodisa sodir bo‘lgan joyni yoki boshqa joylarni, binolarni, shuningdek texnika vositalarini, telekommunikatsiya tarmoqlarini yoki Internet jahon axborot tarmog‘ini ko‘zdan kechirish chog‘ida, tanib olish uchun ko‘rsatish, guvohlantirish, murdani eksgumatsiya qilish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, ko‘rsatuvni hodisa yuz bergan joyda tekshirish chog‘ida, olib qo‘yish, tintuv yoki eksperiment o‘tkazish chog‘ida, tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olinishi mumkin yoxud ular ushbu Kodeksning 198 — 202-moddalarida nazarda tutilgan tartibda tergovga kadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsiga, surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga taqdim etilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kelgusida o‘g‘rilik jinoyatlariga qarshi kurashda tezkor-qidiruv tadbirlarining tashkiliy – huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi

Qonunining 14-moddasi birinchi qismi o‘n yettinchi xatbosisini “Niqoblangan operatsiya — tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida vakolatli organlar tomonidan maxsus reja asosida, yashirin usullar va vositalar orqali amalga oshiriladigan tezkor-qidiruv tadbiri.” sifatida ta’rifiga o‘zgartirish kirish;

- O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasi, birinchi qismining to‘qqizinchi xatboshisini “Tezkor tekshirish-tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan shaxslar, faktlar hamda holatlarni aniqlash maqsadida turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, kompyuterlarni, aloqa qurilmalarini va transport vositalarini, shaxslarni, ularning ashyolarini, qo‘l yukini, bagajini bevosita yoki bilvosita (texnik vositalardan foydalangan holda) tintish, ko‘zdan kechirish, o‘rganish hamda tekshirishdan iborat bo‘lgan tadbir.” sifatida tadbir nomiga hamda ta’rifiga o‘zgartirish kirish;

- O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasi birinchi qismining yettinchi xatboshisini “Tezkor kuzatuv - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni olish hamda g‘ayrihuquqiy qilmish sodir etgan yoki unga tayyorgarlik ko‘rayotgan shaxslarni fosh etish va aniqlash maqsadida shaxslarning harakatlarini, hodisalarni va jarayonlarni bevosita yoki bilvosita (texnik vositalardan foydalangan holda) nooshkora kuzatish va qayd etishdan iborat bo‘lgan tadbir.” sifatida ta’rifiga o‘zgartirish kirish hamda mazkur Qonunning 16-moddasi, beshinchi qismi “nazorat ostida olish” so‘zlaridan so‘ng “tezkor kuzatuv” so‘zlari chiqarib, ruxsat talab etiladigan tezkor-qidiruv tadbirlaridan chiqarish;.

- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 205-moddasiga “Ashyoviy, yozma va raqamli dalillar sifatida foydalaniladigan narsalar, hujjatlar, elektron ma’lumotlar va boshqa yozuvlar hodisa sodir bo‘lgan joyni yoki boshqa joylarni, binolarni, shuningdek texnika vositalarini, telekommunikatsiya tarmoqlarini yoki Internet jahon axborot tarmog‘ini ko‘zdan kechirish chog‘ida, tanib olish uchun ko‘rsatish, guvohlantirish, murdani eksgumatsiya qilish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, ko‘rsatuvni hodisa yuz bergan joyda tekshirish chog‘ida, olib qo‘yish, tintuv yoki eksperiment o‘tkazish chog‘ida, tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olinishi mumkin yoxud ular ushbu Kodeksning 198 — 202-moddalarida nazarda tutilgan tartibda tergovga kadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsiga, surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga taqdim etilishi mumkin.” o‘zgartirish kiritish.

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish kelgusida transport ob’ektlarida sodir etiladigan o‘g‘rilik jinoyatlariga qarshi samarali kurashishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga asosan qonunchilikka kiritilishi taklif etilgan o‘zgartirishlar tezkor-qidiruv faoliyatining huquqiy mexanizmlarini yanada aniqlashtirishga, tezkor xodimlarning vakolat va majburiyatlarini ravshan belgilab berishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Xususan, “niqoblangan operatsiya” tushunchasining qayta ishlab chiqilishi, “tezkor tekshirish” va “tezkor kuzatuv” tadbirlarining huquqiy maqomini aniq belgilash, JPKning 205-moddasini tezkor tadbirlar natijalarini dalil sifatida qabul qilish mumkinligini nazarda tutuvchi normalar bilan to‘ldirish tezkor faoliyatning samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, transport ob’ektlarida sodir etiladigan o‘g‘rilik jinoyatlarining o‘sishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi, jamiyatda huquqiy madaniyat va huquqiy ongga salbiy ta’sir ko‘rsatishi inobatga olinsa, ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning ahamiyati yanada ortganini ko‘rish mumkin. Taqdim etilgan takliflarning amalga oshirilishi tezkor-qidiruv faoliyatining shaffof, huquqiy asoslangan va zamonaviy talablarga javob beradigan tizim sifatida shakllanishiga, ayniqsa temir yo‘l infratuzilmasida sodir etiladigan o‘g‘rilik jinoyatlariga qarshi samarali profilaktika va fosh etish faoliyatini kuchaytirishga imkon beradi.

◄ **Iqtiboslar/Цитаты/References**

1. 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - https://lex.uz/docs/6445145 - murojaat sanasi 10.10.2025 yil.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida. - https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O‘zbek%20tilining%20izohli%20lug‘ati%20-%20O.pdf - murojaat sanasi 10.08.2025 yil.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida. - https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O‘zbek%20tilining%20izohli%20lug‘ati%20-%20O.pdf - murojaat sanasi 10.08.2025 yil.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida. - https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O‘zbek%20tilining%20izohli%20lug‘ati%20-%20O.pdf - murojaat sanasi 10.08.2025 yil.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida. - https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O‘zbek%20tilining%20izohli%20lug‘ati%20-%20O.pdf - murojaat sanasi 10.08.2025 yil.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida. - https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O‘zbek%20tilining%20izohli%20lug‘ati%20-%20O.pdf - murojaat sanasi 10.08.2025 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-344-sonli Qonuni. 25.12.2012 yil. https://www.lex.uz/acts/2107763. Murojaat sanasi 10.08.2025 yil.
8. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. http://www.lex.uz. Murojaat sanasi 10.08.2025 yil.

Alimov Muhammadjon Islomiddin o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra dotsenti, yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent

HARBIY JINOYAT PROTSESSIDA DALILLARNI QAYD ETISHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY TAHLILI

Mazkur maqolada harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar yuzasidan sudg qadar ish yuritish va sud protsessida harbiy xizmatchini jinoyat protsessining alohida sub’ekti sifatida e’tirov etish va mazkur tartibni qonunchilikka mustahkamlash yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan
Kalit so‘zlar: Jinoyat, harbiy jinoyat protsessi, tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov, sud muhokamasi.
В данной статье были выдвинуты научно обоснованные предложения по проведению досудебного производства по преступлениям против порядка прохождения военной службы и отводу военнослужащего как отдельного субъекта уголовного процесса в судебном порядке и закреплению процедуры в законе
Ключевые слова: Преступление, Военно-уголовный процесс, доследственная проверка, Предварительное следствие, судебное заседание.
in this article, scientifically sound proposals have been put forward for conducting pre-trial proceedings for crimes against the order of military service and the removal of a serviceman as a separate subject of criminal proceedings in court and the consolidation of the procedure in law.
Keywords: Crime, Military criminal trial, pre-investigation check, Preliminary investigation, court session.



Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida “Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi[1]” belgilangan. Mazkur tartibni asosiy qonunda belgilanishi jinoyat ishlari yuzasidan sudga qadar ish yuritish va sud muhokamasi bosqichida barcha vakolatli organlarga qo‘shimcha mas’uliyat yuklaydi! Mazkur tartib birgalikda harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar yuzasidan ham tadbiq etiladi.

Harbiy jinoyat protsessida harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarda dalillarni qayd etishda birinchi navbatda jinoyatchi shaxsining jinoyat protsessining maxsus subekti ekanligi, jinoyatni sodir etish va uni yashirish usullari, jinoyat joyi va vaqti kabi omillar to‘g‘risida kriminalistik ahamiyatga ega ma’lumotlarni kirishi belgilangan[2].

Harbiy jinoyatining jinoiy-huquqiy tavsifi deganda, harbiy xizmatchilar tomonidan, shuningdek, harbiy yig‘inlar vaqtida harbiy xizmatga majbur shaxslar tomonidan harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi sodir etilgan jinoyatlar tushuniladi.

Harbiy xizmatni o‘tash tartibi — qo‘shinlar hayoti va jangovar faoliyati jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar bo‘lib, ular qonunlar, harbiy qasamyod va nizomlarda belgilab qo‘yilgan. Ushbu hujjatlarda harbiy xizmat fuqaroning konstitutsiyaviy burchi ekanligi, yakkaboshchilik va undan kelib chiqadigan tobe shaxsning boshliqqa so‘zsiz itoat qilishi, ushbu munosabatlar sub’ektlari huquq va erkinliklarining aniq belgilab qo‘yilishi kabi harbiy tashkilot tamoyillari mustahkamlab qo‘yilgan.

Harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatning ob’ekti harbiy xizmat o‘tash tartibi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatning predmeti Umumharbiy nizomlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda tartibga solingan harbiy xizmat o‘tash tartibi hisoblanadi.

Harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatining ob’ektiv tomondan harbiy xizmatchilar tomonidan harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan holda mazkur tartibni, sha’n qadr-qimmatni, harbiy mulkka qarshi qaratilgan harakat yoki harakatsizlikda namoyon bo‘ladi. Harbiy jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi ularning qo‘shinlar harbiy intizomi va jangovar tayyorgarligini susaytirib, mamlakatning mudofaa layoqatiga putur yetkazishdir[3].

Qurolli Kuchlar va boshqa harbiy tuzilmalar faoliyatining asosini hamda ularning o‘z vazifalarini bajarishining kafolatini harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qat’iy va so‘zsiz rioya qilishni taqozo etadi.

Harbiy jinoyatlarning sub’ekti O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari (Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligining qorovul qo‘shinlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmatining davlat chegarasini himoya qilish qo‘mitasi), Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa vazirlik va idoralarning harbiy bo‘linmalari harbiy xizmatchilari, shuningdek, ularda harbiy yig‘inlarni o‘tayotgan shaxslar bo‘lishi mumkin.

Jinoyatchi shaxsi, harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarning sub’ekti sifatida haqiqiy harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar o‘rganiladi. Mazkur subektlarning jinoyatchi shaxsi sifatidagi kriminologik tadqiqotlardagi o‘rni maxsus ob’ekti sifatida ko‘plab tipologik ma’lumotlar, kriminologik tavsif elementlari mavjud. Ammo harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarda jinoyatchi shaxsning kriminologik xarakteridan kelib chiqqan holda, jinoyatlarni oldini olish maqsadida foydalaniladigan shaxs xususiyatlari bilan chegaralanadi.

Lekin, jinoyatchilarning bir qator shaxsiy xususiyatlari kriminologik tavsifdan chetda qoladi. Birinchi navbatda bu jinoyatchilarning “Harbiy kasbga oid” (professional) ko‘nikmalaridir. Ushbu ko‘nikmalar jinoyatni ma’lum bir uslubda va harbiy xizmatning xarakteridan kelib chiqqan holda sodir etishda ifodalandi hamda voqea sodir bo‘lgan joyda ma’lum “dastxat” yoki “iz” qoldiradi. Ba’zi harbiy xizmatga oid jinoyatlar umuman borliqda biror iz qolishiga sabab bo‘lmaydigan harakatlar bilan ifodalanishi mumkinligi bilan isbotlash jarayonida o‘ziga xoslikni kasb etadi. Voqea joyida topilgan ashyoviy dalillar (jinoyat qurollari), harbiy mulk yoki o‘qotar qurollarning shaxsiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va sifatlariga hamda jinoiy tajribasi, kasbiy professionalizmi, ijtimoiy vazifasi, harbiy xizmatdagi amaliy tajribasi, jabrlanuvchi yoki komandir va boshliqlar bilan bilan o‘zaro munosabatlari va shu kabi omillarni aniqlashtiradi. Mazkur ma’lumotlarning aniqlangan jinoyatni

sodir etish usuli, mexanizmi va sharoitlari bilan bog‘liqligi yangi mustaqil axborotni yaratadi, ushbu axborot esa qidiruv, ushlash va kelgusida jinoyatchini fosh etish usullarining to‘g‘riroq yo‘llarini, ya’ni tergov yo‘nalishini to‘g‘riroq tanlash imkonini beradi. Shuning uchun ham, harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarni qaysi toifadagi harbiy xizmatchilar ko‘proq sodir etishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yaqqol kriminologik xarakterga ega bo‘lsa ham, jinoyatning kriminalistik tavsifida ham foydalaniladi.

Bugungi kunda harbiy xizmatchi shaxsi to‘g‘risidagi kriminalistik ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar ikkita o‘ziga xos bo‘lgan axborot guruhlarga bo‘linadi. Birinchisi, noma’lum jinoyat sodir etgan harbiy xizmatchining voqea joyida, harbiy qism hududida bo‘lgan sutkalik naryadlar xotirasida hamda boshqa harbiy qismda qo‘shinlar xizmatini nazorat qiladigan qayd belgilarida va harbiy qism hududidagi kuzatuv kameralarida qoldirishi mumkin bo‘lgan izlarini o‘z ichiga oladi hamda uning shaxsini aniqlash va qidiruv yo‘nalishlari va usullarini tanlash maqsadida foydalaniladi. Ko‘pincha mazkur ma’lumotlar ayrim harbiy xizmatchilar toifasining umumiy xususiyatlari to‘g‘risida, ba’zan esa aniq harbiy xizmatchi yoki mansabdor shaxs to‘g‘risida tushuncha beradi. Jinoyat sodir etgan harbiy xizmatchilarni tezkor aniqlash va qidirib topish maqsadida shu kabi ma’lumotlar mazkur jinoyatlarni kim ko‘proq sodir etishi haqidagi kriminalistik ma’lumotlar bilan taqqoslanishi kerak.

Ikkinchi guruh esa ushlangan gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining shaxsini o‘rganish natijasida olingan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi va sub’ekt shaxsini batafsil kriminalistik baholash maqsadida ishlatiladi. Mazkur maqsadlarda odatda nafaqat jinoyat sodir etgan harbiy xizmatchining harbiy xizmat o‘tash jarayonidagi maqsadlari, qiziqishlari, huquqiy ongidagi o‘zgarishlar, harbiy qism manfaatlariga va harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi qarashlari to‘g‘risida, balki uning aloqalari, jinoyatgacha, jinoyat davrida va undan keyin bo‘lgan harbiy qismdagi mansabdor shaxslarga ta’sir doirasi, xulqidagi o‘ziga xosliklar to‘g‘risida qaysi ma’lumotlar tergovchi va harbiy qismning shaxsiy tarkibni jinoyat sodir etishiga moyil bo‘lgan xizmatlar xodimlariga u bilan kerakli tergov-tezkor aloqani o‘rnatishga, haqqoniy ko‘rsatmalar olishga, uni fosh etishga yordam berishga, shuningdek, unga nisbatan eng ta’sirchan profilaktik choralar tanlashga qaratilgan ma’lumotlar yig‘iladi.

Mazkur ma’lumotlar kriminalistik tavsifning boshqa elementlarida aksini topadigan jinoyatchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni inobatga olgan holda jinoyat sodir etgan harbiy xizmatchilarni tiplarga ajratishning asosiga qo‘yilishi mumkin.

Ko‘plab tadqiqotchilar harbiy xizmat o‘tash tartibga qarshi jinoyatlarning sodir etilishini harbiy xizmat o‘tash tartibi bilan bog‘liq sohasida turli noqonuniy harakatlarni bajaruvchi harbiy xizmatchilar yoki mansabdor shaxslarni uzoq yillar davomida bir harbiy qism yoki muassasada xizmatni olib borishi bilan asoslaydi.

I.M.Maskevichning fikriga ko‘ra, “Harbiy jinoyatlarning tarixiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning darajasi, qoida tariqasida, umumiy jinoyatchilik darajasiga mos keladi. Harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning eng keng tarqalgan turi harbiy xizmatdan bo‘yin tovlash bo‘lgan. Harbiy jinoyatlarning hozirgi holati rivojlanishning noqulay dinamikasi, intensivligi, barqarorligi va latentligi bilan tavsiflanadi.[4]” deya ta’kidlaydi.

I.I.Israilovning ta’kidlashicha “Bo‘ysunish tartibiga va harbiy nizom munosabatlariga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik to‘g‘risidagi harbiy jinoiy qonunchilikning rivojlanish tarixi, umuman, qonunchilik sifatida, aniq tarixiy sharoitlar bilan belgilanadi. Mamlakat va uning Qurolli Kuchlari hayotida sodir bo‘lgan hamda ko‘rsatilgan qonun hujjatlarining o‘zgarishi va rivojlanishiga olib kelgan aniq ob’ektiv jarayonlarni bilish amaldagi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini yaxshiroq tushunish va ochib berishga yordam beradi[5]”

Bunga misol tariqasida 98259 sonli harbiy qism brigada komandiri A.S. tomonidan uning 7 yillik mazkur brigadaga komandir vazifasida bajarishi oqibatida o‘zining atrofidagi moddiy manfaatdorlik lavozimlariga o‘zi bilan muqaddam birga ishlagan R.B., S.Z., O‘.V.lar va boshqalarni ofitserlarni tayinlashi oqibatida jinoiy guruh tarkibida davlat mulkiga ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan. Mazkur jinoyat ishi tahlili mazkur mansabdorlik lavozimidagi harbiy xizmatchilar faqatgina

davlat mulkini talon-taroj qilish jinoyatini sodir etmay, balki ishdan bo‘sh vaqtlarda jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarni ham sodir etganliklari ma’lum bo‘lgan[6].

Mazkur jinoyatlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki qariyb 65% jinoyatlar mansabdor shaxslarning o‘zaro til biriktirishi natijasida sodir etilganligini ko‘rishimiz mumkin va davlat xamda jamiyat manfaatlariga juda ko‘p miqdorda zarar yetkazilayotganlini kuzatishimiz mumkin[7].

Barcha yuqorida keltirilgan harbiy xizmani o‘tash bilan bog‘liq mansabdor shaxslar birgalikda harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etadilar. Shuning uchun ham kriminalistika nuqtai nazaridan mazkur harbiy xizmatchilarnining tavsifini bir qator omillar sababli mustaqil guruhlarga bo‘linadigan keng ma’noda yig‘ma tushuncha deb tushunish kerak. Ularni batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyat sodir etgan harbiy xizmatchilarni birinchi guruhiga bo‘ysunish va harbiy sha’nga rioya etish tartibiga qarshi jinoyatlar sodir etishga moyil bo‘lgan muddatli harbiy xizmatchilar, kichik komandirlik va ofitserlik lavozimlarida haqiqiy xarbiy xizmat o‘tayotgan harbiy xizmatchilarni kiritsak bo‘ladi. Mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarning aksariyati harbiy qismlarda ichki tartibni ta’minlash va kun tartibini nazorat qiluvchi komandirlik lavozimlarida bo‘lganliklari sababli aksariyat hollarda o‘zlarini yakka hukmron sifatida tasavvur etgan holda bo‘ysunuvidagi harbiy-xizmatchi va xodimlarni Umumharbiy nizomlar talablari asosida emas balki o‘zlari o‘ylab topgan “dembel-dux” (boshliq va buysunuvchi) ta’limoti asosida jamoani boshqarish lozimligini atrofdagilarga singdirishga harakat qiladilar. Aynan shu omil, ijtimoiy-psixologik jihatdan turli, aksariyati hollarda bo‘ysunish va harbiy sha’nga rioya etish tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etishda yaqqol jinoiy xarakterga ega qilmishlarga undovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur turdagi jinoyatlar statistikasini ko‘radigan bo‘lsak tan-jarohat bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar salmog‘i oxirgi yillarda kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Tan-jarohati bilan bog‘liq harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar MDH davlatlarida umumiy jinoyatchilik statistikasida 2018 yilda 8 %, 2019 yilda 20%, 2020 yilda 21%, 2021 yilda 7% tashkil etgan[8].

Keyingi guruh tarkibiga harbiy mulkni saqlash yoki undan foydalanish tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etishga moyil bo‘lgan moddiy mansabdorlik lavozimlarida, shuningdek bevosita harbiy mulklarni tasarruf etish bilan bog‘lik lavozimlarda faoliyat yurituvchi harbiy xizmatchilarni kiritishimiz mumkin.

Mazkur toifadagi jinoyatlarni sodir etgan harbiy xizmatchilarni ikki guruhga ajratgan holda o‘rganamiz:

Birinchi – bevosita moddiy buyumlarni saqlanishi, tasarruf etilishi va foydalanilishi uchun javobgar bo‘lgan mansabdor shaxslar;

Ikkinchi – moddiy buyumlarni saqlanishi va foydalanishini be’vosita o‘zlari tomonidan amalga oshiriluvchi ijrochi harbiy xizmatchilar sirasiga kiradi. Mazkur yuqoridagi har ikkala toifadagi harbiy xizmatchilarning jinoyatni sodir etilishi mexanizmi va xarakterini o‘rganganimizda aksariyat hollarda asosan amaldagi Jinoyat kodeksining 295-moddasi (Harbiy mulkni behuda sarflash, yo‘qotish yoki ishdan chiqarish)da tartibga solingan jinoyatlarni sodir etilishida moddiy mansabdor shaxslarni qasddan harbiy mulkka nisbatan talon-toroj qilishga bo‘lgan intilishni shu bilan birga mansabdor shaxslarni harbiy mulkni tasarruf etish bilan bog‘liq holda moddiy manfaatdorlikka bo‘lgan qiziqish sababli sodir etilishini ko‘rishimiz mumkin.

Lekin, mazkur jinoyatlarni malakalashda aksariyat hollarda harbiy prokuratura tergovchilari tomonidan harbiy xizmatchilarni harbiy-kasbiy professionalizmidan kelib chiqqan hollarda mazkur toifadagi jinoyatlarni ayblovida qasddan sodir etilganligi bilan ayblanish holatlari uchraydi. Mazkur holatlar o‘z-o‘zidan harbiy texnika va harbiy mulkni tasarruf etish faoliyati bilan bog‘lik harbiy lavozimdagi harbiy xizmatchilarni o‘z faoliyatini yoki o‘ta darajada ehtiyotkorlik bilan, yoki o‘ta darajada beparvolik bilan bajarilishini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur omillarning barchasi yuqoridagi toifadagi harbiy xizmatchilarni jinoiy javobgarlikka tortilishga moyilligini oshirgani barobarida, harbiy xizmat mashaqqatlarini beparvolarcha mensimaslik ruhiyatini shakllantirishga sabab bo‘ladi.

Keyingi guruh tarkibiga harbiy mansabdorlik jinoyatlarini sodir etishga moyil bo‘lgan jinoyatchi guruhiga ajratishimiz mumkin. Mazkur turdagi jinoyatlar aksariyat

hollarda qo‘mondonlik takibidagi harbiy xizmatchi va boshliqlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu toifaga kiruvchi mansabdor shaxslarni jinoyatchi portretini o‘rganganimizda ushbu toifa harbiy xizmatchilar o‘ta darajada o‘z-o‘ziga ishonish yoki o‘ta darajada beparvolik natijasida sodir etilishini ko‘rishimiz mumkin.

Tahlililar shuni ko‘rsatadiki, mazkur toifadagi harbiy mansabdor shaxslarning shu turdagi jinoyatlarni sodir etilishiga bir qancha omillar yetakchi rol o‘ynaganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, harbiy rahbarlik mansabdor shaxslarni uzoq muddat bir joyda mansabdor lavozimlarda xizmat olib borishi, shuningdek mansabdor shaxslarni mansabdorlik vakolatlarini o‘z-o‘ziga Umumharbiy nizomlar talablaridan chiqqan holda vakolatlarni berishi aksariyat hollarda sabab bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan omilning ta’siri ostida ushbu guruhlardagi harbiy xizmatchilar harbiy ximat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etishning turli usullarini kashf etadi, bunda ko‘pincha harbiy sohada shaxsiy tarkibni shtat lavozimlari va shaxsiy ma’lumotlari davlat siri darajasida maxfiylashtirilganligi sababli sohada axborot telekomunikatsiya yutuqlaridan foydalanish foizining kamligi shuningdek, tizimni elektronlashtirilmaganligi natijasida haligacha harbiy mulkni xisobi ananaviy qog‘ozga qayd etilishi oqibatida yagona reestrni yo‘qligi harbiy mulk bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etilishiga sharoit yaratishini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, mazkur guruhga kiritilayotgan jinoyatchilarda yaqqol g‘ayriqonuniy jinoiy rejalarni oldindan tuzgan holda qasddan sodir etilishi – ularning o‘ziga xos xususiyatidir. Ular tomonidan sodir etilayotgan deyarli barcha harakatlar harbiy mansabdor shaxslarni moddiy manfaatdor bo‘lishiga va harbiy jamoada o‘z ta’sirini oshirish maqsadida sodir etilishini ko‘rishimiz mumkin[9].

Harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi sodir etilgan jinoyatlar sohasida mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etishga moyil bo‘lgan harbiy xizmatchilarni jinoyat sodir etishida o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) jinoyatga puxta va maqsadli tayyorgarlik ko‘rilganligi;

2) jinoyat sodir etilishida ananaviy metodlardan foydalanganligi (muqaddam shu turdagi jinoyatlar ham aynan bir xil usulda sodir etilganligi);

3) jinoyat quroli sifatida harbiy moddiy buyumlar va qurol-aslaha vositalari va predmetlari ishlatilganligi;

4) jinoyatni yashirish choralari ko‘rilganligi;

5) voqea joyida (harbiy qismda) “tartib-intizom” o‘rnatilganlmaganligi.

Shu bilan birgalikda maxsus adabiyotlarda va olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etishda shaxsning kasalliklari insonning muttasil harbiy hayot rejimida yashaganligida vujudga keladi, ya’ni: doimiy harbiy hayotga o‘rganganligi, xaddan tashqari o‘zining yakka hokimlikda xis etishi, odatiy hayot rejimining buzilishi, bir doimiy hayot rejimidan ikkinchisiga rejadan tashqari o‘tishi, o‘zini tayyorlashga ajratiladigan vaqtning kamligi, axborot shovqinining sustligi kabi omillar harbiy xizmatchilarni jinoyat sodir etishlariga asosiy sabab bo‘lib xizmat qilishini ko‘rishimiz mumkin.

Albatta hozirda dunyo tajribasida mazkur masalalarni yoki kriminalistik nuqta’i nazardan va tibbiy-psixologik nuqta’i nazardan olimlar tomonidan o‘rganilgan holda yagona liderlikka intilishga moyil bo‘lgan komandirlarni psixologik holatini tadqiq etish va kriminalist olimlar tomonidan jinoyatni sodir etilishiga sabab bo‘lgan kriminalistik omillar tadqiq etish orqali masalani yechimini topish yuzasdan taklif ishlab chiqilmoqda[10].

Shu sababli, hozirgi kunda umumiy asoslarga ko‘ra amaliyotda o‘ta og‘ir va shaxs o‘limi bilan bog‘liq holatda sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan majbariy tartibda sud tibbiyot psixiatrik ekpertiza tayinlanish amaliyoti mavjud. Mazkur amaliyotdan maqsad, shaxsning jinoyat sodir etishi jarayonida shaxsning ruhiy holati va uning harakatlariga huquqiy baho berish va jinoyatni malakalashda e’tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan holat hisoblanadi. Masalan, qastdan odam o‘ldirish jinoyatini tergovchi tomonidan malakalash jarayonida uning kuchli ruhiy hayajon natijasida qastdan odam o‘ldirmaganligini isbotlovchi omil sifatida sud psixiatrik ekspertizasi muhim rol o‘ynaydi. Sababi, mazkur holatda qastdan odam o‘ldirganlik uchun javobgarlik JKning

98-moddasi bilan tartibga solinganligini e’bordan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Shu va boshqa omillarni hisobga olgan holda harbiy mansabdorlik jinoyatlarini ham tahlil etganimizda JKning 301-moddasi bilan tartibga solingan boshliq yoki boshqa mansabdor shaxsning o‘z hokimiyat yoki xizmat mavqeini suiiste’mol qilishi, hokimiyat yoki xizmat vakolati doirasidan chetga chiqishi, shuningdek, hokimiyat harakatsizligi Qurolli Kuchlarning manfaatlariga, harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lishi jinoyati yuzasidan tergov jarayonida harbiy mansabdor shaxsning sodir etgan mansab vakolati doirasidagi bir jinoyati aksariyat hollarga keyingi og‘ir oqibatlarni oldini olish maqsadida keyingi turdagi mansabdorlik jinoyatlarini sodir etilishiga olib kelishini ko‘rimiz mumkin. masalan, harbiy qism komandiri tomonidan shaxsiy tarkibni o‘q otish mashg‘ulotlarida yetarli darajada nazorat qilinmaganligi, shaxsiy tarkibni o‘q-dorilarni iqsod qilib olib qolinishiga yoki behuda sarflanishiga olib keladi. Keyinchalik mazkur o‘q-dorilarni yo‘q qilish maqsadida komandir tomonidan qo‘shimcha amaliy o‘q otish mashg‘ulotini tashkil etishga yoki mazkur o‘q-dorilarni noqonuniy yo‘q qilish to‘g‘risida buysunuvchilarga og‘zaki ko‘rsatma berishi yetkazilgan mulkiy zarar va og‘ir oqibatni kelib chiqishiga qarab JKning 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyat tarkibini kelib chiqishiga sabab bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Shu sababli, mazkur turdagi jinoyatlarni malakalash jarayonida komandirning ruhiy holati va orqaga qaytib qarorini o‘zgartirish imkoni bo‘lmasligi holatini inobatga olgan holda malakalash va JKning shu turdagi jinoyatlarini malakalashda e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar yoki harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan intizomsizliklar yuzasidan harbiy qism komandiri yoki ta’lim muassasa rahbari tomonidan tayinlanadigan xizmat tekshiruvi va tergovga qadar tekshiruv borasida ham hozirgi kunda bir qator muammo va tushunmovchiliklar mavjud. Masalan, harbiy qism hududididan shaharga chiqishga ruxsat berilgan muddatli harbiy xizmat oddiy askari o‘z vaqtida harbiy qismga qaytib kelmasa yoki ma’lum bir muddatga kech qolsa mazkur masala amaldagi JKning 287-moddasi birinchi qismida ko‘rsatilgan jinoyat formal tarzda mavjud. Lekin, mazkur moddaning disspozitsiyasida muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisining harbiy qism yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketishi, shuningdek, harbiy qismdan qisqa muddatga ruxsat berilganda, boshqa xizmatga tayinlanganda yoki boshqa xizmat joyiga o‘tkazilganda, xizmat safaridan, otpuskadan yoki davolash muassasasidan uzrli sabablarsiz bir kecha-kunduzdan ortiq, lekin o‘n kecha-kunduzdan ko‘p bo‘lmagan muddat davomida xizmat joyida hozir bo‘lmasligi, shunday qilmishlar uchun intizomiy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin sodir etilsa jinoyat tarkibini berishi belgilangan. Ushbu holatda parallel ravishda qism komandiri tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Umumharbiy nizomlarining intizom nizomining 247-bandi talablarini buzganligi yuzasidan xizmat tekshiruvi tayinlanadi. Mazkur holatda amaldagi JPKning 329-moddasi tartibida 10 sutka muddatda tergovga qadar tekshiruv o‘tkazib qonuniy qaror qabul qilgan holda JPKning 527-moddasi tartibida harbiy prokurorga yuborilishi belgilangan.

Yuqoridagi holatda, ko‘rinib turibdiki xizmat tekshiruvi va tergovga qadar mazmunan bir xil bo‘lgan tushuntirish xatlari va boshqa aniqlashtiruvchi protsessual harakatlar orqali bir vaqtda olib boriladimi yoki har ikkila holat yuzasidan alohida-alohida ish yurituv olib boriladimi? Mazkur holatda hozirda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga aniqlik kiritilmagan. Lekin, amaliyotda hozirgi kunda holat yuzasidan xabar kelib tushgandan so‘ng xizmat tekshiruvini olib boruvchi mansabdor shaxs tomonidan xizmat tekshiruvi 7-8 kunda o‘tkazilib xulosasi beriladi va mazkur xulosa asosida tergovga qadar tekshiruv olib borayotgan mansabdor shaxs holatga aniqlik kiritgan holda qonuniy qaror chiqargan holda JPKning 527-moddasi tartibida harbiy prokurorga yuboradi.

Ushbu yuqoridagi holatda ko‘rinib turibdiki hozirda amalda bo‘lgan JPKning talablaridan chiqmagan holda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun yagona bo‘lgan xizmat tekshiruvni shtkazish tartibini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatni qo‘shma qaror asosida ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - https://lex.uz/docs/6445145 - murojaat sanasi 10.10.2025 yil.
2. M.I.Alimov. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik metodikasi / –Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. 95 b.
3. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/. – Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021/ - 630-b.
4. Maskevich I.M. “Prestupnost voennoslujaщix” avt.ref.d.yu.n. Moskva 2002. St. 4.
5. Israilov I.I. “Prestupleniya protiv poryadka podchinennosti i voinskix ustavnыx vzaimootnosheniy” avt.k.yu.n. Rostov-na-Donu – 2009.
6. Israilov I.I. “Prestupleniya protiv poryadka podchinennosti i voinskix ustavnыx vzaimootnosheniy” avt.k.yu.n. Rostov-na-Donu – 2009.
7. Muallif tomonidan o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra.
8. Sostoyanie prestupnosti v gosudarstvax-uchastnikax Sodrujestva Nezavisimыx Gosudarstv v 2022 godu -https://www.ksgp-cis.ru/about/obzory/sostojanie-prestupnosti-v-2019-godu?ysclid=ma0ny9vjw523566372 – murojaat sanasi 28.04.2025 yil.
9. Shestak V. A. Zarubejnыy opыt protivodeystviya pravonarusheniyam voennoslujaщix., Voenno-yuridicheskiy jurnal, 2016, N6.
10. Xananashvili M.M. Informatsionnыe nevrozы. M.: Meditsina, 1986. S. 290.

Ergasheva Shodiyaxon Eldor qizi
Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA KO‘P YO‘NALISHLI YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ingliz tilini o‘rganishda ko‘p yo‘nalishli yondashuvni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan bo‘lib, chet tilini o‘qitish jarayonida kommunikativ, kompetensiyaviy, integrativ va differensial yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi masalalari yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Ingliz tilini o‘qitish, ko‘p yo‘nalishli yondashuv, nazariy-metodologik asoslar, kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, CEFR, integrativ ta’lim, chet tilini o‘rganish metodikasi.
В данной статье анализируются теоретические и методологические основы развития междисциплинарного подхода к изучению английского языка и освещаются вопросы взаимной совместимости коммуникативного, компетентностного, интегративного и дифференцированного подходов в процессе обучения иностранному языку.
Ключевые слова: Преподавание английского языка, междисциплинарный подход, теоретические и методологические основы, коммуникативная компетентность, компетентностный подход, CEFR, интегративное образование, методология изучения иностранного языка.
This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the development of a multidisciplinary approach to learning English, and highlights the issues of the mutual compatibility of communicative, competency-based, integrative and differential approaches in the process of teaching a foreign language.
Keywords: English language teaching, multidisciplinary approach, theoretical and methodological foundations, communicative competence, competency-based approach, CEFR, integrative education, foreign language learning methodology.



O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimi umumiy globalizatsiya, savdo va iqtisodiy aloqalarning o‘sishi sharoitida faoliyat ko‘rsatmoqda. Mavjud vaziyat munosabati bilan, sohada xalqaro muloqot vositasi sifatida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘rganishga zarurat ortib bormoqda. Ushbu holatda aytish mumkinki, Bu esa, zamonaviy fan va texnologiyaning tez rivojlanishi hamda ilmiy yutuqlar va jamoatchilik qiziqishining ortishi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Yurtimizning asosiy tilshunoslik yo‘nalishiga ega bo‘lmagan oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha tadqiqotlar ayniqsa ESP (English for Specific Purposes) sohasiga qaratilgan. Biroq, bu yo‘nalishda professor-o‘qituvchilarning muntazam malaka oshirish amaliyotining mavjud emasligi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir qilmoqda, shuning uchun malaka oshirish va zamonaviy metodik qo‘llanmalarni doimiy yangilash zarurati mavjud.

Chet tilini mazmun bilan integratsiya qilish jarayoni yengil sanoat ta’lim sohasida eng faol qo‘llanilmoqda. Bu yondashuv zamonaviy fan va texnologiyaning tez rivojlanishi, ilmiy yutuqlar va jamoatchilik qiziqishining ortishi bilan bog‘liq bo‘lib, ESP o‘qitishda yangi metodik va innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.[1]

Umumyevropa tillarni o‘rganish, o‘qitish va baholash kompetensiyalari darajalari tizimining mualliflari ta’lim maqsadi sifatida xorijiy til muloqot kompetensiyalarining modelini asoslab berdilar, va uning asosida chet tilini o‘zlashtirganlikning boshlang‘ich-erkin muloqot darajalarini ishlab chiqdilar. Standart kategoriyalarni qo‘llab, Umumyevropa tillarni o‘rganish, o‘qitish va baholash kompetensiyalari darajalari tizimi (CEFR – common European framework of reference) mavzu va til bilan to‘lganlik, shuningdek 6 darajadagi baholash mezonlarini taqdim etadi: A1, A2, B1, B2, C1, C2. Muhokama va ish jarayonida o‘zlashtirganlik darajalari shkalasi bir qator o‘zgarishlarga uchradi va C1 va C2 darajalari bilan to‘ldirildi. Bunda oltita asosiy daraja bo‘lib, ularning har birida 3 tadan quyi-daraja mavjud bo‘lib, ular asosiy, oraliq va ilg‘or darajalardan iborat. Darajalar sxemasi butun tizimni 3 asosiy darajaga bo‘lishdan boshlanadi: A, B va C.

Bunday toifalash ma’lum darajada subyektiv bo‘lib, ba’zi darajalarni quyi darajalarga ajratish mumkin, biroq ularning asosiy ko‘rsatkichlari (parametrlari) va mezonlari ingliz tilini bilishning (o‘zlashtirganlikning) muayyan darajasini tavsiflovchi mezonlardan tashqariga chiqmasligi kerak.

Yagona tasniflash tizimidan foydalanish ishlab chiqilgan kurslar va o‘quv-uslubiy majmualarning shaffofligini ta’minlashini, shuningdek, imtihonlarda talabalar tomonidan olingan natijalarni birlashtirishga imkon berishini ta’kidlab o‘tish lozim. Amaliy tajriba to‘planib borgani sari darajalar shkalasi va tavsiflovchilarning (deskriptorlarning) o‘zi ham o‘zgarib boradi, deb taxmin qilinadi.

Talabaning chop qilingan va so‘zlanayotgan matnni idrok qilib, o‘z og‘zaki mulohazalarini va yozma matnni ishlab chiqara olish malakalari “Men buni bilaman/qila olaman/”, “chet tilida ... olaman” atamalari bilan tavsiflovchi “illyustrativ deskriptorlari” asosida tuzilgan. Deskriptorlarni tanlash darajalari va mezonlari tizimini ishlab chiqish uchun intuitiv, miqdoriy va sifatli kombinasiyalar kabi bir necha usullardan foydalanildi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida chet tilini o‘zlashtirganlik darajasini o‘lchash uchun mavjud bo‘lgan barcha shkalalar tahlil qilindi. Keyingi bosqichda esa, ushbu materiallar ekspertlar tomonidan tahlil qilindi va tasdiqlandi. Deskriptorlar miqdoriy usullar yordamida darajalarga ajratildi va qayta tekshiruvdan o‘tkazildi.

Muloqot sohasida chet til kompetensiyalarining tarkibiy qismlari aniqlandi:

– kognitiv zarur o‘quv va ma’lumotlarni sahih manbalardan (chet tilida) o‘zlashtirish qobiliyati; o‘quv-bilish vazifalarini yechishga, olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va sharhlashning adekvat yo‘l va vositalarini topishga tayyorlik;

– til/lingvistik: chet tilining umumiy va xarakterdagi leksik va grammatik minimum hajmni bilish;

– malaka: chet tili uchun zarur nazariy va amaliy lingvistik vositalardan foydalana olish malakasi;

– ko‘nikmalar: o‘rganilgan materialni taqdim etish va o‘z-o‘zini taqdim eta olish (prezentasiya) ko‘nikmalarini egallash; ilmiy tadqiqot ishlarini tayyorlash va amalga oshirish ko‘nikmalari; ilmiy maqolalar, annotasiyalar, insholar va boshq. yozish

ko‘nikmalari; o‘rganilgan materialni baxs-munozara va muhokama qilish ko‘nikmalari; ilmiy-texnik adabiyotlarni, texnik hujjatlarni tarjima qilish asoslari;

– mutaxasislik fanining mazmunini xorijiy tilda o‘zlashtirishga tayyorlik.

Xorijiy tillarni bilish darajalari tizimini rivojlantirish va baholash Yevropaning bir qancha loyihalari natijalariga asoslanganligini ta’kidlab o‘tish lozim. Shveysariya milliy tadqiqot Kengashi tomonidan amalga oshirilayotgan loyiha doirasida ta’limning turli pog‘onalari uchun chet tilini o‘zlashtirganlik darajalari va deskriptorlari tizimi ishlab chiqildi.[2] ALTE loyihasi va “qila olaman/bilaman” (Can-do) dasturi doirasida amalda ishlab chiqilgan va tekshiruvdan/sinovdan o‘tgan deskriptorlar tizimi asosan yoshi kattalar auditoriyasiga yo‘naltirilganligi tufayli “Ingliz tilini o‘zlashtirishning Umumyevropa kompetensiyalari” tizimiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. DIALANG loyihasi “Umumyevropa kompetensiyalarining” deskriptorlarini kengroq maqsadlar uchun moslashtirdi.

Ta’limning muayyan maqsadlariga bog‘liq ravishda, har bir darajani amalga oshirishning batafsil tavsifi nutq faoliyatining to‘rt turi orqali bayon qilinishi mumkin: tinglab tushunish, gapirish/ so‘zlash, o‘qish va yozish. Oliy ta’limning yangi avlod O‘zbekiston Davlat ta’lim standartlarini joriy etilganidan keyin, yengil sanoat oliy o‘quv yurtlari talabalariga xorijiy tillarni o‘rgatishdan maqsad chet tilida og‘zaki nutq malakasini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo‘ladi. Shu munosabat bilan “Umumyevropa shkalasiga” asoslangan holda xorijiy til professor-o‘qituvchilari talabalarning o‘qish, so‘zlash, yozish va tinglab tushunish ko‘nikmalarining boshlang‘ich darajasiga qarab talabalar uchun xorijiy tilda nutqni egallashlariga erishish uchun maqsad va vazifalarni belgilab olishlari mumkin.

Xorijiy tillarni o‘qitish uchun namunaviy dastur ingliz tilini asosiy ixtisosi tilshunoslik bo‘lmagan oliy ta’lim mussasasida o‘qitish uchun ko‘p darajali yondashuvni belgilaydi, va buning natijada talaba chet tilini A1 – A2 asosiy Umumyevropa darajasiga yoki ilg‘or (B1-B2) darajalariga mos keluvchi darajada o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Demak, DTS talablari, xorijiy tillar o‘qitish uchun namunali dastur va ingliz tilini o‘zlashtirganlik darajalarining Umumyevropa shkalasi “ta’lim jarayonini O‘zbekiston oliy ta’lim mussasalarida xorijiy til kursida talabaning xorijiy tildagi mahsuldor og‘zaki va yozma nutqi ustuvor (dominant), muntazam olinadigan ta’lim natijasi sifatida bo‘lishiga erishishni ko‘zlab tashkil qilish imkonini beradi”. Xorijiy tillardagi ta’lim faoliyatining boshqa turlari yordamchi hisoblanadi, chunki ular asosiy maqsadga erishishga yordam berish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi, va bunga o‘quv jarayonini maksimal darajada individuallashtirilganda erishsa bo‘ladi. O‘qitishning asosiy maqsad va vazifalarini bunday qo‘yish va xorijiy tillarni o‘qitishning barcha jarayonini shunga mos ravishda tashkil qilish “talabaning til o‘rganishda samarali rivojlanishini” ta’minlaydi.

English for specific purposes – maxsus maqsadlar uchun xorijiy til tushunchasi (MMYIT - ESP) 20-asrning 60-yillarida mutaxassislarning yangi avlodi talablariga javob beradigan ixtisoslashtirilgan (profilli) ingliz tilini o‘qitish sohasi sifatida paydo bo‘ldi. Kasbga yo‘naltirilgan o‘qitishning asoschilari T.Hachinson va A.Uotersning ma’lumotlariga ko‘ra, chet tillarni o‘qitish uchun ushbu yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish uchta asosiy omilga bog‘liq bo‘ladi.[3]

Birinchi omil tarixiy tabiatga ega bo‘lib, ikkinchi jahon urushining tugashi va undan keyingi ilm-fan, texnika va iqtisodiyot sohasidagi xalqaro munosabatlarning keyingi faol rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda AQSH yetakchi rol o‘ynagan va muloqot tili xorijiy tilbo‘lgan. MMYIT o‘qitishning rivojlanishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatgan ikkinchi tarixiy voqea o‘tgan asrning 70-yillarida boshlangan neft sanoatidagi inqiroz bo‘ldi. Bu holat natijasida moliyaviy mablag‘lar oqimlari neft qazib oluvchi mamlakatlarga yo‘naltirilib, u yerda eng yangi texnologik ishlanmalar joriy etildi va xorijiy tilbu soha mutaxassislarining muloqot tiliga aylandi.

Ikkinchi omil tilshunoslikdagi “inqilobiy” o‘zgarishlar bo‘lib, ularning diqqat-e’tibori tilning hayotdagi (real) muloqot jarayonida faoliyat ko‘rsatishiga qaratilgan bo‘lib, yozma va og‘zaki nutq o‘rtasidagi farqlar ajratilib, kontekstning o‘rni/roli va uning ahamiyati ta’kidlandi. 1960-yillarning ikkinchi yarmi va

1970-yillar boshida, xorijiy til ilm-fan

va texnologiya uchun (English for Science and Technology (EST) tushunchasi paydo bo‘ldi, va uni ishlab chiqishda J.R.Ever va G.Latorre[4], J.E.Lakstrom va L.Selinker[5], J.M.Svales[6] kabi mutaxassislar ishtirok etgan.

T.Hachinson va A.Uoterslarning [7] ma’lumotlariga ko‘ra, MMUIT yondashuvining shakllanishiga ta’sir qilgan uchinchi omil psixologiya bo‘ldi, chunki bu yondashuvda asosiy e’tibor bevosita talabaning o‘ziga, uning rag‘batlanganligiga (motivatsiyasiga), ehtiyojlariga va boshqalarga qaratildi. Shunday qilib, MMUIT ta’limi tabiati talabaga ham, umuman o‘quv jarayoniga ham qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Maxsus maqsadlar uchun ingliz tilining (English for specific purposes) asosiy tamoyillariga J.Sveyls quyidagi “doimiy tushunchalarni” ham kiritadi: haqiqiyligi (authenticity), ilmiy asoslanganligi (research-base), ishlatilgan til strukturalari, matnlar mavzulari (language/text), o‘qitish metodikasi (learning/methodology), talabalarning ehtiyojlari (needs analysis).

Lavozimlar pog‘onalarida muvaffaqiyatli o‘sish uchun mutaxassis nafaqat Umumiy darajadagi ingliz tilini (General English) egallagan bo‘lishi, balki o‘z mutaxassisligi doirasida chet tilida ravon, mustaqil muloqot qila olishi, ya’ni muayyan maqsadlar uchun xorijiy til (ESP) doirasida/professional ta’lim olgan bo‘lishi kerak.

Zotan, so‘nggi paytlarda muhandislik sohasidagi mutaxassislarning ilmiy-texnik bilimlarini doimiy to‘ldirib borish va yangilash hamda o‘z ma’lumotlari va chet tilida muloqot kompetensiyalari darajasini oshirish qobiliyati ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bular esa, bizning sohaga oid ayrim xulosalarga kelishmizga zamin yaratdi.

Birinchidan, xalqaro iqtisodiy va ilmiy-texnik aloqalarning jadallashuvi sharoitida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ingliz tilini, ayniqsa, maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) asosida o‘qitish zarurati keskin ortib bormoqda. Tilshunoslik asosiy ixtisos bo‘lmagan oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini kasbiy faoliyat bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish talabalarning xalqaro akademik va professional muhitga moslashuvini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, CEFR (Common European Framework of Reference) asosida ko‘p darajali yondashuvni joriy etish talabalarning chet tilini o‘zlashtirish darajasini aniq baholash, ta’lim natijalarining shaffofligini ta’minlash hamda o‘qitish jarayonini tizimli tashkil etish imkonini beradi. Biroq mazkur tizimning samaradorligi ko‘p jihatdan xorijiy til professor-o‘qituvchilarining metodik va kasbiy kompetensiyalariga bog‘liq bo‘lib, ularning ESP sohasidagi muntazam malaka oshirish amaliyotining yetarli emasligi ta’lim sifati pasayishiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, ko‘p darajali va ko‘p tarmoqli (profilli) yondashuvga asoslangan, xorijiy til va mutaxassislik fanlari mazmunini integratsiyalashgan holda o‘qitish modeli talabalarda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki kasbiy-muloqot kompetensiyalarini ham shakllantiradi. Ayniqsa, yengil sanoat ta’limi misolida mazkur integratsiyaning samarali natijalari kuzatilayotgan bo‘lsa-da, ta’lim jarayonida fanlararo uyg‘unlik hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Keltirib o‘tilgan yo‘nalishlardagi tilshunoslikka oid qarashlar orqali quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Tilshunoslik asosiy ixtisos bo‘lmagan oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xorijiy til professor-o‘qituvchilari uchun ESP yo‘nalishiga ixtisoslashgan muntazam malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Ushbu dasturlar CEFR talablariga mos holda kasbiy yo‘nalish, fan mazmuni va kommunikativ metodikalarni integratsiyalashgan holda tashkil etilishi lozim.

2. Ingliz tilini o‘qitish jarayonida ko‘p darajali va ko‘p tarmoqli yondashuvga asoslangan yagona metodik konsepsiyani ishlab chiqish va uni davlat ta’lim standartlari hamda namunaviy o‘quv dasturlariga uyg‘unlashtirish lozim. Bu esa, talabalarning kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan xorijiy til kompetensiyasini shakllantirish, ularning ilmiy va professional muloqotdagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ingliz tilini o‘rganishda ko‘p yo‘nalishli yondashuv zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu yondashuv talabalarning lingvistik, kommunikativ va kasbiy ehtiyojlarini kompleks tarzda qondirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyaning ta’minlanishi ingliz tilini real kasbiy muhit bilan bog‘lash imkonini beradi. Ko‘p yo‘nalishli yondashuv

individual o‘qitish traektoriyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, mazkur yondashuv orqali talabalar tilni nafaqat akademik, balki amaliy faoliyat vositasi sifatida o‘zlashtiradilar. Natijada ingliz tilini o‘qitish jarayonida ko‘p yo‘nalishli yondashuvni amaliyotga joriy etish orqali tizimli rivojlanishga erishish mumkin.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Ergasheva Sh. Ingliz tilida lisoniy til taktikasi ma’nolarini farqlash usuli. “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy elektron jurnali. 103-bet.
2. Ergasheva Sh.E., Enhancing critical thinking skills at the lessons og foreign language. “Research-based transformation of teacher aducation: tradition as a basis for innovation” international conference on teacher education. P 547-551.
3. Hutchinson, T. English for Specific Purposes: A learning-centred approach / T.Hutchinson, A.Waters. – Cambridge: CUP., 1998. -183p.
4. G.Latorre, Ewer, J.R. A course in basic scientific English / J.R.Ewer,. London: Longman, 1969. – 145p.
5. L.Selinker, Lackstrom, J.E. Technical rhetorical principles and grammatical choice / J.E.Lackastrom, // TESOL Quarterly. -1973. -№ 7. –P. 127-136.
6. Swales, J.M. The role of the textbook in EAP writing research / J.M.Swales // English for Specific Purposes. -1995. –Vol. 14. № 1. –P. 3-18.
7. Hutchinson, T. English for Specific Purposes: A learning-centred approach / T.Hutchinson, A.Waters. – Cambridge: CUP., 1998. -183p.

Абдуллаева Асила Олимовна,
Базовый докторант, Каршинский государственный университет,
Факультет педагогики, Карши, Узбекистан

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ SIMULATION-BASED COMPETENCY MODEL (SBCM) В ИНЖЕНЕРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Статья посвящена разработке и педагогическому обоснованию Simulation-Based Competency Model (SBCM) — структурированной модели формирования профессиональных компетенций будущих инженеров нефтегазовой отрасли. Модель ориентирована на интеграцию имитационного моделирования в образовательный процесс в условиях цифровизации, высокой динамики и неопределённости инженерной практики. В работе раскрывается методологическая база SBCM, включающая деятельностный, контекстный, компетентностный, системный и личностно-ориентированный подходы. Представлены ключевые компоненты модели: мотивационно-ценностный, когнитивно-деятельностный, технологический и рефлексивно-оценочный.

Ключевые слова: Simulation-Based Competency Model; инженерное образование; имитационное обучение; профессиональные компетенции; симуляционно-деятельностный подход; нефтегазовая отрасль; педагогическая модель; цифровая трансформация; гибкие навыки; личностно-ориентированный подход.

The article is devoted to the development and pedagogical justification of the Simulation-Based Competency Model (SBCM)—a structured model for the formation of professional competencies of future engineers in the oil and gas industry. The model is aimed at integrating simulation modeling into the educational process under conditions of digitalization, high dynamics, and uncertainty in engineering practice. The work reveals the methodological framework of SBCM, which includes activity-based, contextual, competency-based, systemic, and learner-centered approaches. The key components of the model are presented: motivational-value, cognitive-activity, technological, and reflective-evaluative.

Keywords: Simulation-Based Competency Model; engineering education; simulation-based learning; professional competencies; simulation-activity approach; oil and gas industry; pedagogical model; digital transformation; soft skills; learner-centered approach.

Maqola Simulation-Based Competency Model (SBCM) — neft va gaz sanoati muhandislarini tayyorlashda professional kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan strukturaviy pedagogik modelni ishlab chiqish va asoslashga bag‘ishlangan. Mazkur model muhandislik amaliyotidagi raqamlashtirish, yuqori dinamiklik va noaniqlik sharoitida imitatsion modellashtirishni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishga yo‘naltirilgan. Ishda SBCMning metodologik asoslari — faoliyatga asoslangan, kontekstual, kompetensiyaviy, tizimli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar ochib beriladi. Modelning asosiy tarkibiy qismlari: motivatsion-qiymatli, kognitiv-faoliyatli, texnologik va reflektiv-baholovchi komponentlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Simulation-Based Competency Model; muhandislik ta’limi; imitatsion o‘qitish; professional kompetensiyalar; simulyativ-faoliyatli yondashuv; neft va gaz sohasi; pedagogik model; raqamli transformatsiya; moslashuvchan ko‘nikmalar; shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.



Современный этап развития инженерного образования характеризуется необходимостью внедрения инновационных дидактических решений, направленных на формирование у обучающихся не только профессиональных, но и метапредметных компетенций, а также гибких навыков, обеспечивающих готовность к профессиональной деятельности в условиях высокой динамики и неопределённости. В данной связи особое значение приобретает интеграция имитационных технологий в образовательный процесс, выступающая как эффективный инструмент создания адаптивной, контекстуализированной и практикоориентированной образовательной среды.

В рамках исследования разработана и внедрена Simulation-Based Competency Model (SBCM) — структурная педагогическая модель формирования профессиональных компетенций будущих специалистов в области нефтегазовой промышленности. Разработанная модель представляет собой системно организованную педагогическую конструкцию, охватывающую ключевые аспекты формирования профессиональной компетентности обучающихся на основе симуляционно-деятельностного подхода. Её структура включает в себя совокупность взаимосвязанных компонентов, каждый из которых выполняет определённую функцию в образовательном процессе и в совокупности обеспечивает целостность модели.

Центральным элементом выступает мотивационно-ценностный компонент, ориентированный на формирование устойчивой внутренней установки студентов к профессиональному развитию, осмысленное включение в учебную деятельность и принятие личной ответственности за результаты собственного обучения. Когнитивно-деятельностный компонент модели направлен на овладение систематизированными знаниями в рамках профильной инженерной подготовки, а также на развитие практических умений и навыков решения как типовых, так и нестандартных инженерных задач, что отражает прикладной характер подготовки. Технологический компонент обеспечивает реализацию учебного процесса посредством использования цифровых платформ и симуляционных средств, позволяющих воспроизводить логические и операционные структуры производственных процессов в условиях учебной среды, тем самым создавая эффект приближённости к реальной профессиональной практике. Завершающим элементом модели является рефлексивно-оценочный компонент, ориентированный на развитие способности к самоконтролю, самооценке, осознанию динамики собственного профессионального становления и соотнесению результатов обучения с требованиями современных профессиональных стандартов.

В совокупности перечисленные компоненты формируют целостную архитектуру модели, способную адаптироваться к особенностям образовательной среды и обеспечить результативное формирование компетенций, востребованных в условиях современной инженерной практики.

Реализация каждого из компонентов происходит в рамках взаимодействия основных субъектов образовательного процесса – преподавателя, студента и имитационной образовательной среды, функционирующих в логике системной взаимодополняемости. Таким образом, системный подход обеспечивает целостность, структурную завершённость и управляемость модели, что делает её эффективным инструментом формирования профессиональных компетенций в условиях симуляционно-деятельностного обучения.

Модель SBCM ориентирована на адаптацию содержания дисциплин инженерно-технического профиля к симуляционно-деятельностной форме обучения, предполагающей проектирование и реализацию типовых производственных сценариев, характерных для нефтегазовой отрасли.

Целью Simulation-Based Competency Model (SBCM) является создание структурированной педагогической модели, обеспечивающей формирование профессиональных компетенций будущих специалистов нефтегазовой отрасли посредством интеграции имитационного моделирования в образовательный процесс. Модель направлена на адаптацию содержания профильных дисциплин к симуляционно-деятельностной форме обучения, опирающейся на типовые

производственные сценарии, с учётом требований отраслевой практики, современных цифровых инструментов и компетентностного подхода. Достижение цели предполагает целенаправленное развитие мотивационно-ценностных установок, когнитивных и практических умений, технологической грамотности и рефлексивной способности обучающихся к профессиональному самоопределению и самооценке.

Разработка и реализация модели Simulation-Based Competency Model (SBCM), направленной на формирование профессиональных компетенций будущих специалистов нефтегазовой отрасли, базируется на совокупности современных педагогических и психологических концепций, отражающих системный, компетентностный и деятельностный подходы к организации профессионального образования.

Во-первых, деятельностный подход выступает в качестве одной из фундаментальных методологических основ проектируемой модели, поскольку трактует обучение как активный и целенаправленный процесс, в рамках которого обучающийся осваивает не только содержание учебного материала, но и формы, способы и структуру будущей профессиональной деятельности. В качестве методологических оснований настоящего исследования принимаются идеи Л.С. Выготского и А.Н. Леонтьева, согласно которым психологическая характеристика явления рассматривается не как статичное описание его внешних проявлений, а как выявление специфики его внутренней структуры, формируемой в процессе практической деятельности субъекта[1]. Такое понимание позволяет рассматривать образовательные процессы, в том числе имитационное обучение, как пространство активного развития личности и формирования профессионально значимых характеристик субъекта.

В данном контексте имитационное моделирование рассматривается как эффективный дидактический инструмент организации квазипрофессиональной деятельности, обеспечивающий включение студентов в решение проблемных производственных задач, моделирующих реальные условия функционирования отрасли. Это, в свою очередь, способствует формированию устойчивой мотивации, развитию профессионального мышления и закреплению поведенческих стратегий, адекватных задачам будущей инженерной практики.

Во-вторых, контекстный подход представляет собой ключевую методологическую основу разработанной модели, направленную на формирование у обучающихся опыта профессионального мышления, поведения и деятельности. По мнению А.А. Вербицкого, контекстное обучение должно строиться таким образом, чтобы учебная деятельность по своей структуре и содержанию приближалась к профессиональной, обеспечивая тем самым переход от усвоения знаний к их практическому применению в условиях, моделирующих реальные производственные ситуации[2]. Деловая игра в полной мере отражает сущность такого подхода, так как она интегрирует когнитивный, мотивационно-ценностный и деятельностный компоненты, актуализируя профессиональные смыслы и формируя у обучающихся опыт принятия решений, ролевого взаимодействия и рефлексии. Следовательно, использование деловых игр в рамках Simulation-Based Competency Model (SBCM) соответствует теоретическим установкам контекстного обучения и обеспечивает эффективное формирование профессиональной компетентности.

В соответствии с положениями данного подхода, образовательный процесс должен строиться таким образом, чтобы учебная деятельность студентов приобретала характеристики, максимально приближённые к условиям реальной инженерной практики. Это достигается за счёт включения обучающихся в специально сконструированные контекстные учебные ситуации, отражающие структуру, динамику и проблематику профессиональной среды. Имитационное моделирование в данной парадигме выступает как механизм переноса академических знаний в плоскость практикоориентированной деятельности, обеспечивая, тем самым, плавный переход от учебной к профессиональной деятельности и способствуя формированию у студентов готовности к функционированию в условиях реального производственного контекста.

В-третьих компетентностный подход выступает теоретической и методологической основой при определении целевых ориентиров проектируемой педагогической модели, ориентированной на формирование интегральной готовности обучающегося к выполнению профессиональных функций в условиях реального производственного контекста. Согласно положению, сформулированному И.А. Зимней, компетентность представляет собой интегральную характеристику личности, включающую как интеллектуальный, так и личностно-ценностный компоненты. Она охватывает не только результаты обучения в виде усвоенных знаний, умений и навыков, но и систему устойчивых ценностных ориентаций, поведенческих установок, привычек и личностных предпочтений, определяющих готовность субъекта к продуктивной деятельности в различных профессиональных и жизненных ситуациях[3].

В соответствии с данным подходом, ключевой задачей профессионального образования становится развитие совокупности компетенций, представляющих собой синтез знаний, умений, навыков, личностных установок и поведенческих моделей, обеспечивающих успешную профессиональную деятельность и адаптацию выпускника в быстро меняющейся социотехнической среде.

В-четвертых, системный подход служит методологической основой для конструирования Simulation-Based Competency Model (SBCM) как целостной, внутренне упорядоченной и функционально согласованной дидактической системы. Согласно позиции В.М. Монахова, даже в условиях активного внедрения информационных технологий в образовательный процесс необходимо сохранять логико-психологическую основу традиционного обучения, основанную на поэтапном формировании учебных действий обучающихся посредством целенаправленного конструктивного анализа, моделирования предметных сред и последовательного усложнения содержания учебных заданий[4].

В частности, опорной методологической основой служит тезис Б.Г.Ананьева о том, что человек является субъектом общения, познания и труда, что предполагает необходимость учитывать в структуре компетенции как когнитивные и деятельностные компоненты, так и коммуникативно-личностные характеристики[5].

В логике данного подхода модель рассматривается как совокупность взаимосвязанных и взаимозависимых компонентов, каждый из которых выполняет определённую педагогическую функцию и обеспечивает достижение стратегических целей профессионального образования.

В-пятых, личностно-ориентированный подход составляет важное методологическое основание разработки Simulation-Based Competency Model (SBCM), придавая модели адаптивный и гуманистически направленный характер. С точки зрения Е.В. Бондаревской, применение личностно-ориентированного подхода в контексте имитационно-деятельностной модели обучения предполагает такую организацию образовательного процесса, при которой содержание, темпы и формы учебной деятельности гибко адаптируются к индивидуальным особенностям, потребностям и профессиональным интересам обучающихся, что способствует формированию устойчивой внутренней мотивации и личностной включённости студента в процесс профессионального становления[6].

В соответствии с данным подходом образовательный процесс должен строиться с признанием ценности и уникальности каждого обучающегося как субъекта собственной образовательной траектории. Это предполагает необходимость проектирования такой педагогической среды, в которой учитываются индивидуальные особенности студентов, их профессиональные интересы, уровень предшествующей подготовки, а также стиль познавательной деятельности и предпочтения в освоении учебного материала.

Применительно к Simulation-Based Competency Model (SBCM) личностно-ориентированный подход реализуется через гибкую адаптацию содержания, темпов и организационных форм симуляционно-деятельностного обучения к индивидуальным особенностям конкретной учебной группы. Это проявляется, прежде всего, в индивидуализации заданий, использовании вариативных

ролевых сценариев и предоставлении студентам возможности выбора образовательной траектории в процессе имитационного моделирования. Важное значение придаётся включению обучающихся в процедуры самооценки и целеполагания, что способствует осмысленному восприятию учебного процесса и формированию личной ответственности за образовательные результаты. Кроме того, личностная включённость усиливается за счёт создания атмосферы сопричастности, обеспечения субъектной позиции обучающегося, а также развития учебной мотивации через элементы сотрудничества, доверия и выбора.

В-шестых, теория имитационного обучения и симуляционного моделирования (Р. Шеннон, В.Я. Платов, И.Н. Быстрова, А.П. Панфилова) представляет собой фундаментальную основу для обоснования применения имитационных технологий в системе профессионального образования. Согласно данному теоретическому направлению, симуляционное обучение выступает в качестве особой формы педагогической деятельности, в которой образовательные цели достигаются посредством моделирования профессиональных ситуаций и управляемого экспериментирования с учебными условиями, приближенными к реальным производственным процессам.

В рамках Simulation-Based Competency Model (SBCM) имитационное моделирование рассматривается не только как метод, но и как среда формирования профессионального опыта, где студенты получают возможность отрабатывать навыки принятия решений, анализировать производственные сценарии, взаимодействовать в командах и рефлексировать собственную деятельность без риска для реальных объектов и процессов.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М., Политиздат, 1975.
2. Вербицкий А.А. Контекстное обучение и становление новой образовательной парадигмы. - М., 2000.
3. Зимняя И.А. Педагогическая психология. - Ростов-на-Дону, 1997.
4. Монахов В.М. Технологические основы проектирования и конструирования учебного процесса. - Волгоград: Перемена, 1995.
5. Ананьев, Борис Герасимович (1907-1972.). Избранные труды по психологии / Б. Г. Ананьев. — Санкт-Петербург : Изд-во Санкт-Петербургского ун-та, 2007-. — 22 см — (Российская психология: петербургская научная школа); ISBN 978-5-288-04394-9.
6. Бондаревская Е. В. Теория и практика личностноориентированного образования. - Ростов-на-Дону, 2000.

Maxmudov Komoliddin Rozmetovich,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
mustaqil izlanuvchi

RISKLAR VA BARQARORLIK: REZERVLASh, ALM, LIKVIDLIK VA QAYTA SUG‘URTA ARXITEKTURASI

Ушбу параграфда суғурта компанияларининг молиявий барқарорлигини таъминлашнинг назарий ва амалий механизмлари комплекс ёндашув асосида таҳлил қилинади. Тадқиқот доирасида суғурта фаолиятининг стохастик табиати инобатга олинган ҳолда резервлаш тизими, актив–мажбуриятларни бошқариш (ALM), рискка асосланган капитал (Risk-Based Capital) модели ҳамда қайта суғурта архитектурасининг ўзаро боғлиқлиги очиб берилади. МҲХС 17 “Суғурта шартномалари” стандартига ўтишнинг суғурта компаниялари капитали ва тўлов қобилиятига таъсири илмий жиҳатдан баҳоланади. Шунингдек, миллий қайта суғурта пулини жорий этиш орқали риск экспортини камайтириш ва ликвидликни мустаҳкамлаш имкониятлари асосланади. Тадқиқот натижалари суғурта бозорини иқтисодиётнинг стратегик инвестициявий воситачиси сифатида ривожлантириш учун амалий аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: суғурта бозори, молиявий барқарорлик, суғурта резервлари, ALM, ликвидлик, Risk-Based Capital, МҲХС 17, қайта суғурта, миллий қайта суғурта пули, рискларни бошқариш

В данном параграфе на основе комплексного подхода анализируются теоретические и практические механизмы обеспечения финансовой устойчивости страховых компаний. С учетом стохастической природы страховой деятельности раскрывается взаимосвязь системы резервирования, управления активами и обязательствами (ALM), модели капитала, ориентированного на риск (Risk-Based Capital), и архитектуры перестрахования. Дается научная оценка влияния перехода на стандарт МСФО (IFRS) 17 «Договоры страхования» на капитал и платежеспособность страховых компаний. Также обосновываются возможности снижения экспорта рисков и укрепления ликвидности путем внедрения национального перестраховочного пула. Результаты исследования имеют практическое значение для развития страхового рынка как стратегического инвестиционного посредника экономики.

Ключевые слова: страховой рынок, финансовая устойчивость, страховые резервы, ALM, ликвидность, Risk-Based Capital, МСФО 17, перестрахование, национальный перестраховочный пул, управление рисками.

This section analyzes the theoretical and practical mechanisms for ensuring the financial stability of insurance companies based on a comprehensive approach. Given the stochastic nature of insurance activities, the interconnectedness of the reserving system, Asset-Liability Management (ALM), the Risk-Based Capital (RBC) model, and reinsurance architecture is revealed. A scientific assessment is provided on the impact of transitioning to the IFRS 17 «Insurance Contracts» standard on the capital and solvency of insurance companies. Furthermore, the possibilities of reducing risk export and strengthening liquidity through the establishment of a national reinsurance pool are substantiated. The research findings carry practical significance for developing the insurance market as a strategic investment intermediary in the economy.

Keywords: insurance market, financial stability, insurance reserves, ALM, liquidity, Risk-Based Capital, IFRS 17, reinsurance, national reinsurance pool, risk management.



O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining transformatsiyalashuvi va global moliyaviy tizimga integratsiyalashuvi sharoitida sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligini ta’minlash strategik ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Sug‘urta bozori iqtisodiyotning nafaqat himoya vositasi, balki muhim investitsiya manbaiga aylanishi kerak”[1]. Bu esa sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy resurslarini boshqarish mexanizmini tubdan takomillashtirishni talab etadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda sug‘urta sohasini isloh qilishning huquqiy va institutsional asoslari sifatida Prezidentimizning 2019 yil

2 avgustdagi PQ-4412-sonli “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [2] hamda 2021 yil 23 oktyabrdagi “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda [3]. Ushbu hujjatlarda sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyatini oshirish, zaxiralarni shakllantirishning xalqaro standartlariga o‘tish va qayta sug‘urta tizimini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, majburiyatlarning ijrosi kelajakdagi noaniq hodisalarga bog‘liq bo‘lib, bu kompaniyadan yuqori darajadagi likvidlik va moliyaviy immunitetni talab qiladi. Sug‘urta bozori ishtirokchilarining barqarorligi to‘rtta uzviy bog‘liq bo‘lgan elementdan iborat:

Adekvat sug‘urta rezervlarini shakllantirish — bu mijozlar oldidagi bo‘lajak to‘lovlarning kafolatidir;

ALM (Asset Liability Management) mexanizmi — aktivlar va majburiyatlarning muddat va hajm jihatdan mutanosibligini ta’minlash;

Likvidlikni boshqarish — kutilmagan yirik zararlarni qoplash uchun mablag‘larning tezkor safarbarligi;

Qayta sug‘urta arxitekturasi — xavflarni taqsimlash orqali kompaniya kapitalini himoyalashdir.

Prezident islohotlarining hozirgi bosqichida sug‘urta bozori oldida turgan eng dolzarb masala — bu riskka asoslangan kapital (Risk-Based Capital) modellariga va MHXS 17 “Sug‘urta shartnomalari” xalqaro standartiga izchil o‘tishdir[4]. Bu nafaqat ichki bozorda sog‘lom raqobatni yuzaga keltiradi, balki milliy sug‘urta bozorining xalqaro reytinglardagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, sug‘urta bozori ishtirokchilarining moliyaviy mexanizmi murakkab stoxastik (kelajakdagi holatini mutlaq aniqlik bilan bashorat qilib bo‘lmaydigan, voqealar rivojida tasodifiylik omili mavjud bo‘lgan tizimdir) tizim bo‘lib, uning barqarorligi risklarni transformatsiya qilish va kapital oqimlarini optimallashtirish sifatiga bog‘liq. Ushbu sohadagi ilmiy qarashlar evolyusiyasi mahalliy iqtisodchilarning sug‘urtani milliy investitsiya manbai sifatida talqin qilishidan boshlanib, g‘arb maktabining matematik risk-menejment konsepsiyalarigacha bo‘lgan keng spektrni qamrab oladi.

Mahalliy iqtisodiy maktab vakillari sug‘urta mexanizmini milliy iqtisodiyotning institutsional bo‘g‘ini sifatida tadqiq etadilar. Xususan, H.S. Muhiddinov sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ularning investitsiyaviy jozibadorligi bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, sug‘urta rezervlarining shakllanishi nafaqat majburiyatlarni bajarish kafolati, balki iqtisodiyotga yo‘naltiriluvchi “uzoq muddatli pullar” (long money) generatoridir[5]. Shuningdek, iqtisodchi olim Sh.R. Qobilov esa sug‘urta zaxiralarini baholashda buxgalteriya hisobi va aktuar hisob-kitoblarning uyg‘unligini ta’minlash, xususan, MHXS 17 “Sug‘urta shartnomalari” standartiga o‘tish orqali moliyaviy shaffoflikka erishish lozimligini ta’kidlaydi[6]. Uning qarashlarida rezervlash mexanizmi sug‘urtalovchining to‘lov qobiliyatini belgilovchi eng muhim indikator sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan bir qatorda, N.N. Shennaev sug‘urta tashkilotlarining likvidligini boshqarishda aktivlarning sifat tarkibi va ularning tezkor safarbarlik darajasiga (asset quality) urg‘u beradi. Uning nazariyasiga ko‘ra, kompaniyaning likvidligi faqat pul mablag‘larining mavjudligi emas, balki aktivlar va majburiyatlarning muddat bo‘yicha mutanosibligidir[7]. Bu yondashuv X.B. Abdullaevning qayta sug‘urta bo‘yicha ilmiy qarashlari bilan to‘ldiriladi. X.B. Abdullaev qayta sug‘urta arxitekturasini

“milliy sug‘urta sig‘imini kengaytirish va tizimli risklarni eksport qilish” mexanizmi sifatida ta’riflaydi, bu esa ichki bozorning moliyaviy immunitetini oshirishga xizmat qiladi[8].

Rossiya va MDH iqtisodchilarining qarashlarida esa sug‘urta mexanizmi “risklarni ijtimoiy-iqtisodiy taqsimlash” tizimi sifatida talqin etiladi. V.V. Shaxov sug‘urta kompaniyasining barqarorligini ta’minlashda qayta sug‘urtani «ikkilamchi moliyaviy filtr» deb ataydi. Uning fikricha, hech bir sug‘urta kompaniyasi yirik kutilmagan zararlarni faqat o‘z kapitali hisobidan qoplay olmaydi[9]. L.I. Orlanyuk-Maliskaya esa sug‘urtalovchining moliyaviy mexanizmini “dinamik muvozanati” konsepsiyasi orqali yoritadi. U rezervlarni shakllantirishda prudensial (ehtiyotkorlik) tamoyilini ustuvor deb biladi va likvidlikni boshqarishda risk-appetit darajasini inobatga olishni taklif qiladi[10].

G‘arb (Evropa va AQSh) maktabi vakillari esa asosiy e’tiborni ALM (Asset Liability Management) va Solvency II standartlariga qaratadilar. Garri Markovis tomonidan ishlab chiqilgan portfel nazariyasi sug‘urta kompaniyalari uchun aktivlarni investitsiya qilishda risk va daromadlilik muvozanatini topishning matematik asosi bo‘ldi[11]. Bugungi kunda ushbu nazariya sug‘urta majburiyatlarining davomiyligini (duration) aktivlarning davomiyligi bilan moslashtirish tizimiga transformatsiya bo‘lgan.

Dj. Dikson va F. Lundberglar esa “ruina nazariyasi” (theory of ruin) doirasida sug‘urta kompaniyasining bankrotlik ehtimolini minimallashtirish uchun rezervlar va qayta sug‘urtaning optimal nisbatini stoxastik algoritmlar yordamida isbotlaganlar[12].

Osiyo, xususan, yapon iqtisodchisi K. Kato bank-sug‘urta (Bancassurance) modelini rivojlantirish orqali likvidlik xavfini kamaytirish mumkinligini ilgari suradi. Uning fikricha, sug‘urta kompaniyasining moliyaviy mexanizmi bank sektori bilan integratsiyalashgandagina yuqori tizimli barqarorlikka erishadi deydi [13].

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning sug‘urta bozori ishtirokchilari moliyaviy barqarorligining ilmiy-nazariy konsepsiyalari va zamonaviy qarashlar tahlil qilar ekanmiz, bugungi kunda sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy mexanizmi stoxastik (tasodifiy) xarakterga ega bo‘lib, uning barqarorligi risklarni baholash, rezervlash va investitsiya siyosatining o‘zaro mutanosibligiga tayanadi. Ushbu sohadagi ilmiy paradigmalar evolyusiyasini tadqiq etishda, eng avvalo, milliy iqtisodiy maktab vakillarining qarashlariga alohida e’tibor qaratish lozim.

O‘zbekistonlik olim H.S. Muhiddinov sug‘urta bozorining moliyaviy mexanizmini iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qiluvchi “generator” sifatida talqin etadi. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligi faqatgina o‘z kapitalining hajmi bilan emas, balki sug‘urta rezervlarining investitsiyaviy jozibadorligi va ularning iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilganlik darajasi bilan belgilanadi[14]. Shu nuqtai nazardan, N.N. Shennaev likvidlikni boshqarish mexanizmini aktivlarning “sifat tarkibi” va “tezkor safarbarligi” (marketability) nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Uning nazariyasiga ko‘ra, sug‘urta kompaniyasining moliyaviy immuniteti aktivlar va majburiyatlarning muddatlilik (duration) bo‘yicha muvofiqligiga asoslanadi.

Ilmiy bahslarda alohida o‘rin tutuvchi X.B. Abdullaevning konsepsiyasida sug‘urta bozorining barqarorligi “milliy sug‘urta sig‘imi” tushunchasi orqali ochib beriladi. Olim ta’kidlaydiki, sug‘urta mexanizmida qayta sug‘urta arxitekturasi kompaniyaning to‘lov qobiliyatini himoya qiluvchi strategik “filtr” vazifasini o‘taydi. X.B. Abdullaevning fikricha, risklarni xalqaro bozorlarga o‘tkazishda mahalliy sug‘urtalovchilarning “riskni ushlab qolish” (retention) darajasi kapitalning mamlakatdan asossiz chiqib ketishini nazorat qiluvchi va ichki moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy dastakdir[15].

Rossiya va MDH iqtisodiy maktablarida sug‘urta mexanizmi funksional yondashuv asosida tadqiq etiladi. V.V. Shaxov sug‘urtani “risklarni ijtimoiy va hududiy taqsimlash tizimi” sifatida ta’riflab, moliyaviy barqarorlikning asosiy omili sifatida sug‘urta portfelining diversifikatsiyasini ko‘rsatadi[16]. Olim L.I. Orlanyuk-Maliskaya esa sug‘urtalovchining moliyaviy holatini “dinamik muvozanati” konsepsiyasi orqali yoritadi. Uning nazariyasiga ko‘ra, stoxastik muhitda barqarorlikka erishish uchun kompaniya “ehtiyotkorlik” (prudential) tamoyili asosida texnik rezervlarni shakllantirishi va kutilmagan zararlar (IBNR) uchun yetarlicha kapital zahirasiga

ega bo‘lishi shart[17].

Global miqyosda, G‘arb (Evropa va AQSh) iqtisodchilari e’tiborini matematik risk-menejment va ALM (Asset Liability Management) modellariga qaratganlar. Nobel mukofoti laureati Garri Markovisning portfel nazariyasi sug‘urta kompaniyalari uchun investitsiya risklarini minimallashtirishning metodologik asosi bo‘ldi[18]. Zamonaviy g‘arb olimlari, jumladan Dj. Dikson, sug‘urta mexanizmini “to‘lov qobiliyatining uch ustuni” (Solvency II) doirasida ko‘rib chiqadi. Unga ko‘ra, birinchi ustun — miqdoriy talablar (rezerv va kapital), ikkinchi ustun — nazorat jarayoni, uchinchi ustun esa bozor intizomi va shaffoflikdir. Bu yondashuv sug‘urta kompaniyasini faqat moliyaviy emas, balki axborot va boshqaruv tizimi sifatida ham tahlil qiladi[19].

Osiyo iqtisodiy maktabi, xususan yapon tadqiqotchisi K. Kato, sug‘urta mexanizmini takomillashtirishda “bank-sug‘urta integratsiyasi” (Bancassurance) va tizimli risklarni boshqarishda davlatning makroprudensial rolini birinchi planga chiqaradi. Uning qarashlarida sug‘urta bozorining barqarorligi moliyaviy konglomeratlarning likvidlik zanjiridagi ishtiroki orqali ta’minlanadi[20].

Yuqorida tahlil etilgan nazariy yondashuvlar, shuningdek, sug‘urta sohasidagi ilg‘or xalqaro tajriba O‘zbekiston sug‘urta bozorining moliyaviy mexanizmini kompleks baholash uchun mustahkam uslubiy asosni shakllantiradi. Mazkur konsepsiyalar sug‘urta tashkilotlarining to‘lovga layoqatliligi, kapital yetarliligi, risklarni boshqarish samaradorligi hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu nazariy asoslarni amaliyot bilan qiyosiy o‘rganish mahalliy sug‘urta bozorining rivojlanish darajasi va institutsional imkoniyatlarini xolis baholash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, amaliy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalliy sug‘urta bozori ishtirokchilarining moliyaviy barqarorligi hozirgi bosqichda qator tizimli muammolar va moliyaviy nomutanosibliklar bilan tavsiflanadi. Xususan, sug‘urta bozorida risklarni diversifikatsiya qilish darajasining pastligi, ayrim sug‘urta turlariga yuqori darajada bog‘liqlik, moliyaviy rezervlar va qayta sug‘urtalash mexanizmlarining cheklangan imkoniyatlari sug‘urta tashkilotlarining uzoq muddatli barqaror faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu holat sug‘urta bozorining iqtisodiyotdagi barqarorlashtiruvchi va investitsion funksiyalarini to‘liq amalga oshirishini cheklaydi.

Shu nuqtai nazardan, quyida O‘zbekiston sug‘urta bozorining hozirgi holati, unda mavjud risk omillari hamda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari ilmiy-statistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bunda sug‘urta mukofotlari va to‘lovlar dinamikasi, bozor tuzilmasi, rezervlar shakllanishi hamda qayta sug‘urtalash amaliyoti kabi asosiy indikatorlar orqali sug‘urta bozorining real moliyaviy holati baholanadi. Mazkur tahlil natijalari keyingi bosqichda sug‘urta bozorining moliyaviy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflarni asoslashga xizmat qiladi.

Iqtisodchi olimlar H.S. Muhiddinov va X.B. Abdullaevlar tomonidan ilgari surilgan “sug‘urta sig‘imi” va “investitsiyaviy jozibadorlik” mezonlari asosida mamlakatimiz sug‘urta bozorini tahlil qilsak. Xususan, so‘nggi yillarda jadal o‘sish sur’atlari kuzatilayotganiga qaramay, moliyaviy mexanizmning samaradorligi hali ham past darajada qolmoqda.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, sug‘urta mukofotlari hajmi 5 yil ichida deyarli 5 barobarga oshgan. Ammo sug‘urta to‘lovlarining o‘sish sur’ati (Loss Ratio) mukofotlarga nisbatan tezroq yuqorilayotgani kuzatilmoqda (32,7% dan 48,6% gacha). Bu holat sug‘urta kompaniyalarining likvidlik xavfini oshiradi va aktivlarni boshqarishda (ALM) yanada ehtiyotkorlikni talab etadi.

Shu o‘rinda quyidagilarni tizimli muammolar sifatida ko‘rsatish mumkin:

1. Investitsiyaviy portfel diversifikatsiyasining pastligi: Sug‘urtalovchilar aktivlarining qariyb 45-50 foizi bank depozitlariga yo‘naltirilgan[22]. Bu Garri Markovisning portfel nazariyasiga zid bo‘lib, kompaniyalarni bank tizimidagi risklarga bog‘lab qo‘ymoqda.

2. Qayta sug‘urta sohasidagi “risk eksporti”: Mahalliy sug‘urta sig‘imining pastligi sababli, yirik sanoat va aviatsiya risklarining

70 foizdan ortig‘i xorijiy sug‘urta bozorlariga (Lloyd’s, Swiss Re va boshqalar) qayta sug‘urtaga berilmoqda[23]. Bu esa

O‘zbekiston sug‘urta bozori asosiy ko‘rsatkichlarining o‘sish dinamikasi va samaradorlik tahlili (2020-2024 yy.) [21]. (1-jadval)

Ko‘rsatkichlar nomi	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.* *(prognoz)*	2024/2020 *o‘zgarishi (%)*
Sug‘urta mukofotlari, *(mlrd. so‘m)*	2 201,1	3 714,6	6 225,4	8 132,0	**10 500,0**	+477%
Sug‘urta to‘lovlari, *(mlrd. so‘m)*	721,4	1 201,3	2 541,0	3 850,2	**5 100,0**	+706%
Sug‘urta zaxiralari, *(mlrd. so‘m)*	3 450,5	5 120,8	8 430,2	11 200,5	**14 300,0**	+414%
Zararlilik darajasi *(Loss Ratio), %*	32,7	32,3	40,8	47,3	**48,6**	+15,9 p.p.
Bozorning yalpi sug‘urta sig‘imi	O‘rta	O‘rta	Yuqori	Yuqori	**Strategik**	-

X.B. Abdullaev ta’kidlaganidek, kapitalning mamlakatdan chiqib ketishiga va milliy sug‘urta mexanizmining zaiflashishiga olib keladi.

3. Aktuar hisob-kitoblarning yetarli emasligi: Stoxastik tizim bo‘lgan sug‘urtada zaxiralarni shakllantirish hali ham an’anaviy metodlarga tayanadi. MHXS 17 standarti bo‘yicha kutilayotgan zararlarni (Expected Credit Loss) baholash mexanizmi to‘liq joriy etilmagan.

Mazkur muammolarni tahlil qilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan ilmiy asoslangan, tizimli va dalillarga tayangan yondashuv tamoyillariga tayanish maqsadga muvofiq hisoblanadi, zero jamiyat va davlat rivojiga to‘sqinlik qilayotgan murakkab ijtimoiy-huquqiy masalalarni hal etish faqat umumiy mulohazalar emas, balki chuqur tahlil, xolis baholash va ilmiy xulosalarga asoslangan qarorlarni talab qiladi[24]. Bularga:

Birinchidan, ALM (aktiv–majburiyatlarni boshqarish) mexanizmi: duration va gap-analysis orqali sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta’minlash

Bunda statistik ko‘rsatkichlar (foyda, premiya, zararlar dinamikasi) sug‘urta kompaniyasining barqarorligini umumiy tavsiflasa-da, moliyaviy “yashab qolish” mezoni faqat rentabellikka emas, balki pul oqimlarining vaqt bo‘yicha mutanosibligiga ham bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, sug‘urta tashkilotlari uchun ALM (Asset–Liability Management)ning markaziy vazifasi — aktivlardan keladigan pul oqimlari muddatlarini sug‘urta majburiyatlari (ayniqsa uzoq muddatli shartnomalar) to‘lov muddatlari bilan muvofiqlashtirishdan iborat. Bunda duration yondashuvi orqali “muddatlar nomutanosibligi” (mismatch) riski matematik ifodaga ega bo‘ladi: duration gap (DGAP) aktivlar o‘rtacha muddati (DA) va majburiyatlar o‘rtacha muddati (DL) o‘rtasidagi farq sifatida hisoblanib, foiz stavkalari o‘zgarishi sharoitida kapital qiymati (EVE)ga ta’sirni baholash imkonini

beradi[25].

O‘zbekiston sug‘urta bozori misolida ALM tahlilining amaliy ahamiyati shundaki, milliy sug‘urta kompaniyalari investitsiya portfelida bank depozitlari ulushi juda yuqori bo‘lib, bu ko‘p hollarda aktivlarning qisqa muddatliligini kuchaytiradi; masalan, Jahon banki hisobotida sug‘urta kompaniyalari investitsiyalarining asosiy qismi bank depozitlariga (51,8%) yo‘naltirilgani qayd etilgan[26]. Ushbu tuzilma uzoq muddatli sug‘urta majburiyatlarini qoplashda “muddatlar nomutanosibligi” riskni oshiradi va natijada likvidlik/refinanslash ehtiyoji ortishi, aktivlarni majburiy ravishda qayta joylashtirish xarajatlari, bozor kon’yunkturasiga qaramlik kabi moliyaviy beqarorlik omillarini kuchaytiradi. Shuning uchun paragrafda O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari kesimida DA va DL hisob-kitobi, DGAPni aniqlash hamda foiz stavkalari shoklari sharoitida EVE sezgirligini baholash (stress-test)ni ilmiy vazifa sifatida qo‘yish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, sug‘urta majburiyatlarini baholashda an’anaviy rezervlash usullaridan kelajak pul oqimlarining joriy qiymatiga asoslangan fulfilment cash flows modeliga o‘tish orqali rezervlar haqiqiy iqtisodiy qiymatini aks ettirish va kapitalga bosimni oldindan baholash zarur.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish sharoitida sug‘urta majburiyatlarini baholash konsepsiyasi tubdan o‘zgaradi. MHXS 17da sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlar tarkibida kelajak pul oqimlarining joriy qiymati (present value of future cash flows), riskga tuzatish

(risk adjustment) va kontrakt xizmat marjasi (contractual service margin) alohida komponentlar sifatida ko‘rsatilishi talab etiladi[27]. Bu yondashuv an’anaviy rezervlar (masalan, hisob-qoidalarga asoslangan premiya/zarar rezervlari)ga nisbatan hisob-kitobning iqtisodiy mazmunini oshiradi, biroq ayni paytda kompaniya balansining volatilligini kuchaytirishi mumkin.

Ushbu paragrafda ilmiy tanqid nuqtai nazaridan quyidagi tezis asoslanadi: MHXS 17ning “fulfilment cash flows” modeliga o‘tish natijasida diskontlash, risk marjasi va kelajak xizmat natijasini balansda ajratib ko‘rsatish orqali rezervlar miqdori oshishi yoki kapital (o‘z mablag‘lari) bosim ostida qolishi ehtimoli yuzaga keladi. MHXS 17 ta’sir tahlilida ayrim holatlarda kelajak pul oqimlari bahosidagi o‘zgarishlar va riskga tuzatishning kelajak xizmatga tegishli qismi CSM orqali “yumshatilishi”, boshqa rejimlarda esa foyda/zararga tezroq o‘tishi kompaniya kapitali dinamikasiga turlicha ta’sir qilishi qayd etiladi[28]. Demak, O‘zbekiston sug‘urta bozorida MHXS 17ni joriy qilishni baholashda “an’anaviy rezervlash” va PV of cash flows + risk adjustment + CSM konsepsiyasi o‘rtasidagi farqlar modellashtirilgan ssenariylar asosida (masalan, diskont stavkasi, zararlar dispersiyasi, portfel uzoq muddatliligi) kapital yetarliligiga ta’sir nuqtai nazaridan yoritilishi lozim.

Uchinchidan, qayta sug‘urta to‘lovlari orqali valyuta oqimlarining chiqib ketishini kamaytirish va katastrofik risklar bo‘yicha to‘lov qobiliyatini mustahkamlash uchun milliy qayta sug‘urta puli modelini joriy etish, pul doirasida risklarni diversifikatsiya qilish va faqat yuqori qatlam risklarni tashqi qayta sug‘urtaga chiqarish maqsadga muvofiq.

Bunda statistik tahlilda aniqlangan “risk eksporti” (katta risklarni tashqi qayta sug‘urtaga chiqarish) muammosi milliy moliyaviy barqarorlik uchun ikki yo‘nalishda salbiy oqibat keltiradi: a) katta hajmda qayta sug‘urta to‘lovlari orqali valyuta oqimlari chiqib ketishi; b) katastrofik risklar bo‘yicha to‘lov qobiliyati “tashqi bozor” shartlariga bog‘lanib qolishi. Jahon banki O‘zbekistonda ofat (disaster) sug‘urtasi kontekstida “markazlashgan milliy pul (national pool)”ni davlat–xususiy sheriklik shaklida ko‘rib chiqishni tavsiya qiladi[29]. Shu manbada bozorda katastrofik qayta sug‘urta qoplamalari kam qo‘llanishi, ayrim kompaniyalarda risk akkumulyatsiyalari yetarlicha monitoring qilinmasligi ham qayd etiladi[30].

Shunga muvofiq, dissertatsiya paragrifi doirasida “milliy qayta sug‘urta puli” konsepsiyasi quyidagi moliyaviy mexanizmga tayanilgan holda taklif etilishi mumkin: 1) pul ishtirokchilari (sug‘urtachilar) uchun majburiy/ixtiyoriy kvota; 2) risklarni qatlamlar bo‘yicha taqsimlash (retention → pool layer → tashqi reinsurance); 3) kapitallashtirish manbalari (qatnashchilar badali, investitsiya daromadlari, ehtiyot fondi); 4) katastrofik ssenariylar uchun tezkor to‘lov protokoli. Bu yerda ilmiy yangilik sifatida retention darajasini oshirish orqali milliy valyuta oqimlariga ta’sirni hisoblash (masalan, tashqi qayta sug‘urta

premiyalari qisqarishi natijasida valyuta chiqimi kamayishi) va riskni mamlakat ichida ushlab qolishning kapital talabiga ta’sirini modellashtirish vazifalari qo‘yiladi.

To‘rtinchidan, sug‘urta kompaniyasi kapitali yetarliligini uning real risk profiliga mutanosib ravishda baholash uchun anderayting, bozor, kredit va operatsion risklarni alohida hisobga oluvchi Risk-Based Capital modeliga o‘tish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston amaliyotida to‘lov qobiliyati va kapital talablari ko‘p hollarda soddalashtirilgan me’yorlarga tayanadi; Jahon banki hisobotida nolayf segmenti uchun standart solventlik marjasi bir nechta “sodda” hisoblash usullaridan eng kattasi asosida belgilanishi (minimal kapital, premiyaga asoslangan hisob, yoki talablar/da’volarga asoslangan hisob) qayd etilgan[31]. Bu yondashuv (Solvency I logikasi) risklarning tarkibiy tabiatini (bozor, kredit, operatsion, anderayting) yetarlicha differensiatsiya qilmasligi mumkin.

Shu bois dissertatsiya paragrifi doirasida RBC (Solvency II uslubi)ga o‘tishning ilmiy-metodik modeli taklif etiladi: sug‘urta kompaniyasiga xos risklar anderayting riski, bozor riski, kredit/kontragent riski va operatsion risk kabi modullarga ajratilib, har biri uchun alohida kapital talabi (koeffitsient/shok-ssenariy) hisoblanadi; keyin korrelyatsiya matritsasi asosida agregat SCR hosil qilinadi. Solvency II delegat reglamentida standart formula doirasida risk modullari va submodullari (jumladan, kontragent defolt riski, anderayting risk modullari va h.k.) bo‘yicha alohida bo‘limlar/moddalarda detallashtirilgani RBC me’yoriy arxitekturasining tarkibiy-huquqiy asosini ko‘rsatadi[32].

Natijada, tadqiqot doirasida aniqlangan soddalashtirilgan solventlik modelining cheklovlarini bartaraf etish maqsadida sug‘urta kompaniyalari kapitali yetarliligini baholashda Risk-Based Capital (RBC) modeliga asoslangan modulli hisob-kitob yondashuvini joriy etish taklif etiladi. Bunda O‘zbekiston sug‘urta bozorida investitsiya portfelining bank depozitlariga yuqori darajada bog‘langanligi hisobga olinib, kapital talablarini aniqlash jarayonida bozor va likvidlik risklari uchun oshirilgan og‘irlik koeffitsientlarini qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Beshinchidan, Big Data va sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan prognozlash (predictive analytics) vositalarini qo‘llash orqali sug‘urta to‘lovlari (claims)ning ehtimoliy hajmi va vaqt profilini aniqroq bashorat qilish, shu asosda likvidlik buferlarini optimallashtirish va to‘lov qobiliyati barqarorligini ta’minlash maqsadga muvofiq.

Bunda zamonaviy InsurTech yechimlari (Big Data Analytics, AI/ML) sug‘urta kompaniyalariga riskni baholash, anderayting va da’volarni boshqarish jarayonlarida yangi sifat bosqichini beradi. IAIS masalalar hujjatida katta ma’lumotlar tahlili sug‘urta qiymat zanjirida (product design → underwriting/pricing → claims handling) qo‘llanilishi, bu orqali aniqroq baholash, operatsion samaradorlik, frodni aniqlash, ayrim hollarda da’volar sonini kamaytirish kabi ijobiy natijalar qayd etilgan[33]. OECD hisobotida ham AI/ML qo‘llanilishi sug‘urta kompaniyalarining riskni baholash va to‘g‘ri narxlash qobiliyatini oshirishi, tashqi ma’lumot manbalarini integratsiya qilish orqali anderayting qarorlarini takomillashtirishi ta’kidlanadi[34].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, sug‘urta kompaniyalari moliyaviy mexanizmini takomillashtirishda risklarni baholashning stoxastik modellariga o‘tish hamda Risk-Based Capital (RBC) tizimini joriy etish sug‘urta bozori ishtirokchilarining kapital yetarliligi va to‘lov qobiliyatini risklar profiliga mutanosib ravishda boshqarish imkoniyatini yaratadi. Mazkur yondashuv sug‘urta kompaniyalarining faoliyatini xalqaro moliyaviy hisobot va nazorat standartlariga yaqinlashtirish orqali ularning jahon sug‘urta bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, taklif etilayotgan milliy qayta sug‘urta pulini tashkil etish hamda aktiv–majburiyatlarni boshqarish (ALM) mexanizmlarini amaliyotga joriy etish sug‘urta kompaniyalarining likvidligini mustahkamlash, risklarni diversifikatsiya qilish va tashqi qayta sug‘urtaga ortiqcha bog‘liqlikni kamaytirish imkonini beradi. Natijada, milliy sug‘urta bozorida moliyaviy resurslarning samarali jamlanishi va uzoq muddatli investitsiyalarga yo‘naltirilishi uchun institutsional sharoit yaratiladi.

Ushbu chora-tadbirlar majmui sug‘urta xizmatlari bozorining moliyaviy barqarorligini sifat jihatidan yangi bosqichga

olib chiqib, uni milliy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega investitsiyaviy vositachilardan biri sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1) Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 24.01.2020 y. // [Elektron manba]: www.press-service.uz.
2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. Reestr raqami: 07/19/4412/3505.
3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 oktyabrdagi "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5265-son qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. Reestr raqami: 07/21/5265/0986.
4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. Reestr raqami: 07/20/4611/0192.
5) Muhiddinov H.S. Sug'urta bozori: rivojlanish qonuniyatlari va istiqbollari. – T.: Moliya, 2018. – 210 b.
6) Qobilov Sh.R. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish: Iqtisod fan. dok. diss. – T.: TDIU, 2020.
7) Shennaev N.N. Sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmi. Monografiya. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019 y. – 186 b.
8) Abdullaev X.B. Milliy sug'urta bozorini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari. – T.: Akademiya, 2021 y. 89-bet.
9) Shaxov V.V. Straxovanie: Uchebnik dlya vuzov. – M.: YuNITI, 2017. – 311 s.
10) Orlanyuk-Maliskaya L.I. Platejesposobnost straxovoy organizatsii. – M.: Ankil, 2015. – 152 s.
11) Markowitz H. Portfolio Selection // The Journal of Finance, Vol. 7, No. 1. – 1952. – pp. 77-91.
12) Dickson D.C.M. Insurance Risk and Ruin. – Cambridge University Press, 2016. – 320 p.
13) Kato K. Bancassurance in Asia: Evolution and Issues // Journal of Risk Management, 2018 y. pp. 55-60.
14) Shennaev N.N. Sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmi. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019. – 72-b.
15) Abdullaev X.B. Milliy sug'urta bozorini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari. – T.: Akademiya, 2021. – 88-89 bb.
16) Shaxov V.V. Straxovanie: Uchebnik dlya vuzov. – M.: YuNITI, 2017. – 112 s.
17) Orlanyuk-Maliskaya L.I. Platejesposobnost straxovoy organizatsii. – M.: Ankil, 2015. – 34 s.
18) Markowitz H. Portfolio Selection // The Journal of Finance, Vol. 7, No. 1. – 1952. – pp. 77-91.
19) Dickson D.C.M. Insurance Risk and Ruin. – Cambridge University Press, 2016. – 105 p.
20)Kato K. Bancassurance in Asia: Evolution and Issues // Journal of Risk Management, 2018. – No. 4.
21) 2024 yil ko'rsatkichlari joriy yilning to'qqiz oylik statistik tendensiyalari asosida muallif tomonidan prognoz qilingan.
22)Abdullaev X.B. Milliy sug'urta bozorini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari. – T.: Akademiya, 2021. – 95-b.
23)"Sug'urta sharhi" ilmiy-amaliy jurnali ma'lumotlari asosida shakllantirildi. 2024. №2.
24)Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

mamlakatni 2017 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. — Toshkent, 2017. — lex.uz.
25)Thierry Roncalli, Financial Risk Management (Lecture 7): Asset Liability Management, “Duration gap risk” qismi: duration gap formulasi va EVE sezgirligi 61–65-betlar // https://www.researchgate.net/publication/345309670
26)World Bank, Disaster Property Insurance in Uzbekistan: Overview and Recommendations, sug‘urta kompaniyalari investitsiyalarida bank depozitlari (51.8%) va qimmatli qog‘ozlar (35.2%) ulushi haqida 19-bet // https://documents1.worldbank.org/
27)IFRS Foundation, IFRS 17 Effects Analysis (May 2017), sug‘urta shartnomalari majburiyatlari komponentlari: PV of future cash flows, risk adjustment va CSM 41–42-betlar // https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/project-/insurance-contracts/ifrs-standard/ifrs-17-effects-analysis.pdf
28)World Bank, Disaster Property Insurance in Uzbekistan: Overview and Recommendations, markazlashgan milliy pul (national pool) tashkil etish tavsiyasi 8-bet.
29)https://documents1.worldbank.org/curated/en/617231591599422910/pdf/Disaster-Property Insurance-in-Uzbekistan-Overview-and-Recommendations.-pdf
30)World Bank, Disaster Property Insurance in Uzbekistan: Overview and Recommendations, qayta sug‘urta qoplamalari cheklanganligi va risk akkumulyatsiyalari monitoringi muammolari 19-bet.
31) World Bank, Disaster Property Insurance in Uzbekistan: Overview and Recommendations, amaldagi kapital/solventlik marjasi “eng katta uchta hisobdan biri” usulida belgilanishi 19-bet // https://documents1.-worldbank.org/curated/en/617231591599422910/pdf-/Disaster-Property-Insurance-in-Uzbekistan-Overview-and-Recommendations.pdf
32)Commission Delegated Regulation (EU) 2015/35, standart formula doirasida risk modullari/submodullari bo‘yicha bo‘limlar (113–115-moddalari) // https://www.eiopa.-europa.eu
33)IAIS, Issues Paper on Use of Big Data Analytics in Insurance (Final), BDA orqali underwriting, pricing, claims, fraud detection va samaradorlikka ta’sir 3-bet // https://www.iais.org/uploads/2022/01/200319-Issues-Paper-on-Use-of-Big-Data-Analytics-in-Insurance-FINAL.pdf
34)OECD, Leveraging technology in insurance to enhance risk assessment and policyholder risk reduction (2023), AI/ML orqali risk baholash, anderayting va narxlashni takomillashtirish 3-bet // https://www.oecd.org

Inagamdjanovna Zumratxon Fatxullayevna,
Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor

PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARINI QO‘LLASHDA SUD NAZORATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Mazkur maqolada protsessual majburlov choralarini qo‘llashda sud nazoratining nazariy-huquqiy asoslari, amaldagi qonunchilikdagi mavjud muammolar hamda ularni takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan. Xususan, ehtiyot choralarini qo‘llash jarayonida inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, sud tomonidan protsessual qarorlarning asoslanganligini tekshirish mexanizmlari, sud nazoratining mustaqilligi va samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi asosida sud nazoratini raqamlashtirish, protsessual muddatlarni optimallashtirish hamda himoya institutining rolini kuchaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sud nazorati, protsessual majburlov choralari, ehtiyot chorasi, qamoqqa olish, jinoyat protsessi, inson huquqlari, protsessual kafolatlar, sud mustaqilligi, advokat himoyasi, qonuniylik.

В данной статье анализируются теоретико-правовые основы судебного контроля при применении мер процессуального принуждения, существующие проблемы в действующем законодательстве и перспективы их совершенствования. В частности, освещены вопросы обеспечения прав и свобод человека в процессе применения мер пресечения, механизмы проверки судом обоснованности процессуальных решений, повышения независимости и эффективности судебного контроля. Также на основе опыта зарубежных стран разработаны предложения, направленные на цифровизацию судебного контроля, оптимизацию процессуальных сроков и усиление роли института защиты.

Ключевые слова: судебный контроль, меры процессуального принуждения, мера пресечения, заключение под стражу, уголовный процесс, права человека, процессуальные гарантии, независимость суда, защита адвоката, законность.

This article analyzes the theoretical and legal foundations of judicial control in the application of procedural coercive measures, existing problems in current legislation, and prospects for their improvement. In particular, issues of ensuring human rights and freedoms in the process of applying preventive measures, mechanisms for verifying the validity of procedural decisions by the court, and increasing the independence and effectiveness of judicial control are highlighted. Additionally, based on the experience of foreign countries, proposals have been developed aimed at digitalizing judicial control, optimizing procedural deadlines, and strengthening the role of the institution of defense.

Keywords: judicial supervision, measures of procedural coercion, preventive measure, detention, criminal process, human rights, procedural guarantees, judicial independence, legal protection, legality.



Huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, jinoyat protsessida qo‘llaniladigan protsessual majburlov choralarining qonuniyligi va asoslanganligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur choralar shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari, jumladan erkin harakatlanish, shaxsiy daxlsizlik va odil sudlov huquqlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda jinoyat-protsessual qonunchiligini liberallashtirish, sud-huquq tizimini demokratlashtirish va “habeas corpus” institutini keng joriy etish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, protsessual majburlov choralarini qo‘llash ustidan sud nazoratining samaradorligini oshirishga oid ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, sud tomonidan tergov organlari iltimosnomalarini formal tarzda ko‘rib chiqish, himoya tarafining imkoniyatlari yetarli darajada ta’minlanmasligi hamda protsessual tenglik tamoyilining ayrim hollarda buzilishi amaliyotda uchramoqda.

Mazkur holatlar protsessual majburlov choralarini qo‘llashda sud nazoratining huquqiy mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Maqolaning maqsadi protsessual majburlov choralarini qo‘llashda sud nazoratining samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish hamda ushbu sohadagi qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Jinoyat protsessida protsessual majburlov choralari jinoyat ishini qonuniy, har tomonlama, to‘liq va xolisona yuritishni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim protsessual institut hisoblanadi. Mazkur choralar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki boshqa protsess ishtirokchilarining tergov va suddan bo‘yin tovlashining oldini olish, dalillarni yo‘q qilish yoki protsessga noqonuniy ta’sir ko‘rsatish xavfini bartaraf etish, shuningdek sud qarorlarining ijrosini ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida protsessual majburlov choralarini qo‘llash faqat qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda va belgilangan protsessual tartibga qat’iy rioya qilingan holda amalga oshirilishi belgilangan [1].

Protsessual majburlov choralarining huquqiy tabiati ularning shaxs huquq va erkinliklariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi bilan izohlanadi. Xususan, ushlab turish, qamoqqa olish, uy qamog‘i, garov, munosib xulq-atvor to‘g‘risida tilxat kabi choralar shaxsning erkin harakatlanish, shaxsiy daxlsizlik, mudofaa huquqi va odil sudlovdan foydalanish huquqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli mazkur choralarni qo‘llashda qonuniylik, asoslanganlik, zaruriyat va mutanosiblik mezonlariga alohida e’tibor qaratilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgani mazkur institutni qo‘llashda sud nazoratining alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi [2].

Sud nazorati jinoyat protsessida inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning muhim kafolati sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asosiy vazifasi surishtiruv va tergov organlari tomonidan kiritilgan iltimosnomalar, qabul qilingan qarorlar hamda amalga oshirilgan protsessual harakatlarning qonuniyligi va asoslanganligini mustaqil sud hokimiyati orqali tekshirishdan iborat. Ayniqsa, shaxs erkinligini cheklash bilan bog‘liq choralarni qo‘llashda sud nazorati formal tasdiqlash vositasi emas, balki huquqiy himoya mexanizmi sifatida faol ishlashi kerak. Bu yondashuv Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasining 5-moddasida mustahkamlangan shaxs erkinligi va xavfsizligi huquqi mazmuniga ham mos keladi [3].

Amaliy jihatdan sud nazoratining samaradorligi sud tomonidan taqdim etilgan materiallarning real baholanishi, tergov organi keltirgan dalillar yetarliligining tekshirilishi, himoya tarafining vajlari tinglanishi hamda qo‘llanilayotgan majburlov chorasi maqsadga muvofiq va mutanosib ekanligi asoslantirilishi bilan belgilanadi. Agar sud nazorati faqat tergov organi iltimosnomasini tasdiqlash bilan cheklanib qolsa, u o‘zining konstitutsiyaviy-huquqiy mazmunini yo‘qotadi. Shu bois sud har bir ish bo‘yicha shaxsni qamoqqa olish yoki boshqa majburlov chorasini qo‘llash zarurati mavjudligini individual yondashuv asosida baholashi lozim.

Mazkur sohada mavjud muammolardan biri ayrim hollarda sud qarorlarining

yetarli darajada motivatsiyalanmasligidir. Protsessual majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarda shaxsning tergovdan yashirinish ehtimoli, jinoyat ishiga ta’sir ko‘rsatish xavfi, yangi jinoyat sodir etish ehtimoli yoki sud qarori ijrosiga to‘sqinlik qilish holatlari aniq dalillar bilan asoslantirilishi kerak. Umumiy va shablon mazmundagi asoslantirishlar sud nazoratining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi hamda shaxs huquqlarini cheklashda mutanosiblik prinsipining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Yana bir muhim masala himoya tarafining protsessual imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liqdir. Advokatning iltimosnoma materiallari bilan o‘z vaqtida tanishishi, dalillarni taqdim etishi, muqobil ehtiyot choralarini taklif qilishi va sud majlisida o‘z pozitsiyasini erkin bayon etishi sud nazoratining haqiqiy tortishuv tamoyili asosida amalga oshirilishini ta’minlaydi. Bu borada “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro paktning 9-moddasida nazarda tutilgan shaxsni noqonuniy hibsga olish yoki qamoqda saqlashdan himoya qilish kafolatlari muhim xalqaro-huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, sud nazoratining samaradorligi avvalo qamoqqa olish chorasi istisno chorasi sifatida qo‘llanishi bilan bog‘liq. Masalan, Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksida qamoqqa olish uchun aniq protsessual asoslar, jumladan shaxsning yashirinish xavfi, dalillarga ta’sir ko‘rsatish ehtimoli yoki jinoyat ishini yuritishga to‘sqinlik qilish holatlari mavjud bo‘lishi talab etiladi [5]. Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksida esa tergov sudyasi va erkinliklar hamda qamoqqa olish masalalari bo‘yicha sudya institutlari orqali shaxs erkinligini cheklash ustidan sud nazorati amalga oshiriladi [6]. Bu tajriba sud nazoratining institutsional jihatdan mustaqil va protsessual jihatdan asoslangan bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

AQSH huquqiy tizimida esa “habeas corpus” instituti shaxsni noqonuniy ushlab turish yoki qamoqda saqlashga qarshi muhim sud-huquqiy kafolat sifatida shakllangan. Mazkur institutning tarixiy-huquqiy asoslari shaxs erkinligini davlat hokimiyati organlarining asossiz aralashuvidan himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuv zamonaviy jinoyat protsessida sud nazoratining mazmunini chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega [7].

Protsessual majburlov choralarini qo‘llashda sud nazoratining samaradorligini oshirish uchun qamoqqa olishni eng so‘nggi chora sifatida qo‘llash, muqobil ehtiyot choralaridan keng foydalanish, sud qarorlarini asoslantirish standartlarini kuchaytirish, himoya tarafining protsessual huquqlarini real ta’minlash hamda elektron protsessual nazorat mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda BMTning Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan choralar bo‘yicha minimal standart qoidalari — “Tokio qoidalari” alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan choralarni kengroq qo‘llash va shaxsga nisbatan eng kam cheklovchi yondashuvni tanlash zarurligi belgilangan [8].

Shunday qilib, protsessual majburlov choralarini qo‘llashda sud nazorati jinoyat protsessining insonparvarlik, qonuniylik, tortishuv va adolat prinsiplarini ta’minlovchi muhim huquqiy mexanizmdir. Uning samaradorligini oshirish nafaqat qonunchilik normalarini takomillashtirish, balki sud amaliyotida individual yondashuv, chuqur daliliy tahlil, qarorlarning asoslantirilishi va inson huquqlariga ustuvor munosabatni shakllantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Protsessual majburlov choralarini qo‘llashda sud nazorati jinoyat protsessida inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning muhim kafolati hisoblanadi. Sud nazoratining samaradorligi nafaqat protsessual qonuniylikni ta’minlash, balki fuqarolarning sud hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda ham muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaldagi tizimda protsessual majburlov choralarini qo‘llash jarayonida formal yondashuv, himoya tarafining imkoniyatlari cheklanganligi hamda muqobil ehtiyot choralarining yetarli darajada qo‘llanilmayotgani kabi muammolar mavjud.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun sud qarorlarining motivatsiyasini kuchaytirish, advokatlarning protsessual huquqlarini kengaytirish, qamoqqa olishni istisno chorasi sifatida qo‘llash, elektron sud nazorati tizimlarini joriy etish hamda sudyalarning malakasini oshirish zarur.

Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasini milliy qonunchilikka moslashtirgan holda

implementatsiya qilish sud nazoratining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Natijada jinoyat protsessida inson huquqlarining ishonchli himoyasi, protsessual adolat va qonun ustuvorligi yanada mustahkamlanadi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 22.09.1994. LexUZ milliy qonunchilik bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. LexUZ milliy qonunchilik bazasi.
3. European Convention on Human Rights. Council of Europe, Rome, 1950.
4. International Covenant on Civil and Political Rights. United Nations General Assembly Resolution 2200A (XXI), 16 December 1966.
5. German Code of Criminal Procedure — Strafprozessordnung, 1877, as amended.
6. French Code of Criminal Procedure — Code de procédure pénale, 1958, as amended.
7. Habeas Corpus Act 1679. England.
8. United Nations Standard Minimum Rules for Non-custodial Measures — The Tokyo Rules. UN General Assembly Resolution 45/110, 14 December 1990.

Хужамбердиева Лобархон Хайдар кизи
Курсант Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

МЕХАНИЗМЫ ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Maqolada voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini xalqaro darajada himoya qilish tizimi inson huquqlari sohasining tarkibiy qismi sifatida tahlil etilgan. Bolalar huquqlarining xalqaro-huquqiy institut sifatida shakllanishi, bu boradagi tarixiy, ijtimoiy va huquqiy asoslar aniqlashtirilgan. 1945 yildan so'ng inson huquqlarini xalqaro miqyosda muhofaza qilish evolyutsiyasining bosqichlari tahlil qilinib, xususan, 1948 yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966 yilgi xalqaro paktlar va ularning bolalar huquqlari bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan. 1980-yillardan keyingi davrda inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarning konkretlashuvi va ixtisoslashuvi jarayonlari tahlil qilinib, bolalarga oid 1989 yilgi Konvensiya, 2000 yilgi Fakultativ protokol va 1993 yilgi Gaaga konvensiyasining mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilishda institutsional mexanizmlarning roli, ularning samaradorligi va takomillashuvi jarayonlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro huquq, inson huquqlari, bolalar huquqlari, konvensiya, deklaratsiya, fakultativ protokol, institutsional mexanizmlar, xalqaro himoya, voyaga yetmaganlar.

В статье проанализирована система международной защиты прав и интересов несовершеннолетних как составная часть области прав человека. Уточнены исторические, социальные и правовые основы формирования международно-правового института прав ребенка. Рассмотрены этапы эволюции международной защиты прав человека после 1945 года, в частности Всеобщая декларация прав человека 1948 года, международные пакты 1966 года и их связь с правами ребенка. Проанализированы процессы конкретизации и специализации международных документов в области прав человека, происходившие с 1980-х годов, а также содержание и значение Конвенции о правах ребенка 1989 года, Факультативного протокола 2000 года и Гаагской конвенции 1993 года. Кроме того, исследована роль институциональных механизмов в международной системе защиты прав человека, их эффективность и процесс совершенствования.

Ключевые слова: международное право, права человека, права ребенка, конвенция, декларация, факультативный протокол, институциональные механизмы, международная защита, несовершеннолетние.

The article analyzes the system of international protection of the rights and interests of minors as an integral part of the field of human rights. The historical, social, and legal foundations of the development of the international legal institution of children's rights are clarified. The stages of the evolution of the international human rights protection system since 1945 are examined, particularly the 1948 Universal Declaration of Human Rights, the 1966 International Covenants, and their connection to children's rights. The processes of specification and specialization of international human rights instruments since the 1980s are analyzed, along with the content and significance of the 1989 Convention on the Rights of the Child, the 2000 Optional Protocol, and the 1993 Hague Convention. Furthermore, the role of institutional mechanisms in the international human rights protection system, their effectiveness, and the process of improvement are studied.

Keywords: International law, human rights, children's rights, convention, declaration, optional protocol, institutional mechanisms, international protection, minors.



Защита прав и интересов несовершеннолетних лиц на сегодняшний день считается одним из самых актуальных и приоритетных направлений в области прав человека. Учитывая стадии их естественного биологического и психологического развития, дети нуждаются в большей социальной защите, заботе и адаптированных правовых механизмах, чем взрослые. Поэтому в современной международно-правовой практике сформирована комплексная система международно-правовых норм, направленных на обеспечение прав несовершеннолетних, которая закреплена соответствующими международными конвенциями, декларациями, факультативными протоколами и другими нормативно-правовыми актами.

Эти правовые механизмы, прежде всего, направлены на создание условий для полноценного и гармоничного развития детей как личностей, защиту их от любой эксплуатации, насилия, дискриминации и угроз. В частности, в Декларации прав ребенка, принятой Генеральной Ассамблеей ООН 20 ноября 1959 года, признано, что дети нуждаются в особой заботе и особой правовой защите в связи с их недостаточным физическим и психическим развитием. На основе этого принципа государства реализуют скоординированные меры как в системе национального законодательства, так и на международном уровне.

Особое место в этом плане занимает Конвенция о правах ребенка, принятая в 1989 году. Конвенция гарантирует права детей на жизнь, развитие, самовыражение, образование, здоровье и защиту от эксплуатации и обязывает государства осуществлять эти права. В то же время Гаагская конвенция о защите детей и сотрудничестве по международному усыновлению от 1993 года также является одной из важных правовых основ, обеспечивающей приоритет интересов ребенка в процессах усыновления на международном уровне и способствующей предотвращению случаев незаконного усыновления.

Также международные правовые обязательства по борьбе с торговлей детьми, детской проституцией и детской порнографией определяются Факультативным протоколом[2], принятым в 2000 году и являющимся дополнением к Конвенции о правах ребенка. Данный документ требует от государств не только принятия решительных мер против этих видов преступлений, но и реабилитации пострадавших детей и оказания им комплексной помощи.

Следует отметить, что защита прав детей рассматривается международным сообществом как один из основных принципов человеческого развития, а принимаемые в этом направлении международно-правовые акты служат приведению внутренней политики и законодательной системы государств в соответствие с международными стандартами.

Начиная с 1945 года процесс защиты прав человека на международном уровне развивался поэтапно, и этот эволюционный процесс включает в себя несколько исторических этапов. Данная классификация разработана профессором С.В. Черниченко, который в своей работе «Теория международного права»[3] систематически осветил основные этапы формирования международно-правовой защиты прав человека.

Эволюция защиты прав человека на международном уровне с 1945 года включает в себя несколько этапов. Данная поэтапность была разработана профессором С.В. Черниченко, который в своем научном труде «Теория международного права» систематически проанализировал процесс формирования международно-правовой защиты прав человека.

В частности, первый этап охватывает период с 1945 года до начала 1980-х годов. Основная особенность этого периода характеризуется накоплением международных стандартов по правам человека и определением их в виде общих принципов. Этот процесс начался с принятия в 1945 году Устава Организации Объединенных Наций. В Уставе ООН особое место отведено принципу уважения прав человека, а в пункте 3 статьи 1 документа одной из основных целей организации определено «осуществление международного сотрудничества в поощрении и развитии уважения прав человека и основных свобод, независимо от расы, пола, языка и вероисповедания.»

Эти принципы создали концептуальную основу защиты прав человека в рамках международного права. Следую-

щим важным шагом на пути системного правового закрепления прав человека на данном этапе является Всеобщая декларация прав человека, принятая Генеральной Ассамблеей ООН в 1948 году[4]. Эта декларация определила перечень основных прав человека, их сущность и содержание. Хотя этот документ по своему содержанию носит необязательный правовой характер, он оказал большое влияние на формирование международного обычного права.

Позже, в 1966 году, Международный пакт о гражданских и политических правах[5] и Международный пакт о социальных, экономических и культурных правах[6] придали правовой статус правам, изложенным в этой декларации. Таким образом, три вышеуказанных основных документа: Декларация 1948 года, два международных пакта 1966 года признаются «Сборником деклараций прав человека» в области прав человека и составляют основу современной международной системы прав человека.

Следующий этап развития на данном этапе характеризуется процессом правового углубления и конкретизации ранее сформированных общих принципов в области прав человека. Особенно одной из основных особенностей этого периода является то, что к 1980-м годам было разработано более 80 международных договоров, охватывающих актуальные направления применения прав человека на международном уровне и специализирующихся в этой области. Это свидетельствует о том, что в международном праве сформирована система основных нормативно-правовых стандартов по защите прав человека. Такой обширный пакет документов создал правовую базу, охватывающую права женщин, детей, национальных меньшинств, инвалидов, беженцев и других социальных групп, нуждающихся в особой защите, от гражданских и политических, социально-экономических и культурных прав. В связи с этим этот этап стал важным поворотным моментом не только в правовом формировании универсальной, региональной и отраслевой нормативной базы по правам человека, но и в их практическом применении и формировании международной системы мониторинга.

Профессор С.В. Черниченко охарактеризовал этот процесс как этап систематизации прав человека на международном уровне, а Л.В. Павлова оценивает его как качественно новый этап в рамках современной эволюции международной защиты прав человека[7].

Мы частично согласны с основными выводами, выдвинутыми в данном подходе. Действительно, к 1980-м годам нормативно-правовая база по защите прав человека на международном уровне значительно развилась. В частности, разработка и принятие множества международных договоров, всесторонне охватывающих права человека, позволили конкретизировать и адаптировать к сфере универсальные принципы в этой области. Это, в свою очередь, послужило формированию системы стандартов, регулирующих права человека в рамках международного права. Следует также отметить, что на данном этапе особое внимание было уделено отраслевым аспектам прав человека - уточнению правового статуса женщин, детей, беженцев, инвалидов, меньшинств и других социальных групп.

Однако мы осторожно подходим к оценке этого периода как позиции, выражающей твердый вывод о том, что «система основных международных стандартов по правам человека полностью сформировалась.» Потому что увеличение количества международных документов не автоматически обеспечивает их практическую результативность и действенность. Универсальность и степень выполнения некоторых конвенций, а также эффективность механизмов мониторинга вызывают определенные вопросы. Кроме того, отсутствие ратификации важных международных документов некоторыми государствами или их принятие с ограничениями также влияет на последовательность и реальный глобальный охват этой системы.

Поэтому, оценивая данный этап как важный исторический этап, послуживший усилению международно-правовой защиты прав человека, мы считаем относительно условным рассматривать его как завершенную, окончательную систему.

На этапе институционального развития интенсивно развивались институциональные меры и механизмы, направ-

ленные на совершенствование системы защиты прав человека на международном уровне. В частности, на системной основе расширена деятельность специальных международных организаций в области прав человека, а также договорных и контрактных надзорных органов. Внедрение в рамках этих институтов таких механизмов, как международный мониторинг, отчетность, экспертная оценка и рассмотрение индивидуальных жалоб, способствовало реальной защите прав человека на международном уровне.

Формирование данной институциональной системы сыграло важную роль в укреплении теоретических и практических основ эффективной защиты прав человека в рамках международного права. Усиление деятельности таких органов, как договорные комитеты ООН по правам человека, Европейский суд по правам человека, Американская комиссия по правам человека, является ярким отражением тенденций развития в этом направлении.

В то же время эта институциональная эволюция не может считаться завершенной. Потому что современные глобальные проблемы, региональные конфликты, осложнение случаев нарушения прав человека требуют постоянного совершенствования существующей системы. Поэтому институциональные основы механизмов защиты прав человека на международном уровне до сих пор находятся на стадии активного развития, и усилия международного сообщества в этом направлении последовательно продолжаются.

Разумеется, ниже я изложу представленный Вами текст в научно-академическом стиле, сглаженно, на официальном языке и сформулирую его вместе с источником:

Система защиты прав детей на международном уровне признается неотъемлемой частью сферы международной защиты прав человека. Поэтому на данное направление полностью распространяются общие принципы защиты прав человека и основные международно-правовые нормы. Однако выделение вопросов прав ребенка в отдельную самостоятельную сферу в международной системе прав человека обусловлено рядом объективных исторических, социальных и биогенетических факторов.

Прежде всего, исторически социальный статус детей часто оценивался ниже прав взрослых, а правовой статус и социальная защита детей во многих случаях оставались без внимания. Поэтому нормативно-правовые механизмы, принятые для укрепления прав детей на международном уровне, в первую очередь направлены на признание их равноправными людьми и обеспечение равных возможностей со взрослыми.

Кроме того, физическая и психическая незрелость детей обуславливает необходимость внедрения отдельных правовых механизмов, служащих для их защиты от социальных неудобств. То есть дети занимают прочное место в международном праве не только как субъект общих прав человека, но и как особая категория с особыми потребностями и возможностями. На этой основе разработаны дополнительные гарантии, специальные механизмы защиты детей и нормы, направленные на их защиту от эксплуатации, насилия и безразличия.

Данный подход нашел свое научно-правовое обоснование в теории и практике международного права, и ведущие исследователи в этой области рассматривают международную защиту прав детей как самостоятельный институт международного права. В частности, по мнению О.М. Старовойтова, международная защита прав детей сформировалась как отдельная правовая система, имеющая свои принципы, нормативные источники и институциональные механизмы[8].

Действительно, международная защита прав детей уже сформировалась как самостоятельный институт в современной системе международного права, обладающий комплексом специфических принципов, нормативных основ и институциональных механизмов. Этот подход обоснован не только теоретически, но и практически, признавая необходимость специального правового подхода к детям.

Ввиду своей физической и психической незрелости дети нуждаются в особых механизмах защиты, чтобы находиться в равных условиях со взрослыми. Это привело к созданию международным сообществом специальных конвенций, протоколов и систем мониторинга, на-

правленных на обеспечение их прав. В этом контексте мы полностью поддерживаем необходимость признания прав детей как неотъемлемой части системы прав человека, основанной на общих принципах, а также в качестве самостоятельного правового института, адаптированного к их потребностям.

В частности, выдвинутое О.М. Старовойтовым мнение о том, что права детей сформировались в международном праве как самостоятельный институт, созвучно нашей точке зрения и непосредственно подтверждается системой правовых норм, характерных для данной сферы, деятельностью специализированных международных органов и содержанием правовых источников.

Таким образом, международно-правовая защита прав детей сформировалась в современной системе международного права как важный и самостоятельный институт, который является не только составной частью общей системы защиты прав человека, но и превратился в специальную сферу со своими нормативными основами, принципами и институциональными механизмами. Начиная с 1945 года международное регулирование прав человека постепенно совершенствовалось, особенно после 1980-х годов конкретизация правовых документов, касающихся данной сферы, создала качественно новый этап в этой области.

Физическая и психологическая незрелость детей, их потребность в защите от эксплуатации и безразличия, а также необходимость достижения социального равенства сделали внедрение специальных международно-правовых механизмов, касающихся этой категории, объективной необходимостью. Полностью поддерживая подход, выдвинутый О.М. Старовойтовым, следует отметить, что международная защита прав детей уже сформировалась как самостоятельный правовой институт не только теоретически, но и практически, эффективно функционируя на основе существующих конвенций, факультативных протоколов, механизмов мониторинга и международного сотрудничества. Таким образом, принимаемые международным сообществом меры по обеспечению прав детей последовательно совершенствуются в соответствии с универсальными принципами современного международного права.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. ГААГСКАЯ КОНВЕНЦИЯ О ЗАЩИТЕ ДЕТЕЙ И СОТРУДНИЧЕСТВЕ В ВОПРОСАХ МЕЖДУНАРОДНОГОУСЫНОВЛЕНИЯ:ДОГОВОРDOC.105-51ИЕЕИМПЛЕМЕНТАЦИОННОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО S. 682 : Комитет по международным отношениям : Бесплатная загрузка, заимствование и потоковое вещание : Архив Интернета

2. Fakultativ protokol Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga bolalar savdosi, bolalar fohishaligi va bolalar pornografiyasiga oid fakultativ protokol. – Nyu-York, 2000 yil 25 may. – [O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 dekabrdagi O‘RQ-188-son Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan]. – // Lex.uz: https://lex.uz/docs/2683911 (murojaat qilingan sana: 22.05.2025).

3. Черниченко С. В. Теория международного права. Т. 2. М., 1999. С. 391—392.

4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrdagi rezolyutsiyasi.

5. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. – Nyu-York, 1966 yil 16 dekabr.

6. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. – Nyu-York, 1966 yil 16 dekabr.

7. Черниченко С. В. Указ. соч. С. 392; Павлова Л. В. Международная защита прав человека и ее эволюция на современном этапе // Белорусский журнал международного права и международных отношений. 1996. № 1. С. 23

8. О.М.Старовойтов. Международная защита прав ребенка как институт международного права. Белорусский журнал международного права и международных отношений 2002 — № 3. // https://evolutio.info/ru/journal-menu/2002-3/2002-3-starovoitov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
2022-yil 25-yanvar kunidagi №1507-sonli guvohnomasi bilan ro‘yxatga olingan

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining
Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Formati 60x84, $^{1}/_{8}$. Segoe UI garniturasi. Shartli bosma tabog‘i 10,8.